



UDK: 612.461.255 (575.1)

*Maftuna ABDUVOHIDOVA,*  
*Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi mutaxassisi*

*Sotsiologiya fanlari bo'yicha (PhD), dotsent X.O.Ziyayeva taqrizi asosida*

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PERSONS WITH DISABILITIES: DISCRIMINATION AND STIGMA

Annotation

As we all know, if we pay attention to the large-scale reforms implemented in our country in recent years, we can see that most of them are directed to the social sphere. In particular, it has been established to support the needy and needy strata of the population and provide them with assistance through the system of state guarantees. At the level of state policy, special attention is paid to issues such as creating decent conditions for people to live happily and happily, ensuring employment and increasing income, reducing unemployment and poverty, and preventing stratification in terms of living conditions and quality.

It should be noted that a social state is a state that provides quality education, qualified medical care, comprehensive support for families, children, women, the elderly, and persons with disabilities, provides housing for the needy, ensures employment, creates safe working conditions, and reduces poverty. is a model. This article analyzes the concept of disability, socio-psychological problems of families raising children with disabilities, and national and international normative legal documents in this regard.

**Key words:** social state, concept of disability, discrimination, stigma, socialization, family, human rights, disability, isolation.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ: ДИСКРИМИНАЦИЯ И СТИГМА

Аннотация

Как мы все знаем, если обратить внимание на масштабные реформы, реализованные в нашей стране в последние годы, то можно увидеть, что большая часть из них направлена на социальную сферу. В частности, он создан для поддержки малообеспеченных и малообеспеченных слоев населения и оказания им помощи через систему государственных гарантий. На уровне государственной политики особое внимание уделяется таким вопросам, как создание достойных условий для счастливой и счастливой жизни людей, обеспечение занятости и увеличения доходов, снижение безработицы и бедности, предотвращение расслоения по условиям и качеству жизни.

Следует отметить, что социальное государство – это государство, обеспечивающее качественное образование, квалифицированную медицинскую помощь, всестороннюю поддержку семьи, детей, женщин, пожилых людей и лиц с ограниченными возможностями, предоставляющее жилье нуждающимся, обеспечивающее занятость, создающее безопасные условия труда. и снижает уровень бедности. В данной статье анализируются понятие инвалидности, социально-психологические проблемы семей, воспитывающих детей с ограниченными возможностями, а также национальные и международные нормативные правовые документы в этой связи.

**Ключевые слова:** социальное государство, концепция инвалидности, дискриминация, стигма, социализация, семья, права человека, инвалидность, изоляция.

## NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI: DISKRIMINATSIYA VA STIGMALAR

Annotatsiya

Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlikni ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan tabaqalanishga yo'l qo'yimaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qayd etish lozimki, ijtimoiy davlat – sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat modelidir. Ushbu maqolada nogironlik tushunchasi, nogironligi bor Bolani tarbiyalayotgan oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va bu boradagi milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy davlat, nogironlik tushunchasi, diskriminatsiya, stigama, ijtimoiylashuv, oila, inson huquqlari, disabilizm, yakkalanish.

**Kirish.** Dunyo aholisining 15% ni nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Shu bois, BMT nogironligi bo'lgan shaxslarni sifatli ta'lim olishdan teng foydalanishdan boshlab, jamiyat hayotida to'liq va teng sharoitlarda ishtirok etishlari zarurligini ilgari surmoqda[1].

O'zbekistonda 1 millionga yaqin nogironligi bo'lgan fuqarolar yashaydilar[2]. Bu o'z navbatida ta'lim muassasalaridagi ta'lim, fan va ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot

jarayonlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni faol ishtirok etishlari uchun zaruriy sharoitlarni hamda to'siqsiz muhitni yaratishni taqozo etmoqda.

“Inson qadri uchun” va “Ijtimoiy davlat” tamoyillari asosida qurilayotgan Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy qilish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zaruriy sharoitlarni va to'siqsiz muhitni yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish" kabi vazifalar belgilangan[3].

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 Oktyabrda Qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi 641-sonli Qonuni nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish, nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'yimaslik, insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi, nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, obyektlar va xizmatlarning qulayligi xamda nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoyalash masalalariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50 va 57 moddasida alohida e'tibor berilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Nogironlik fransuzcha – invalide, lotincha – invalidus ya'ni kuchsiz, zaif va kasal degan ma'nolarni anglatadi. Nogironlikni invalide deb nomlanishi XVIII asrning birinchi yarmida keng qo'llanila boshlagan. Dastlab G'arbiy Yevropaning sotsiologiya va ijtimoiy ishga doir adabiyotlarida nogironlikni janglardagi urushlar, kasallik yoki jarohat tufayli mehnat qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotgan shaxs deb ta'rif berilgan. Xuddi shu ildiz so'zlar German guruhidagi tillarida ham uchraydi: nemischada (Invalide), ispanchada (invalido) so'zlari ham uchraydi [4].

O'zbekistondagi barcha normativ-huquqiy hujjatlarda, o'quv-uslubiy adabiyotlarda, ilmiy va adabiy adabiyotlarda tug'ma yoki orttirilgan jismoniy imkoniyati cheklanganlik dastlab, 1991-yildan nogironlar va 2017-yildan buyon nogironligi bor shaxslar yoki nogironligi bo'lgan shaxslar deb iste'molga kiritilgan. O'zbekistondagi nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi xalqaro miqyosda qo'llaniladigan invalide yoki disabled person so'zlari bilan bir xilda ma'no anglatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyaning 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 2- maddasida "Nogironlik – bu tadirijiy rivojlanib boruvchi tushuncha, nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to'siqlari o'zaro munosabatlari natijasi bo'lib, va bu ularning jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga xalaqit berishini tan olib" degan norma bilan nogironlikka huquqiy ta'rif berilgan[5].

2020-yil 15-oktyabrda O'RQ-641-sonli "O'zbekiston Respublikasining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida nogironligi bo'lgan bolalar va nogironligi bo'lgan shaxs degan tushunchaga aniq huquqiy ta'rif berilgan. Jumladan, nogironligi bo'lgan bolalar (bola) – barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar; nogironligi bo'lgan shaxs – ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs deb ta'rif berilgan[6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nogironligi bo'lgan shaxslarni muammolarini o'rganishning sotsiologik asoslarni ochib beruvchi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni ilmiy bilishning umumiy metodi bo'lgan dialektik metod ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuga tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil kabi xususiy-ilmiiy metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetni nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoyalashga doir konseptual, kognitiv, hamda gumanistik ta'limotlarining sotsiologik tahlili tashkil qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Nogironligi bo'lgan shaxslarning oila a'zolarida uchraydigan ijtimoiy-psixologik muammolar mavjud. Ushbu muammolarni 2 turga bo'lib ko'rib chiqamiz: Ichki muammolar (inside):

- dunyoga kelgan bolada nogironlik mavjudligi. Agarda ota-ona sog'lom bo'lib, shu oilada birinchi farzand nogironligi bo'lgan bola tug'lsa, psixologik muammolar yuzaga kelishni boshlaydi;

- er-xotin o'rtasida munosabatlar sovushiga olib keladi. Har ikkalovi ota-onaning bir-biridan ayb qidirishi; Bevosita: yaqin qarindoshlaridagi nogironligi bor shaxslarni ro'kach qilish, shu sababli farzandimiz nogironligi bor inson bo'lib tug'ildi deb ota-ona bir-birini ayblashi; Bilvosita: Boshqa narsalardan ayb qidirishni boshlash. Oqatni tuzi doimo past, kiyim yaxshi dazmollanmagan, doimo uyga kech kelishni boshladigiz va boshqa bahonalarda orqali;

- ota-onalarda chorasizlik, umidsizlik va birinchi shok holat; Buning natijasida depressiya va ikkilanish dillemlar yuzaga kelishi;

- ota-onalarda agressiya va tajovuzkorlik;

- bolani ayrim oila a'zolari tomonidan "oila a'zosi" sifatida tan olmaslik holatlari;

- boladan vos kechish yoki uni yashirishga harakat qilish (ko'chaga olib chiqmaslik, bolalarga qo'shmaslik, oilaviy tadbirlar nishonlaganda xonasida o'tirishga majburlash va boshqalar);

- boladan qutilish yo'llarini qidirish (internat va muruvat uylariga joylashtirishga harakatlar);

- nogironligi bo'lgan bolalarni harakatlanishi bilan bog'liq imkoniyatlarni yetarli emasligi natijasida ularning huquqlarini buzilishi va oqibatda ijtimoiy izolyatsiyaga (chetlash, yakkalash) tushib qolishi.

Tashqi muammolar (outside) esa quyidagilardir:

- nogironligi bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limga qamrab olish imkoniyatining pastligi yoki yo'qligi

- uyda kelib o'rgatuvchi pedagogning tanqisligi (maxsus pedagoglar surdopedagog, tiflopedagog, oligrofenpedagog);

- bolaga beriladigan nafaqani manzilli bolaning o'ziga yetib bormasligi;

- nogironligi bo'lgan shaxsning jamiyatga integratsiya imkoniyati yo'qligi yoki kamligi (kasb-hunar egallash va ishga joylashishdagi muammolar);

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhitning mavjud emasligi

- jamiyat tomonidan diskriminatsiya (kamsitilish); stigma – "tamg'a" qo'yish;

- nogironligi bo'lgan shaxs istiqomat qilayotgan oilalardagi iqtisodiy muammolar (shifokorlar tomonidan tavsiya qilingan dori-darmonlarni o'z vaqtida ololmaslik);

- nogironligi bo'lgan shaxslarning oila qurish muammolari;

- jamiyatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning universal dizayn tamoyillariga javob bermasligi (dori darmonlar, telefon, kafe restoran xizmatlaridan foydalanish);

- nogironligi bo'lgan shaxslar bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga sharoit yaratib bermaslik.

Diskriminatsiya tushunchasi. Kamsitish (lotin. diskriminatsiya - "assotsiatsiya," farq) - inson huquqlari va yerkinliklarini cheklash va/yoki har qanday belgi asosida odamlarga yoki ijtimoiy guruhlariga har xil munosabatda bo'lishdir.

2020-yil 15-oktyabrdagi O'RQ-641-sonli "O'zbekiston Respublikasining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'yimaslik tamoyili aks ettirilgan.

Ushbu moddada "Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal ko'rish holatlari, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi".

Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan kamsitish eybilizm deb ataladi. Eybilizm-nogironligi bo'lgan shaxslarga sog'lom insonlar qatorida munosabatda bo'lishni anglatadi. Buning oqibatida davlat, xususiy joylar, maishiy xizmatlar, ta'lim hamda ijtimoiy xizmatlar "standart" odamlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallanganligi sababli bu nogironligi bo'lgan shaxslarga birmuncha noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Stigma – grek tilidan olingan so'z bo'lib, yorliq, tamg'a degan ma'noni anglatadi. Masalan nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ko'r, kar, soqov deb tamg'a qo'yishdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlarning mehnatga jalb etilganligi nafaqat yashash balki shaxsning ruhiy salomatligi va farovonligi garovidir. Ish faoliyati shaxsning asosiy ehtiyojlarini qoldiribgina qolmay, ularning jamoaviy maqsadlarini, ijtimoiy muloqotini, mavqei va faoliyatini ta'minlaydi. Nogironligi bor shaxslarning ish bilan bandligi aksariyat holatlarda ijtimoiy jihatdan yakkalanib qolishning oldini oladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ratifikatsiya qilgan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligi, huquqlari, ayniqsa, ayollar va bolalarning ta'lim olishi, salomatligini saqlashi, mehnat qilishi, o'zi va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lishining huquqiy kafolatparini belgilovchi xalqaro-huquqiy hujjatdir. Konvensiyani ratifikatsiya qilishda 3 ta manba: milliy qonunchilik, xorijiy yuridik amaliyot va ushbu konvensiyaning o'ziga tayanildi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya, Rossiya, Belarus, Ukraina, Ozarbayjon kabi davlatlar tajribasi chuqur o'rganildi. Xususan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya kabi yetakchi xorijiy davlatlar Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan holda, tegishli milliy qonunlarini ham qabul qilgan. Bu qonunlarning barchasi mazmunan o'xshash bo'lib, konvensiya talablari negizida ishlab chiqilgan.

#### ADABYOTLAR

1. Disability and Higher Education: "But You Don't Look Disabled": Legitimizing Invisible Disability.UN.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 3 декабрдаги Ўзбекистон халқига мурожаати. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4802>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли «2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Semyonova A. V. Etimologicheskiy onlayn-slovar russkogo yazyka URL: <https://lexicography.online/etymology/semyonov/i/invalid>
5. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya.Toshkent: Baktria press, 2013, – B.12-13.
6. "O'zbekiston Respublikasining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun. 3-modda. O'RQ-641-son. 15.10.2020-yil. URL: <https://lex.uz/docs/5049511>



UDK :323/321:1(09) (584.4)

*Muxiddin ABDURAXMONOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: Muxiddin1967@gmail.com*

*O'zMu professori B. To'ychiev taqrizi asosida*

### MINTAQAVIY XAVFSIZLIK MUAMMOLARINI TADQIQ QILISHDA TIZIMLI TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada mintaqaviy xavfsizlik masalalarini tadqiq qilish muammolari, mintaqaviy yo'nalish va sohalarni o'rganish hamda ularning rivojlanishini bashorat qilishda tizimli tahlil va tahlilning yangi uslublarini qo'llashning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaqaviy xavfsizlik, tizimli yondashuv, quyi tizimlar, umumiy tizim, majmuaviy xavfsizlik, ma'lumotning noaniqligi, ko'p mezonli tahlil.

### ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ СИСТЕМНОГО АНАЛИЗА В ИССЛЕДОВАНИИ ПРОБЛЕМ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье освещены особенности проблемы исследования вопросов региональной безопасности, изучения региональных направлений и отраслей, а также применение в прогнозировании их развития системного анализа и новых методов анализа.

**Ключевые слова:** региональная безопасность, системный подход, подсистемы, общая система, комплексная безопасность, неопределенность информации, многокритериальный анализ.

### THE IMPORTANCE OF USING SYSTEMS ANALYSIS METHODS IN THE STUDY OF REGIONAL SECURITY PROBLEMS

Annotation

This article highlights the features of the problem of studying regional security issues, studying regional trends and industries, as well as the use of system analysis and new analysis methods in predicting their development.

**Key words:** regional security, system approach, subsystems, overall system, integrated security, information uncertainty, multi-criteria analysis.

**Kirish.** Hozirgi davrda mintaqaviy miqyosda xavfsizlikni ta'minlash muammolari juda dolzarb masala bo'lib, ularni kompleks xavfsizlik nazariyasining asosiy fundamental bilimlar nazariyasiz amalga oshirish mumkin emas. Global jarayonlarni mintaqaning barqaror rivojlanishiga ta'siri chuqur tahlil qilib, bunday xavf-xatarlarga samarali qarshi turish imkoniyati ko'p qirrali sheriklikni chuqurlashtirishga qaratilgan qo'shma sa'y-harakatlarni birlashtirishga bog'liqligini ko'rsatish mumkin. [1].

Xavfsizlikning barcha turlarini tizimli tahlil va tizimli yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda o'rganilayotgan ob'ektlar va tizimlarni tadqiq qilishda vazifaviy tadqiqotdan ko'ra tizimli tadqiqotga o'tish zarur. Bu muayyan tizim unsurlarining (masalan iqtisodiy soha ob'ektlari) o'zaro aloqalarini mamlakat milliy xavfsizligi umumiy tizimining faoliyati jarayonida aniq kuzatish imkonini beradi. Tizimli yondashuv ob'ektni tadqiq qilishni (tadqiqot ob'ektini uning unsurlari va ularning o'zaro aloqalaridan iborat umumiy tizim ko'rinishida) nazarda tutadi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida ko'rsatilgan nuqtai nazardan qaraganda mamlakat xavfsizligi quyi tizim, ya'ni iqtisodiy, energetik, oziq-ovqat va boshqa xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan yo'nalishlari ob'ektlaridan iborat. Har bir quyi tizim unsuri o'z faoliyatida axborot texnologiyalari yordamida qayta ishlanadigan ma'lumotlarning katta hajmiga tayanadi, ichki strukturada esa umumiy tizimdagi har bir quyi tizim unsurining axborot xavfsizligi ta'minlanishi lozim. Shu bilan birga, ushbu quyi tizim unsurining axborotlariga ruxsatsiz kirilishini oldini

oladigan tadbirlarni amalga oshirish axborot xavfsizligining asosiy masalasi hisoblanadi. Shu sababli axborot xavfsizligini ta'minlashning kompleks baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mamlakat xavfsizligini umumiy tizimning bir qator quyi tizim unsurlarini (iqtisodiy, energetik, oziq-ovqat, ekologiya, axborot va boshqa xavfsizlik turlari) o'z ichiga olgan tizim sifatida ko'rish mumkin. Har bir quyi tizim tarkibida axborot ta'minoti bo'lib, uning faoliyati quyi ta'minot axborot xavfsizligi bilan bog'langan.

So'nggi paytda mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, umumiy milliy xavfsizlikning bir qismi bo'lgan alohida xavfsizlik turlarini o'rganishdan ko'ra mintaqaviy tashkilotlarning kompleks xavfsizligini tadqiq qilish va baholashga o'tish katta samara beradi. Shundan kelib chiqib, mintaqaviy tashkilotning barqaror va xavfsiz rivojlanishi muammosini hal qilish uchun mintaqaviy xavfsizlik nazariyasining fundamental vazifalarini shakllantirish zarurati kelib chiqadi. Aniq asosiy vazifa dastlab kompleks xavfsizlikni ifodalaydigan metodologik va matematik strukturalar hamda nazariyalarni ishlab chiqishdan iborat. Shunday struktura va nazariyalardan sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

tadqiqotning mavzu muammolari haqida bilimlarni qo'lga kiritish va ishlash asosida tashkilotning majmuaviy xavfsizlik tizimini ishlab chiqishning nazariy va metodologik jihatlari;

mavzu muammolari tezaurusini tuzish va tahlil qilishning semantik (belgilovchi) tarmoqlari va ulardan

kompleks xavfsizlik tavsiflari atamali semantik munosabatlarini shakllantirishda foydalanish;

mintaqaviy tashkilotning etarli darajada himoyalanganligini integral (butun) baholash jarayoni, kompleks xavfsizlik tizimini ishlab chiqish va baholash tashkilotning potensial xavfsizligi darajasi bo'yicha toifalashtirish darajasiga nazariy qarashlar;

mintaqaviy tashkilotning majmuaviy xavfsizligining cheklangan umumiy ko'rsatkichlarini shakllanish metodologiyasi;

mintaqaviy tashkilotning ichki va tashqi xavflar ta'siri ostida zaiflik darajasini baholash metodikasi;

mintaqaviy tashkilotning majmuaviy xavfsizlik tizimining zaruriy quyi tizimini optimal aniqlash metodologiyasi.

Hozirgi globalizatsiya va mintaqadagi beqaror siyosiy, iqtisodiy vaziyat sharoitida O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi, uning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda mintaqaviy xavfsizlikning ahamiyati oshib bormoqda. Shu bois mintaqaviy tashkilotlarning barqaror rivojlanish jarayonlari Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu muammoning dolzarbligi va muhimligi mamlakatimizni rivojlantirishning strategik hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini mintaqaviy Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga muvofiq amalga oshirilishi bo'yicha tahlilni... o'tkazish belgilangan [2].

Xavfsizlikning alohida turlari yagona majmuani tashkil qiladi, bir-birini to'ldiradi va biznesni ximoya qilish tizimiga bo'lgan asosiy talablarni ta'minlaydi. Bunda faqat bir tur doirasida majmuaviy yangi nazariy dasturlardan foydalanmasdan xavfsizlik tizimini ishlab chiqish biznesni himoya qilish tizimining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mintaqaviy tashkilotlarning kompleks xavfsizlik dasturlarini ishlab chiqishda majmuaviy nazariy va metodologik yondashuv zarur.

Mintaqaviy biznes xavfsizligini ta'minlash masalalarini tadqiq va tahlil qilish muammosi tez o'zgaruvchan ichki va tashqi tahdidlar hamda biznes strukturalarining faoliyat yuritishlarini noaniqligi sababli yanada murakkablashadi. Biznesni himoya qilishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni to'g'ri shakllantirish uchun o'zgaruvchan tashqi sharoitlar ta'sirida amal qilayotgan majmuaviy xavfsizlik tizimi bo'yicha yangi ekspert xulosalarni muntazam olib borish maqsadga muvofiq.

Mintaqaviy tashkilotning kompleks xavfsizligini tahlil qilish va loyihalash uchun ushbu mavzu muammosining noaniqligi masalalarini aks ettirgan majmuaviy xavfsizlikning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qilish ishlari kam o'rganilgan soha hisoblanadi.

AQShning "Sandiya" milliy laboratoriyasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Unda xavfsizlik tizimini ishlab chiqish va tahlil qilish usullari va jismoniy himoyaning aniqlash, kechikish, munosabat bildirish, texnik himoya tizimlari kabi alohida unsurlar ko'rsatilgan [3]. Shuningdek, ob'ektlar zaifligini tahlil qilishning metodik va amaliy masalalari hamda xavfsizlik tizimi samaradorligini baholash, ehtimoliy tahdidlarni modellashtirish xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bu yo'nalishda Rossiyada Yu.A.Oleninning "Ob'ektlarni jismoniy himoyasini boshqarish vositalari va tizimlari" monografiyasida tizimli tahlildan foydalanish asosida jismoniy himoya tizimlarini boshqarish sifatini yaxshilash masalalari ko'rib chiqilgan. Unda axborotlarni ishlash jarayonlarini yangi shakllangan grafik tahlil yondashuvi asosida amalga oshirish tizimi bayon qilingan. Innovatsion biznes xavfsizligini ta'minlashni tizimli yondashuv asosida hamda majmuaviy xavfsizlikning

shakllangan konseptual modeli asosida uning barqarorligi va xavfsizligi, o'zaro aloqalari va hamkorligi masalalarini tadqiq va tahlil qilish mumkin. Bu tizimli yondashuv asosida tashkilotning barqaror xavfsizligini ta'minlash uchun bir necha tizim tashkil qiluvchi omillarni tahlil qilish kerak [4].

Ko'rib chiqilayotgan muammo doirasida tizimli tahlil va tizimli yondashuv usullarini qo'llash orqali bir qator tahliliy ishlarni amalga oshirish mumkin:

ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni shakllantirishning mintaqaviy jarayonlarini tahliliy baholash;

ekologik audit o'tkazish orqali mintaqaviy tashkilotlarning ekologiyaga ta'sirini baholash hamda ekologiya sohasida tashkilotlarga nisbatan tahdid va salbiy ko'rinishlarga qarshi asosiy choralarni belgilash;

mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni baholash jarayonida ijtimoiy komponentlarni hisobga olishni asoslash masalalarini tahlil qilish;

mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini bashorat qilish va modellashtirishga bo'lgan asosiy metodologik yondashuvlarni tizimlashtirish;

yetakchi davlatlarning va xalqaro tajribadan kelib chiqib mintaqaviy barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

tizimli tahlil va tizimli yondashuv asosida mintaqaviy barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari, ijtimoiy-ekologik vaziyatning murakkablashuvi sabablari va manbalari, ekologik xavfsizlik muammolari, ekologik taraqqiyotning ehtimoliy ko'rinishlarini ishlab chiqish.

Xavfsizlikning alohida turlari samaradorligini oshirish yo'llari, tahlilni nazariy qayta ishlash va sintez masalalarini intensiv tadqiq qilinishi tahdidlarni aniqlash hamda muammolarni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlarning tizimli tahlili integratsion hamkorlik asosida kompleks xavfsizlikni hisobga olgan holda biznes barqarorligini oshirishning raqobatbardosh ustunliklarini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi (7).

Hozirgacha mintaqaviy xavfsizlik sohasining muayyan tadqiqot yo'nalishiga doir ma'lumotlarning noaniqligi, to'liqsizligi bois xavfsizlik tizimini ishlab chiqish bo'yicha kompleks yondashuv masalasi ko'rib chiqilmagan. Taqdim qilinayotgan yondashuvlarning tizimli tahlili mintaqaviy xavfsizlik yo'nalishi yoki sohasining tarkibiy qismlarini o'zaro hamkorligi asosida kompleks xavfsizlik ta'siri hisobiga uning barqarorligini oshirishning raqobatbardosh ustunliklarini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi:

tadqiqot sohasi borasidagi bilimlar tasavvurlarini qo'lga kiritish va qayta ishlash asosida mintaqaviy yo'nalish yoki sohaning kompleks xavfsizlik tizimini ishlab chiqishning yangi metodologik asoslarini shakllantirishga tizimli yondashuv;

mintaqaviy yo'nalish yoki sohaning etarli darajada himoyalanganligi, unga bo'lgan potensial tahdidlar bo'yicha baholash va toifalashtirish jarayoni tasavvurlarini nazariy yondashuvini asoslash;

mintaqaviy yo'nalish yoki soha kompleks xavfsizligining umumlashtirilgan ko'rsatkichlarini shakllantirish metodologiyasini asoslash;

mintaqaviy yo'nalish yoki sohani ichki va tashqi tahdidlar ta'sirida zaiflik darajasini baholash metodologiyasini asoslash;

mintaqaviy yo'nalish yoki sohaning kompleks xavfsizlik tizimining zarur quyi tizim unsurlarini maqbul belgilash metodologiyasini asoslash.

Mintaqaviy iqtisodiy yo'nalishlar xavfsizlik tizimida sohalarning axborot ta'minoti va tahliliy tizimini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:



Mintaqaviy soha yoki ob'ektning barqaror rivojlanishining tizim tashkil qiluvchi omili bo'lgan kompleks xavfsizligini ta'minlash masalasi uning doimiy ravishda turli tahdid va xavflar ostida bo'lganligi bois doimo risk ostida bo'ladi (3). Ularni hal qilish asosida kompleks xavfsizlikning yangi nazariy tadqiqot uslublarini ishlab chiqish mumkin:

noaniqlik sharoitida kompleks xavfsizlik tizimining ishlash sifati ko'rsatkichlarini asoslash uslubi, uning asosini ko'p mezonli noaniq tahlil tashkil etadi, keyinchalik matematik usulni o'rnatish asosida kompleks xavfsizlik tarkibini bashorat qilish mumkin bo'ladi;

noaniq gipergraflar nazariyasi asosida mintaqaviy yo'nalish, soha yoki ob'ektning himoyalanganligini aniqlash uslubi, u himoyalanganlik darajasini aniqlash, son va sifat jihatidan himoyalanganligini baholashga imkon beradi;

genetik algoritmnining mintaqaviy yo'nalish, soha yoki ob'ektga moslashish uslubi, bu kompleks xavfsizlik quyi tizim turlarini va ularning barqarorlikka ta'sirini bashorat qilish imkonini beradi.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqib taklif qilinayotgan uslublarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- mintaqaviy yo'nalish, soha yoki ob'ektning kompleks xavfsizlik tizimini loyihalashni baholash uchun ushbu taklif qilinayotgan uslub bir qator o'ziga xos alomatlar, jumladan loyihalashtirish jarayonlarini (ekspert so'rovnomalari tahlili, noaniq gipergraf, noaniq ko'plik tuzilmalaridan foydalanib tuzilishini maqbullashtirish) va isbotlangan samarali himoyalanganlik parametrlarini o'z ichiga oladi. Ushbu uslub kompleks xavfsizlik tizimining faoliyat modelini tuzish, tizimining zaif joylarini aniqlash va ularning xavflilik darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi;

- ko'p mezonli tahlil variantlaridan foydalanilgan noaniq ko'plik tizimini qo'llaydigan himoyalanganlik talablarini baholash uslubining o'ziga xos jihatlari:

ekspertlarning o'rganilayotgan mintaqaviy sohaga oid noaniq shaklda aks ettirilgan ma'lumotlaridan foydalanish;

turli variantlardagi xavfsizlik quyi tizim omillarining himoyalanganlik va integratsiyalashgan himoya choralari tushunchalari kiritiladi;

xavfsizlik tizimlarining variantlarini ko'pmezonli noaniq tahlil qilish tadqiqot sohasining noaniqligini hisobga olishga imkon beradi;

juft solishtirishlar ko'rinishidagi variantlarning sifati haqida lingvistik ma'lumot bilan noaniq mantiqning intellektual mexanizmlari.

- tadqiq qilinayotgan mintaqaviy ob'ekt himoyalanganligining integral chorasi noaniq kattalik sifatida taklif qilinib, noaniqlik nazariyasi asosida himoyalanganlik darajasini baholaydigan kompleks xavfsizlik tizimi shakllantiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Xavfsizlikning barcha turlarini kompleks baholashning shakllantirilishiga predmetli yondashuv milliy xavfsizlik umumiy tizimining quyi tizim unsurlarining o'zaro harakati va ta'sirini asoslangan holda ko'rib chiqish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida xavfsizlikning barqaror qolishini ta'minlaydi.

Bizning fikrimizga ko'ra, mintaqaviy xavfsizlik doirasida O'zbekiston Respublikasining turli davlatlararo aloqalari samaradorligi va iqtisodiy taraqqiyotini tizimli tahlil qilishga imkon beradigan uslublarning quyidagi tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega:

mintaqaviy yo'nalish, soha va ob'ektlar kompleks xavfsizligini ta'minlash tizimi va mintaqa doirasidagi iqtisodiy jarayonlarni barqaror rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilish bo'yicha qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning rasmiylashtirilgan tavsifini amalga oshirish;

mintaqaviy yo'nalish, soha va ob'ektlar xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan talablarning asoslangan modelini ishlab chiqish;

mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarning himoyalanganlik darajasini baholash;

mintaqaviy tashkilotlarning xavfsizlik darajasini oshirish tizimini maqbullashtirilgan rivojlantirishning axborot ko'rsatkichlaridan foydalanish;

noaniqlik sharoitida mintaqaviy yo'nalish, soha va ob'ektlar kompleks xavfsizligi tizimini sifatli ishlashning ko'rsatkichlarini asoslash;

kompleks xavfsizlikning quyi tizimlari turlarini bashorat qilish hamda ularning mintaqaviy ob'ektlarning barqaror faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan qarorlar loyihalarini maqbullashtirish maqsadida genetik algoritmlar moslashuvini amalga oshirish.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni va rolini e'tiborga olib, ikki tomonlama va mintaqaviy tashkilotlar doirasida iqtisodiy va boshqa yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish, maqbullashtirish hamda tizimli amalga oshirishda samarali tizimli tahlil uslublarini qo'llash o'zaro barqaror munosabatlar o'rnatish va aniq bashorat qilish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi // <https://uza.uz/posts/519158>
2. Sh. Mirziyoev mintaqa rahbarlari uchrashuvida muhim takliflar bilan chiqdi. // <https://www.xabar.uz/siyosat/mirziyoev-mintaqa-uchrashuv-f>
3. Гарсия М. Проектирование и оценка систем физической защиты // — М.: Мир; АСТ. — 2002. — 386 с.

4. Огородников П. И., Залозная Г. М., Боровский А. С. Системный анализ обеспечения стабильности эффективного функционирования инновационной и цифровой экономики на основе интеллектуализации системы комплексной безопасности // Экономика региона. — 2018. — Т. 14, вып. 4.—С.1221-1231. <https://elar.urfu.ru/bitstream/>
5. Якутин Ю. В. «Цифра» в технологической компоненте новой экономической модели // Труды Вольного экономического общества России. — 2017. — № 5. — Т. 207. — С. 368–383.
6. Нестеров С. А. Анализ и управление рисками в информационных системах на базе операционных системах Мисрособ. — М. : ИНТУИ, 2009.
7. Огородников П. И. Роль и место информационных технологий в экономике АПК. — Екатеринбург : УрО РАН, 2003. — 200 с.
8. Биглова Г. Ф. Некоторые аспекты управления инновационным процессом на региональном и национальном уровнях // Экономическое возрождение России. — № 4(46). — 2015. — С. 121–131.



UDK:57(07):33(575.1)

**Ibragimjon AZIMOV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti  
**Nigora MIRZAEVA,**  
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail [ibragimjonovnanigora@gmail.com](mailto:ibragimjonovnanigora@gmail.com)

*ТVPYMO‘MM o‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, PhD D.Sarimova taqrizi asosida*

### BIOLOGIYA DARSLARIDA PARANDACHILIK MAVZULARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatchini rivojlantirish bo‘yicha prezentimizning farmonlariga asoslanib o‘quvchilarning biologiya darslarida tadbirkorlik elementlarini takomillashtirishga qaratilgan ma‘lumotlar o‘z aksini topgan. Maqolada tadbirkorlikni amalga oshirishning o‘quvchilarning bilish faoliyati rivojlantirishdagi ta‘lim - tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim, milliy tarbiya, tadbirkorlik, kasb, ekskursiya, zamonaviy texnologiya, fermer, qishloq xo‘jaligi.

### РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТОВ ПО ПТИЦЕВОДСТВУ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье отражена информация, отражающая совершенствование элементов предпринимательства у учащихся на уроках биологии, обозначенных в указах нашего президента о развитии предпринимательской деятельности. В статье освещено учебно-воспитательное значение применения предпринимательства для развития познавательной активности студентов.

**Ключевые слова:** Образование, национальное воспитание, предпринимательство, профессия, экскурсия, современные технологии, фермер, сельское хозяйство.

### THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS OF STUDENTS IN THE TEACHING OF TOPICS OF PARACHUTING IN BIOLOGY LESSONS

Annotation

This article reflects information reflecting the improvement of the elements of entrepreneurship among students in biology lessons, indicated in the decrees of our president on the development of entrepreneurial activity. The article highlights the educational significance of using entrepreneurship for the development of students' cognitive activity.

**Key words:** Education, national education, entrepreneurship, profession, excursion, modern technologies, farmer, agriculture.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo aholisini progress asosida o‘shishi ularni oziq ovqatga bo‘lgan talabini qondirish dunyo bo‘yicha eng dolzarb muammolarni biri sifatida qaralmoqda. Bu dolzarb muammolarni yechimi uchun butun bir kompleks omillarga demografik, ekologik, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy - siyosiy xarakterga ega bo‘lib, bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechimini topishni vazifa qilib qo‘yadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bu muammoning yechimini topishda va hozirgi zamon jamiyatining iqtisodiy ijtimoiy ma‘naviy rivojida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Umumta‘lim maktabi va oila hamkorligi asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, “Junior Achievement” tizimi ishlab chiqilgan (“Junior Achievement Inc” notijorat tashkiloti); xususiy maktablarda o‘quvchilarga biznes asoslari va tadbirkorlik amaliyotini o‘rgatish maqsadida ta‘limiy dasturlar ishlab chiqilgan (Nagoya universiteti); kichik korxonalar loyihasini tashkil etish hamda amalga oshirish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Tadbirkorlik ta‘limi konsorsiumi); o‘quvchilarni tadbirkorlikka tayyorlashning didaktik tizimi ishlab chiqilgan (“Kar’eraga tayyorlash” Markazi); o‘quv- ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan (Evropa yosh tadbirkorlari Assosatsiyasi); o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmasini

rivojlantirishda o‘quv firmalaridan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Moskva davlat pedagogika universiteti), oilada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish Milliy dasturlari ishlab chiqilgan (“Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot Markazi).

**Tadqiqot metodologiyasi.** 2024 yilni “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” deb e‘lon qilinishi, O‘zbekiston yoshlariga tadbirkorlik faoliyati bilan foydalanishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Bu esa ta‘lim jarayonida ham o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatga yo‘llash, ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘llash muhim ekanligini ko‘rsamoqda.

“O‘zbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini 4 bandida yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi, 2024 yil 1 iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi, yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla - tuman - viloyat - respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g‘oyalari saralanadi. Bunda, respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishi, g‘olib



bo'lgan biznes loyiha va g'oyalari egalari Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborilishi haqida Prezidentimiz farmoni yoshlar jumladan maktab o'quvchilarini ham o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga yo'naltiradi va yoshlarni tadbirkorlikka bo'lgan ishtiyoqlarini yanada oshiradi.

Dasturda keltirilgan yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash haqidagi fikrlar yurtimiz o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur kasbiy sifatlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish, kasbiy-mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga jadal tayyorlashga doir ilmiy izlanishlar olib borishni yanada rivojlantiradi. Ayniqsa, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish uchun ta'limiy muhitni strukturalashtirish va qo'llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish, tadbirkorlik ta'limini joriy etishning faoliyatga yo'naltirilgan, o'quv fani sifatida, modulli, umumta'limiy yondashuv modellaridan samarali foydalanish, biznes asoslari va tadbirkorlik amaliyotini o'rgatishga doir ta'limiy dasturlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, har bir o'quvchini tadbirkorlik bilan shug'ullanishning fundamental asoslarini egallashi, tadbirkorlik faoliyatiga doir amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga erishishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasida kundan-kunga jadal suratlar bilan o'sib kelayotgan aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini turmush darajasini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xo'jalik yuritishni yanada yaxshilashda parranda maxsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va parrandachilikni respublikamizda rivojlantirish dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda parrandachilik sohasi respublikamiz bo'ylab minglab insonlarni ish bilan ta'minlab, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga muhim manbalardan biriga aylangan. Oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta'minlashda parrandachilikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Parrandachilik chorvachilikning tez rivojlanuvchi sohasidan biri bo'lib, aholini parhez go'shti va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi. Binobarin, maslahatimiz uy sharoitida o'quvchilar tomonidan, yoki keng miqyosda qanday qilib parrandalarni parvarishlash, ko'paytirish va ulardan samarali hamda foydali oziq-ovqat maxsulotlari olish to'g'risidadir.

Prezidentimizning farmonlari va uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risidagi ma'ruzalarida hozirgi vaqtda maktablarimizning eng jiddiy kamchiligi hayotdan ma'lum darajada ajralib qolishidan va o'quvchilarning tadbirkorlik bilan bog'liq amaliy ishlarga yetarlicha tayyorlanmayotganligidan iborat ekanligini ta'kidlab o'tmoqdalar [1].

Ta'lim sifatini oshirish, maktabda tadbirkorlik va mehnat tarbiyasini o'quvchilarda shakllantirish, ta'lim bilan hayot o'rtasidagi bog'lanishlarni yanada mustahkamlash, o'quvchilarni foydali mehnat va tadbirkorlikka tayyorlashni yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda [3].

Umumta'lim maktablarida biologiya kursi tizimidagi fanlarning o'qitishning eng muhim bosqichlaridan biri zoologiya hisoblanadi. Uning ta'lim jarayonidagi o'ziga xosligi zoologiya fanining bir necha tarmoqlari morfologiya, anatomiya, fiziologiya, embriologiya, sistematika kabilarni o'zida mujassamlashtirgani hisoblanadi. Zoologiya oid mavzularni o'qitishda o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'llash bo'yicha keng imkoniyatlarga ega. Shu sababli ham parrandachilikka oid mavzularni o'qitishda quyidagi ma'lumotlarni o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga yetkazish ularni tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Parrandalarning hozirgi kunda aholi xonadonlarida tuxum yo'nalishidagi zamonaviy yuqori mahsuldor

krosslaridan Lomann (Germaniya), Xayseks, Bovans, Dekalb (Gollandiya), Xaylayn (AQSh) va Rodonit-3, legorn va qadimdan boqib kelinayotgan rus oq tovuq zotlarini boqish mumkin.

Shunday bo'lsada parrandachilikning sizu-bizga qiziq bo'lgan ko'p jihatlari mavjud. Masalan: Tovuq va o'rdak tuxumidan 21 kunda jo'ja yorib chiqsa, bedana tuxumi 17 kun, g'oz tuxumi 31 kun, kurka(indyuk) tuxumi esa 28 kunda ochiladi. Jo'ja ochirish bilan yilning faqat besh oyi – mart, aprel, may, iyun va iyulda shug'ullanish mumkin. Bir dona tovuq jo'jasining ulgurji narxi 2 ming so'm, o'rdak bolasiniki esa 1700 so'm. Yangi ochib chiqqan jo'jani makiyon yoki xo'roz ekanligi xaridorni qiziqitirishi tabiiy.

O'quvchi uyida 10 ta sertuxum tovuq zotlarini parvarish etsa, bu tovuqlar kuniga 1 tadan tuxum qiladi. Bozor sharoitida uy tuxumlari 1500 – 2000 so'm atrofida sotiladi. Hozirgi vaqtda deyarli har bir qishloq yoki shahar xududida bozorlar tashkil etilgan. Bir hafta ichida o'quvi 50ta tovuq tuxumini bozorga olib chiqsa o'rtacha har bir tuxumni 1500 so'mdan sotsa, bir haftada 75 ming so'm daromad topadi. Buning 25ming so'mini tovuq ozuqasi uchun sarf etadigan bo'lsa, o'ziga haftasiga 50 ming so'm sof daromad qoladi. Bir oyda 200 ming so'm, bir yilda 2400000 so'm oilaga qo'shimcha daromad keltiradi.

Shuningdek o'quvchilarga tovuq zotlarini ko'paytirish, parvarish qilishga yo'llash ham muhim hisoblanadi. Uy sharoitida tovuqlar baxor va kuzda tuxum bosib jo'ja ochib chiqadi. O'quvchi o'zi mustaqil xolda tovuqlarga tuxum bostirishi mumkin. Bitta tovuq 10 tagacha tuxum bosib yotadi deb faraz qilsak, 17-21 kun ichida jo'ja ochadi, bu jo'jalar veterenariya qoidalari asosida parvarish qilinsa, ular 6 oyda tuxumga kiradi, olti oylik tuxum kirgan jo'jalar maxalliy bozorlarda 25-30 mingdan so'm turadi. Agar o'quvchi bahorda 30 ta jo'ja yetishtiradigan bo'lsa o'zi uchun 10 tasini olib qolib, 20 tasini bozorga olib chiqib sotsa 500000 yoki 600000 ming so'm foyda ko'radi. Qolgan 10 jo'jani parvarish qilib ko'paytirib o'zini kichik fermer xo'jaligiga va tadbirkorlik faoliyatiga asos solishi mumkin. O'qituvchi uyda parvarish qilayotgan tovuqlaridan tuxumini o'zidan o'quvchi qancha foyda qilishlarini xisoblab topishni taklif qilsa o'rtaga qo'yilgan maqsadga erishish imkoni yanada yuqori bo'ladi.

Broyler tovuq zotlarini tirik vazni nazorati-ma'lumki, makiyon va xo'rozchalarni o'sish sur'atlari har hil bo'ladi. Xo'rozchalarning 5-6 haftalik tirik vazni makiyonlarga nisbatan 15-16 foiz yuqori, tirik vazniga sarf bo'layotgan ozuqa birligi esa 8-10 foiz kam bo'ladi. Bu broylerlarni jinsiga qarab ajratib boqish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Natijada broylerlarni tirik vazni bo'yicha tengligi, jo'jalar bosh sonini saqlash ko'rsatkichining yuqoriligi, ozuqalarning samarali sarflanishi, alohida zaif rivojlangan jo'jalarning ajralib qolishi, so'yilgan broylerlarning massasi va hajmi bo'yicha tengligi (bir xilligi) ta'minlanadi. Alohida ajratib boqish natijasida yetilgan xo'rozchalarni oldinroq, makiyonlarga ta'siri bo'lmagan xolda sotish imkoniyati yaratiladi. Broylerlarni alohida ajratib boqish natijasida 1 kv.m. maydondan birga qo'shib boqilganga qaraganda 10-12 foiz ko'p foyda olish mumkin.

Parandachilik bo'yicha o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'llashda o'rdak, bedana, g'oz, kurkalarni parvarish qilish va ulardan keladigan daromadlar haqida misollar keltirish ham o'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Bedananing tuxumi, go'shti juda sifatli va ko'p extiyoj seziladigan dietik maxsulotlar hisoblanadi. Bu maxsulotlarni tarqatish qiyinchilik tug'dirmaydi- ularni magazin, bozor, kafe va restoranlarga topshirish mumkin. Shuningdek yakka tartibdagi ishbilarmonlar va kishilar bedana go'shti va tuxumini ko'p sotib olishadi.

Xatto bu qushning go'ngi organik o'g'it sifatida keng foydalaniladi.

Sarf qilinadigan xarajat va daromadlar. Bedanalarni o'ziga xos standart tovuqxonalariga joylashtiriladi. 200 ta bedanani joylashtirish imkonini beradigan bedana boqiladigan joy uchun 150000 so'm sarf bo'lishi mumkin. Har oyda keladigan daromad - 310 000 so'm.

Sarf harajatlar taxminan 5-9 oy ichida qoplanadi.

Xattoki daromadni oshirish uchun bedana tuxumi va go'shtidan tashqari go'ngini ham sotish mumkin

Dastlabki sarf xarajatlar bedanalarni sotib olish uchun tajribali bedana boqadiganlarni tanlash kerak. Eng sog'lom qushlarni tanlash kerak. Imkon darjada qush fermer xo'jaliklaridan olish tavsiya etiladi. Qush sotib olganda albatda vet vrach spravkasini so'rang. Inkubator va avtomatik suv moslamasini o'sha joydan sotib oling.

200ta bedanani boqish uchun bir yoki ikki kishi yetarli. Albatta tajribali bedana boqadiganlardan maslahatlar olib turish kerak. O'quvchilar o'zlarining tomorqalaridagi tovuqxonada bedan boqishni boshlashlari mumkin bu jihozlar sarf harajat talab etmaydi. Biznes kengayib ketsa yordamchilar olish mumkin.

Hozirgi kunga kelib bedana boqish va ko'paytirish iqtisodiy jixatdan yaxshigina daromadli sohaga aylangan. Bedana ancha maxsuldor bo'lib, modasi bir yilda 250-255 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. Tuxumdan chiqqan polaponlarning qariyib 70-80 foizi yashab ketadi. Juda tez rivojlanadi va turli kasalliklarga bardoshli. To'g'ri, bedananing vazni yengil, tuxumlari ham mayda. Ammo bedana go'shti va tuxumlarining g'aroyib shifobaxsh xususiyatlari sababli unga doim talab yuqori. Bedana bir yilda 250-255 dona tuxum qo'yadi. Tuxumi kichkinagina bo'lib, uchtasi bir tovuq tuxumiga tengdir. Tuxumining og'irligi 8-14 gramm, so'yilgan bedana go'shtining og'irligi 100-120 gramm keladi. Bedana 50-60 kunlik davridan boshlab tuxum qo'ya boshlaydi, xatto 40 kunligidan ham tuxumga kirishi mumkin.

Bedana tuxumi tovuqnikiga nisbatan bir necha barobar foydali va ajoyib xususiyatlarga ega. Tovuuq tuxumiga qaraganda bedana tuxumi tarkibida kaliy 5, temir 4,5, B1 va B2 vitaminlari 2,5 barobar ko'p bo'lib, A vitamini, nikotin kislotasi, fosfor, mis va boshqa aminokislotalar ham

anchagina. Oqsil moddasi ham boshqa parrandalar tuxumiga nisbatan ancha yuqori. Bu ma'lumotlardan odam va uning salomatligi kursida berilgan Vitaminlar mavzusini o'qitishda foydalanilsa samarali natija beradi.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini va shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama rivojlanishini eng muhim tomonlari, tarbiyaga kompleks yondashuv ekanligini psixologlar ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi qo'llash orqali amalga oshirishni ko'rsatib berishgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Visitova L.S. Boshlang'ich maktabda innovatsion o'qitish usullari [Matn]/ L.S.Visitova// Ta'lim va tarbiya. – 2016. – No 1. – B. 16-19.
2. Paltov, A.E. Innovatsion ta'lim texnologiyalari [Matn]: Darslik / A.E. Paltov. - Vladimir: Nashriyot uyi VIDU, 2018. – 119 b.
3. Solovyova, T.I. Boshlang'ich maktabda zamonaviy pedagogik texnologiyalar [Matn] / T.I. Solovyova // Yosh olim. – 2015. – No 6. – B. 684-686.
4. Hurtova, T.V. Innovatsion o'qitish texnologiyalari [Matn] / T.V. Hurtova // O'quv seminarlari: kompetentsiyaga asoslangan treningni uslubiy yordam. - Volgograd: O'qituvchi, 2007. -12 p.
5. www.znanio.ru



UDK: 159.9.07

**Zafar BATIROV,**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti*  
*E-mail: botirov1972@inbox.ru,*  
**Yoqubjon MAXMUDOV,**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM assistenti*  
**Marjona LUTFULLAYEVA,**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi*

*Qarshi davlat universiteti pedagogika fanlari doktori (DSc) prof. A.Jabborov taqrizi asosida*

## HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada asosiy e'tibor mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratishga, axborot ta'minotini yaxshilashga, kasbiy kompetensiyani shakllantirish va tekshirish modeliga, ularning mazmunini tavsiflashga qaratilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida "kompetensiya" va "kompetentlik" kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish va tahlil qilish, psixologik kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, kognitiv, motivatsion, amaliy (mahoratlar, qobiliyatlar, tajriba, qobiliyatlar), emotsional-ixtiyoriy, hayot xavfsizligi, kasbiy kompetensiya, kasbiy mahorat, model.

## ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Основное внимание в статье уделяется созданию организационно-педагогических условий подготовки специалистов, совершенствованию информационного обеспечения, модели формирования и проверки профессиональной компетентности, описанию их содержания. Также в процессе обучения в высших учебных заведениях анализировались вопросы изучения и анализа сущности таких понятий, как «компетентность» и «компетентность», формирования, развития и диагностики психологической компетентности.

**Ключевые слова:** образовательные, познавательные, мотивационные, практические (умения, способности, опыт, способности), эмоционально-волевые, безопасность жизнедеятельности, профессиональная компетентность, профессионализм, модель.

## THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL COMPETENCIES IN ENSURING THE SAFETY OF LIFE ACTIVITIES

Annotation

The main focus of the article is on creation of organizational and pedagogical conditions for the training of specialists, improvement of information supply, model of formation and verification of professional competence, description of their content. Also, in the process of studying in higher educational institutions, the issues of studying and analyzing the essence of concepts such as "competence" and "competence", formation, development and diagnosis of psychological competence were analyzed.

**Key words:** education, cognitive, motivational, practical (skills, abilities, experience, abilities), emotional-voluntary, life safety, professional competence, professional competence, model.

**Kirish.** Mamlakatimizda ilg'or ta'lim tizimini tadbiq etishga yo'naltirilgan asosiy islohotlar natijasida yosh mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot ta'minoti kengayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash lozimki, taqdim etilgan ilmiy ishlanmalarning ko'p qirrali bo'lishiga qaramay, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda hayot faoliyati xavfsizligi muammolari nuqtai nazaridan kasbiy tayyorlash muammolari ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli darajada o'rganilmagan. Shuning uchun qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi kompetensiyalarining turlari ikkita asosiy elementni o'z ichiga olishi kerak. Birinchisi, ijtimoiy-psixologik jihat. Bu boshqalar bilan va o'zi bilan uyg'unlikda yashash istagi va tayyorligini anglatadi.

Ikkinchi element - professional. Bu muayyan faoliyat sohasida ishlashga tayyorlik va xohishni ta'minlaydi. Ushbu komponentlarning har biri, o'z navbatida, ma'lum turdagi kompetensiyalarga bo'linishi mumkin. Pedagogik jarayonda asosiy va maxsus elementlar mavjud. Birinchisi barcha universitetlarni bitirganlarga tegishli. Ikkinchisi ma'lum bir mutaxassislik uchun muhim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida "kompetensiya" va "kompetentlik" kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy mamlakatlarda V.I.Baydenko, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkovalar tomonidan tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi holatlarning yetishmasligi aniqlandi:

- oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda ularning hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi;

- bo'lajak mutaxassislarining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy mahoratni shakllantirish jarayonining asosli tomonlarini asoslashda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik nazariyaga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi;

- bo'lajak mutaxassislarining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy mahoratni ta'lim muassasalarida shakllantirish uchun ilmiy va uslubiy vositalarning yetishmasligi.

Aniqlangan holatlar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy mahoratni shakllantirishni ilmiy-nazariy asoslash va uslubiy qo'llab-quvvatlashning obyektiv ehtiyojidan iborat bo'lgan tadqiqot muammosini aniqladi. Kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ta'limning yangi mazmunini, balki zamonaviy sharoitlarga mos keladigan texnologiya va o'qitish uslublarini ham joriy etish bilan belgilanadi. Ularning ro'yxati juda keng va imkoniyatlar juda xilma-xildir. Bu borada asosiy strategik yo'nalishlar belgilanishi kerak. Masalan, ishlab chiqarish texnologiyalari va usullarining salohiyati ancha yuqori. Uning amalga oshirilishi kompetensiyaga erishish va malakalarni egallashga ta'sir qiladi. Shunday qilib, o'qituvchilarning asosiy vazifalari ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

- Bolalarning o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratish.

- Umumiy ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirish.

- Umr davomida havsiz yashashga bo'lgan istagini rivojlantirish.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot yechimi muayyan darajada xizmat qiladi.

Olimlarning ta'kidlashicha, kompetensiya tushunchasi o'zining mantiqiy mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali. Bundan tashqari, kompetensiyalar bir marta va butunlay berilgan yangi shakllar emasligi ta'kidlangan. Ular doimiy rivojlanish va yangilanishda, kengaytirilishi va boshqa kompetensiyalar bilan birlashishi mumkin, o'zini yangi sifatda namoyon qiladi, dialektik rivojlanish spiralinii ifodalaydi. Ushbu rivojlanishning shartlari ishlab chiqarish sharoitlarining o'zgarishi, jamiyat ehtiyojlarining yangilanishi, qiymat yo'nalishlarining o'zgarishi bilan ifodalanadi [1].

Ko'pgina tadqiqotchilar, I.A.Zimnyaning fikricha, kasb-hunar ta'limi sohasida faoliyat yuritib, bu ta'rifning turli tomonlarini ajratib ko'rsatishadi. Shu sababli, mutaxassis faoliyati va shaxsiyatining "uch ustuni"ga asoslangan "bilmoq, bajarmoq, bo'lmoq" degan asosni hamma qo'llab-quvvatlashda, yo bilim va tajriba, yoki shaxsiy xususiyatlar yoki kasbiy jihat oldinga chiqadi [2]. "Kasbiy kompetensiya" toifasi deganda mutaxassisning kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish jarayonida samarali qarorlar qabul qilishga tayyorligi va qobiliyati tushuniladi. Umuman olganda, insonga tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatda professional faoliyatni samarali loyihalash va amalga oshirishga imkon beradigan birlashtirilgan bilim, ko'nikma va tajriba, shuningdek shaxsiy fazilatlar majmui bilan tavsiflanadi.

V.I.Baydenkning ta'kidlashicha, subyektiv "kasbiy kompetensiya" ko'rsatkichlari mutaxassisning haqiqiy va

potensial faoliyatining xususiyatlariga asoslanishi mumkin [3, 5; 4, 8].

Yuqorida tahlil qilinganlarni hisobga olgan holda, tadqiqot sharoitida biz kasbiy kompetensiya tushuncha sifatida fundamental bilimlar, ko'nikmalar va javoblarning adekvatligi bilan universitet bitiruvchisini tavsiflovchi ma'lum fazilatlar yig'indisi orqali aniqlanadi deb taxmin qilamiz. Biroq, tadqiqotda biz nafaqat kasbiy kompetensiyani, balki kasbiy tayyorgarlik tizimidan ajratilgan hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiya shaklida uning tarkibiy qismini shakllantirish imkoniyati bilan qiziqdik. Shunga ko'ra, hayot xavfsizligini ta'minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish uchun biz uning tarkibiy qismlarini aniqlashimiz kerak edi.

Shu munosabat bilan hayot xavfsizligini ta'minlashda professional kompetensiya tushunchasini aniqlashtirish haqida gapirish mumkin. Shunday qilib, "hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiya" tushunchasi insonning ajralmas mulki bo'lib, u o'zi va xodimlarining hayoti va sog'lig'ini saqlash uchun mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligi namoyon bo'ladi, turli xil xavf-xatarlar taksonomiyasini bilishga asoslanadi. Bu ekologik xavflarni aniqlash va xavfsiz harakatlarni amalga oshirish usullarini o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar orqali amalga oshiriladigan o'z faoliyati natijalarini tahliliy va bashoratli baholash qobiliyatida ifodalanadi. Hayot xavfsizligini ta'minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ifodalash uchun uni modelda aks ettirish taklif qilinadi.

Model (fransuzcha modele, lotincha modulus - o'lchov, namuna, meyor) - bu "mavjud yoki prognoz qilinayotgan o'rganish obyektini ko'rsatish yoki takrorlash orqali uni o'zgartirishga qodir bo'lgan aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim.

"Model" haqiqiy jarayon yoki obyektning eng muhim xususiyatlari, oraliq modellarini qamrab oladi. Oraliq modellar (faoliyat modellari, kasbiy xususiyatlar modellari, rivojlanish modellari) umumlashiruvchi kasbiy kompetensiyani shakllantirish, mutaxassisning maxsus qobiliyatlarini mavjudligi va rivojlanishini ko'rsatadigan sifat jihatidan yangi modelni shakllantirishga imkon beradi. "Agroinjeneriya" yo'nalishi bo'yicha talabalarining hayotiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish modelini qurish, birinchi navbatda, uning tarkibiy tuzilishi, kasbiy vazifalar ro'yxati va mazmunini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammolarni hal qilishni ta'minlash uchun hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari aniqlandi, ularga rioya qilish oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan talablariga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqotda taklif etilgan model; yo'nalishi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik jarayonida hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ko'rib chiqilayotgan model maqsadli, tashkiliy, mazmunli va diagnostik bloklar ko'rinishidagi umumiy yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiya rivojlanadi, bir darajadan ikkinchisiga o'tadi va uning holati har safar motivlar mazmuni, xavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar ko'rinishidagi shaxsiy shakllanishlarning muvofiqligi asosida aniqlanishi mumkin [5; 6].

**Xulosa va takliflar.** Diagnostika bloki tarkibidagi monitoring jarayon sifatida, bir tomondan, talabalarining yo'nalishi bo'yicha erishgan yutuqlarini rejalashtirilgan natijalar bilan (mezon ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashni tashkil etish orqali) kuzatish va solishtirish, boshqa tomondan, xavfsizlikni ta'minlashda professional

kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tuzatish tartibini amalga oshirish imkonini beradi. Oxir oqibat, ushbu blok hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining miqdoriy va sifat jihatlarini haqida qisqacha ma'lumot berishga imkon beradi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun siz ba'zi qoidalarga amal qilishingiz kerak:

- Faoliyatni oshirish uchun vaqt va kuchni ayamaslik kerak. Bolalarga o'quv va kognitiv faoliyatning eng samarali usullarini o'zlashtirishga yordam berish kerak.

- Muammolarni har tomonlama tahlil qilish orqali ijodkorlikni rivojlantirish.

- Kognitiv muammolarni hal qilishda bir nechta usullardan foydalanish kerak.

- Bilimlar tizimini yaxshiroq o'zlashtirish uchun reja va sxemalardan foydalanish tavsiya etiladi.

- Har bir bolaning hayotiy tajribasini, uning qiziqishlarini, rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Maktab oila bilan yaqindan hamkorlik qilishi kerak.

- Bolalarga har bir inson kelajakdagi rejalarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan hamma narsani o'zlashtirsa, hayotda o'z o'rni borligini o'rgatish kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. В.И.Байденко. Компетенции в профессиональном образовании (К освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России, 2004. – № 11. – С 5-11.
2. Н.А.Муслимов, М.Б.Уразова, Ш.Н.Эшпулатов. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. – 8-9 б.
3. Batirov Zafar, Mahmudov Yoqub. Mutaxassislarni hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati / Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari mavzusidagi 2-xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. Toshkent, 07.12.2023 y. 11-16 b.
4. Ю.Г.Репьев. Интерактивное самообучение/ Монография. – М.: «Логос», 2004. – 248с.
5. Y.E.Mahmudov, Z.L.Batirov, M.Z.Lutfullayeva. Bo'lajak mutaxassislarni hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda kompetensiyaviy yondashuvlar/ Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to'plami. Toshkent, 2023. 849...854 b.
6. Z.Batirov, Y.Mahmudov, G.Axmatova, M.Lutfullayeva, R.Qosimova. Hayot faoliyati xavfsizligiga oid kasbiy kompetensiyalarni bo'lajak mutaxassislarda shakllantirish// Ta'lim, fan va innovatsiya. 2-son, 2024-yil.
7. Batirov Z. L., Mahmudov Y. E. Mutaxassis kadrlarni kasbiy malakalarini shakllantirishda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda psixologik yondashuv / Ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot. Termiz 26-27 aprel 2024 y.
8. Y.E.Mahmudov. Umumiy psixologiya / O'quv qo'llanma. Toshkent, Voris nashriyoti, 2024.



UDK:378.035

**Mohim BOBOYEVA,**  
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail:mohimboboeva@gmail.com

*Falsafa fanlari doktori, professor J.Ramatov taqrizi asosida*

### PHILOSOPHICAL-METHODOLOGICAL ANALYSIS OF THE BEHAVIOR OF THE STATE AND SOCIETY IN ENSURING ENVIRONMENTAL STABILITY IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Annotation

In this article, after the independence of Uzbekistan in 1991, the country faced serious problems in the environmental sphere due to political instability and economic crisis. However, since then, certain steps have been taken to improve the environmental situation. Legislation aimed at ensuring the protection of the environment has been passed. National conservation activities of the Republic of Uzbekistan are being added to the work of extensive and comprehensive cooperation with other countries and international organizations. Comments are made on the contribution of many different international treaties and agreements governing various aspects of Environmental Protection and rational use of nature to the development of the country.

**Key words:** environmental sustainability, priorities for ensuring environmental sustainability, strategy, waste, environmental protection, sustainability.

### ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОВЕДЕНИЯ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье говорится, что после обретения Узбекистаном независимости в 1991 году страна столкнулась с серьезными проблемами в экологической сфере из-за политической нестабильности и экономического кризиса. Однако с тех пор были предприняты определенные шаги для улучшения экологической ситуации. Приняты законодательные акты, направленные на обеспечение охраны окружающей среды. Национальные природоохранные мероприятия Республики Узбекистан сопровождаются работой по широкому и всестороннему сотрудничеству с другими государствами и международными организациями. Приводятся соображения о вкладе в развитие страны множества различных международных договоров и соглашений, регулирующих различные аспекты охраны окружающей среды и рационального природопользования.

**Ключевые слова:** экологическая устойчивость, приоритеты обеспечения экологической устойчивости, стратегия, отходы, охрана окружающей среды, устойчивость.

### MUSTAQILLIK DAVRIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT VA JAMIYATNING XATTI-HARAKATLARINI FALSAFIY-USLUBIY TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakat siyosiy beqarorlik va iqtisodiy inqiroz tufayli ekologik sohada jiddiy muammolarga duch keldi. Biroq, o'shandan beri ekologik vaziyatni yaxshilash uchun muayyan qadamlar qo'yildi. Atrof muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlarni boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab xilma – xil xalqaro shartnomalar va bitimlarining mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi haqida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik barqarorlik, ekologik barqarorlikni ta'minlash ustuvor yo'nalishlari, strategiya, chiqindi, atrof – muhit muhofazasi, barqarorlik.

**Kirish.** Ekologik barqarorlik Yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb. Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida turlichadir. O'zbekiston hududida qattiq maishiy chiqindilar 230 dan ortiq shahar va qishloq axlatxonalarida mavjud. Ularda taxminan 30 million kub metr axlat to'planadi. Ular asosan stixiyali ravishda, jo'g'rofiy, geologik – gidrogeologik va boshqa shart – sharoitlarni kompleks o'rganmay turib tashkil etilgan. Ularda qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish va ko'mib tashlash ibtidoiy usullar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, respublikaning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni ishlatish va zararsizlantirish sohadagi murakkab vaziyat vujudga kelgan. Respublikada hali – hanuz maishiy chiqindilarni sanoat usulida qayta ishlash masalasi hal qilinmagan. Yagona Toshkent maishiy chiqindilar tajriba zavodi 1991 yildagina ishlay boshladi.

Ekologik barqarorlik O'zbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta etibor bermoqda. Atrof muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlarni boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab xilma xil xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi.

O'zbekiston MDH davlat boshliqlarining 1992 yil 8 fevralda imzolagan Bitimiga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlariga ana shu ekologik Kengashi doirasida

hamkorligi a'zo davlatlarning atrof muhitni muhofaza qilish sohasida kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan sa'y – harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydi. 1997 yilda 2005 yilgacha atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan foydalanish bo'yicha davlat dasturi qabul qilindi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'zbekiston Respublikasining hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy sohani taraqqiyoti, insonlarning ertangi kunga ishonch tuyg'usini rivojlantirish doimo jamiyatning eng dolzarb muammolaridan bo'lib kelgan. Insonlarga munosib kelajakni ta'minlab berishda shubxasiz ekologik barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifa sanaladi. Barqarorlik bu ayni sohadagi ehtiyojlar va takliflarning mutanosibliigi hisoblanadi. Vazkur soha adabiyotlar tahlili xususida to'xtalganda, sohaga oid qonun hujjatlari, davlat dasturlari, Prezident farmonlari va murojaatlari asosiy manbalar hisoblanadi. Jumladan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Atrof muhit va ekologiya muhofaza to'g'risida", "O'zbekistonni barqaror rivojlanish milli strategiyasi", "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini o'zgartirish hamda vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni yanada rivojlantirish to'g'risida Harakatlar strategiyasi, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi taraqqiyot strategiyasi shular jumlasidandir.

Mazkur qonun va qonun osti hujjatlarini qabul qilishdan va ijroga yo'naltirishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad insonlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, aholi forovonligini oshirish va mamlakatda kambag'allik va qashshoqlikka qarshi kurash tashkil qiladi. Bu jarayonda ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan sohaga oid yangiliklarni joriy qilish mamlakatni jahon standartlariga munosib rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga munosib hissa bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sohaga oid tadqiqot metodlaridan maqola davomida kuzatish, qiyosiy tahlil qilish, dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va juz'iy baholash, solishtirma va omilli tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Jumladan: Mustaqillikning datslabki kunlaridan boshlab O'zbekiston sharoitidagi muammolar sifatida quyidagilar keltirib o'tilgan:

1. Yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi.

2. Suv zaxiralarning, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi.

3. Orol dengizi

4. Havo bo'shlig'ining ifloslanishi

2004 yilda O'zbekiston mintaqada atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bo'yicha milliy dasturni qabul qilgan birinchi davlatlardan biri bo'ldi. Ushbu dastur doirasida havo va suvning ifloslanishini nazorat qilish, o'rmonlarning kesilishini oldini olish va qo'riqxonalarni muhofaza qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tashkil etildi. Jamiyatning o'zgarishi-bu ma'lum bir jamiyat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmalar va institutlar, mafkuralar va madaniyatlarining o'zgarishi jarayoni. Bunday o'zgarishlarga siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy sabablar, voqealar va mafkuraviy o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin. Ko'pgina hollarda, jamiyatning o'zgarishi chuqur oqibatlariga olib keladi va yangi tizimlarning yaratilishiga va madaniyat, ta'lim, hukumat siyosati va boshqalar bilan bog'liq masalalarda sezilarli o'zgarishlarga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Sohadagi tub transformatsiyalarni amalga oshirishdagi muhim qadamlardan biri 2019 yilda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirliklari tashkil etildi va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga qaratilgan qonunlar qabul

qilindi. Shu bilan birga, O'zbekistonni barcha tirik mavjudotlar uchun toza va xavfsizroq qilish uchun barcha darajalarda ko'proq harakat talab etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish - bu ekologiya sohasidagi inson faoliyatini kuchaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Qabul qilingan usullarga quyidagilar kiradi:

1. Tabiatni muhofaza qilish-bu suv resurslari, o'rmonlar va hayvonot dunyosi kabi tabiiy resurslarni saqlashga qaratilgan chora. Bu chorada biz ko'proq resurslarni shu holda saqlab qolishga harakat qilishimiz zarur. Ularni o'rni muqobil variantlarni tanlash lozim. Masalan, suv resursini qishloq xo'jaligida o'simliklarning kam suv istemol qiladigan va suvsizlikka bardoshli navlarini yaratish. Bunga yana energiya manbalaridan foydalanishda muqobil variantlarni tanlashni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, quyosh, shamol, gidroenergetika, geotermal manbalar, biogaz, biomassa. Yana, qayta tiklash dasturlari tomonidan qayta tiklanadigan o'rmonlarni noqonuniy kesishni taqiqlash, atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladigan texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek chiqindilarni yo'q qilish va qayta ishlash uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, tabiiy hududlarni inson aralashuvidan saqlash va himoya qilish maqsadida qo'riqlanadigan hududlar va milliy bog'lar, himoyalangan tabiiy rezervatlar tashkil etish.

2. Qayta tiklash va tiklash - bu inson faoliyati natijasida yo'q qilingan yoki zarar ko'rgan ekotizimlarni tiklashga qaratilgan choralar hisoblanadi. Antropogen ta'sir natijasida yuzaga kelgan falokatlar va buzilgan ekotizimlarni va turlar populyatsiyasini tiklash jarayoni. Bunda misol uchun "O'zbekiston qizil kitob"iga kiritilgan ayrim qushlar va o'simliklar, hayvonlarni ko'paytirishni olsak bo'ladi. Buni qanday ijtimoiy jihati bor deyilishi mumkin. Ayni tabiatdagi har bir narsa tabiatda ma'lum bir vazifani bajaradi. Ya'ni tabiat zanjirining bir qismini tashkil etadi.

3. Yashash maydoni-bu hayvonlarning yashash maydonini, bonajni va boshqa biologik jamoalarni odamlarning halokatli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan chora. Har bir turning o'zining yashash maydonini tashkil qilishimiz va shuni muhofaza qilish lozim.

4. Havo va suvning ifloslanishi atmosfera, er usti suvlari va er osti suvlarining ifloslanishini cheklashga qaratilgan usuldir. Bu usulda shubxasiz antropogen ta'sir kuchli hisoblanadi. Havoni ifloslanishini kamaytirishda gaz chiqindilarini kamaytirish (carbonat angidrid, nitrat, vodorot sulfid, tionit, uglevod, is) va tabiiy resurslardan foydalanish jarayonini samaradorligini oshirish.

5. Ekologik ta'lim va axborot - bu ekologik muammolarga ongli munosabatni shakllantirish va jamoatchilikni tabiatni muhofaza qilish zarurligi to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan chora. Bu ta'limni jamiyatning har bir bo'g'inidan boshlash va bu jarayonda maqsadli va bahamjihat harakat qilish lozim.

6. Ekologik monitoring ekotizimlarning holatini va yashash maydonidagi o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi. Monitoring ma'lumotlari hayvonlarning asosiy tahdid manbalariga ta'sirini oldini olish uchun ishlatilishi mumkin, shuningdek, hayvonlarning yashash sharoitlarini yaxshilash va ularning yashash joylarini saqlash bo'yicha ilmiy dasturlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Tabiatni muhofaza qilish ekologik barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi va kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga imkon beradi. Tabiatni muhofaza qilish bizning sivilizatsiyamizning vazifasidir va uni amalga oshirish har birimizga bog'liq, shuning uchun biologik va ekologik xilma-xillikni saqlash uchun tabiiy resurslardan foydalanishning oqilona tamoyillariga rioya qilish muhimdir.

O'zbekiston so'nggi yillarda ekologik ahvolini yaxshilash va ekologik barqarorlikka erishish uchun katta sa'y-



harakatlarni amalga oshirdi. Bu sohada mamlakatning ba'zi yutuqlari:

1. Mamlakat Parij iqlim kelishuvini imzoladi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha milliy harakat dasturini qabul qildi.

2. O'zbekiston quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bilan shug'ullanadi. Masalan, Markaziy Osiyodagi birinchi 100 megavatt quvvatga ega quyosh elektr stantsiyasi qurildi.

3. Tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi Daryo va ko'llarda suv sifati nazorat qilinadi.

4. Shaharlarda daraxt ekish va bog'lar yaratish ishlari olib borilmoqda va shaharlarda havo ifloslanishiga qarshi choralar ko'rilmogda.

5. Biologik xilma-xillikni saqlash va qo'riqxonalar, milliy bog'lar va boshqalar kabi tabiiy resurslarni saqlash choralari ko'rildi.

Ushbu yutuqlar O'zbekiston mamlakatda ekologik barqaror rivojlanishga erishish yo'lida faol ish olib borayotganini ko'rsatmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sohaga oid ma'lumotlar vamuammolarni chuqur tahlil qilgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi deb quyidagilarni belgilash mumkin:

Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish. Qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzulishiga olib keladigan barcha zaxarli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qa'iy mezon asosida istemol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor. Katta katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning namini qochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish) lozim. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-kitob, Toshkent: "O'zbekiston", 2018,-B. 252.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 17 b.
3. I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" – T. O'zbekiston. 1997 yil, 19 b
4. Mamashokirov S. "Vahimami yoki haqiqat". – T. "Iqtisod - moliya", 2012 y. 28 b
5. Cris Pak "Terraforming ecopolitical Transformations and Environmentalism in Science Fiction" Liverpool University Press. 2016 20-78 pg
6. O'.Tilabov "Global barqaror taraqqiyot tizimida ekologik partiyalar faoliyatini takomillashtirish strategiyasi", - T. "Renesans", 2020 y. 3,8,71,79,98 b
7. S.Mamshokirov, S.Usmonov "Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari" – T.: Ma'naviyat, 2008. 250 b



УДК: 796(001)

*Любовь БУРНЕС,*

*Ст. преподаватель Национальный Университет Узбекистана*

*E-mail: Бурнесанатолевна@gmail.com*

*Рецензент Старший преподаватель ТУИТ имени М. ал-Хоразмий: Васильева Е.Б.*

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA GIMNASTIKA NAZORAT TESTLARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sportningjamiyatdagi o'rni hamdaoliy oquv yurtlarida jismoniy tarbiya o'qitishning asosiy muammolari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Sport, jismoniy tarbiya, ommoviy sport, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, munosabat, mashqlar turlari bo'yicha, mashqlar to'plami.

## USE OF GYMNASTIC CONTROL TESTS IN THE DEVELOPMENT OF TEACHING SKILLS IN HIGHER

Annotation

This course is about the role of physical education and sports in society. Also, the main problems of passing physical education and sports as a science in universities will be covered.

**Key words:** Sports physical education mass sports, healthy lifestyle stele promotion, attitude, by type of exercise, set of exercises.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГИМНАСТИЧЕСКИХ КОНТРОЛЬНЫХ ТЕСТОВ В РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

Данная статья о роли физической культуры и спорта в обществе, а также об основных проблемах преподавания физической культуры в вузах.

**Ключевые слова:** Спорт, физическая культура, массовый спорт, пропаганда ЗОЖ, отношение, по видам упражнений, комплекс упражнения.

**Введение.** Необходимость повышения уровня специальной физической подготовленности юных гимнасток объясняется, прежде всего, прогрессирующим ростом разрядных требований. Значительное усложнение соревновательных комбинаций, увеличение количества выполняемых упражнений требует от юных спортсменок высокого уровня технической подготовленности. Известно, что без должного развития двигательных качеств невозможен прогресс в техническом мастерстве гимнасток. Особую актуальность в связи с этим приобретает поиск новых, эффективных упражнений, методов с целью достижения необходимого уровня специальной физической подготовленности, позволяющего добиться более высоких результатов в соревновательных упражнениях. В обучении студентов теми или иным упражнениям преподаватели гимнастики накопили достаточный опыт и термины «программирование», «алгоритмизация» для нас являются до некоторой степени лишь заменителями слов: «тематизированная программа», «последовательность обучения» и других хорошо известных нам по существу, то в занятиях по формированию педагогических умений мы едва еще прошли стадию исходного положения. Предстоит решать многие вопросы, связанные с проведением этих занятий и в частности: уточнить их содержание, определить объем педагогических умений вплоть до частных приемов, найти наиболее рациональную последовательность формирования педагогических умений и организацию занятий учебной практикой.

**Анализ литературы по теме.** В представленном тезисе речь пойдет, в основном, только о

последовательности формирования педагогических умений и навыков у студентов в процессе учебных занятий гимнастикой. Решение этой проблемы связано с определением последовательности формирования педагогических умений в различных аспектах, а именно: в какой последовательности обучать студентов умению проводить различные виды упражнений, в какой последовательности формировать педагогические умения и даже в какой последовательности целесообразнее обучать студента частным педагогическим приемам. Поиски удовлетворительных ответов на эти вопросы связаны с некоторыми трудностями. Программируя процесс формирования педагогических умений, неизбежно приходится сталкиваться с рядом иногда враждующих между собой факторов.

К ним (враждующим и сопутствующим факторам) относятся:

- а) уровень знаний студентов;
- б) техническая подготовленность студентов в данном виде упражнений;
- в) сроки прохождения педагогической практики;
- г) доступность выполнения задания для студента;
- д) трудоемкость и многообразие педагогических;
- е) фактор положительного переноса;
- ж) алгоритмизация.

О последовательности формирования педагогических умений по видам упражнений. Несмотря на то, что все по названию педагогические умения (подача команд, информирование, помощь занимающимся и т.д.) в общем виде проявляются при проведении любых видов упражнений занятиях гимнастикой и что некоторые из этих умений имеют положительный перенос, все же мы

обучаем студентов преподавать не по категориям педагогических умений, а по видам упражнений. Это объясняется и специфическими особенностями одних и тех же (по названию) педагогических умений при проведении различных видов упражнений и неизбежными в этих случаях организационными неудобствами, а главное - реальной опасностью лишиться предметности обучения. Для проведения любого вида упражнений ведущий занятий должен уметь: подавать команды и распоряжения, информировать занимающихся о предстоящих действиях, оказывать помощь, видеть и запоминать увиденное, проявлять учебную и дисциплинарную требовательность, применять методические приемы обучения. Вариативные возможности для решения этой задачи очень велики - от одновременного фронтального обучения всему сразу до любого из многочисленных сочетаний. Опыт работы показывает, что навыки практиканта, не связанные с действиями его учеников (произношение команд, показ и т.д.), доступнее сформируются легче. Действия же практиканта, при которых внимание его обращено и на свои действия и на действия учеников (оказание помощи, требовательность и т.п.), требуют больших напряжений и поэтому их следует формировать позже.

О последовательности формирования частных приемов внутри отдельного педагогического умения. Пожалуй, наибольшие возможности к алгоритмизации занятий учебной практикой представляет процесс обучения студентов частным приемам внутри отдельного педагогического умения. Настойчивые попытки к определению и целесообразной последовательности обучения студентов частным приемам, а также опытная проверка различных вариантов уже теперь дают обнадеживающие результаты. Суть нашего опыта следующая: в каждом из шести различных (по названию) педагогических умений определены частные педагогические приемы и очередность обучения им. Например, формируется у студента умение проводить обще развивающие упражнения и, в частности, умение оказывать помощь занимающимся. Рекомендуется следующая очередность овладения частными педагогическими приемами, оказание помощи подсчетом, затем подсказывающим зеркальным показом и, наконец, подсказом. Такая последовательность более доступна практиканту и дает лучшие результаты при меньшей затрате времени на формирование педагогических умений.

**Методология исследования.** Выявить наиболее целесообразную последовательность упражнений на развитие и дальнейшее совершенствование специально-физической подготовки гимнасток. Как показал анализ специальной литературы и материалы проведенных исследований физическая подготовка гимнасток - это организованный процесс, направленный на: всестороннее развитие организма спортсменок - укрепление опорнодвигательного аппарата, сердечно-сосудистой и дыхательной систем, совершенствование деятельности вегетативной и центральной нервной систем; укрепление здоровья и повышение работоспособности; развитие физических качеств, необходимых для успешного освоения техники упражнений спортивной гимнастики и исполнение их с требуемым качеством (амплитудой, скоростью, силой и др.)

В настоящее время в видах спорта со сложной координацией движений выделяют семь основных физических способностей, иногда их называют двигательными или психомоторными: координация, гибкость, сила, быстрота, прыгучесть, равновесие, выносливость. В последнее время в специальной

литературе по спортивной гимнастике предпринимаются попытки ранжировать физические качества по значимости. Это нецелесообразно, так как спортивная гимнастика многоплановый вид спорта и разные виды многоборья требуют различного уровня развития физических качеств, которые необходимо повышать до максимально возможного уровня - это скоростно-силовые качества, координация и гибкость. Специфика физической подготовки по мнению ведущих специалистов в спортивной гимнастике, определяется тем, что цель упражнений состоит в достижении гармонии движений. Основными принципами специальной физической подготовки занимающихся спортивной гимнастикой являются: соразмерность и сбалансированное развитие физических качеств; сопряженность - применение средств, наиболее близких по структуре основным упражнениям спортивной гимнастики; опережение - опережающее развитие физических качеств по отношению к технической подготовке. Основными средствами СФП гимнасток являются: специально-двигательные, акробатические и хореографические упражнения, программные упражнения на видах многоборья, а также специальные упражнения: на ловкость - задания, игры, эстафеты, включающие сложно координированные действия и упражнения на снарядах; на гибкость - упражнения на развитие подвижности в голеностопных и тазобедренных суставах, суставах позвоночника и плеч - пружинное растягивание, махи, фиксация поз, расслабление; на силу - упражнения на силу мышц рук, ног и туловища: сгибание и разгибание, отведение и приведение, круговые движения, бег, прыжки выпады, приседы и т.д.; на быстроту - упражнения на развитие скоростных уровней их проявления. Особо выделить можно, пожалуй, только два качества, развивать которые необходимо до максимально возможного уровня - это координацию и гибкость; на прыгучесть - упражнения на развитие силы, скорости и высоты отталкивания, а также прыжковой выносливости; на равновесие - сохранение устойчивого положения в усложненных условиях: после динамических движений, после раздражения вестибулярного анализатора, с выключенным зрением, на уменьшенной и повышенной опоре; на выносливость - выполнение различных заданий на фоне утомления. Основными методами СФП гимнасток являются: повторный, переменный, круговой, игровой и соревновательный.

**Анализ и результаты.** Организация специальной физической подготовки гимнасток осуществляется в следующих формах:

- а) комплекс специальных упражнений;
- б) в виде круговой тренировки;
- в) в форме соревнований.

При проведении комплексов упражнений, круговой тренировки и соревновании необходимо учитывать влияние (перенос) одних физических качеств на другие: положительное и отрицательное, прямое и косвенное, одностороннее и взаимообразное. Исследования показали, что ловкость, быстрота и прыгучесть не могут развиваться на фоне возрастающего утомления. Под влиянием утомления снижается также активная гибкость, а для качественного исполнения упражнений на гибкость, быстроту и прыгучесть необходима хорошая разминка. С учетом вышесказанного может быть рекомендована следующая последовательность заданий на развитие физических качеств, в процессе учебно-тренировочного занятия общая и специальная разминка на видах многоборья упражнения на гибкость упражнения на быстроту упражнения на

прыгучесть упражнения на координацию упражнения на равновесие упражнения на силу на выносливость.

Под общепринятым выражением «инклюзивное образование» (включенное образование) принято считать систему образования, организованную с точки зрения кадрового, научно-технического потенциала и материальной составляющей таким образом, чтобы были учтены потребности каждого участника процесса образования, независимо от состояния его здоровья и физических возможностей. Понимание идей, ценностей и преимуществ, которые дает обществу «инклюзивное образование» - процесс длительный, требующий активной работы по повышению уровня информированности общественности, изменению сознательного отношения к проблемам людей с ограниченными возможностями здоровья и пониманию важности качественных и количественных перемен в этой связи. Спортивные достижения этих атлетов продемонстрировали всему миру, что физическая подготовка, смелость, упорство и, зачастую, титанический труд, способны преодолеть

любые преграды и победить даже самые, на первый взгляд, «непобедимые» недуги.

**Выводы и предложения.** Именно к физической культуре и спорту, стимулирующим физическое и ментальное развитие личности, сегодня обратилось общество в проведении мероприятий по пропаганде здорового образа жизни, привлечению людей с особыми потребностями к регулярным тренировкам, а также продвижению идей гуманизма и толерантности. Изменения в политическом курсе и общественных процессах открыли двери учебных заведений для многих молодых людей с ОВЗ. И сегодня перед администрацией высших учебных заведений нашей страны и их педагогическим составом стоит важный вопрос организации адекватного учебного процесса, удовлетворяющего потребности каждого студента и учитывающего особенности его здоровья и физического состояния. И главным образом, это касается развития качественно новой концепции организации учебного процесса и формирования новых ценностей.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан» от 24 января 2020 года № УП-5924.
2. Григорьянц, И. А. Психологическая подготовка юных гимнастов: Метод, раз-раб. для студ. Академии / И. А. Григорьянц. – М. 1993. – 41 с.
3. Немов, Р. С. Общая психология: учебник / Р. С. Немов. – М. :Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. – 400с.
4. Гимнастика учеб. пособие для студентов / под ред. М.Л.Журавена, Н.К.Меншикова. - М; Академия 2021г-448с.
5. Кизиллов, Л.И. Научное управление тренировочным процессом высококвалифицированных легкоатлетов: практическое руководство / Л.И. Кизиллов, М.П. Спирина; под научным руководством В.П. Шлыкова. – Екатеринбург: Гуманитарный ун-т, 2017. – 77 с.
6. Холодов, Ж. К. «Теория и методика физического воспитания и спорта». учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Ж. К. Холодов, В.С. Кузнецов В.С. -М.: Издательский центр «Академия», 2003. - 480 с.



UDK: 159.944

**Manzura BURXONOVA,**  
Samarqand davlat doktoranti  
E-mail: burkhanova.manzura@gmail.com

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida*

## BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKMASINI OSHIRISHNING MUHIM JIHLATLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi va uning hayotimizda tutgan o'rni va hayotimizda dolzarb o'rin egallaganini e'tirof etishimiz joiz. Maqolada sog'lom turmush tarzi tushunchasi mazmuni ochib berilgan. MDH davlatlari va O'zbekistonda bu mavzu borasida olimlarning qilgan ishlari va nazariyalarini misol tariqasida keltirilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shallantirish omillari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Sog'lom turmush tarzi, psixologik-pedagogik yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, pedagog, kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, imkoniyat, ko'nikmalar.

## ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ

Аннотация

Сегодня невозможно не признать, что здоровый образ жизни и его роль в нашей жизни занимают важное место. В статье мы попытались раскрыть понятие здорового образа жизни. Мы привели примеры работ и теорий ученых стран СНГ и Узбекистана по этой теме. Мы включили наши мысли о факторах, влияющих на навыки здорового образа жизни у учащихся начальной школы.

**Ключевые слова:** Здоровый образ жизни, психолого-педагогический подход, будущий учитель, педагог, компетентность, начальное образование, возможности, навыки.

## IMPORTANT ASPECTS OF IMPROVING HEALTHY LIFESTYLE SKILLS OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Annotation

Today, it is impossible not to recognize that a healthy lifestyle and its role in our lives have an important place in our lives. In the article, we tried to reveal the concept of a healthy lifestyle. We have given as an example the works and theories of scientists in the CIS countries and Uzbekistan on this topic. We have included our thoughts on the factors affecting healthy lifestyle skills in elementary school students.

**Key words:** Healthy lifestyle, psychological-pedagogical approach, future teacher, pedagogue, competence, primary education, opportunity, skills.

**Kirish.** Bugungi kunda davlatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi muhim o'rin egallamoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi esa bevosita ijtimoiy jamiyatda sog'lom turmush tarzini qay darajada qaror toptirishga bog'liq. Inson salomatligini ta'minlash tabiiy atrof-muhit holati bilan bir qatorda, ijtimoiy hayot, insonning ya'ni bo'lajak avlodning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Falsafiy jihatdan nazar tashlasak inson biopsixosotsial tizim bo'lib hisoblansa, insonning biologik, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta'minlash jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish asosida amalga oshiriladigan jarayondir. Yoshlarimizni jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbus loyihasi doirasida ham nazarga olinganini barpo etilgan ko'plab stadionlar, suv havzalari, sport majmualari va saroylardan bilishimiz mumkin.

Sog'lom turmush tarzi jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan barcha o'zgarish va yangilanish jarayonlarining asosini tashkil etayotganini ham ko'rib turibmiz. Sog'lom turmush tarzi - bu insonning xatti-harakatlarining yakka, takrorlanmas, o'ziga xos (individual) tizimi bo'lib, unga haqiqiy muhitda (tabiiy, texnogen va ijtimoiy) jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik va uzoq umr ko'rishni ta'minlab beradigan omildir. Sog'lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy

jarayonlarning normal borishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi va bu turli kasalliklarning ehtimolini kamaytirishi bilan birga va insonning umr ko'rish davomiyligini yanada oshiradi. Sog'lom turmush tarzi bizning maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishda, rejalarimizni samarali davom etishida, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Salomatlik har bir insonning, umuman, butun jamiyatning bebaho boyligidir va buni qadrini yoshlarga o'rgatib, ularning ongida sog'lom turmush tarzi degan tushunchaning naqadar samarali va foydali ekanligini anglab yetishga ko'maklashish ustozlar zimmasidagi muhim vazifalardan biridir.

**Muhokama va natijalar.** Bolaning to'liq jismoniy rivojlanishi hamda sog'lig'i shaxsiyatni shakllantirishning asosidir. Salomatlik madaniyatini bolalarda erta shakllantirish muammosi o'z vaqtida ham sodda hamda juda murakkab. Boshlang'ich maktab yoshi jismoniy va ruhiy salomatlikni shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki 7-10 yoshda organlarning intensiv rivojlanishi va tananing funksional tizimlarining shakllanishi sodir bo'ladi, xarakter va asosiy shaxsiy xususiyatlar shakllanadi. Bu yosh davrida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi bo'yicha bilimlar va amaliy ko'nikmalarini, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishni, chiniqtirish, to'g'ri rejim, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena kabi tushunchalarni zaruriy ehtiyojlar sifatida shakllantirish kerak[4]. Jamiyat

hayotida salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyojidan biri bo'lib, uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi. Sog'lom turmush tarzi – axloqiy, faol, mehnat, sabr-toqat tamoyillariga asoslangan va shu bilan birga, atrof-muhitning salbiy ta'siridan himoya qiluvchi, keksalikka qadar axloqiy, aqliy va jismoniy salomatlikni saqlashga imkon beradigan hayot tarzidir. Sog'lom turmush tarziga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: samarali mehnat, ratsional ovqatlanish, biologik ritmga rioya qilish, optimal harakat rejimi, shaxsiy gigiena, kundalik rejimga rioya qilish. Tadqiqotimizning dolzarbligi boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish asoslarini tashkil etishga nazariy yondashuvlarning to'liq emasligi bilan belgilanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Ammo N.A Andreeva, V.A. Derkunskaia, L.I. Ponomareva, Z.I. Tyumaseva, S.B. Sharmanova kabi zamonaviy olimlarning tadqiqotlari shuni isbotladiki, bola aynan boshlang'ich maktab yoshida o'zining sog'lig'iga, uni saqlashga va mustahkamlashga qiziqish bildiradi boshlaydigan davr deb o'z ilmiy qarashlarini taqdim etdilar [4]. Sog'lom turmush tarzi, salomatlikdeganda asosiy uch turini ko'plab adabiyotlarda uchratishimiz mumkin bo'lib, bular jismoniy, aqliy va axloqiy (ijtimoiy) salomatlikdir. Jismoniy salomatlikning mohiyati shundan iboratki, agar barcha organlar va tizimlar yaxshi ishlasa, unda butun inson tanasi fiziologik jihatdan to'g'ri ishlaydi va rivojlanadi. Ruhiiy salomatlik miyaning holatiga bog'liq bo'lib, u fikrlash darajasi va sifati, diqqat va xotiraning rivojlanishi, hissiy barqarorlik darajasi, irodaviy fazilatlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Axloqiy salomatlik insonning ijtimoiy hayotining asosi bo'lgan axloqiy tamoyillar bilan belgilanadi. Shaxsning axloqiy salomatlik belgilari, eng avvalo, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, madaniyat xazinalarini o'zlashtirish, oddiy turmush tarziga zid bo'lgan odat va odatlardan faol ravishda voz kechishdir. Yuqorida keltirilgan olimlardan tashqari bugungi kunga kelib, pedagogika nazariyasi sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini tarbiyalash uchun boshqa yana bir olimlar guruhi quyidagi tizimlarni yaratdi:

-faoliyatga asoslangan (V.M.Vydrin, M.S.Kagan, L.P.Matveev), shaxsning har tomonlama va barkamol rivojlanishiga, uning o'zini o'zi anglash va tasdiqlash qobiliyatiga e'tibor qaratishda namayon bo'ladi;

- tizimli-integral (N.M.Boritko, Yu.M.Nikolaev, V.I.Stolyarov), shaxsni tabiiy va ijtimoiy birlik, jismoniy (jismoniy) va ma'naviy (ijtimoiy) taraqqiyot munosabatlari, yaxlitlik va uyg'unlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish;

- ijtimoiy-madaniy (I.M.Bixovskaya, V.A.Petkov, V.I.Stolyarov), unga ko'ra salomatlik hodisasi ijtimoiy-madaniydir, chunki muayyan jamiyatning ijtimoiy va madaniy makonidagi turli o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq [5.3]

Salomatlik darajasini oshirishning asosiy vazifasi insonning o'zini tiklash va hayotiy imkoniyatlarini rivojlantirish, tanasining holati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ongli ravishda qabul qilishi, yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday ishni boshlang'ich maktab yoshidayoq boshlash kerak, chunki bu davrda bolaning shaxsiyati rivojlanadi, u o'z

hayotining sub'ektiga aylanadi, atrofidagi jamiyatda o'z hayot yo'nalishini tartibga soladi, bu jamiyatda o'ziga xos o'rin egallaydi va vazifalarni bajaradi. (L. M. Fridman).

Yangi O'zbekistonda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash hamda, sog'lom avlodni o'stirish bugungi kundagi muhim vazifalardandir. Jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o'quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta'lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. O'zbekistonlik faylasuf olimlardan I.Shodimatov, O.Oqilov, K.Sodiqov, Sh.Bo'tayev, X.A.Shayxova, Q.N.Nazarov, M.M.Qahharova, G.H.Tillayeva, N.E.Temirovalar sog'lom turmush tarzi va uning falsafiy masalalari sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Sog'lom turmush tarzi– faol mehnat qiladigan, mehnatga ijodkorlik asosida yondashadigan, kuchli jismoniy va ruhiy bosimlarni, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni engil tarzda bartaraf etadigan, har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidan iborat bo'lib, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tafakkuri, sog'lomligi ularning mulkka, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan qarashlarida ham ijobiy natijalarga olib keladi[3].

**Xulosa.** Boshlang'ich maktablarda kichik yoshdagi maktab o'quvchilari va sog'lom turmush tarzi o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirish uchun o'qituvchilar, ota-onalar va tibbiyot xodimlarining taklifi bilan suhbatlar, musobaqalar, bahslar, salomatlik kunlari, musobaqalar, jismoniy tarbiya festivallari, ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazish kerak. Kichik yoshdagi o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oila va maktabning umumiy faoliyati o'ta-onalar, o'qituvchilar va tibbiyot xodimlarining o'quv, jismoniy tarbiya va dam olish tadbirlarini amalga oshirishda majburiy jalb qilinishi hamda ularning rejalashtirishda, loyihalashda faol ishtirok etishini ta'minlashni inobatga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sog'liqni saqlashni yaxshilash yo'nalishi bo'lgan jismoniy tarbiya bo'yicha sog'liqni saqlash dasturlarini ko'paytirish va amalda qo'llanishini ta'minlash lozim.

Sog'lom turmush tarzi murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'zida ifodalaydi va sog'lom turmush tarzining mezonlariga shaxsning jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko'rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi, oilada va kundalik turmushda namunali yashashi, o'zidagi jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga intilishi, tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi, sog'lom va barkamol inson bo'lib shakllanish uchun o'z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi, nosog'lom turmush tarziga xos zararli odatlarning ta'siriga tushib qolishdan o'zini asrashga intilib yashashi, hayotda to'g'ri yashayotganidan qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi, sog'lom turmush tarzini o'zi uchun bir umrga maqsad qilib tanlashi va shu yo'lda faoliyat olib borishi kabi qimmatli insoniy sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Burkhonova M.. (2023). Development of healthy lifestyle competencies and medical literacy in adolescents. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(2 Part 2), 23–26.
2. Burkhonova, M. . (2023). Opportunities for developing competence in medical culture and healthy lifestyle within the training of the future primary school
3. Jalilov, Baxtiyor Norqulovich. Sog'lom turmush tarzi va uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar // orienss. 2023. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sog-lom-turmush-tarzi-va-uning-shakllanishiga-ta-sir-ko-rsatuvchi-omillar>.
4. Сыропятова Ольга Павловна. Педагогические условия формирования основ здорового образа жизни при взаимодействии с социальными партнерами. Выпускная квалификационная работа.
5. Савинова, С. В. Совместная деятельность педагогов и родителей как условие воспитания ценностного отношения к здоровью у младших школьников [Электронный ресурс] / С. В. Савинова.//Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Волгоград, 2012. – URL : [vspu.ru/sites/default/files](http://vspu.ru/sites/default/files)



*Nilufar DJURAYEVA,*  
*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: nilufar@gmail.com*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida*

### TALABALARDA SAMARALI MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH UCHUN INNOVATSION TA'LIM STRATEGIYALARITNING AHAMIYATI

Аннотация

Muloqot – bir birimizga fikrlarimizni, tuyg'ularimizni, tasavvur va g'oyalarimizni yetkazib beruvchi vosita. Har bir talaba, albatta, samarali muloqot ko'nikmalariga muhtoj. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilar talabalar o'rtasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi tezkor zamonda darslarda innovatsion usullar va strategiyalardan foydalanishga talab ortib bormoqda, talabalar o'rtasida kommunikatsiya ko'nikmalarini oshirish uchun turli xil sifatli o'quv resurslarini shakllantirishni talab etmoqda. Ushbu maqolada talabalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlanishi va kelajakda yetuk kadr bo'lib yetishishida raqamli resurslarning o'rni haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Muloqot, kommunikatsiya, ko'nikmalar, o'qituvchilar, talabalar, o'quv resurslari, dars, qobiliyatlar, jarayon, rivojlanish, jamiyat, blog, elektron kitoblar.

### ЦЕННОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Общение – это средство передачи наших мыслей, чувств, воображения и идей друг другу. Каждому студенту обязательно нужны эффективные коммуникативные навыки. В связи с этим учителя играют важную роль в развитии коммуникативных навыков у учащихся. В современном быстро меняющемся мире возрастает потребность в использовании инновационных методов и стратегий на занятиях, что требует формирования различных качественных образовательных ресурсов для повышения коммуникативных навыков учащихся.

**Ключевые слова:** Коммуникация, общение, навыки, учителя, ученики, учебные ресурсы, урок, процесс, развитие, сообщество, блог, электронные книги.

### THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE LEARNING STRATEGIES TO DEVELOP EFFECTIVE STUDENTS COMMUNICATION

Annotation

Communication is a means of conveying our thoughts, feelings, imagination and ideas to each other. It is mandatory for every student to have effective communication skills. Therefore, teachers play an important role in developing communication skills in students. In today's fast changing world, there is an increasing need to use innovative methods and strategies in the classroom, which requires the formation of various quality educational resources to enhance students' communication skills.

**Keywords:** Communication, communication skills, teachers, students, teaching resources, lesson, process, development, community, blog, e-books.

**Kirish.** Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy usuri hisoblanadi.

Muloqot odamlarning mazmunli o'zaro ta'siri jarayoni sifatida ta'riflanishi mumkin. Muloqot - bu gapirish, yozish yoki imo-ishoralar qilish orqali har qanday xabar etkazish yoki qabul qilish jarayoni [1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** L.N.Kulikova, A.V.Molovajenko, V.N.Myasichevlar o'z ishlarida muloqotning talaba shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta baho berganlar. Psixologlar shaxsning muloqot imkoniyatini aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilganlar. «Nima uchun muloqot qilish kerak?». Mazkur savolga quyidagicha javob olganlar: «muloqot kishilar orasida umumiylikni tarkib toptiradi, ularning birgalikdagi faoliyatini boshqaradi, bilish usuli sifatida namoyon bo'ladi, alohida shaxslarni bilish asosi sifatida xizmat qiladi. Shu

tariqa muloqot, shaxsning o'z-o'zini aniqlashiga xizmat qilib, uning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishini ta'minlaydi va muloqot sub'ektlari orasida o'zaro hamkorlik muhitini vujudga keltiradi».

A.A.Leontievning ta'rifidagi pedagogik muloqot "...o'quvchining motivatsiyasi va ta'lim faoliyatining ijodiy xarakterini rivojlantirish, o'quvchining shaxsini to'g'ri shakllantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadigan o'qituvchi (va kengroq ma'noda - o'qituvchilar jamoasi) o'quv jarayonida maktab o'quvchilari bilan aloqador. O'rganish uchun qulay hissiy iqlimni ta'minlaydi (xususan, "psixologik to'siq" paydo bo'lishining oldini oladi). Bolalar jamoasidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqarishni ta'minlaydi va ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiy xususiyatlaridan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi" [8].

Muloqot shaxsni psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Muloqot ko'nikmalari butun insoniyat uchun zarurdir, boshqa odamlar bilan sifatli aloqa o'rnatish va ijtimoiy moslashuvlarni o'zichiga oladi. Dastlabki minimal muloqot qobiliyati har bir insonda bor, lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, bu qobiliyatlar ko'pincha turli muammolarni hal qilish uchun etarli

bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, bu ko'nikmalarni rivojlantirish vatakomillashtirish kerak. Talabalar o'rtasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchining o'zni juda muhimdir. Ular barcha talabalarning kuchli va zaif tomonlari turlicha ekanligini tushunishlari kerak [2]. O'qituvchi faqat muloqot qobiliyatlarini orqali talabalarning muammolariga ijodiy va samarali echimlarni taklif qilishi mumkin. Auditoriyadagi muhit ko'p jihatdan uning ichida sodir bo'ladigan muloqot sifatiga bog'liq.

O'qituvchi talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini oshirish uchun chora ko'rishi bu esa o'z o'rnidagurux muhitiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali muloqot ko'nikmalariga ega talabalar darsdagi muhokamalarda faol ishtirok etadilar, guruh loyihalari samaraliroq qatnashadilar va bu orqali o'zlarining tajribalarini oshiradilar. Xuddi shunday, o'qituvchilar ham eng so'nggi o'quv manbalaridan xabardor bo'lishlari kerak, kompyuterlar, video konferentsiya va ayniqsa internetdan foydalanish kabi. Bu ham o'quvchilarning o'quv jarayonlariga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Muloqot ko'nikmalarini o'rgatishning muhim elementi o'quv qurollaridan foydalana olishdir. Hammamiz eshitganmiz: "Eshitganimni unutaman, ko'rganimni eslayman; men bajarganimni, unutmayman." Rasmlar, plakatlar va amaliy ko'rgazmalar muloqotni yaxshilaydi va biz ularni imkon qadar tez-tez ishlatishimiz kerak. Qog'oz, plakatlar, doska yoki proyektorlardan mashqlar tayyorlash uchun foydalanishimiz mumkin. Raqamli axborot vositalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab yangi shakllar kirib kelmoqda [3].

**Muhokama va natijalar.** Hozirgi kunda Respublikamizdagi ko'plab oliy o'quv yurtlari mavjud ta'lim texnologiyalarini amaliyotga integratsiya qilishmoqda. Raqamli axborot vositalaridan o'qitish jarayonida foydalanishning bir qancha afzalliklari bor.

- a) *O'quvchilarning ishtiroqini oshiradi;*
- b) *O'quvchilarni zeriktirmaslik;*
- d) *Dars jarayonini osonlashtiradi;*
- e) *O'quv jarayonini tizimlashtiradi.*

Raqamli axborot texnologiyasini ta'limning ustuvor yo'nalishi sifatida tobora ortib bormoqda. Shulardan ba'zilari:

**Podkastlar** – (yoki oqimsiz veb-translyatsiya) raqamli media fayllari seriyasidir, (audio yoki video) ular epizodik ravishda chiqariladi va tez internet orqali yuklab olinadi. Podkastlarning ko'plab foydali xususiyatlari mavjud; talabalar va o'qituvchilarga istalgan vaqtda yoki ma'lumot almashishimkonini beradi. Agar talaba darsga ishtirok etolmay qolsa, uni bemalol yuklab olishi va vazifani bajarishi mumkin. Muloqot ko'nikmalariga oid ko'plab podkastlar internetda mavjud. Bu talabalarning o'tiladigan mavzuni dars oldidan o'qib olish imkoniyatini beradi.

**Bloglar** – Ular veb-sayt turi yoki veb-saytning bir qismidir. Bloglar odatdamuntazam ravishdabir shaxs tomonidan yuritiladisharhlar voqealar tavsifi, video kabi boshqa materiallaryozuvlari bilan saqlanadi. Yozuvlar odatda teskari xronologik tartibda ko'rsatiladi. Aksariyat bloglar interaktiv bo'lib, tashrif buyuruvchilarga sharh qoldirishlari va hattoki bloglardagi vidjetlar orqali bir-birlariga xabar yuborishlari mumkin. Bloglar foydali ma'lumotlar va maslahatlar almashish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin.

Ayniqsa talabalarga ma'lumotlarni tarqatish uchun foydalaniladi. O'qituvchilar buni ta'minlash uchun bloglarni

yaratishi, kuzatishi va tahrirlashi mumkin. Bloglar yozma muloqot qobiliyatlarini yaxshilaydi. O'qituvchilar bloglarni post (nashr) qilish usuli sifatida ishlatishadi. Uy vazifasi, muhim sanalar, o'tkazib yuborilgan darslar, loyihalar kabi muhim ma'lumotlar, muhokama taxtalar va hamma uchun ochiq bo'lgan boshqa foydali sinf ma'lumotlari qo'yilishi mumkin. Talabalar ushbu ma'lumotlarga uydan yoki internetga ulangan har qanday kompyuterdan kirish mumkin. Talabalar guruh loyihalari uchun boshqa talabalar bilan muloqot qilish uchun bloglardan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari talabalar o'tkazib yuborilgan topshiriq bo'yicha bir-birlariga savollar berish uchun blogga kirishlari mumkin. Shuningdek, bu talabalarga she'riyat, turli xil topshiriqlar, adabiyotlar va insholar ustida hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

Talabalar dastlab matnga, shu jumladan o'z fikrlarini, savollarini berishlari mumkin, boshqa talabalar javob berish imkoniyatiga ega bo'lishadiva bu javoblarga munosabat bildirishlari mumkin. Bu talabalar o'rtasida muloqotni keltirib chiqaradi va ularning tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriradi. Shuningdek, uyatchan bo'lgan talabalargasinfda o'z fikrlari boshqacha yondashuvdan foydalangan holda ifodalash imkonini beradi.

Internetda bepul mavjud bo'lgan ko'plab muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bloglari mavjud. Ta'limda bunday bloglardan to'g'ri foydalanish talabalarning mustaqil fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanish imkonini beradi.

**Elektron kitoblar** – Elektron kitob matn va tasvirga asoslangan raqamli shakldagi computer yoki boshqa raqamli qurilmalar orqali o'qisa bo'ladigan nashrdir. Ba'zan an'anaviy bosma kitobning ekvivalenti elektron kitoblar bo'lishi mumkin. Qog'ozli kitoblar bilan solishtirganda, elektron kitoblar qulayroq va ko'proq manbalarni o'z ichiga oladi. Uni ko'p tillarga tarjima qilinishi mumkin, internetga ulanishi mumkin va kitoblar mazmuni ovoz chiqarib o'qiladigan opsiyasini yoqishi mumkin. Internetda muloqot qobiliyatlarini bo'yicha ko'plab elektron kitoblar mavjud.

**Ilovalar** – Hozirgi kunda talabalarning mobil telefondan foydalanishning ortib borishi shu bilan birgalikda, bilim o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ilovalarni istalgan vaqtda va istalgan joyda bir marta tugmani bosish bilan yuklab olish va smartfonlar, planshetlarda, kompyuterlarda foydalanish mumkin.

Ushbu ilovalarda so'z boyligini oshirish uchun lug'atlar, biznes idiomalar va dunyo bo'ylab eng so'nggi biznes yangiliklari va tahlillari jamlangan. Bularning barchasi talabalarning biznes olamida muvaffaqiyatga erishishiga yordam berish uchun mo'ljallangan.

**Xulosa.** Tegishli metod va o'quv vositalaridan unumli foydalanish talabalarning o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishga va ularni o'quv jarayoniga jalb qilish qaratilgandir. Ushbu usullardan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilab qolmay, ularni mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradi. Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, fikr almashish, bir - biriga ta'sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni ekan. Buni inobatga olib muloqot usullaridan oqilona foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. M. Maxsudova "Muloqot psixologiyasi". O'quv qo'llanma. - T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. - 119 b.
2. Котова, И.Б. Общая психология: Учебное пособие / И.Б. Котова, О.С.
3. Канаркевич. - М.: Дашков и К, Академцентр, 2016. - 480 с
4. Mrs. Shubhangi, R. Khambaya "Developing effective communication skills in students". Scholarly Research Journal for Interdisciplinary Studies, Online ISSN 2278-8808, SJIF 2016 = 6.17, www.srjis.com. UGC Approved Sr. No.49366, NOV-DEC 2017, VOL- 4/37



5. N.B. Djuraeva "The importance of developing culture of communication to future designers ". Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 5 may 2023.
6. N.B. Djuraeva "Developing culture of communication to future designers "
7. Scientific bulletin of Tashkent Pedagogical University №5.2023.ISSN 2181-9580
8. Djuraeva N.B, Usmonova L. Bakirova H.The role of terms of specialty in professionally oriented education.vol 48.No,11.2021
9. Djuraeva N, Palvanova M. The ways of learning phraseologizms with components expressing currency units in teaching process. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020.
10. Leontyev A.A. Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y



UDK: 539:372.853(575.1)

*Pokiza JALOLOVA,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, p.f.d*  
*E-mail:pokiza-namdu@mail.ru*

*O'zMU professori M.Qurbonov taqrizi asosida*

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'LIMGA KREATIV YONDOSHVU

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish, ta'limda bo'lajak mutaxassislarining ilmiy salohiyatini oshirish muammolari, tabiiy fanlar, jumladan, fizikaning atom fizikasi bo'limini o'qitishning tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq qilish, axborot texnologiyalari (AT) imkoniyatlari orqali masofaviy va mustaqil ta'limning elektron-o'quv resurslarini joriy qilish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish maqsadlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tavsifiga bag'ishlanadi. Unda, bo'lajak fizik mutaxassislarini tayyorlashda fizik jarayonlarga oid elektron darsliklar, masofaviy ochiq onlayn kurslar, mashg'ulotlarda ta'lim vositalarini qo'llashga optimal yechimlar tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, fizik jarayonlar, ta'lim, elektron darsliklar, masofaviy ochiq onlayn kurslar, mashg'ulot, atom, axborot texnologiyalari, modul.

## КРЕАТИВНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы организации обучения на основе цифровых технологий в системе высшего образования, проблемы повышения научного потенциала будущих специалистов в образовании, исследование организационно-методических основ преподавания естественных наук, в том числе кафедры атомной физики физмата, внедрение электронно-образовательных ресурсов дистанционного и самостоятельного обучения через возможности информационных технологий (ИТ), технологизация образовательного процесса посвящается описанию научных исследований, направленных на достижение поставленных целей. В нем рекомендованы электронные учебники по физическим процессам, дистанционные открытые онлайн-курсы, оптимальные решения по применению образовательных инструментов в обучении будущих специалистов-физиков.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, инновационные методы, физические процессы, образование, электронные учебники, дистанционные открытые онлайн-курсы, обучение, атомные, информационные технологии, модульные.

## A CREATIVE APPROACH TO LEARNING BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation

This article discusses the issues of organizing digital-based education in the higher education system, the problems of increasing the scientific potential of future specialists in education, the study of the organizational and methodological foundations of teaching natural sciences, including the Department of Atomic Physics of Physics and Mathematics, the introduction of electronic educational resources of distance and independent learning through the possibilities of information technology (IT), the technologization of the educational process is devoted to the description of scientific research, aimed at achieving the set goals. It recommends electronic textbooks on physical processes, remote open online courses, optimal solutions for the use of educational tools in the training of future physics specialists.

**Keywords:** digital technologies, innovative methods, physical processes, education, electronic textbooks, remote open online courses, training, atomic, information technologies, modular.

**Kirish.** Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislar tayyorlash tizimida kredit-modul tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, murakkab effektli xodisalarni IT asosida modellashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetuk ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida, jumladan: Universidad nacional de educación a distancia UNED (Spain), Universidad de Valladolid UVA (Spain), Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), The University of Manchester UOMAN (England), Miyagi Pedagogical University (Yaponiya), Politecnico di Milano POLIMI (Italy), Fundacion Universidad Loyola Andalucía LOY (Spain), Belfield Pedagogical University (Germany), Centre of Increasing Pedagogical Qualification on Base Manchester University (Buyuk Britaniya), Sünne Hanna Eichler SE (Germany), Humance AG HUM (Germany) zamonaviy o'qitish nazariyasi va metodikasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Rivojlangan

xorijiy mamalakatlarining, jumladan, AQSh Texnologiyalar Milliy Universiteti, Gollandiya va Isroilning ochiq Universitetlari, Ispaniyaning masofadan o'qitish Milliy Universiteti, Xitoyning Shanxay teleuniversiteti, Britaniya va Avstraliyaning ochiq universitetlarida masofadan turib o'qitish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini alohida ta'kidlash zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yaratilgan adabiyotlar, ilmiy-metodik ishlanmalar va amaliy ishlarni o'rganish natijasida fanni o'qitish jarayonida keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilayotganligi ma'lum bo'ldi. Mamlakatimiz bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamlilik islohotlar qatorida yurtimiz yoshlari, pedagog xodimlar va barcha soha mutaxassislari dunyo miqyosidagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida bilim olib, o'zaro malaka almashib qaytmoqdalar. Bu ishlarning barchasi zamirida zamon talabiga mos yetuk, bilimli, pedagogik va ilmiy salohiyatli yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsad qilib qo'yilgan. Shunday

ekan, davr talabiga mos yangi ta'lim texnologiyalarini va turli axborot uzatish vositalarini kiritgan holda raqobatbardosh kadrlar salmog'iga qarab «Atom fizikasi» bo'limini o'qitish metodikasi salohiyatini ko'tarishimiz lozim. Bu borada yaratilgan adabiyotlar, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni qisqacha tahlil qildik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'limda axborot texnologiyasi – oldinga qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan, nazariy asoslangan ta'lim jarayonini amalga oshirishning shakllari, usullari, usullari va vositalarining yig'indisidir. Bunda u tegishli ilmiy modellashtirishga (loyihalashtirishga) tayanadi, bu jarayonda ushbu maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda talabning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini uni rivojlantirishning muayyan bosqichida ob'ektiv ravishda bosqichma-bosqich o'lchash va baholash imkoniyati saqlanadi. "Axborot texnologiyasi" har qanday pedagogik tizimda – ilmiy masalalar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy masala o'qitish va tarbiya qilish maqsadlarini ifodalaydigan bo'lsa, u holda axborot texnologiyasi o'qitish va tarbiyalash yo'llari, ulargan erishish vositalarini ifodalaydi.

**Tahlil va natijalar.** Talabning mustaqil ishining ahamiyati va holatini bevosita oshiradi. Agar an'anaviy ta'lim tizimida mustaqil ish o'qish kursining murakkabligining uchdan bir qismini tashkil etsa, ta'limning kredit tizimida u uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Shu sababli, kredit tizimi sharoitida mustaqil ta'lim sifatini oshirish zarur bo'lsa bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun asosiy zaxiralardan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda mustaqil ishning uchinchi varianti ishlab chiqilmoqda va shu bilan bir qatorda oraliq ishlov berilmoqda. Ushbu tur talabalarning katta mustaqilligini, topshiriqlarni yanada ko'proq individuallashtirishini, maslahat punktlarining mavjudligini va topshiriqlarning mazmuni va maslahatlashuv xarakteriga nisbatan bir qator psixologik va pedagogik yangiliklarni ta'minlaydi. Mustaqil ishlarining barcha turlari o'z funksiyalarini bajaradi va bo'lajak mutaxassis uchun bir xil ahamiyatga ega.

Pedagogikaga oid maxsus adabiyotlarda talabalarning ta'lim qobiliyatiga muvofiq ishlab chiqilgan to'rtta mustaqil ishlarining tavsiflari mavjud:

1. Talabalar belgilangan tartibda topshiriqlarning nusxalarini ko'chirishi.

2. O'rganilayotgan ob'ektning turli xil xususiyatlari to'g'risida ma'lumotni ko'paytirish uchun reproduktiv faoliyat, asosan xotiradan tashqariga chiqmaslik.

3. Induktiv va deduktiv usullardan foydalanishni talab qiladigan ma'lum model chegaralaridan tashqariga chiqadigan muammolarni hal qilish uchun olingan vazifalarni mustaqil ravishda ishlatishning samarali faoliyati.

4. Qaror qabul qilishning yangi dasturlarini tuzish, gipotezasi o'xshash fikrlashni rivojlantirish uchun mutlaqo yangi vaziyatlarda muammolarni hal qilishda bilimlarni uzatish bo'yicha mustaqil faoliyat.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda quyidagi fikrlarni hisobga olish kerak.

- o'quv amaliyotida mustaqil ishlash usullarini qo'llashni kengaytirish kerak;

- mustaqil ish usullarini qo'llash mezonlari o'quv materialining mavjudligi va talabalarning ushbu bosqichda undan foydalanishga tayyorligi bo'lishi kerak;

- mustaqil ish usullaridan individual mashqlarni bajarishda ham, materialni mustaqil o'rganish jarayonida mashqlar, topshiriqlar, nazorat savollariga javoblar va hokazolarni bajarishda ham foydalanish kerak;

- mustaqil ish ko'lamini maqbul darajaga etkazish uchun o'quv va ma'lumot materiallari, Internetdagi elektron manbalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish

orqali talabalarning uni bajarishga oldindan tayyorgarligini oshirish zarur;

- o'quv jarayonida talabalardan ijodkorlik, ratsionalizatsiya, innovatsiya elementlarini namoyon etishni talab qiladigan mustaqil ishning bunday usullaridan foydalanish kerak;

- Mustaqil ish usullaridan foydalanganda tabaqalashtirilgan va individual yondashishni unutmastlik kerak. Nafaqat vazifalarning murakkabligini, balki mustaqil topshiriqlarni bajarishda o'qituvchilar tomonidan ko'rsatiladigan yordam choralarini ham farqlash zarur.

Pedagogik adabiyotda mustaqil ishlarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydigan shartlar ham keltirilgan:

1. Kognitiv vazifalarni aniq bayon qilish.  
2. Algoritm, ishni bajarish usuli, talabning qanday bajarish kerakligi haqidagi bilimlari. Hisobot shakllarini, ish hajmini, uni topshirish muddatlarini o'qituvchi aniq belgilab beradi.

3. Konsultatsion yordam turlarining ta'riflari (maslahatlar - o'rnatish, tematik, muammoli).

4. Baholash mezonlarini aniqlash, hisobot.

5. Nazoratning turlari va shakllarini aniqlash (seminar, testlar, muxokamarlar, bahs va boshqalar).

O'qituvchiga topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal qilish ushbu fan bo'yicha mashg'ulotlarni individuallashtirishga yordam beradi.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan kelib chiqib, har qanday o'quv faniga, xususan, atom fizikaga ta'limni individuallashtirish kabi maqsadlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) talabning shaxsiyatining individual xususiyatlarini rivojlantirish va o'rganishda foydalanish;

2) har bir talabning bilim qiziqishlarini rivojlantirish va ulardan foydalanishda;

3) har bir talabning intellektual qobiliyatlari va iste'dodlarini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanish;

4) har bir talaba uchun o'qish qobiliyatining maqbul rivojlanishi;

5) kasbni ongli tanlashga tayyorgarlik;

6) har bir talabning mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish. Shu munosabat bilan, atom fizika o'qituvchisi har bir talabani bilim darajasi, o'rganish ishtiyoqi, qiziqish va qobiliyatlarning samaradorligi nuqtai nazaridan puxta o'rganishi kerak. Buni muvaffaqiyatli bajarish uchun siz tekshirishga qaratilgan test mashqlarining muayyan tizimini qo'llashingiz mumkin:

1) o'rganish darajasi;

2) mustaqil ishlash qobiliyati;

3) o'quv matnini tushunish va tez o'qish qobiliyati;

4) aqlli bo'lish qobiliyati;

5) fizik tafakkurning u yoki bu tarkibiy qismining rivojlanish darajasi;

6) kognitiv qiziqishlar va boshqalar.

Oliy ta'limda mustaqil ishning ikki turi qabul qilinadi: doimiy va uzoq muddatli.

Doimiy mustaqil ish har bir dars uchun o'quv dasturida (ishchi dasturda) berilgan vazifalarga muvofiq talabalar tomonidan olib boriladi. Ularning bajarilishi o'qituvchi tomonidan maslahat darslarida kuzatiladi va baholanadi.

Uchta qiyin darajadagi individual topshiriqlarni bajarish, qoidalarni, ta'riflarni va formulalarni isbotlash, hisobot va yozma ishlar yozish, nazariy savollarga javob berish va hk.

Mustaqil ishni tashkil etishning sanab o'tilgan shakllaridan tashqari, siz krossvordlar, ilmiy fizik muammolarni echish, muayyan mavzular bo'yicha muammolarni echish, turli xil mashqlar va topshiriqlarni bajarish, kompyuterda topshiriqlarni bajarish va kompyuterda

o'quv dasturi bilan ishlash kabi vositalardan foydalanishingiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Oliy ta'lim muassasalarida atom fizikasi mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish metodikasini tahlil qilindi, hamda uning elektron-metodik ta'minotini takomillashtirishga oid zaruriy taklif va tavsiyalar berildi;

“Fizika” darsligi, “Atom fizikasi” O'quv qo'llanma” kabi o'quv Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonida muvofiqlashtirish – kabi o'quv-uslubiy metodik adabiyotlarni

yaratish va ta'lim jarayoniga joriy etish asosida fanga oid o'quv metodik ta'minot takomillashtirildi.

«Atom fizikasi» nomli elektron darslik ta'lim jarayoniga joriy qilindi. Ushbu ishlanma talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy fan yutuqlarini anglash, modda tuzilish nazariyasini aqliy idrok qilishlariga yo'naltirilgan bo'lib, u bo'lajak fizik mutaxassislarining «Atom fizikasi»ga oid qonuniyatlarni chuqur o'rganishi hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jalolova P.M. Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES). – Great Britain, 2020. – Vol. 8, No.3. – pp. 1547– 1553. (ISSN 2056-5852)
2. Jalolova P.M. ICT-based teaching of quantum modeling of atomic // American journal of research. – Amerika, 2021. No.2. – pp. 20 – 24. (ISSN 2573-5624)
3. Jalolova P.M. Hydrogen atom: quantum numbers, energy spectrum, orbital impulse momentum and its spatial quantization // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – Germany, 2021. – Vol. 1, No.2. – pp. 1–4.
4. Jalolova P.M. Kredit-modul tizimida atom fizikasi mashg'ulotlari o'tkazishning tashkiliy metodik masalalari // Academic Research In Educational Sciences. – O'zbekiston, 2021. – Vol. 2, No.4. – pp. 1082-1090. (ISSN 2181-1385)
5. Jalolova P.M. Atom fizikasiga oid murakkab effektli mavzularni tarmoq texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'. – N kis, 2020. – №5/1. – B. 92–96.
6. Jalolova P.M. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy metodik jurnal. – Buxoro, 2021. - №2. - B.172-177
7. Jalolova P.M. Atom fizikasi mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalardan foydalanib tashkil qilish metodikasi // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'. – N kis, 2021. – №3/3. – B.121-125.
8. Jalolova P.M. Atom fizikasiga oid modellashtirilgan ishlanmalarni yaratish va taqdim qilish metodikasi // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2021. –№2 – B. 110-113
9. Jalolova P.M. Kredit-modul tizimida “fizika” fani mashg'ulotlarini AKT asosida tashkil qilish // Fizika, matematika va informatika jurnali. – Toshkent, 2021. - №1. B.74-79
10. Jalolova P.M. Kredit-modul tizimida amaliy mashg'ulotlarni axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish metodikasi // NamDU ilmiy axborotnomasi. - Namangan, 2020. №5 - B.366-371



УДК: 100.940

*Fazilat JO'RAEVA,*  
*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*  
*E-mail:jo'rayevafazilat22@gmail.com*

*TerDPI dotsenti O.Eshmuradov taqrizi asosida*

## FORMING INTEREST IN PRIMARY CLASS STUDENTS FOR SAMPLES OF ARTISTIC LITERATURE

Annotation

The reader will understand the essence of the events, processes, and things he is studying only as a result of reading the artistic work and getting acquainted with the achievements of mankind. As a result, the student establishes a relationship with historical and cultural resources and assimilates them. The process of getting in touch with the surrounding people and the characters of the work is carried out. As a result of personal-oriented reading, the student acquires cultural assets, tolerance, and forms positive behavior.

**Key words:** Physically healthy, mentally and intellectually developed, independent thinker, with a firm outlook on life, formation of interest in fiction literature among students through reading, increasing the reading culture of young people.

## ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕРЕСА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ОБРАЗЦАМ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

Читатель поймет суть изучаемых им событий, процессов и вещей только в результате прочтения художественного произведения и знакомства с достижениями человечества. В результате студент устанавливает связь с историко-культурными ресурсами и усваивает их. Осуществляется процесс соприкосновения с окружающими людьми и персонажами произведения. В результате лично-ориентированного чтения учащийся приобретает культурные ценности, толерантность, формирует позитивное поведение.

**Ключевая слова:** Физически здоровый, умственно и интеллектуально развитый, самостоятельный мыслитель, с твердым взглядом на жизнь, формирование интереса к художественной литературе у учащихся посредством чтения, повышение читательской культуры молодежи.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

O'quvchi badiiy asarni o'qishi, insoniyat erishgan yutuqlar bilan tanishishi natijasidagina, o'zi o'rganayotgan hodisalar, jarayonlar, narsalarning mohiyatini anglab yetadi. Natijada o'quvchi tarixiy-madaniy boyliklar bilan munosabat o'rnatadi, ularni o'zlashtiradi. Atrofdagilar va asar qahramonlari bilan aloqaga kirishish jarayoni amalga oshadi. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik natijasida o'quvchida madaniy boyliklarga egalik, tolerantlik, pozitiv xulq-atvor ko'rinishlari shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, kitobxonlik vositasida o'quvchilarda badiiy adabiyotlarga qiziqishni shakllantirish, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish.

**Kirish.** Respublikamizda so'ngi yillarda kitobxonlik vositasida o'quvchilarda badiiy adabiyotlarga qiziqishni shakllantirish, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishning ustuvor me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi ustivor vazifalar belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni o'qishga nisbatan motivatsiyani shakllantirish, o'quvchilarning muallif shaxsiga qiziqish, badiiy asar mazmunini bilishga undash strategiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, o'quvchilarning gender va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bilishga oid qiziqishlarni shakllantirishni taqozo qiladi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyot namunalariga nisbatan qiziqishni shakllantirish uchun dastlab ularda o'qish motivlarini hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki motivlar faoliyat manbai bo'lib, o'quvchilarda muayyan

harakatlarni amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltiradi va qiziqishlarning qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Kichik maktab yoshi badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda ularni o'qish istagini vujudga keltirish uchun qulay davr hisoblanadi.

O'qituvchi nutqining badiiyligi va his-tuyg'ularga boyligi o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan alohida qiziqish uyg'otadi. O'qituvchining his-tuyg'ulardan xoli bo'lmagan nutqi axborotlarni taqdim etish xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarning kitobxonlik faoliyatini rivojlantirish uchun pozitiv metod hisoblanmaydi.

O'qilgan matnni hissiy idrok etish muallifning tuyg'ularini anglashlari uchun o'quvchilarga o'qituvchining his-tuyg'ularga boy nutqi ko'maklashadi. O'qituvchining bunday nutqi o'quvchilarda badiiy asarlarni o'qish motivlarini qo'zg'ab, kitobxonlikka undaydi.

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, matnni yaxlit tarzda anglash fikriy faoliyat maxsulidir. Matnda ob'ektiv tarzda aks etgan holatlar o'quvchi ongida sub'ektiv tarzda o'z ifodasini topadi. Bu o'quvchining shaxsiy-fikriy faoliyati mahsuli hisoblanadi.

A.P.Kashkarov esa o'quvchilar kitobxonligini tavsiflab, uni shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik tarzida

rivojlanirish zarurligini ta'kidlaydi. U shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik quyidagi prinsiplarga tayanishi lozimligini ko'rsatib o'tgan:

1. Har bir kitobxonning betakrorligini tan olish. Barcha kitobxonlar yoshi, hayotiy tajribasi va ko'plab omillarga ko'ra kitobxonlikka turlicha yondashadi. U kitobga va mazkur faoliyat natijasiga nisbatan individual munosabatni ifodalaydi.

2. Har bir kitobxon boshqa shaxslarning ham betakrorligini tan oladi. Kitob muallifi, atrofdagilar va kutubxonasining betakror qadriyat ekanligini tushunib yetadi.

3. O'quvchi kitob vositasida badiiy asar qahramonlarining harakatlarini tahlil qiladi. Ularning nuqtai nazarlari va faoliyat motivlarini o'zini kabi qabul qiladi. Shu orqali o'quvchi o'zining ijtimoiy rolini namoyon etadi. Kitobxon va muallif orasidagi munosabat o'quvchida nuqtai nazarni tarkib topirishga xizmat qiladi.

4. O'quvchi badiiy asarni o'qishi, insoniyat erishgan yutuqlar bilan tanishishi natijasidagina, o'zi o'rganayotgan hodisalar, jarayonlar, narsalarning mohiyatini anglab yetadi. Natijada o'quvchi tarixiy-madaniy boyliklar bilan munosabat o'rnatadi, ularni o'zlashtiradi. Atrofdagilar va asar qahramonlari bilan aloqaga kirishish jarayoni amalga oshadi. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik natijasida o'quvchida madaniy boyliklarga egalik, tolerantlik, pozitiv xulq-atvor ko'rinishlari shakllanadi.

5. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik g'oyasi barcha yosh davrlarda vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar kitobxonligi, ijodiy kitobxonlik, rivojlantiruvchi kitobxonlik va bilishga asoslangan kitobxonlik o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday kitobxonlik natijasida o'quvchilarda shaxsiy sifatlar tizimi shakllanadi, badiiy adabiyot namunalariga nisbatan kuchli qiziqish vujudga keladi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Motivatsiyaga to'g'ridan-to'g'ri ichki ziddiyatlar orasidagi aloqadorlik ta'sir ko'rsatadi. Bunday aloqadorlik sirasiga kitobxon ongidagi qarama-qarshiliklar, faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, kitobxon muloqotidagi qarama-qarshiliklar kiradi. Kitobxonlik darajasining rivojlanishi orasida zaruriylik va erkinlik, ehtiyojlar dinamikasi va qonuniyatlari orasida qiziqishlarning rang-barangligi, ustanovkalarning izchilligi kuzatiladi. Shaxs kitobxonligini rivojlanish aspektlari quyidagilardan iborat: stereotiplik-tabiiylik, reproduktivlik-ijodiy maxsuldorlik, evolyusion-involuyusion, jo'shqin-dinamik, qulay-noqulay. U 3 soxada amalga oshadi: kitobxonlik ongi, kitobxonlik faoliyati, kitob bilan muloqot. Kitobxonlik uch darajada namoyon bo'ladi: dolzarb, dolzarblashuvchi va potensial. U uch yo'nalishda amalga oshiriladi: stixiyali, maqsadga yo'naltirilgan, mustaqil boshqariladigan.

Kitobxon shaxs jamiyatda muayyan mavqega ega bo'ladi. Kitobxonlikning rivojlanishi bilan bog'liq holda shaxs ijtimoiy-psixologik rollarni bajaradi. U o'zining rang-barang ehtiyojlarini ongli tarzda turli badiiy asarlarni o'qish orqali qondiradi.

Kitobxonning shaxsiy qiziqishlari tarkibida bir qancha boshlang'ich darajalar mavjud:

sotsiologik: shaxsning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari, ijtimoiy mavqei va ijtimoiy nuqtai nazarlari.

Ijtimoiy-psixologik tarkibiy yo'nalishlari: shaxsning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, qadriyatli yo'nalishlari, ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ustanovkalari [2].

Tajribaning ijtimoiy-psixologik-pedagogik tarkibi: shaxsning hayotiy, kitobxonlik tajribasi, umumiy kasbiy bilimlari, umumiy intellektual va nutqiy ko'nikmalari, malakalari, odatlari, kitobxonlik mazmuni va madaniyati, kommunikativ mahorati.

O'quvchilarda badiiy asar namunalariga qiziqishni shakllantirishda kitobxonlikning shakllanganligi bilan har bir

o'quvchida kitobxonlik ko'nikmalarining mavjud darajasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishda kitobxonlikka oid faoliyatni rivojlanirish maqsadga muvofiq. Agar o'quvchi o'qish texnikasini yetarli darajada egallamagan bo'lsa, o'qigan asarining mazmuni ustida fikrlashga qiynalsa, bu shubhasiz, istiqbolda o'qish motivlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki axborotlar ko'lami kengaygan sari uni o'zlashtirish murakkablashadi. Bunday vaziyatda o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish shakllanmay qoladi. Ular kitob o'qishdan bezadilar. Nazarda tutilgan ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqish, ularni muntazam o'qish va tushunish ehtiyojini shakllantirish lozim.

Badiiy asarlarni o'qib o'rganishga nisbatan motivatsiyani rivojlanirishda o'quvchilarni asar muallifi g'oyasi va nuqtai nazarlarini tushunishga yo'naltirish, ularda asar matniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Badiiy asar namunalariga bo'lgan qiziqish o'quvchilarni faol tarzda kitobxonlikka yo'naltiradi. Agar o'quvchining faolligi o'qilayotgan badiiy adabiyot namunasini o'zlashtirishga yo'naltirilsa, bilish qiziqishlari haqida fikr yuritiladi. Agar o'quvchining faolligi badiiy adabiyot namunasi bilan tanishish jarayonida asar qahramonlari bilan muloqot qilishga yo'naltirilsa, turli-tuman ijtimoiy muloqot shakllari haqida fikr yuritiladi[3].

O'quvchilar badiiy adabiyot namunalarini o'qish jarayonida har doim muvaffaqiyatsizliklardan qochishga harakat qiladilar. Ular kitobni o'qib tushunishga qiynalganlarida ushbu faoliyatdan osongina voz kechib, kompyuter bilan muloqotga kirishadilar. O'quvchilar kitob o'qishga da'vat etganlarida ota-onalar va o'qituvchilardan norozi bo'ladilar. Bora-bora ular kompyuter va televizorga qattiq bog'lanib qoladilar. Yomon baho olishdan qo'rqish hissi o'quvchilarda badiiy asarni o'qish istagining yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda. Aksariyat past o'zlashtiruvchi o'quvchilar badiiy asarlarni o'qishga mutlaqo qiziqmaydilar. Bu esa ularning bilish faoliyatlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishning barqarorligi ularda kitobxonlik faoliyatining muntazam rivojlanishiga asos bo'ladi. O'quvchilarning badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishlari ularda kitobxonlik faoliyatining kuchli tarzda namoyon bo'lishi, chuqur anglangan holda amalga oshirilishi, muntazam davom etishi, barqaror shakllanishi, fikrlarning boyishiga ko'maklashishini ta'minlaydi.

Badiiy adabiyot namunalarini o'qishga nisbatan qiziqishning barqaror bo'lmasligi tashqi omillarning ta'siri bilan bog'liq.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ijobiy va salbiy;

Tashqi va ichki;

Barqaror va nobarqaror.

Kitobxonlik mayllari ijtimoiy, tor shaxsiy va bilishga asoslangan bo'ladi. Ijtimoiy mayllar burch hissi, boshqadan orqada qolmaslikka intilishda ko'rinadi. Tor shaxsiy xarakterga ega bo'lgan mayllar esa atrofdagilarning e'tirofi, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish yo'li, o'z-o'zini takomillashirishga intilishda o'z aksini topadi. Bilish mayllari esa yangi bilimlarni o'zlashtirish istagi, o'z dunyoqarashini kengaytirish ehtiyoji bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Kitobxonlikka nisbatan ijobiy his-tuyg'ularga boy munosabat;

O'quvchilarni faol tarzda bilish va shaxsiy faoliyatga yo'naltirishga asoslangan kitobxonlik faoliyati;

Mazkur yo'nalishlarning barqaror xarakterga egaligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy adabiyot namunalariga qiziqishlarining yuqori darajasiga erishish quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kitobxonlik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat;

Muayyan badiiy asarlarga qiziqish;

Kitobxonlik jarayonini kengaytirish va unga o'quvchilarni jalb etish;

Kitob bilan muloqot jarayonidagi qoniqish hissini sinfdoshlari, o'qituvchilari va ota-onalari bilan bo'lishish kabilar.

Kichik maktab yoshida o'quvchilar uchun badiiy asarlar hayotiy zaruriyat manbai bo'la olmaydi. Shuning uchun ham bunday asarlarga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi kuzatilmaydi[4].

Badiiy asarlarning o'quvchilar hayotida muhim o'rin egallashi, kattalar jumladan, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan anglatiladi. Ular rivojlangan sari badiiy asarlarning ahamiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar. Shundagina badiiy asarlar o'quvchilar faoliyati va qiziqishning asosiy manbaiga aylanadi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu holatni tahlil qiladigan bo'lsak, Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish kitobxonlik vositasida shakllanadi va chuqur anglangan bo'ladi. Mazkur davrda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishning asosiy

natijasi o'quvchilarda vujudga kelgan kitobxonlik faoliyatining mahsuli sifatida uni ko'proq o'qishga bo'lgan ehtiyojning shakllanganligi bilan izohlanadi.

Bunday kitoblarga murojaat qilishning maqsadini o'qituvchi belgilaydi. O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishning shakllanishi asosan 1-2-sinflarda amalga oshadi. Bu davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertaklar, dostonlar va hikoyalarga nisbatan alohida qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham ta'limning dastlabki yilida o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga to'g'ri munosabatda bo'lish tajribasini shakllantirish lozim. Buning uchun o'qituvchi muayyan asarlarning o'quvchilar hayotida muhim ahamiyat kasb etishini muntazam tushuntirib borishi kerak. O'quv jarayonida kitobxonlik vositasida o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishda boshqa sharoitlar va omillar ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning individual xususiyatlari va layoqatlari, o'z kuchiga bo'lgan ishonchi, farazlari, qiziqishlari, istaklari, temperamenti, uning shaxsiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar shular jumlasidan[4].

Bunday munosabatlarni boshqarish boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Mahoratli o'qituvchilar o'zlarining talablari va muxabbatlarini muvofiqlashtirgan holda o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini samarali boshqara oladilar. Bunday o'qituvchilar o'z samimiyatlari orqali o'quvchilarni kitobxonlikka o'rgatadilar va shu asosda ularda badiiy adabiyot namunalariga qiziqish uyg'ota oladilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Ganieva B.I. Kutubxonalarda bolalar o'qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari. Pedagogika fanlari nomz. ...Dis - Toshkent, 2008. - 160 b.
2. Yo'ldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 128 b.
3. Ro'ziqulova N.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (PhD) ... Dis. avtoref. – T.: 2020. - 141 b.
4. Xamrakulova X., Tojiboyeva R 3-sinf O'qish kitobi: – Toshkent. 2019. – 216 bet.



UDK: 004.67

Nozimbek ZARIPOV,  
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti, PhD, dotsent  
E-mail: zaripov9898@mail.ru

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD F.Nurulloyev taqrizi asosida

## METHODOLOGY OF INFORMATION CODING USING THE FANO METHOD

Annotation

This article presents Fano's method of encoding information using two symbols. The use of Fano's tree in information coding, the method of teaching the tree and arithmetic calculations are explained. Also, the article describes the essence of information encoding and decoding concepts, flat and uneven encoding methods, the importance of encoding in human life.

**Key words:** Fano method, coding, decoding, bit, root, uniform encoding, uneven encoding, number system, code length.

## МЕТОДИКА КОДИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИИ МЕТОДОМ ФАНО

Аннотация

В данной статье представлен метод Фано кодирования информации с помощью двух символов. Объясняется использование дерева Фано при кодировании информации, метод обучения дереву и арифметическим вычислениям. Также в статье раскрыта сущность понятий кодирования и декодирования информации, методы равномерное и неравномерное кодирование, значение кодирования в жизни человека.

**Ключевые слова:** Метод Фано, кодирование, декодирование, бит, корень, равномерное кодирование, неравномерное кодирование, система счисления, длина кода.

## FANO USULI YORDAMIDA AXBOROTLARNI KODLASH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlarni ikkita belgi yordamida kodlashning Fano usuli keltirilgan. Axborotlarni kodlashda Fano daraxtidan foydalanish, daraxtni tasvirlash va arifmetik hisoblashlarni o'qitish metodikasi yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada axborotlarni kodlash va dekodlash tushunchalari mohiyati, tekis va notekis kodlash usullari, kodlashning inson hayotidagi ahamiyati tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** Fano metodi, kodlash, dekodlash, bit, ildiz, tekis kodlash, notekis kodlash, sanoq tizimi, kod uzunligi.

**Kirish.** Yurtimizda so'ngi yillarda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, oliy o'quv yurtlari talabalarining mukammal bilim olishlari uchun ko'plab shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Yaratilayotgan bu imkoniyatlardan unumli foydalanish, ta'lim jarayoni uchun yangi o'quv-metodik adabiyotlar ishlab chiqish, ularni amalda qo'llash, darsni sifatli olib borish, mavzuni talabalarga yetkazishda yangicha pedagogik metodlardan hamda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'tish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Informatika va raqamli texnologiyalar fanini o'qitishda talabalarining amaliy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, kompyuterning mantiqiy ishlash asoslarini o'qitish muhim vazifalardan biridir. Axborotlarni kodlash, dekodlash, ular ustida amallar bajarish, shuningdek, Fano metodini ahamiyati va mohiyatini ta'lim oluvchilarga ochiqlash, mavzuni amaliy hamda hayotiy misollar orqali tushuntirish kelajakda raqamli texnologiyalar sohasi uchun yetuk kadrlar yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi.

**Mavzuga doir manbalar tahlili.** Kodlash nazariyasi, kodlash tamoyillari va usullari, Solomon-Reed usuli, Hamming usuli, Reed-Muller usuli kabi asosiy ma'lumotlarni kodlash usullarini tavsiflovchi o'quv qo'llanma Sidelnikov V.M. tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu o'quv qo'llanmada xatolarni tuzatish, kodlarini yaratish usullari va xususiyatlari batafsil yoritilgan [5]. Hamming R.V. tomonidan kodlash nazariyasi va axborot nazariyasi alohida e'tibor qaratilgan. Bunda asosan axborotni kodlash va uzatishning asosiy nazariyalari ko'rib chiqiladi. Kodlash nazariyasi va axborot nazariyasidan foydalanishga doir misollar keltirilgan. Berezkin E.F. tomonidan ishlab chiqilgan darslikda axborot

nazariyasi va kodlash asoslariga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Darslikda asosan axborot tizimlari va raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash komplekslarini loyihalash bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Bogomolova O.B. tomonidan Informatika nomli chop etilgan darslikda tekis va notekis kodlash usullari, Fano usulida kodlash, daraxt shoxlarining tasvirlanishi batafsil yoritib berilgan [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Axborotlarni kodlash bu ma'lum qonun-qoida asosida bir ko'rinishdan boshqa bir ko'rinishga o'tkazish jarayonidir. Kodlangan axborotni birlamchi holiga keltirish esa dekodlash deyiladi. Axborotlarni maxfiy saqlash uchun kodlash shifrlash deyiladi. Axborotlarni kodlashning kodlash usulidagi belgilar hajmidan kelib chiqqan holda ikki usulga bo'linadi. Tekis va notekis. Tekis kodlashda kodlanayotgan har bir belgi uchun bir xil hajmdagi belgilardan foydalaniladi, notekis kodlashda kodlanayotgan har bir belgi uchun har xil hajmdagi belgilardan foydalaniladi. Fano metodi ham axborotlarni notekis kodlash usuliga kiradi. Bu usulda "daraxt" shoxlari pastga qarab chiziladi. Ildiz doimo yuqori tomonda joylashadi. Kodlash ikkilik sanoq sistemasidagi 0 va 1 raqamlari yordamida amalga oshiriladi. Kodlashda ikkilikdagi har bir son bir marta ishtirok etadi va tanlab olingan kod ostidan boshqa kodlar uchun raqamlar tasvirlanmaydi. Daraxt shoxlari doimo 0 va 1 raqamlar bilan boshlanadi. Daraxt berilgan masala shartidan kelib chiqqan holda chiziladi. Koddagi belgilar qancha ko'p bo'lsa, kod uzunligi ham mos ravishda ko'payadi. Fano shartining qulaylik tomoni shundaki, bunda eng kam bit orqali belgilarni kodlash amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida Fano usulining ahamiyati, kodlash usullari, berilgan matn hajmini aniqlash kabi muammolarni yechishga harakat qilindi.




**Tahlil va natijalar.** Fano sharti Robert Fano sharafiga qo'yilgan bo'lib, kodlash nazariyasidagi zaruriy shart bu o'z-o'zidan tugatuvchi kodni yaratishdir. Ushbu shartning odatiy formulasi quyidagicha: hech qanday kod so'zi boshqa kod so'zining boshlanishi bo'lishi mumkin emas. Algoritm takrorlash chastotasiga asoslangan bo'lib, tez-tez uchraydigan belgi qisqaroq uzunlikdagi kod bilan, kam uchraydigan belgi esa kattaroq kod bilan kodlanadi. O'z navbatida, kodlash paytida olingan kodlar prefiks hisoblanadi. Bu esa kodli

so'zlarning har qanday ketma-ketligini aniq dekodlash imkonini beradi. Quyida Fano sharti orqali bajariladigan ba'zi bir masalalarni ko'rib chiqamiz.

1-masala: Xabar 50 ta A, 30 ta B, 20 ta C va 5 ta D harflarni o'z ichiga oladi. Xabarni uzatishda har bir harf minimal uzunlikdagi (2 sanoq sistemasi) turli bitlar bilan kodlangan. Kodlangan xabarni minimal uzunligi necha bitdan iborat. Berilgan masala shartidan kelib chiqib, Fano daraxtining ko'rinishini quyidagicha bo'ladi (1-rasm).

Ildiz



1-rasm. Fano daraxtining tuzilishi.

Har bir belgiga mos kodni aniqlash uchun doimo ildizdan boshlab 0 va 1 raqamlari yig'iladi. Natijada berilgan harflar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$A - 0, B - 10, C - 110, D - 111$$

Bundan ko'rinadiki, A harfi 1 bit, B harfi 2 bit, C va D harflari esa 3 bit joyni egallaydi.


$$50 * 1 + 30 * 2 + 20 * 3 + 5 * 3 = 50 + 60 + 60 + 15 = 185 \text{ bit}$$

Demak, kodlangan xabarni minimal uzunligi 185 bitdan iborat ekanligi o'z isbotini topdi.

2-masala. A, B, C, D, E, F harflaridan tashkil topgan ma'lum bir ketma-ketlikni kodlash uchun Fano shartini qanoatlantiradigan notekis ikkilik kod ishlatiladi. A harfi uchun 0, B harfi uchun - 10 kodi belgilangan. Ushbu 6 ta belgini minimal uzunligi necha bitdan iborat.

Berilgan masala shartidan A=0 va B=10 ekanligi ma'lum, qolgan C, D, E, F harflarini daraxt chizish orqali aniqlash mumkin. A=0 qiymatni olgani uchun A ni ostidan daraxt shoxlari davom ettirilmaydi. B=10 qiymatida 1 joylashgan shoxdan boshlab qolgan harflar kodlari uchun daraxt shoxlarini chizib olinadi (2-rasm).

Ildiz



2-rasm. Fano daraxtining tuzilishi.

Hosil bo'lgan shaklning "Ildiz" qismidan boshlab har bir har kod qiymati aniqlanadi. Har bir harf qiymatlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.


$$A - 0, B - 10, C - 1100, D - 1101, E - 1110, F - 1111$$

Natijada A belgi 1 bit, B belgi 2 bit, C, D, E va F belgilari 4 bitdan joy egallaydi.

$$1 + 2 + 4 + 4 + 4 + 4 = 19 \text{ bit}$$

Demak, berilgan 6 ta belgini minimal uzunligi 19 bitdan iborat ekanligi aniqlandi.

Ushbu daraxtini bir necha ko'rinishlarda ham chizish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Fano daraxtining tuzilishi.

Ushbu ko'rinishida berilgan harflarning egallagan bitlar soni 2-rasmdagi harflarga qaraganda ko'proq joy egallaydi. Ya'ni quyidagi ko'rinishda bo'ladi.  
**A – 0, B – 10, C – 110, D – 11100, E – 11111, F – 11111**  
 Natijada A belgi 1 bit, B belgi 2 bit, C belgi 3 bit, D va E belgilar 5 bit, F belgi 4 bit joy egallaydi.

$$1 + 2 + 3 + 5 + 5 + 4 = 20 \text{ bit}$$

Demak, berilgan 6 ta belgini minimal uzunligi 20 bitdan iborat ekanligini ko'rish mumkin.

3-masala: Faqat 7 harfdan iborat xabarlar aloqa kanali orqali uzatiladi: A, B, C, D, E, F, G. Uzatish uchun Fano shartini qanoatlantiradigan ikkilik kod ishlatiladi. Ba'zi bir harflar uchun kodlar ma'lum: A–010, B–011, C–100. EACDGF so'zini ikkilikda kodlashning minimal uzunligi necha bitdan iborat?

A	B	C	E	D	G	F
010	011	100	11	00	1010	1011

$$2 + 3 + 3 + 2 + 4 = 14 \text{ bit}$$

Axborotni kodlash bu ma'lumotlarning belgilangan ko'rinishini shakllantirish tartibi. Tor ma'noda "kodlash" - bu saqlash, uzatish yoki qayta ishlash uchun eng qulay bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishning bir shaklidan boshqasiga o'tish. Qoidaga ko'ra, kodlash paytida har qanday tasvir alohida belgi sifatida taqdim etiladi. Kompyuter faqat raqamli shaklda taqdim etilgan ma'lumotlarni qayta ishlashga qodir. Boshqa barcha ma'lumotlar (masalan, tovushlar, tasvirlar va boshqalar) shaxsiy kompyuterda qayta ishlash uchun raqamli shaklga aylantirilishi kerak. Masalan, musiqiy tovushning miqdorini aniqlash uchun har bir o'lchov natijalarini raqamli shaklda taqdim etgan holda, ma'lum chastotalarda kichik intervallarda tovushning intensivligini aniqlash kerak. Kompyuter dasturlari yordamida qabul qilingan ma'lumotlarni o'zgartirish mumkin. Xuddi shunga o'xshash tarzda, kompyuterda matnli ma'lumotlarni qayta ishlash mumkin. Shaxsiy kompyuterga kiritilganda, har bir harf ma'lum bir raqam bilan kodlanadi va tashqi qurilmalarga chiqarilganda, inson idrok etishi uchun ushbu raqamlar yordamida harflar tasvirlari tuziladi. Harflar va raqamlar to'plami o'rtasidagi yozishmalar belgilarni kodlash deb ataladi.

Ma'lumki, kompyuterdagi barcha raqamlar nol va birliklar yordamida ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda,

kompyuterlar odatda ikkilik sanoq tizimida ishlaydi, chunki bu holda ularni qayta ishlash qurilmalari eng elementar hisoblanadi. Raqamlarni kompyuterga kiritish, shuningdek, ularni inson tomonidan o'qish uchun chiqarish odatiy o'nli kasr shaklida amalga oshiriladi va barcha kerakli konvertatsiyalar shaxsiy kompyuterda ishlaydigan dasturlar tomonidan amalga oshiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Axborotlarni Fano sharti orqali kodlashda ikkilik sanoq sistemasidagi 0 va 1 raqamlaridan foydalaniladi va minimal kod uzunligiga erishiladi. Bu kodlashning notekis usuliga kiradi.

Kodlanayotgan belgilarning eng ko'p qatnashgani eng kam bit bilan, kam ishtirok etgan belgilar ko'p bit bilan kodlanadi. Kodlashning eng asosiy shart bu hech bir kod so'zi boshqa kod so'zining boshlanishi bo'lishi mumkin emas. Daraxt shoxidagi oxirgi raqamdan boshqa belgilarni kodlash uchun foydalanilmaydi.

Axborotlarni kodlashga doir bu kabi mavzularni bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilariga oson va tushunarli qilib yetkazib berish kelajakda yetuk soha mutaxassislarini yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Богомолова О.Б. Информатика. Новый полный справочник для подготовки к ЕГЭ / - М. : Издательство АСТ, 2023. – 444 с.
2. Березкин Е.Ф. Основы теории информации и кодирования / Учебное пособие. – М.: НИЯУ МИФИ, 2010. – 312 с.
3. Вернер М. Основы кодирования: учеб. для вузов / - М.: Техносфера, 2004. –275 с.
4. Сагалович Ю.Л. Введение в алгебраические коды / Учебное пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ИППИ РАН, 2010. – 302 с.
5. Сидельников В.М. Теория кодирования. Справочник по принципам и методам кодирования Москва: Московский государственный университет им. М. В. Ломоносова (МГУ), 2006. – 289 с.
6. Monica Borda «Fundamentals in Information Theory and Coding» Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2011. – 504 p.
7. Mark Kelbert, Yuri Suhov «Information Theory and Coding by Example» Cambridge University Press, 2014. – 528 p.

8. Sebesta, Robert W. «Concepts of programming languages» Includes bibliographical references and index. Pearson, 2012. – 816 p.
9. Zaripov N. N. Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. Theoretical & Applied Science, (3), 2020. – 111-114 p.
10. Zaripov N. N. Methods of Teaching Programming Languages in General Secondary Schools. In “Online-conferences” platform, 2021. – 38-40 p.
11. <https://d.eruditor.link/file/790522/>



УДК 811.111.37.091.33:911

Aziza ZARIPOVA,  
SamDCHTI tayanch doktoranti  
E-mail: Zaripovaaziza23@gmail.com

PhD dotsent G.Boltaqulova taqrizi bilan

## INGLIZ TILI DARSLARINI GEOGRAFIYA YO‘NALISHI TALABALARIGA SAMARALI O‘QITISH KO‘NIKMALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada geografiya sohasiga oid terminlar tipologiyasi yoritilgan. Geografiya sohasidagi terminlarning shakllanishi, yangi terminlarning qo‘llanilishi va ushbu sohaga oid terminologiyasi tizimini lingvistik tadqiq etishda qo‘shma terminlarning morfologik strukturasi yasalishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qitish strategiyalari, geografiya sohasiga oid terminlar, terminlarni shakllanishi, terminlar tipologiyasi, o‘qitish strategiyalari tasnifi.

## НАВЫКИ ЭФФЕКТИВНОГО ПРЕПОДАВАНИЯ УРОКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СТУДЕНТОВ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

В данной статье описана типология терминов, относящихся к области географии. Освещены терминообразование в области географии, употребление новых терминов и формирование морфологической структуры совместных терминов в лингвистическом исследовании терминологической системы, относящейся к этой области.

**Ключевые слова:** стратегии обучения, термины, связанные с географией, терминообразование, типология терминов, классификация стратегий обучения.

## SKILLS OF EFFECTIVE TEACHING OF ENGLISH LANGUAGE LESSONS TO GEOGRAPHY STUDENTS

Annotation

This article describes the typology of terms related to the field of geography. The formation of terms in the field of geography, the use of new terms and the formation of the morphological structure of joint terms in the linguistic research of the terminology system related to this field are covered.

**Key words:** teaching strategies, terms related to geography, formation of terms, typology of terms, classification of teaching strategies.

**Kirish.** Hozirda pedagogik adabiyotlarda xorijiy tillarni samarali o‘qitilishi tushunchasining keng qo‘llanilishi tez-tez ko‘zga tashlanmoqda bu esa o‘z o‘zidan chet tillarni nafaqat filologiya vakillariga balki boshqa nofilolog soha vakillariga ham chet tillarni o‘rganish talabni orttirmoqda.

Xususan tabiiy fanlar, geografiya yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarini tashkillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. Oliy ta‘limgacha o‘quvchilarga ingliz tili bitta tayanch dastur asosida o‘qitilib kelingan bo‘lsa, oliy ta‘lim bosqichiga kelib bu ikkita yo‘nalish chet tilni filologik maqsadlarda o‘qitish, kelajakdagi chet tili o‘qituvchilarini yetishtirish va nofilologik yo‘nalishda chet tilini aniq bir yo‘naltirilgan maqsadlarga va kasblarga farqlab (Language for Specific Purposes, LSP) o‘qitish ko‘zda tutiladi. Bunda esa har bir xorijiy tilni o‘rganish uchun terminlarning ahamiyati qanchalik muhimligini bilamiz. Ushbu maqolada geografiya sohasiga oid terminlarning til o‘rganishdagi o‘rni haqida ko‘rib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Samarali va qiziqarli o‘quv jarayonlarini tashkil qilish hozirgi kungacha har dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tilni o‘qitish masalalari G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, M.Djusupov, D.Djumanova, D.U.Xoshimovalar, ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, M.Gulyamova, F.Ikromxonova, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarova, T.Madraximov X.Mamatqulov, K.Riskulovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bundan tashqari, samarali o‘qitish

texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha nazariyalari va amaliyoti masalalari, ularni qo‘llashning metodik va didaktik asoslari, shuningdek, yangicha onlayn ta‘lim jarayonini yurtimizda qo‘llash masalalari yurtimiz tadqiqotchi olimlari

A.K. Krupchenko kasbiy lingvodidaktika ob‘ektiv ijtimoiy talab asosida, ya‘ni turli soxa egalarining chet tillarni xalqaro ma‘lumotlar va tajriba almashishda vosita sifatida egallash ehtiyojlari asosida yuzaga kelganini, bu tarmoq ancha avval T. Hatchinson va A. Uolters tomonidan ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish “English for Specific Purposes” sifatida ilgari surilganini ta‘kidlaydi [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bizgacha ma‘lum bo‘lgan bir qancha ma‘lumotlarni o‘rganish bu tarmoqning uzoq tarixga va o‘z tamoyillariga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ma‘lum bo‘lishicha bugungi kungacha G‘arb lingvodidaktikasida kasbiy lingvodidaktikaga oid 300dan ortiq asarlar yaratilgan va ularda kasbiy lingvodidaktikaning integrativlik, ko‘p darajalilik, modellarlik, variantlilik, kommunikativlik, modullilik, kasbiy yo‘nalganlik kabi bir nechta turlari aniqlangan.

Kasbiy lingvodidaktika lingvodidaktikaning tarmog‘i sifatida didaktika, kasbiy pedagogika, kasbiy psixologiya va psixolingvisika, lingvistika, kommunikatsiya (muloqot) nazariyasi va maxsus fanlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, buni quyidagilar bilan asoslash mumkin [2]:

– kasbiy lingvodidaktika ta‘lim berish bilan bog‘liq ekan, demak, u didaktika bilan uzviy bog‘liq;

– chet tilidagi kasbiy kommunikativ layoqatlarini shakllantirishda shaxsiy fazilatlar, qobiliyat, kasbiy layoqat

haqida gap ketar ekan, bu o'z- o'zidan kasbiy psixologiya va psixolingvistika bilan bog'liqlikni ko'rsatadi;

– gap chet tilini o'qitish haqida ketar ekan, albatta, kasbiy lingvodidaktika lingvistika bilan bevosita bog'liq;

– chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi kasbiy, sohaviy va madaniyatlararo muloqotga o'rgatishdan iborat, demak, kasbiy lingvodidaktika muloqot yuritish nazariyasi, etika me'yorlari bilan ham bog'liq.

A.K.Krupchenko kasbiy lingvodidaktikaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni aytib o'tadi [4]:

– kasbiy lingvodidaktikaning nazariy metodik asoslarini ishlab chiqish;

– kasbiy lingvodidaktikaning asosiy tamoyillarini aniqlash;

– chet tilini maxsus maqsadlarda o'qitilish maqsadlarini oydinlashtirish;

– chet tilini kasbiy - sohaviy o'qitish mazmunini aniqlash;

– mutaxassislarni chet tiliga o'qitishning shakl va metodlarini tanlash;

– chet tilini kasbiy–sohaviy o'qitishning o'quv metodik ta'minoti va texnik vositalarini tanlash kabi masalalarni ko'rsatib o'tadi.

Kasbiy lingvodidaktikaning asosiy va qo'shimcha turlari A.N.Kuznesova tomonidan keng tavsiflangan bo'lib, asosiy tamoyillari sifatida ijtimoiy-kasbiy muhitni yaratish, kompetensiyaviy yondashuv talablari, integrativligi, fanlararo aloqadorlikni inobatga olish, chet tilida kasbiy kompetensiyalarini kompleks shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kabi turlarini aniqlab o'rganadi.

Qo'shimcha tamoyillar sifatida esa til o'rganuvchining yoshi, ta'lim olishdagi muammolari, modulliylik, tilni o'qitishda uzviylikni ta'minlash, materiallarning originalligi va autentiligi kabi qator tamoyillar inobatga olinishi kerakligi qayd etib o'tiladi.

Kasbiy lingvodidaktikaning ko'rsatib o'tilgan vazifalari va tamoyillaridan kelib chiqqan holda, kasbiy lingvodidaktikani tilni kasbiy- sohaviy o'qitishning nazariy asoslari, uning metodik, didaktik, lingvistik xususiyatlarini o'rganuvchi fan, deb izohlash mumkin.

Kasbiy lingvodidaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan chet tilini mutaxassislik fanlari bilan bog'langan holda o'qitishning mazmuni, shakli va vositalari G. Dadamirzaev va Q. Fayzullaevlar tomonidan maxsus tadqiq etilgan bo'lib, ular 1-jadval.

#### Geografik obyektlarga oid terminlarning mavzuiy guruhlarini

№	Shahar	Tuman	Qishloq	Mahalla
1.	Beruniy	Yeshkili	Burlaq	Zaxoki moron
2.	Ardaxushmitan	Xiva	Avshar	Nartibaland
3.	Namangan	Qo'shko'pir	Avsharbadog	Balandariq
4.	Farg'ona	Xongqa	Ardaxiva	Beshbuloq
5.	Toshkent	To'raqo'rg'on	Axcha	Anjirzor

Lug'at materiallarini tahlil qilish jarayonida geografiya sohasiga oid terminlarini har ikki tilda, ya'ni ingliz tilidagi asiyat shakli strukturasiga va semantikasi o'zbek tilida yaratilgan shakl strukturasiga va ma'no mazmun jihatiga ko'ra qiyosiy tarzda o'rganib chiqdik. Har ikki tilda ham ushbu terminlar qatori shakl strukturasiga ko'ra bir-biriga o'xshash jihatlari aniqlandi. Avvalo, ingliz va o'zbek tillarida to'plangan sohaviy terminlar strukturasiga xos o'xshashligi tasnif etildi.

Geografiya sohasiga oid terminologiyasi tizimini lingvistik tadqiq etishda qo'shma terminlarning morfologik strukturasiga yasalishi va material jihati umumiy asosda qo'shma so'zga nisbatan o'rganildi. Qo'shma terminlar yasalish materialiga ko'ra asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

Ot+Ot (N+N): Kosonsoy, Kulbuqon, farmhouse, countryside;

o'quv fanlari asoslari o'rtasidagi bog'liqlik yoki turli o'quv fanlarining elementlararo integratsiyasini fanlararo bog'lanish, deya ta'kidlaydilar. A.Hasanov esa o'z ishida fanlararo aloqadorlikning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tadi:

– bo'lajak mutaxassisning dunyoqarashini shakllanishiga yordam beruvchi metodologik va konseptual aloqadorlik;

– bilim va malakaning dolzarblashuvini ta'minlaydigan mazmunga ega fanlararo aloqadorlik;

– bo'lajak mutaxassisning kasbiy muhim shaxsiy sifatleri shakllanishiga qaratilgan tarbiyaviy aloqadorlik;

– o'rganilayotgan faning bo'lajak kasbiy faoliyat elementlari bilan aloqalariga tayanadigan metodik aloqadorlik.

Quyida ingliz tilini maxsus maqsadlarda nofilologik yo'nalish talabalariga xususan, geografiya yo'nalishidagi talabalarga terminlar yordamida o'rgatilishini ko'rib chiqamiz.

Geografiya sohasiga oid terminlarning shakllanishi deduktiv yo'lni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

1) yangi terminning og'zaki ta'rifi;

2) termindagi muhim xususiyat va bog'lanishlarni tahlil qilish, o'rganilayotgan obyektning xususiyatlarini yoritib berish;

3) termini o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish, mustahkamlash va terminning muhim xususiyatlarini umumlashtirish;

4) ushbu terminning mantiqiy va mazmunli aloqalarini o'rnatish;

5) yangi terminning qo'llanilishi.

Masalan, geografik obyektlarning nomlariga oid terminlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

geografik obyektga eng xos bo'lgan belgilarni aks ettirishi;

mazkur geografik obyekt joylashgan yerdagi geografik obyektlar nomlarining mavjud tizimiga mos tushishi;

mahalliy aholining fikrini hisobga olishi;

qoida tariqasida, ko'pi bilan uchta so'zdan iborat bo'lishi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Geografik Obyektlariga oid terminlarning mavzuiy guruhlarini belgilashda shahar, tuman, qishloq, mahallalar kesimida o'rgandik (1-jadvalga qarang):

Sifat+Ot (Adj.+N): Balandariq, Marjonbuloq, lighthouse, longitude, rainforest, highlands, earthquake;

Son+Ot (Num.+N): Beshbuloq, Chorkesar;

Ot+Fe'l (N+V): Katmonchovdi, livestock.

Hozirda ingliz tilini o'qitishda "Arra" o'zaro o'qish texnikasi, "Birgalikda o'qiyamiz", "O'ylang, juftlikda ishleng – fikr almashing" birgalikda o'qish texnikasi, "Inster, Toifali, Konseptual, BBB, SWOT-tahlil" jadvallari, "Klaster, Kaskad, Nilufar guli, Piramida, Baliq skleti, Nima uchun?", kabi sxemalardan foydalanish o'quvchilar bilimini oshiradi va mustahkamlaydi.

Bunday interfaol metodlaridan foydalanish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadqiq etish dars sifatini oshiradi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usul qo'llanganda o'quvchilar

o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, terminalogiya ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminalogiyaning rivojida uning tadbiiq etilishida, fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish va uni amalda foydalanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Geografik obyektlarga oid terminlar tizimi ma'lum bir joy bilan xarakterlanib shakllantiriladi.

Yuqorida qayd etilgan kasbiy yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash bosqichlariga quyidagi topshiriqlarni tavsiya

etish maqsadga muvofiqdir. Nofilologik ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishda fanlararo aloqa chet tili mashg'ulotlarda bevosita kasbga, sohaga oid autentik materiallardan samarali foydalanish natijasida talabalarning mutaxassislikka oid bilimlarining boyib borishga va sohaga doir eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishga olib keladi. Bizningcha, ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashtirib o'rgatishda chet tillarning xususan, ingliz tilining mavzulari mutaxassislik fani mavzulari bilan paralel ravishda taqqoslab mutaxassisning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib saralanishi muhim, ayniqsa so'z boyligining oshirilishi va terminalogiyaning alohida o'rni bor.

#### ADABIYOTLAR

1. Dadamirzayev G., Fayzullaev K.M. Fanlararo boglanishning muhandislik talimidagi o'rni // Zh. Pedagogika fanlari. - M., 2016. - No 1. B.34-36.
2. Krupchenko A.K., Kuznetsov A.N. Professional lingvodidaktika asoslari (monografiya). Akademiya APK va PPRO - M., 2015. - 232 p.
3. Krupchenko A.K., Kuznetsov A.N. Professional lingvodidaktikaning boshlanishi: Monografiya. Lambert Akademik nashriyoti. - M., 2011. - 215 b.
4. Kuznetsova I.V. SVE Federal Davlat Ta'lim Standartining umumiy kompetentsiyalarining qo'llanilishi va Oliy Ta'lim Federal Davlat Ta'lim Standartining universal kompetentsiyalari // Yaroslavl Pedagogika byulleteni.
5. Словар геологических терминов on-line. Электронный ресурс: <http://dic.academic.ru/contents.nsf/geolog/>. Дата обращения: 13.10.2021.
6. Словар географических терминов. Электронный ресурс: [http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl\\_paph.cgi?R4uu4Prgtlyg!Hlsr9](http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl_paph.cgi?R4uu4Prgtlyg!Hlsr9)). Дата обращения: 13.10.2021.
7. Что такое топонимы? Значение, происхождение, примеры. Электронный ресурс: <https://www.syl.ru/article/369486/что-такое-toponimyi-znachenie-proishojdenie-primeryi>. Дата обращения: 17.11.2021.



UDK1:502:323.1(575.1)

**Adolat ZIYOTOVA,**

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi Antique World xalqaro ilmiy akademiyasi professori*

*E-mail:adolatziyotova@gmail.com*

**Qahramon MAMARAXIMOV,**

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi*

*SamDU dotsenti, PhD A.Quldoshev taqrizi asosida*

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV ASARLARIDA YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINI MAFKURAVIY PROFILAKTIKA RUHIDA TARBİYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada mafkuraviy profilaktika orqali yosh avlodni turli tahdidlardan himoya qilish, mustqillikni mustahkamlash va uni takomillashtirishda mafkuraviy ta'sirning yosh avlod ongi va tafakkurini o'zgarishida aks etishi, mafkuraviy profilaktika ruhida tarbiyalangan yoshlarning O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va roli masalalari tahliliy bayon etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va unda yoritilgan yoshlarni Vatanga sadoqat g'oyasi ruhida tarbiyalash masalalariga doir jihatlari asos qilib olindi.

**Kalit so'zlari:** Yoshlar, ekstremizm, ta'lim islohoti, madaniy xilma-xillik, diniy xilma-xillik, gender tengligi, fuqarolar erkinliklari, kibertahdid.

### АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДУЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В ВУХИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ШАВКАТА МИРЗИЁЕВА

Аннотация

В данной статье рассматривается защита молодого поколения от различных угроз посредством идеологической профилактики, отражение идеологического воздействия в изменении сознания и мышления молодого поколения, в укреплении независимости и ее совершенствовании, роль и роль молодых людей, воспитанных в духе идеологической профилактики в построении демократического, гражданского общества в Узбекистане – сделано аналитическое заявление. За основу были взяты труды Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева и освещенные в нем аспекты воспитания молодежи в духе верности Родине.

**Ключевые слова:** Молодежь, экстремизм, реформа образования, культурное разнообразие, религиозное разнообразие, гендерное равенство, гражданские свободы, киберугроза.

### PREZIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN SHAVKAT MIRZIYOYEV IDEOLOGY OF THE YOUNG PEOPLE OF NEW UZBEKISTAN IN THEIR WORKS CURRENT ISSUES OF BRINGING IN THE SPIRIT OF PREVENTION

Annotation

In this article, the protection of the young generation from various threats through ideological prevention, the reflection of the ideological influence in the change of the consciousness and thinking of the young generation in the strengthening of independence and its improvement, the role and role of young people brought up in the spirit of ideological prevention in the establishment of a democratic, civil society in Uzbekistan is an analytical statement. done. The works of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, and the aspects of educating young people in the spirit of loyalty to the Motherland, which were covered in it, were taken as a basis.

**Key words:** Youth, extremism, education reform, cultural diversity, religious diversity, gender equality, civil liberties, cyber threat.

**Kirish.** Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi globallashuv sharoitida dunyo miqyosida tobora kuchayib borayotgan terrorizm, ekstremizm, yoshlar ongini zaharlayotgan "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar milliy-ma'naviy qadriyatlarining emirilishiga olib kelmoqda.

Jahon ilm-fanida yosh avlodni g'oyaviy himoyalash masalasi siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatdan ustuvor ahamiyatga egadir. Zero, bugungi ijtimoiy taraqqiyot insonning ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy qiyofasiga ta'siri inson ma'naviy olamini bir butun, yaxlit tizim sifatida o'rganish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Mamlakatda mustaqillikni mustahkamlash va uni rivojlantirishda ma'naviy sog'lom va jismonan baquvvat avlodni voyaga etkazish hamda ularda milliy urf-odatlarimizni

shakllantirishga va uni takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun ham bu masalalarni chuqur va xar tomonlama o'rganishni talab etadi. Shuni aytish kerakki, Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiy ettirishda qat'iyat va jasorat bilan ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Yangi O'zbekiston uchun g'oyat murakkab va mas'uliyatli davrda vaziyat beqarorlashuvini oldi olingani va xalqimizning globallashgan davr dahshatlarini ko'rmasdan eson-omon uchunchi Rennesans sari dadil odimlashi bevosita Shavkat Mirziyoyev nomi bilan bog'liq.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan asrash borasida salmoqli qadamlar tashladi. Mamlakat yanada ochiq va demokratik jamiyat sari o'tishni davom ettirar ekan, Mirziyoyev ma'muriyati millat yoshlari ongini himoya qilish muhimligini tan oladi. Ushbu

maqolada biz Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish bilan bog'liq asosiy masalalarni ko'rib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlarga oid nutqlari va ma'ruzalari, fundamental asarlari, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining asarlari, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida qabul qilingan huquqiy normativ hujjatlar tadqiqot uchun nazariy-metodologik manba, ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, kompleks yondashuv kabi usullariga tayanildi.

**Natijalar.** Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [1], deb ta'kidlagan edi.

Ta'kidlash joizki, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati ham aynan yoshlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan, 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun [2] edi.

Hozirgi davrda mamlakatimizning mustaqil ijtimoiy taraqqiyotida mafkuraviy profilaktika jarayonlarining xususiyatlarini o'rganish va uni tizimli tarzda shakllantirish, boshqarish, rivojlantirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, S.Atamuratov[3], A.Erkaev, A.Achiliev, M.Quronov, E.Yusupov[4], M.Yuldashova, A.Muxtorov, Q.N.Nazarov va boshqa olimlar mafkuraviy profilaktika jarayoni sub'ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy madaniyatini shakllantirish va siyosiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ayni masalada, J.Ya.Yaxshiliev, N.E.Muhammadiev [5] va A.S.Achilievlarining[6] tadqiqotlarida mafkuraviy profilaktikaning xalqimizga yot bo'lgan g'oya va mafkuralarning oldini olish hayotiy zaruriyat ekanligi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, asosiy e'tibor milliy g'oya talablari asosida ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy profilaktika olib borish masalasini umumnazariy jihatdan yoritib berishga qaratilgan.

Biroq yuqorida eslatib o'tilgan asarlarda mafkuraviy profilaktikaning yosh avlodni g'oyaviy himoyalash asoslari va mexanizmi etarlicha o'rganilmagan. Shu bois biz mazkur maqolada mafkuraviy profilaktikani ilmiy-nazariy, metodologik asoslarini ishlab chiqish, uning ijtimoiylashuv tizim faoliyatini funksional integratsiyalash va ijtimoiylashish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish hamda asoslab berishni ko'zda tutdik.

Yoshlar ongiga tahdid solayotgan eng jiddiy tahdidlardan biri ekstremistik g'oyalarning keng tarqalishidir. O'zbekistonda, boshqa ko'plab davlatlar singari, ekstremistik faoliyat, xususan, islomiy guruhlarining ham ulushi bor. Mamlakat xavfsizlik kuchlarini mustahkamlash va mintaqadagi boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu tahdidga qarshi kurash choralarini ko'rdi.

Ana shunday kurash choralaridan biri mo'tadil va bag'rikeng islomni targ'ib qilishdir. O'zbekistonda islom ilmining uzoq tarixi bor va Mirziyoyev ma'muriyati islomni mo'tadilroq va bag'rikengroq talqin qilish uchun bu an'anadan foydalanishga harakat qildi. Hukumat diniy yetakchilarni

ekstremizmga qarshi chiqishga undadi va ularni samarali amalga oshirish uchun zarur vositalar bilan ta'minlashga harakat qildi. Bundan tashqari, hukumat tanqidiy fikrlash va diniy va dunyoviy fanlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli ta'lim muhimligini ta'kidlab, mamlakatda diniy ta'limni yaxshilash choralarini ko'rdi.

Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ulug' alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Shunday buyuk olimlarning boy merosini o'rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024 yil O'zbekistonda "Islom – tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusini ilgari suramiz",[7] dedi Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida.

Yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishning yakuniy asosiy masalasi ularga iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etish zarurati hisoblanadi. Ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar ekstremistik mafkuralar uchun zamin yaratishi mumkin, chunki yoshlar mavjud vaziyatdan hafsalasi pir bo'lib, kelajakka nisbatan muqobil tasavvurlarni izlaydilar. Shavkat Mirziyoyev shunday muammolarni bartaraf qilish maqsadida mamlakatda iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rnlari yaratish bo'yicha choralar ko'rdi. Hukumat tomonidan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlarning muvaffaqiyat va farovon yashashi uchun yangi imkoniyatlar yaratish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston yanada ochiq va demokratik jamiyat sari o'tishni davom ettirar ekan, hukumatning yoshlarni ekstremistik mafkuralardan himoya qilish borasidagi sa'y-harakatlari mamlakat muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda muvaffaqiyatga erishish yo'llarini ko'rsatib bergan bo'lsa-da, hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar bor.

Asosiy muammolardan biri xavfsizlik choralarini fuqarolar erkinliklarini himoya qilish bilan muvozanatlash zarurati. O'zbekiston avtoritar boshqaruv tarixiga ega va hukumatning ekstremizmga qarshi kurashi so'z erkinligi va boshqa fuqarolar erkinliklarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Hukumat uchun xavfsizlik va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni topish, fuqarolar erkinliklariga qo'yilgan har qanday cheklovlar mutanosib va zarur bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Yana bir qiyinchilik - xilma-xillik va bag'rikenglikni targ'ib qilish zarurati. O'zbekiston ko'p millatli va ko'p dinli jamiyat bo'lib, hukumat turli guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish va bag'rikenglikni rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Bu turli diniy va etnik jamoalar o'rtasida ta'lim va muloqotni rivojlantirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va madaniy ishlab chiqarishda xilma-xillikni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Nihoyat, yoshlarning o'zlarini mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish jarayoniga jalb etish muammosi eng dozarb muammo. Hukumat yoshlarning muvaffaqiyatga erishishi uchun vositalar va imkoniyatlarni taqdim eta olsada, pirovardida to'g'ri tanlov qilish va ekstremistik mafkuralar ta'siriga qarshi turish ularning o'ziga bog'liq. Hukumat yoshlarni demokratik jarayonlarga jalb etish, ularga yetakchilik qilish imkoniyatlarini taqdim etish, fuqarolik jamiyatida ishtirok etishga rag'batlantirish ustida ish olib borishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida qayta-qayta takidlanadigan muhim yunalishlardan biri, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishga ko'maklashayotgan



yo'llardan biri ta'lim sohasidagi islohotlardir. Hukumat O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirish va o'qishga bo'lgan muhabbatni kuchaytirishga e'tibor qaratmoqda. Bu ekstremistik mafkuralarga qarshi tura oladigan va mamlakatning demokratik rivojlanishiga hissa qo'shadigan kelajak avlod yetakchilarini yetishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Hukumat yoshlarga mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni berish muhimligini e'tirof etgan holda, kasb-hunar ta'limi va ta'limini rivojlantirish bo'yicha ham chora-tadbirlar ko'rmoqda. Bu ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashishni o'z ichiga oladi.

Nihoyat, hukumat mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda xalqaro hamkorlik muhimligini tan oldi. O'zbekiston mintaqadagi va undan tashqaridagi boshqa davlatlar bilan munosabatlarini, jumladan, xalqaro forumlarda ishtirok etish va strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish orqali mustahkamlandi. Bu xavfsizlik masalalari, shuningdek, iqtisodiy o'sish va taraqqiyotni rag'batlantirish bo'yicha hamkorlik qilish sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi.

Hukumat ekstremizmning asosiy sabablarini, jumladan, qashshoqlik, ishsizlik va ijtimoiy chetlanishni bartaraf etish choralarini ko'rdi. Bunga iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar, shuningdek, qishloq va chekka hududlarda ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha tashabbuslar kiradi. Ekstremizmning asosiy sabablarini bartaraf etish orqali hukumat ekstremistik mafkuralarga nisbatan zaifroq barqaror va farovon jamiyatni yaratishga yordam bermoqda.

Nihoyat, hukumatning fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilishi va yoshlarning o'zlarini ovoziga quloq tutishi muhim. Muloqot va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratib, hukumat yoshlarning ehtiyojlari va tashvishlarini yaxshiroq tushunishi hamda Yangi O'zbekiston yoshlari oldida turgan muammolarni hal qilishda ular bilan hamkorlik qilishi mumkin. Yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi sa'y-harakatlarning potentsial sohalardan biri so'z erkinligi va fuqarolik erkinliklarini cheklash potentsialidir. Hukumatning ekstremizmga qarshi choralar ko'rishi muhim bo'lsa-da, bu chora-tadbirlar inson huquqlari va fuqarolar erkinliklarini asossiz ravishda buzmasligini ta'minlash ham muhimdir.

Yana bir potentsial muammo - Islomning mo'tadil va bag'rikeng shakllarini targ'ib qilishni barcha jamoalarning diniy e'tiqodlari va an'alariga hurmat bilan muvozanatlash zarurati. Hukumat uchun Islomni mo'tadil va bag'rikenglik bilan talqin qilishni targ'ib qilish muhim bo'lsa-da, barcha jamoalar o'zlarini hurmat va qo'shilish his qilishlarini ta'minlash ham muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
2. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun / <https://lex.uz/docs/3026246>
3. Atamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. - Toshkent: O'zbekiston, 2013. - 456 b.
4. Yusupov E. Milliy g'oya va mafkura: mohiyati, ijtimoiy-tarixiy ildizlari va ahamiyati. - Toshkent, O'zMU, 2000. 79 b.
5. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya - taraqqiyot strategiyasi. Monografiya. - Toshkent: «Fan», 2017. - 424 b.
6. Achiliev A.S. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - Toshkent: Muharrir, 2009. - 96 b.
7. O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi 20.09.2023
8. «Inson huquqlari: jamiyat taraqqiyoti kafolatlari» - 2019-yilda chop etilgan ushbu maqolada asosiy e'tibor inson huquqlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashishdagi ahamiyatiga qaratilgan.
9. O'zbekiston elchixonasi. (2021). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi. (2021). O'zbekiston: zo'ravon ekstremizmning oldini olish.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek, «Sayoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat». [8]

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «Mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q» degan ibratli iboralari xalqning maqsad-muddoalarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo aql-zakovat, imyon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlilali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir.

Aslida, bu narsalar insonga atrofda - yurtida va dunyoda sodir bo'layotgan voqea, hodisa, jarayonlarni anglashi, ularning o'zaro aloqadorligi, munosabati va mohiyatiga chuqur kirib borishi uchun kerak. Bugun oddiy ma'naviyat bilan ilg'orlar safida bo'lish ehtimoli past. Bu yerda faqat yuksak ma'naviyatgina yordam bera oladi.[9].

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy xulosalarga ega bo'linadi:

- Millatlar va xalqlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan davlat o'z oldiga quyidagi konkret vazifani qo'yadi: yosh avlodni ijtimoiy munosabatlarning xilma-xil shakllariga o'tishga tayyorlash; ularni mafkuralashtirish oqibatlaridan xalos qilish, intellektual salohiyatini banddan ozod qilish, ularga huquqiy kafolatlar berish. Shu bois yosh avlodning ijtimoiy rivojlanishi dialektikasini ular mustaqil hayotga qadam ko'ya boshlagach duch keladigan real ziddiyatlarni hisobga olib tahlil qilish eng muhim nazariy-metodologik muammolardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o'quv rejalarini, dasturlari va o'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda o'z hayotiy qiziqishlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini yo'lida ham ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-apreldagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-son qarori bilan sohada

yangi tartib joriy etilishi belgilangan bo'lib, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini, ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish asosiy vazifa etib belgilandi [1,1-2-bet]. Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qitish ularda milliy va umuminsoniy tarbiya elementlarini shakllantirish zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida o'z ifodasini topishi kerak.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** D.R.Babayeva, R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, tadqiqotlarida o'quvchilar aqliy faoliyatini shakllantirishga doir metodlar o'z aksini topgan bo'lsa, K.Qosimova, R.Safarova, X. G'ulomovalarning tadqiqotlarida boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikalarini, rivojlantirish omillari xususida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'quv predmetlarining mazmunidan, o'quvchilarning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda metod, usul va o'qitish vositalarini tanlaydi. "Metod" yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, "bilish va tadqiqot yo'li", "nazariya", "ta'limot" kabi ma'nolarni bildiradi [2]. Ona tili darslarida o'qitishning turli xil metodlari va ta'limiy o'yinlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash sinfdagi eng "jiddiy" bola bilan ham til topishishga imkon beradi. Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar afsuskiy, yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir.

Dars jarayonida ta'limiy o'yin, multimedia, pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilim olish jarayonini qiziqarli va maroqli tashkil etishni ta'minlaydi. Bolalarni jismonan tetiklashtirib kayfiyatini ko'taradi, shuningdek ona tili darslaridagi mavzularni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar, multimedia va ta'limiy o'yinlarni topshiriq va mashq bajarish jarayonida qo'llash bola shaxsiyatini, qobiliyatini har tomonlama tarbiyalaydigan vosita vazifasini o'tashga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'qituvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o'qituvchini izlanishga va o'quvchini o'z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi.

Bolalarning aqliy faoliyati kichik yoshdanoq boshlanadi. Faqat u davrda bilish faoliyati o'yinlar asosida quriladi. Maktab hayoti tashqi va ichki jihatlari bilan oila yoki bog'cha sharoitidan farq qiladi. Birinchi sinfga kelgan bola maktabni his etadi, lekin bu jarayonga moslasha olmaydi. Ana shuning uchun ham bolaga o'yin orqali bilim berishni amalga oshirish kerak. Bolalarga faqat jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar berish, qoidalar bilan qurollantirilishi ularni zerikishga olib keladi va bezillab qoladi. Aqliy zo'riqishdan charchagan bola o'qimay qo'yadi. Shu sababli bolalarga o'yinlar yordamida tinimsiz ravishda fikr yuritishga undash, hayot olamiga sayr qildirish, aqliy zo'riqishlarsiz istagan yo'llar bilan o'zlarini – o'zlari tarbiyalashlariga ko'maklashishimiz lozim. Boshlang'ich sinflarda ishlash jarayonida o'ylashga, yangi o'quv vositalarini izlab topishga, ijod qilishga to'g'ri keladi. O'yinlarning jozibali nomlari bolalarni diqqatini tortadi, ularni charchatmaydi, darsga nisbatan ijodiy hissiyotlar uyg'otadi. Ularni dars o'rtasida, oxirida yoki boshlanishida ham kiritish mumkin, bunda mavzuga o'yinning maqsadi va xarakterini hisobga olgan holda tanlash lozim.

2-sinf darsligida yangi so'z yasashga doir alohida bob berilgan. Mavzular o'z ichiga qiziqarli matn hamda mashqlarni olgan. Quyidagi birgina mashqni o'zida uchta topshiriq berilganligi bois o'quvchilarni

zeriktirishi hamda toliqtirishi mumkin. Bu muammoni oldini olish uchun bizga didaktik ta'limiy o'yinlar yordamga keladi.

2-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ikki ta so'z bir-biriga qo'shilisidan paydo bo'lgan yangi so'zlarni namunada ko'rstilgani kabi ajratib yozing[3].

Namuna: muzqaymoq=muz-qaymoq

Hamma bolalar muzqaymoqni yaxshi ko'rishadi.

Tuyaqush –Yer yuzidagi eng yirik qush.

Ta'til vaqtida tomorqada mehnat qildim.

Amakim daraxt shoxlarini gulgaychi bilan butalab chiqdi.

Sardor-sheryurak bola.

Nafisa xolaga bilakuzuk sovg'a qilishdi.

Shu so'zlar ishtirokida yana boshqa gaplar tuzishga harakat qilib ko'ring.

Yuqoridagi mashqda dastlab o'quvchilarga mashq sharti bilan birgalikda namuna tushuntiriladi, so'ng sinf o'quvchilari 3 ta guruhga parta qatori kesimida bo'linadi. Topshiriq sifatida qaysi guruh birinchi bo'lib eng ko'p mashqda berilgan gaplar ichida ikkita so'z qo'shiluvidan hosil bo'lgan yangi so'zni topish hamda shu so'zlar ishtirokida yangi gap tuzish beriladi. Bunda sinf kesimida guruhlar bilan ishlash orqali sinfdagi jamoaviylik shakllantiriladi.

"So'zdan so'z yasash" o'yini. Bu o'yin o'quvchilarni so'z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Bu usul orqali bir so'zdan bir necha so'z tuzish o'yini o'quvchilarni ziyraklikka, hozirjavoblikka undaydi. Yozuv taxtasiga o'qituvchi tomonidan bir so'z yozib qo'yiladi. Masalan: O'zbekiston, Zanjir... Shundan so'ng o'qituvchi ma'lum vaqt davomida ana shu so'z harflaridan foydalangan holda boshqa so'z yasashlarini aytadi. Masalan, O'zbekiston – o'z, ek, bek, o'zbek, on; Zanjir – zar, zira, arz, ariza, jar, ranj kabilar.

Didaktik o'yinlar bilan birgalika o'qitishning boshqa metodlarini qo'llash ham samarali natija beradi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlari ajratish, o'xshash va farqli jihatlarga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos slogan[4]. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Masalan, "So'z ma'nosi" mavzusini o'rganish uchun doskaga turli ma'nodagi, ya'ni turli so'z turkumiga kiradigan so'zlar aralash holda yozib qo'yiladi. Misol uchun yangi taxrirdagi 3-sinf ona tili darsligida berilgan 12- mashqni ko'rib chiqamiz [5].

Tish shifokori, loyihachi dizayner, o'qituvchi, kiyydi, qo'lgop, sakkizta, o'n, qora, yigirma, tosh, boryapti, yaratadi, olti, archa, bola, yaxshi, yigirma yetti, tayyorlaydi, qorqaracha, mustaqil, yurdi, to'qson, ishchan, ketmaydi, mukammal, inson, daraxt, qadimgi.

Ot	Sifat	Son	Fe'l
Kim? Nima?	Qanday? Qanaqa?	Nechta? Qancha?	Nima qiladi? Nima qilyapti? Nima qiladi?
loyihachi dizayner	qora	sakkizta	tayyorlaydi

O'quvchilar bilan quyidagicha savol-javob tashkil qilinadi:

- Birinchi so'z nimani bildiriyapti? Narsanimi, shaxsnimi?

- Bu so'z ga qanday so'roq beramiz? Ikkinchi so'z harakatni bildiriyaptimi yoki narsanimi?

- Qaysi so'zlar sanoqni bildiriyapti?

- Qaysi so'zlar rangni bildiriyapti? Kabi har bir so'zga so'roq berib ko'ramiz. O'quvchilar topshiriqni o'qituvchi yordamida bajarib bo'lgach, muammoli savol o'rta tashlanadi: Ya'ni yuqoridagi so'zlar nimasiga ko'ra farqlanyapti? O'quvchilar "ma'nosiga ko'ra" degan fikrni ayta olmasalar, o'qituvchi bu muammoni hal qiladi: Bu so'zlar ma'nosiga ko'ra va so'roqlariga ko'ra farq qiladi. O'ylang, so'zlarni qaysi xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratamiz? So'zlarni nechta guruhga ajratish mumkin? Savol-javoblardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar bilan suhbat rivojlantirilib borilyapti va o'quvchilar suhbat davomida yangi-yangi ma'lumotlarni egallab bormoqdalar. 3-4-sinflarga o'tganda bunday suhbatlar oxirida o'quvchilarning o'zlari xulosa chiqaradilar.

**Muhokama.** Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz - tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib o'rganilgan grammatik materialni yaxlitlashdir.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida - ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar) ga bog'liq bo'ladi.

"Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha" metodi. "Oshxona jihozlari", "Qushlar", "Uy hayvonlari va parrandalar" kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi. O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi. Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it, yo'lbars. So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi. Shu metodni ona tili darslarida sifatning ma'no turlari mavzusida qo'llashimiz mumkin.

"Tushunchalar tahlili" metodi. Bu metod quyidagicha mulohaza qilinadi. Nazorat ishi yakunlanib, baholar e'lon qilingandan so'ng, har bir o'quvchi nazorat daftarida o'qituvchi tomonidan tekshirilgan va kamchiligi tuzatilgan so'zlarni ko'chirib yozadi. Bu metod ham o'quvchini hushyorlikka chorlash bilan bir qatorda o'z xatosini o'z vaqtida tushunishga va xatoni boshqa takrorlamalikka olib keladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, noan'anaviy metodlar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o'zining samarasini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida gilarining fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023 yil 20-apreldagi PQ-128-sonli farmoni.
2. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild, 2003. 613- b.
3. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursunov Sh Ona tili va o'qish savodxonligi (2- sinf 3qism). -Toshkent, "Yangi"2021-yil 5-11-bet.
4. Avezmuratov A D. Buxoro, Pedagogik mahorat "Ilmiy-nazariy va metodik jurnal" 1-son 2022-yil, fevral.
5. Kuranov S, Toirova M, Yuldasheva E, Moynazarova D. Ona tili (3-sinf). -Toshkent, 2022.



UDK:420:154.37(07(045)

**Bobur LATIPOV,**  
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: boburlatipov516@gmail.com

Qarshi DU dotsent v/b., PhD M.Omonova taqrizi asosida

### CAN COMMUNICATIVE LEARNING STRATEGIES ENHANCE ESL SPEAKING COMPETENCE?

Annotation

This current article discusses that Communication strategy (CS) is defined as a person's attempt to find a way to fill the gap between their communication efforts and the available language resources in the near future (Maleki, 2007). In addition communicative competence is crucial for language learner since this is the goal of language learning. A teacher should master learning strategies and learning model in order to enhance students' communicative competence. Although there are other definitions of communication strategies, the basic idea remains the same. For example, Faerch and Kasper (1983a) define CS as "potentially conscious plans" that are used by a person to solve a problem in order to achieve a specific communication goal. Communication strategies are considered to play an important role in the development of strategic competence (e.g. Faucette, 2001); in this way, communication strategies can be defined within the strategic competence.

**Key words:** Communication, communication strategy, communication goal, communicative competence, ESLs' speaking skills, types of communication, Communicative Competence, English Language Teaching, Autonomous Learning Model.

### МОГУТ ЛИ КОММУНИКАТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ УЛУЧШИТЬ УРОВЕНЬ ESL РАЗГОВОРНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ?

Аннотация

В данной статье обсуждается, что коммуникационная стратегия (КС) определяется как попытка человека найти способ восполнить разрыв между своими коммуникативными усилиями и доступными языковыми ресурсами в ближайшем будущем (Малеки, 2007). Кроме того, коммуникативная компетентность имеет решающее значение для изучающего язык, поскольку это является целью изучения языка. Учитель должен овладеть стратегиями обучения и моделью обучения, чтобы повысить коммуникативную компетентность учащихся.

**Ключевые слова:** коммуникация, коммуникационная стратегия, коммуникативная цель, коммуникативная компетентность, разговорные навыки ESLs, типы коммуникации, коммуникативная компетентность, преподавание английского языка, модель автономного обучения.

### TA'LIM KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI ESL DARAJASINI YAXSHILASHI MUMKINMI? SO'ZLASHUV KOMPETENTSIYASI?

Annotatsiya

Ushbu maqolada aloqa strategiyasi (KS) insonning yaqin kelajakda kommunikativ sa'y-harakatlari va mavjud til resurslari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish yo'lini topishga urinishi sifatida ta'riflanganligi muhokama qilinadi (Maleki, 2007). Bundan tashqari, kommunikativ kompetentsiya til o'rganuvchi uchun juda muhimdir, chunki bu tilni o'rganishning maqsadi. O'qituvchi o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini oshirish uchun o'qitish strategiyalari va o'qitish modelini o'zlashtirishi kerak.

**Kalit so'zlar:** Aloqa, aloqa strategiyasi, kommunikativ maqsad, kommunikativ kompetentsiya, ESLs nutq qobiliyatlari, aloqa turlari, kommunikativ kompetentsiya, ingliz tilini o'qitish, avtonom ta'lim modeli.

**Introduction.** The ability of people to reach their goals in social life depends to a large extent on their communicative competence. The term communicative competence was stated by Hymes [1] to emphasize that the ability of speaking language and communicating is not only about knowledge of grammatical rules. It is believed in many societies that good communication has many constraints and that one of the most important constraints is the underlying ability of the interlocutors. Several competences are required in order to have good communicative competence, especially for English as Foreign Language (EFL) learners which are language competence, strategic competence, pragmatic competence and sociolinguistic competence. Since communicative competence is very crucial in EFL learning, the teachers of EFL should master learning strategies and learning model to be able to enhance students' communicative competence. However, of the whole variety of definitions of communicative strategies, the most relevant is the definition of A. Knapp-Pothof (1997). She describes communication strategies as cognitive operations carried out by learners,

which are aimed at short-term resolution of the disagreement that arose between the requirements of the communicative situation and the student's communicative competence.

In this article, much has been written about the taxonomy and types of communication strategies, the ways of teaching CS and their possible impact on ESLs' speaking skills. Since the 1970s communication strategies have been the focal point of consideration in SLA research. Around that time examination was centered on interlanguage and unfamiliar talk, the two of which included the interactional idea of human correspondence (Tarone, 1977). These early investigations concentrated on distinguishing, characterizing and grouping CS into scientific classifications. Later examinations, nonetheless, were focused on the connection between communication strategies and language instruction, particularly in EFL/ESL settings. As a rule, there are two ways to deal with the examination and characterization of communication strategies: the etymological methodology (interactional methodology) and the intellectual methodology[1].

On the other hand, psychological way to deal with CS is put inside psycholinguistic system. Faerch and Kasper (1983a) clarify that communication strategies are measures happening inside the L2 speakers themselves with an attention on discourse recognition and arranging and execution in discourse creation at whatever point they experience issues. Along these lines, their depiction of intellectual methodology is more student focused and open systems are seen as means for settling issues of self-articulation. Nonetheless, Mali (2007) stated that the CS execution cycle may begin as intellectual and result in connection. Additionally, Poullisse (1990) remarks that one and the same procedure type can have components of both control and examination[2].

**Types of CS** Tarone (1977, 1980) and Bialystock (1990) give the most generally scientific classification of communication strategies, which are additionally examined underneath.

A. Paraphrase incorporates three subcategories which are depicted below: (a) Approximation: The utilization of an objective language jargon thing or structure, which the student knows isn't right, however which imparts semantic highlights to the ideal thing to fulfill the speaker.

B. Transfer has two components. (a) Literal translation: The student's deciphering in exactly the same words from the local language (b) Language switch: The student's utilizing the NL (native language) term without trying to interpret.

C. Appeal for Assistance alludes to the student's requesting the right term or structure.

One of the teaching models which can be used to enhance learners' communicative competence is Autonomous Learning Model (ALM) which is also known as student-centered learning, the students are given more opportunities to actively communicate to their colleagues. One of the ALM used worldwide is Nunan's Autonomous Language Learning Model (NALLM). However, there are limited studies providing the relation between communicative competence and autonomous learning model. Thus, this article tries to elaborate how NALLM can hypothetically enhance students' communicative competence[3].

#### **The ways of teaching CS**

Mali (2007) indicated that language is best learned and educated through cooperation; subsequently, encouraging CS is the suggested support by which strategic competence can be created. Maleki (2007) in an investigation thinks about showing CS and the practicality of joining them into school schedules. Most investigations uncover that teaching CS is educationally compelling, that interactional techniques are all the more successfully and broadly utilized, that interactional strategies are helpful for language learning, and that language encouraging materials with CS are more powerful than those without them. Faerch and Kasper (1986) propose three kinds of exercises for CS teaching. These are interactive games with visual support, without visual help, and talks [4].

Even though developing speaking skills is the essential key to achieving proficiency in a target language, there are some pupils (grades 4-6) who do not participate in communication tasks in English classroom.

The used methods were different electronic databases, such as ERC, ERIC and Google Scholar, to access relevant peer-reviewed journal articles to our research questions. The observed and analyzed articles showed that there are some pupils who do not interact because English teachers often focus too much on reading and writing skills rather than on speaking skills. The limitation of communication tasks and large classroom sizes are other mitigating factors. In addition, teachers often using the first language in class resulted in pupils doing the same. This contributes to a lack of motivation and confidence in speaking English for some learners. This

study identifies teaching strategies and activities that can be used by the teacher to raise motivation and confidence in speaking English[5].

#### **The ways of improving oral communication skills**

Porto (1997) and Omar (2001) demonstrated that creating oral aptitudes is a genuine test for some ESL instructors since the understudies don't live in an English speaking environment. In order to improve speaking skills of our learners in the oral interaction class, language learning techniques must be connected to important informative exercises in the classroom. In this way, language training exercises during the lessons should target boosting individual language use. This requires the instructor not only to create a warm and friendly atmosphere, but also to implement communicative activities and conduct role-playing games. Interaction and communication are fundamental aspects for pupils with English as a foreign language. Research has proven that interaction is the main goal for language development where pupils get opportunities to express themselves (Gibbons, 2015).

Furthermore, pupils need to participate in social contexts where they are using the English language as a comprehensible output. Learners should be encouraged to develop all-round communicative skills to express themselves and make themselves understood. Language skills promote several perspectives and enhance opportunities to discover the surrounding world. English communication skills provide the confidence of using the English language for different purposes as well as different social and cultural situations.

When learning contexts require pupils to focus on the spoken language, and how knowledge, thoughts, and opinions are expressed, the learners unconsciously develop grammatical skills (Gibbons 2015). The English teachers should provide a language-rich environment to increase pupils' exposure to the target language. The oral communication provided pupils to participate in different social context, which prepare the pupils for real-life interactions. However, many researchers have shown that in every classroom and in every learning context the teacher meets pupils who do not have the courage and motivation to participate in the communicative tasks (Savasci, 2014). EFL (English as a foreign language) learners are more often willing to participate in reading, writing and listening skills, but feel unwilling to speak English. In order to develop speaking abilities in a language, it requires that teachers consciously use different strategies in learning contexts to engage pupils in various communication tasks. When learners work collaboratively, they exchange thoughts, knowledge and experiences, which include scaffolding where words and phrases are expressed in different ways. In this way, many pupils move forward in their learning process by the support/scaffolding of more knowledgeable peers[6].

**Conclusion** The use of different CS is predominantly pointed toward having an effective informative trade among the interlocutors. Different examinations concerning the value of training students in the use of CS, for example, those of Dörnyei (1995) and Maleki (2007), concerning the adequacy of informative procedures when utilized in L2 exchanges, demonstrated that explicit preparing and the dynamic implementation of CS help the students manage communication more effectively in contrast with those individuals who don't get such preparing or don't use such techniques. Gibbons (2015) reaffirms that the communicative classroom includes opportunities to use language in different contexts, where learning experiences are exchanged. The communicative classroom establishes learning environment where interaction is a foundation for language development, it also creates great abilities for pupils to be involved in their own learning process.

By working together, they do not only increase the repetition of words and phrases, but it also has an abundant impact on pupils' listening, writing and reading. Therefore, communication becomes essential for pupils who have fewer experiences with speaking English (Gibbons, 2015). Considering the research on the usage of techniques in ELF, it appears to be conceivable to expect that viable use of CS is one of the most urgent components of having a fruitful correspondence in the most widely used language setting

because of its outrageous ease and variety. Notwithstanding, the significance of CS in ELF has not yet been perceived in ELT materials. It is also important that the teacher include pupils' previous knowledge experience in the learning to increase development. Since the pupils have different knowledge experiences, it demands different learning tasks based on pupils learning levels and interests to increase their motivation and engagement in their learning.

#### REFERENCE

1. Bialystok, E. (1990). *Communication Strategies*. Blackwell, Oxford.
2. Brooks, F. (1992). Can we talk? *Foreign Language Annals* 25 (1), 59-71.
3. Dörnyei, Z. (1995). On the teachability of communication strategies. *TESOL Quarterly* 29(1), 55-85.
4. Ellis, R. (1984). *Communication Strategies and the evaluation of communicative performance* (pp. 39-44). // *ELT38-1*.
5. Faerch, C. & G. Kasper. (1983a). Plans and strategies in foreign language communication. In C. Faerch & G. Kasper (Eds.), *Strategies in Interlanguage Communication*. London: Longman, 20-60.
6. Faerch, C. & G. Kasper. (1984). Two ways of defining communication strategies. *Language Learning* 34 (1), 45-47.
7. Faerch, C. & G. Kasper. (1986). Strategic competence in foreign language teaching. In G. Kasper (Ed.), *Learning, Teaching and Communication in the Foreign Language Classroom*. Aarhus: Aarhus University Press, 179-193.
8. Gibbons (2015). The importance of Communicative skills and the evaluation of communicative performance for young learners (pp. 40-47). // *ELT39-2*.
9. (Savasci, 2014). The advantages of communicative abilities for learner. *TESOL Quarterly* 30(1), 60-90.
10. Mali (2007) *The enhancement of communicative language through cooperation and collaboration*. Oxford University Press, 79-93.





UDK:343.341.1

*Sardor LATIPOV,*  
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistratura tinglovchisi*

*S.f.d., dotsent N.Turgunova taqrizi asosida*

## PUBLIC CONTROL OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article deals with the implementation of the policy of openness in the prevention of corruption, the rule of law by state bodies, the role of the public and mass media, honesty and impartiality.

**Key words:** Transparency, publicity, media, truthfulness, impartiality, honesty, sacrifice, leadership, corruption, democracy, crime, bribery, vice and society.

## ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ ЗА БОРЬБОЙ С КОРРУПЦИЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье речь идет о реализации политики открытости в предотвращении коррупции, верховенстве закона государственными органами, роли общественности и средств массовой информации, честности и беспристрастности.

**Ключевые слова:** Прозрачность, публичность, средства массовой информации, правдивость, беспристрастность, честность, жертвенность, лидерство, коррупция, демократия, преступность, взяточничество, порок и общество.

## YANGI O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING JAMOATCHILIK NAZORATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada korrupsiyani oldini olishda ochiqlik siyosatini yuritish, davlat organlari qonun ustuvorligini ta'minlashi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining roli, halollik hamda xolislik haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Oshkoralik, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, haqqoniylik, xolislik, halollik, fidokorlik, rahbarlik, korrupsiya, demokratiya, jinoyatchilik, pora, illat va jamiyat.

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmiga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylandi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari natijasida bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ta'kidlash joizki, 2003-yil 31-oktabr kuni BTning korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi imzolangan. Ushbu konvensiya korrupsiya kabi umumbashariy ofat bilan global darajada kurashishga imkon beradigan xalqaro hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston bu dolzarb muammolarning oqibatlarini chuqur anglagan holda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda, BTning korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, mamlakatimiz tarixida ilk bor Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bois, 2017-yilning 3-yanvarida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Mamlakatimizda 2017-yilga qadar O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni, ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadli huquqiy asosi yaratilmaganligini ham tan olish kerak [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'tgan davr mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga bevosita taalluqli 13 ta, boshqa sohalarda korrupsiya omillarini qisqartirishga qaratilgan 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Davlat boshqaruvida byurokratiyani kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar natijasida ijro organlari soni 61 tadan 28 taga qisqartirilib, vazirlik va idoralar funksiyalarini optimallashtirildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish, bu jarayonga jamoatchilikni jalb qilish hamda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha idoralararo

hamkorlik samaradorligini oshirish maqsadida, Respublikamizda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini faoliyati tashkil etildi. Mazkur agentlikga:

- Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqliqni ta'minlashga oid matreallarni tayyorlash uchun buyurtmalar berish;

- Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashga qaratilgan loyihalarini hamda bu borada o'tkaziladigan tadqiqotlarini va ijtimoiy so'rovlarini moliyalashtirish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish kabi vazifalar yuklatildi.

**Tahlil va natijalar.** Korrupsiyaga qarshi an'anaviy usullar bilan kurashish bugun yetarlicha samara bermasligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish, bu illatga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish uchun davr va taraqqiyot talabiga mos zamonaviy, ta'sirchan va kezi kelganda, keskin choralar bilan oldinga intilmoqdamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ilk bor korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi kiritilgani ham ushbu yo'nalishdagi islohotlarning mamlakatimiz taraqqiyotida nechog'liq ahamiyatli ekanini yaqqol namoyon etdi.

2017-2023 yillar mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Natijada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida islohotlarni yagona yondashuv asosida samarali amalga oshirish mexanizmi yaratildi.

Korrupsiyani jilovlash borasida mamlakatimizda islohot va ochiqlik, oshkoralik, xolislik, hisobdorlik jarayonlari dadillik bilan amalga oshirilmoqda. Haqiqatan ham, O'zbekiston iqtisodiyoti erkinlashtirilmoqda: kichik biznes sohiblariga nazorat yuki pasaytirilmoqda, ba'zi

inspeksion tashkilotlardagi byurokratik ovoragarchiliklarga barham berilmoqda, moliyaviy, soliq va bojxona tizimlarimiz liberallashtirilmoqda.

O'zbekistonda dastlab "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida vazirlik va idoralarda "yashirin iqtisodiyotni" hamda korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimi - "komplayens nazorat" tizimini joriy etish ishlari yo'lga qo'yildi.

2023-yilning 27-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-sonli farmoni sohadagi islohotlar yanada qat'iy va tizimli davom ettirilishiga zamin bo'ldi. Yangi farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga mo'ljallangan navbatdagi davlat dasturi tasdiqlandi[2].

Davlat dasturi bilan tanishar ekansiz uning tegishli bandlarida davlat boshqaruvi, davlat xizmati, ma'muriy tartib-taomillar, davlat xaridlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, sud-huquq sohalarida korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslarini takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ko'zda tutilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturiga ko'ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya ishlab chiqilishi ham korrupsiyaga sabab bo'lgan omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan amaldagi mexanizmlar samaradorligini baholash va takomillashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirishda katta ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda farmon korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida qilinayotgan ishlar natijadorligini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma'lumotlar ko'lamini yanada kengaytirish, ulardan to'siqsiz foydalanishni ta'minlash, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish kabi muhim maqsadlarni ko'zda tutadi:

Birinchi, mazkur farmon bilan har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar tahlil qilinishi, ushbu jinoyatlar ko'rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni bajarishi uchun agentlik xodimlari ishtirokida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritib borilishi belgilandi.

Ikkinchidan, bundan buyon har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan omillarni bartaraf etish borasida ko'rilayotgan choralar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlari birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinadigan bo'ldi.

Uchinchi, qayd etish lozimki, mamlakatimizda ochiq ma'lumotlarga hukumat shaffofligining muhim vositasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadigan omil sifatida katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning qat'iy ro'yxati tasdiqlanib, axborotlar joylashtiriladigan resurs,

yangilab borish muddati va mas'ul ijrochilar aniq belgilab berilgan.

To'rtinchidan, yangi farmon asosida ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati yanada kengaytirilib, aholini qiynab kelayotgan qator dolzarb masalalar yechimini topishga imkon yaratiladi. Masalan, hozirgi kunda keng tarqalgan va jamiyatni tashvishga solayotgan firibgarlik holatlarining oldini olish va navbatga turish tizimi ochiq va shaffof bo'lishini ta'minlash maqsadida haj ziyoratiga boruvchilarning yagona onlayn navbati joriy etilib, doimiy yangilab boriladi va u barcha uchun ochiq bo'ladi.

Beshinchidan, farmon bilan falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun o'tkaziladigan dissertatsiya himoyasi, o'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlari, harbiy kafedralarga qabul qilishdagi saralash talovlarini internet tarmog'i orqali jonli e'lon uzatish tartibi joriy etiladi.

Oltinchidan, davlat organlari va tashkilotlari budjetdan tashqari jam'armalariga kelib tushayotgan mablag'lar, masalan, jarima, davlat mulkini ijaraga berish va sotish, pulli xizmatlardan kelib tushgan mablag'larning qaysi maqsadlarga sarflanayotgani, shuningdek, sudlar tomonidan davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslarining noqonuniy chiqarilgani uchun bekor qilingan qarorlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamoatchilikka ochiq e'lon qilib boriladi.

Yettinchi, Davlat xaridlarida tovarlar narxlarini nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirilib, tovarning boshlang'ich narxi davlat xaridlarining maxsus axborot portalida e'lon qilingan narxlar asosida shakllantiriladi [3].

Davlat boshqaruvi akademiyasi va agentlik hamkorligida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" darsligi chop etildi. IIV Akademiyasida birinchi marta bo'lib, 2020-yilda "Ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish va xodimlarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish" nomli darsligi hamda IIV Malaka oshirish instituti tinglovchilarida korrupsiyaga murosasiz immunitetni mustahkamlash maqsadida «Korrupsiya — ichki ma'naviy tahdid» maxsus kurslari o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Toshkentda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimida muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, kelgusida tajriba almashish va muloqotni kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini faol jalb etgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida Korrupsiya masalalari bo'yicha hududiy tadqiqot markazini tashkil etish taklifini berishi ham bu borada mazkur illatning bartaraf etishga ilmiy yondashishni taqazo etadi.

Qatar amiri tashabbusi bilan ta'sis etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mukofot bilan taqdirlash marosimida, delegatsiya ishtirokchilari havolasiga, "Jurnalistlar kuchidan samarali foydalanish va korrupsiyaga qarshi kurashda ularning ta'sirini yanada oshirish maqsadida Global Media Forum o'tkazish haqidagi taklifimizni qo'llab-quvvatlaysiz, degan umiddaman", — deya Prezidentimiz tomonidan qayd etildi [4].

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik institutlariga hamda ommaviy axborot vositalariga keng vakolatlar berilgan. Darhaqiqat mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mezonlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda[5].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, faqatgina korrupsiya uchun jazolarni og'irlashtirish yo'li bilan bu illatga qarshi kurashib bo'lmaydi. Fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq emasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyati jamoatchilik nazoratida ekanini

---

chuqur his etishi korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim shartidir.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 27-noyabrda “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 200-sonli Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.06.2020 yildagi PQ-4761-son Isomiddinov Yu. Yu. ”O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari” //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 3. – S. 84-87.



UDK:091

*Maftuna MAVLONOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti dotsenti Sh To'rayev taqrizi asosida*

## THE ROLE OF JADIDIST IDEAS IN THE NATIONAL SPIRITUAL UPSURGE

Annotation

This article explores the importance of the jadidism movement in raising national morale today in scientific theory. At the same time, the importance and role of the jadidist movement in the acquisition of independence and the development of the new Uzbekistan that we are building for renaissance is revealed.

**Keywords:** jadid, spirituality, national ideology, idea, liberation, hurficrism, progress, development, national idea, Education.

## РОЛЬ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА В НАЦИОНАЛЬНОМ ДУХОВНОМ ПОДЪЕМЕ

Аннотация

В этой статье научно-теоретически исследуется значение джадидистского движения в поднятии национальной духовности сегодня. Вместе с тем раскрывается значение и роль джадидистского движения в обретении независимости и развитии нового Узбекистана, где мы строим третий Ренессанс.

**Ключевые слова:** Джадид, духовность, национальная идеология, идея, свобода, прогресс, развитие, национальная идея, образование.

## MILLIY MA'NAVIY YUKSALISHDA JADIDCHILIK G'OYALARINING O'RNI

Annatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jadidchilik harakatining milliy ma'naviyatni yuksaltirishdagi ahamiyati ilmiy nazariy jihatdan o'rganilgan. Shu bilan birgalikda jadidchilik harakatining mustaqillikni qo'lga kiritishdagi hamda uchunchi renesansni biz qurayotgan Yangi O'zbekistonni rivojlantirishdagi ahamiyati va roli ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** jadid, ma'naviyat, milliy mafkura, g'oya, ozodlik, hurfikrlik, taraqqiyot, rivojlanish, milliy g'oya, ta'lim.

**Kirish.** Jahon ta'lim tashkilotlarida talabalarining ijtimoiy-siyosiy savodxonligini rivojlantirish, yashayotgan makonga va ona-yurtga bo'lgan muhabbatga doir ongli munosabatni shakllantirishning tashkiliy-tarixiy modellari amaliyot jarayoniga tatbiq etilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan, ta'lim taraqqiyotining asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida belgilangan ta'lim konsepsiyasi asosida AQSh, Rossiya, Germaniya, Angliya, Yaponiya va Janubiy Koreya oliy ta'lim tashkilotlarida tarixiy tajribadan foydalanish orqali yoshlarda milliy qadriyatlarga muhabbatni oshirish hamda milliy tariximizni mukammal bilish rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bilish faoliyatini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali davlat va jamiyatni iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish, o'z o'tmishi va tarixiga xolisona yondasha oladigan, iste'dodli shaxslarni tarbiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari, xususan, jadidlar ilmiy merosida o'z aksini topgan xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilg'or g'oyalar asosida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining milliy ma'naviy yuksakligini oshirish, milliy ma'naviy yuksalishda jadidchilik g'oyalarning ahamiyatini ochib berish hamda ushbu g'oyalarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish muhimdir.

Respublikamizda so'nggi yillarda milliy qadriyatlar, ma'rifatparvar siymolar merosi asosida ta'limni takomillashtirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Jadid

ma'rifatparvarlari g'oyalaridan yosh avlod tarbiyasida foydalanish hamda innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" ustuvor yo'nalish etib belgilangan. Natijada, oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga jadidchilik harakati vakillarining milliy-ma'naviy merosini o'rgatishning imkoniyatlarini kengaytirishga erishiladi.

Jadidlar harakati hamma zamonlarda o'zining hurfikrlik, mustaqillik, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lidagi ezgu maqsadlarni ilgari surgan g'oyalari hamma zamonlarda ham qiymatini yo'qotmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining nutq va ma'ruhalarda jadidlarning faoliyatini o'rganish hamda ularning teran g'oyalarini keng yoyish, yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bu g'oyalarning ahamiyati va roli katta ekanini ta'kidlab quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalari dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida vatan va millat ozodligi yo'lida kurashib bu yo'lida qatag'onga uchragan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish kerakligini ta'kidladi. "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalari dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi

O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur", deydi. Jadid bobolar bir asr avval o'zlari orzu qilgan mustaqil davlat va uning taraqqiyoti uchun dasturilamal yozib ketgan edilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yangi O'zbekistonni qurishda jadidlarning dasturilamalidan foydalanish ularning ruhini shod etish bilan birga, ular bejizga yashamaganliklari, bekorga qon to'kmaganliklarining dalilidir. Uchinchi Renessans g'oyasi ham avvalgi uyg'onish davrlarida ijod qilgan allomalarimizning g'oyalari jamiyatga tatbiq qilish orqali yangi bir uyg'onish davrini yuzaga chiqarish edi. So'nggi yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat kabi jadidlarimizning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirildi. Ularning kitoblari to'plab nashr etildi, ilmiy tadqiqotlar qilindi, ularning hayoti va ijodi haqida badiiy va hujjatli filmlar suratga olindi. Prezidentimizning jadid bobolar ijodini yanada chuqurroq o'rganish haqidagi gaplari, ularning ibrat maktabi sifatida ko'rilyotgani har bir ziyolini jadidlarning konsepsiyasini jamiyatga tatbiq etishda tashabbuskor bo'lishga undaydi.

Nega jadidlarning hayoti va ijodini chuqurroq o'rganishimiz kerak? Chunki, jadidlarning vatan ozodligi yo'lida kurashi oson kechmagan. Ular millatni kuchli millat qilib tarbiyalashni maqsad qilgan edilar. Jaholat va qoloqlikka qarshi ma'rifat bilan kurashish, ana shu asosda hurriyatga erishish, Vatanning buyuk sha'nu shavkatini tiklash jadid ta'limotining o'zak g'oyasi hisoblanadi. XX asr boshida, mutaasiblik va nodonlik hukm surgan davr muhitida milliy ruhni saqlagan holda ilg'or G'arb ilm-fani va texnikasi yutuqlarini o'zlashtirish g'oyasini ilgari surish va amalga oshirish chinakam ma'naviy jasorat edi.

Shu maqsadda yangi usul maktablari tashkil qilishdi, millat dunyoqarashini o'sdirishga qaratilgan yangi darsliklar yozishdi, teatrni olib kirishdi, nashriyotlar, gazetalar ochishdi. Inson haq-ququqlarini o'zida ifoda etgan milliy konstitsiya yaratishga intilishdi. Iste'dodli yigit-qizlarni G'arbning ilg'or mamlakatlarida o'qitish uchun bor-budlarini sarflashdi. Bunday tashabbuslar uchun o'sha davrdagi xonliklar ularni qo'llab-quvvatlamadi, aksincha, ta'qib ostiga olishdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi imkoniyatlar, hozirgi ilm-ma'rifatga xayrixoh hukumat jadidlar zamonida bo'lganida edi, Uchinchi Renessansga allaqachon erishgan bo'lardik. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Zamona ilmu-fanidan bebahra millat o'zgalarga poymol bo'lur", Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan so'zlari bugun ham millatni uyg'otuvchi da'vatdek jaranglab turibdi. Prezidentimiz ulug' ma'rifatparvar Ishoqxon Ibrat haqida shunday degandilar "Men Ibrat domla haqida ko'p o'qiyapman, uning el-yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'lib qolmoqda".

Bugun, ommaviy madaniyat xavfi kuchaygan bir davrda jadidlar kabi haqiqatparvar, ma'rifatparvar, fidoyi avlodga katta ehtiyojimiz bor. O'zbek o'z baxtu saodatini farzand kamolida deb biladi. Farzandi baxtli bo'lishi uchun hech narsani ayamaydi. Ertangi avlod agar bilimli, sog'lom, dunyoqarashi keng, e'tiqodi butun, ma'naviyatli inson bo'lib voyaga yetsa, xalqimiz chinakam baxtli-saodatli bo'ladi. Tashabbuskorlar rag'batlantiriladigan, yangicha ishlash, yangicha fikrlash zamon talabi bo'lgan bugungi kunda jadidlar hayoti va faoliyati yoshlar uchun ibrat maktabi hisoblanadi.

Avvalgi davrlarda jadidlar va ularning ijodiga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lingani bor gap. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jadid bobolarning nomini oqlash va abadiylashtirish yo'lida ulkan ishlarni amalga

oshirdi. Murojaatnomada jadidlar haqida aytilgan fikrlar zahirida, mazkur jarayon bardavom bo'lishi, jadidlar hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish, ibrat maktabi sifatida ko'rish, ularning asarlari va g'oyalari Yangi O'zbekistonni qurishda xizmat qiladi, degan ta'kid bor. Jadid degani – yangi degani. Shu ma'noda, Yangi O'zbekiston yangilik va yaxshilik tarafdori bo'lgan jadidlarning orzusi ham edi, desak, yangilashmagan bo'lamiz.

2020-yil 8-oktabrda Prezidentimizning "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasi abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilinishi esa tarixiy adolat tiklanishi va shahidlar xotirasini abadiylashtirilishi borasidagi ishlarni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Farmoyish asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta "Qatag'on qurbonlari" xotira kitoblari tayyorlandi. Ularga qatag'on qurboni bo'lgan 40 mingga yaqin vatandoshimizga oid ma'lumotlar kiritildi.

Shuningdek, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ekspozitsiyasi "Yangi O'zbekiston: Uchinchi Renessans asoslari" konsepsiyasi asosida tubdan yangilandi. Zamonaviy sensor kiosklar va monitorlar bilan jihozlandi.

Muzey hamda hududiy muzeylarning asosiy vazifasi tashrifchilarni qatag'on siyosati tarixi bilan tanishtirish, qatag'on qurbonlarini yod olish, yoshlarni ularning eng yaxshi an'analari asosida tarbiyalashdan iborat. Ularning ilmiy-ma'rifiy maqsadi esa mustamlaka davridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni o'rganish, anglash, qatag'on siyosatining fojiali oqibatlarini tadqiq qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Bu borada Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro muzeylar kuni, Xotira va qadrlash kuni, Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni, Mustaqillik bayrami munosabati bilan muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, muzey tomonidan turli mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda 2002-2022-yillar mobaynida 50 ga yaqin konferensiya, 700 dan ortiq ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbir, seminar o'tkazildi. Albatta, bu tadbirlar hisobot uchun emas, yurt, millat sha'ni, qimmatli tiklanayotgan muhim davrda o'tkazilgani bois ham katta taassurot qoldirdi.

Yangi O'zbekistonda jadidlar faoliyatini o'rganish hamda targ'ib etish masalasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib joriy yil 11 dekabr sanasida "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari" nomli xalqaro konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiyaga butun dunyo jadidlar faoliyatini o'rganuvchi yetuk mutaxassis olimlari ishtirok etdi.

Jadidlarning faoliyatini o'rganish xalqni millatni o'zligini anglashi va mustaqillik osonlik bilan qo'lga kiritilmaganini yoshlarga teran yetkazib berishdan iboratdir. Jadidlarning hayotini chuqurroq o'rganish vatan ozodligi yo'lida kurash oson kechmadi. Ular millatni kuchli millat etib tarbiyalash va millatni uyqudan uyg'otishga astoydil harakat qilgan. Jaholat va qoloqlikka faqat ma'rifat bilan kurashish va yo'lida hurriyatga erishish, vatanni buyuk shanu shavkatini tiklash jadidlar ta'limotining asosi edi. Shu asosda bugungi kunda ularning ta'limoti vatanni yanada taraqqiy etishi hamda rtoivojlanirishi yoshlar qalbida Vatanga muhabbatni uyg'otishda qo'l keladi.

Jadidlar harakatini ularning ezgu niyyat yo'lidagi faoliyatini o'sha davrlarda xonliklar qo'llab-quvvatlaganda uchunchi rennesansga allaqachon erishgan bo'lar edik. Ammo bundan qo'rqqan chor Rossiyasi tezroq ularni yo'q qilishga kirishgan. Zero Mahmudxo'ja Behbudiyning "Zamona ilmu-fanidan bebahra millat o'zgalarga poymol bo'lur" deya bejiz aytmagan. Yoki Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan gaplari g'oyalari millatni uyg'atishga va

uni taraqqiy ettirishga dav'atdir. Bu g'oyalar bugungi kun uchun qanchalar zarur va jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishda beqiyos o'ringa egaligi bilan ajralib turadi.

Tarixini mukammal bilagn millatni yo'q qilish oson kechmaydi. Shu sababdan jadidlarga munosib avlodlarni tarbiyalashda jadidlar faoliyatining uning ezgu g'oyalarini yoshlarga yetkazib berish va chuqurroq o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojlatnomasida alohida ta'kidlab shunday deydi: "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur".

Yangi O'zbekistonni qurishda jadidlarning dasturulamidan foydalanish ularning ruhini shod etish bilan birga ularning bejizga yashamagani hamda bekorga qon to'kib Vatan ravnaqi yo'lida jon fido etmaganlariga dalil bo'ladi. Uchinchi Renessans g'oyasi ham avvalgi uyg'onish davrlarida ijod qilgan allomalarimizning g'oyalarini jamiyatga tatbiq qilish orqali yangi bir uyg'onish davrini yuzaga chiqarish edi. So'nggi yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdullhamid Cho'lpon, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat kabi jadidlarimizning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirildi. Ularning kitoblari to'plab nashr etildi, ilmiy tadqiqotlar qilindi, ularning hayoti va ijodi haqida badiiy va hujjatli filmlar suratga olindi. Prezidentimizning jadid bobolar ijodini yanada chuqurroq o'rganish haqidagi gaplari, ularning ibrat maktabi sifatida ko'rilyotgani har bir ziyolini jadidlarning konsepsiyasini jamiyatga tatbiq etishda tashabbuskor bo'lishga undaydi.

Vatanning buyuk sha'nu shavkatini tiklash jadid ta'limotining o'zak g'oyasi hisoblanadi. XX asr boshida,

mutaasiblik va nodonlik hukm surgan davr muhitida milliy ruhni saqlagan holda ilg'or G'arb ilm-fani va texnikasi yutuqlarini o'zlashtirish g'oyasini ilgari surish va amalga oshirish chinakam ma'naviy jasorat edi.

O'zbekistonda Sovet hukumati davrida qatag'on qilingan 1000 dan ziyod kishilar oqlandi bu albatta mustaqillik sharofati bilan. O'zbekistonda jadidlar xotirasiga bag'ishlangan "Jadidlar: milliy o'zlikni anglash istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi anjumanning asosiy maqsadi ma'rifatparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini o'rganish va tizimlashtirishdan iborat. Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik taraqqiyot bosqichidagi ta'siri va o'rini o'rganish juda muhimdir. Jadidlarning Yangi O'zbekistonni rivojlantirishdagi asosiy g'oyalarni teatr, matbuot orqali yetkazib berdi.

**Xulosa va takliflar.** Mana shunday dav'atlar bugungi kunda ham juda zarurdir. Umuman olganda aytilish mumkinki jadid bobolarimizning qilgan mehnatlari, sayi-harakatlari bugungi kunda ham o'z o'rini yo'qotmagan. Ular tomonidan ilgari surilgan dasturlar va g'oyalar o'z o'rini yo'qotgani yo'q. Jamiyat va millat taraqqiyoti uchun barchani birdek kurashga millatni uyg'otib xalqni ozodlik uchun kurashga chorlagan fidoiylarning yodi har doim yodimizdadir. Bugungi kunda ularning g'oyalaridan keng foydalanish ularning yoshlarni ilmiy, bilimni qilishga harakat qilganlari va shu uchun ishlab chiqqan rejalari bugungi kunda ham foydalanishga tajribadan o'tkazishga loyiqdir. Yoshlarni ham yevropa fanlaidan bahramand bo'lishi va zamon talablariga munosib yoshlar etib tarbiyalashda foydalanish mumkin.

Bugungi kun O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan ekan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Buyuk ajdodlarimizning orzulari ushaladigan davr keldi. Ularning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak".

#### ADABIYOTLAR

1. Mahmud Alizoda Toshkandiy. Al-Isloh, 1916, 3-son. – B. 12
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4 Tom. –T.: O'zbekiston. 2020 yil 111-bet.
3. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109
4. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr-press, 2006.
5. Abdulla Avloniy "Sharq yulduzi"jurnali 1980 yil 8 son 100 bet



UDK: 303.01

*Dinora MADRAXIMOVA,*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: madraximovadinora@gmail.com*

*UrDPI, PhD K.Karimova taqrizi asosida*

## CLASSIFICATION OF FORMS OF EDUCATION IN THE FIELD OF STEAM TECHNOLOGIES

Annotation

This article describes the content and classification of subjects in the field of educational technologies STEAM, as well as methods of use in elementary classes.

**Keywords:** Integration, STEM, STEAM, STREAM, STEM PbBL, STEM PBL, trend, Science (natural sciences), Technology, Engineering, Art, Mathematics.

## КЛАССИФИКАЦИЯ ФОРМ ОБУЧЕНИЯ В ОБЛАСТИ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM

Аннотация

В данной статье представлено описание содержания и классификации предметов в области образовательных технологий STEAM, а также изложены методы использования в начальных классах.

**Ключевые слова:** Интеграция, STEM, STEAM, STREAM, STEM PbBL, STEM PBL, тенденция, Наука (естественные науки), Технологии, Инженерия, Искусство, Математика.

## STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARI SHAKLLARI TASNIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada STEAM ta'lim texnologiyalaridagi fanlarni mazmuni va turli shakllari tasnifi, mohiyati yoritib berilgan. Boshlang'ich sinflarda qo'llanilish usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, STEM, STEAM, STREAM, STEM PbBL, STEM PBL, tendensiya, Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika).

**Kirish.** Hozirgi davrda keng dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashga, integratsion, yondashgan holda aqliy va amaliy faoliyat bilan shug'ullanib borishiga sharoit yaratilmoqda. Aql-idrok-maqсадga eng samarali tarzda erishish mumkin bo'lgan, ya'ni vaqt va resurslarni kam sarflash bilan erishish mumkin bo'lgan bilish, tushunishni tashkil etish qobiliyati. Ta'lim jarayonida STEAM texnologiyalaridan doydalanish, maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishi va amaliy mashqlar orqali kognitiv kompetensiyalar shakllanib boradi. Ular qanchalik rivojlangan bo'lsa, ma'lumot olish, analiz qilish va sintezlash imkoniyatini shunchalik yaxshi tushunadi, idrok etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda integratsion o'qitish jarayonlarini tashkil etish masalasi bo'yicha A.Zunnunov, A.Sulaymonov, U.Musayev, R.Safarova, Z.Azimova, B.Abdullaeva, T.Najmiddinova, R.Mavlonova, Sh.Yusupova, R.Juraev, E.Turdikulov, M.Mirkosimova, T.Nuriddinov, N.Abdusamatov, X.Yulbarsovalar, R.Burxonov, D.Rejapova, N.Xasanova, N.Abdullaeva va boshqa ko'plab olimlarimiz ilmiy faoliyatlarini olib bormoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** STEAM — maktab o'quvchilarini yangicha usulda o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar integratsiyasion bilimlar, amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida bilim oladilar. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur, samarali usul bo'lib kelmoqda. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek,

barcha beshta sohaning yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. [1]

"Integratsiya tushunchasi lotincha bo'lib, to'liq, sifatida yaxlit va bir butunlik ma'nolarini anglatadi. Atama integratsiya so'zi quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligini;
- 2) o'qitish jarayonining boshqa turdosh faoliyatlar bilan aloqadorligini. [3]

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligini oshirish omlidir. Uning asosiy yo'nalishi shundan iboratki, amaliyot qo'l nazariy bilimlar singari muhimdir. O'rganish paytida biz nafaqat aqlimiz bilan, balki qo'limiz bilan ham bir vaqtda ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". [2]

S-tabiiy fanlar butun bir insoniyatning ahlining o'z tevarak atrofidagi tashqi olamiga aloqador bo'lgan jonli va jonsiz tabiat, hodisalar va qonunlar haqidagi fanlar majmui bo'lib, u odamlar hayotida haqiqatan ham mavjud barcha narsalar to'g'risida aniq bilimlarni o'zida aks ettiradi. Tabiiy fanlarning jamiyat, ishlab chiqarish, texnologiyalar bilan aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jamiyatning zamonaviy muammolarini hal qilishda inson omiliga e'tiborni kuchaytirishni nazarda tutadi.

T- Texnologiya inson tomonidan hayotdagi muhim narsalar va istaklarini qondirish uchun tabiiy muhitda biror yangilik yaratishi yoki mavjud xolatini o'z ehtiyojiga moslashtirishi. Bizga ma'lumki, hamma zamonlarda ham insonlar o'z ehtiyoj va xohishlarini qondirish uchun biror yangi texnologiyalarni yaratganlar. Aksariyat yaratilgan zamonaviy texnologiyalar tabiiy fanlar hamda muhandislik sohalari mahsuli bo'lib, har ikki yirik sohada ham texnologik vositalardan, yangiliklardan faol ravishda foydalaniladi.

E- muhandislik inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan ob'ektlar, jarayonlar va tizimlarni loyihalashning o'zaro qismlarni uyg'unlashtirish va bir butun yaxlitlikka keltirish hamda muammolarni hal qilish jarayoni haqidagi bilimlar majmuasidir. Muxandislik bu inshoot, mashina, bino, tizim va materiallar qurish uchun ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish hunaridir. Muxandislik loyihalash faoliyatining asosi sifatida tabiiy fanlar va matematik bilim, texnologik vositalar hamda san'atdan foydalanadi.

M - Matematika matematika borliqning fazoviy shakllari hamda mikdoriy munosabatlari haqidagi fandir. O'quvchilarning matematik, fazoviy tasavvurlarini oshirish, amallar va ularning xossalari, kelib chiqish qonuniyatlari, miqdor va sifat o'zgarishlar, hisob-kitob ishlari hamda geometrik shakllarni o'rganish, o'lchash ularni yuzasi va hajmini topshishda tabiiy fanlar, muhandislik, texnologiya va san'atga oid bilimlardan foydalanishidir.

A- San'at insonning atrofida dunyo go'zalliklarini musiqa, tasviriy san'at asosida talqin qilishi, o'zlashtirishi, o'zidagi mavjud ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishidir.

#### STEAM ta'lim texnologiyasi shakllari

№	Qisqartmalarni nomlanishi	Ingliz tilidagi nomi	Tasnifi
1	STEM	Science, Technology, Engineering, Mathematics	Qonuniyatlarni tushunish uchun muhim bo'lgan fan, texnologiya, muxandislik matematikani integratsiyalashga mo'ljallangan ta'lim texnologiyasidir.
2	STEAM	Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics	Fan, texnologiya, muxandislik, san'at va matematika bilan birlashtirish asosida o'rganishga, amaliyotda qo'llashga mo'ljallangan ta'lim texnologiyasi.
3	STREAM	Science, Technology, Reading+WRiting Engineering, Arts, Mathematics	O'qish va yozish orqali qonuniyatlarni o'rganish uchun muhim bo'lgan fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan birlashtirishga asoslangan ta'lim texnologiyasi.
4	STEM P6BL	Science, Technology, Engineering, Mathematics through Phenomenon- based learning	Hodisalarni o'rganish jarayonida dunyo qonuniyatlarini tushunish uchun hayotiy zarur ahamiyatga ega bo'lgan fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirishga asoslangan ta'lim texnologiyasi
5	STEM PBL	Science, Technology, Engineering, Mathematics through Phenomenon- based learning	Muammolarni o'rganish asosida dunyo qonuniyatlarini tushunishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan fan, texnologiya, muxandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirishga integratsiyalashga ta'lim texnologiyasi

STEM va STEAM o'rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM tanqidiy fikrlash va analiz qilish loyaqati bilan bog'liq muammolarni hal qilishga mo'ljallangan hamda unga tegishli bo'lgan tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishga zamonaviy yondashuvni anglatadi.

STEAM ta'lim texnologiyasi esa o'quvchilarda kreativ fikrlash hamda san'at, rassomlikni hayotiy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini rivojlantirishga, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish xizmat qiladi. O'quv jarayonidagi fanlarni integratsiyalashuvi matematika, fizika, informatika, tabiiy fanlar, texnologiya va robototexnika, muxandislik va san'at fanlarining o'zaro uyg'unligida o'rganishga asoslanadi. STEAM texnologiyalari qo'llanilganda ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash hamda texnik fanlarga qiziqishi rivojlanadi, turmush tarzidagi yangiliklarni qabul qilishga, qo'llab ko'rishga tayyorlaydi, muammoli vaziyatlarga nisbatan oqilona, ijodiy yondashuvlarni topishga o'rgatadi.

Texnologiyalari orqali bolalarda ijodiylik ma'naviy barkamollik rivojlanadi. STEAM ta'lim texnologiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishni takoz etadi.

"STREM" tushunchasi fan, innovasiyalar rivoji uchun dizayn va simulyasiya (narsa buyumning tashqi ko'rinishi) ning muhimligini ta'kidlab, ta'lim robototexnikasini ifodalash uchun "R" harfi qo'shiladi. Ta'lim robototexnikasi bu maktab o'quvchilarini o'qitishning fanlararo sohasidir. Robototexnika boshqa sohalarga qaraganda samaraliroq, bolalajonlar uchun qiziqarli bo'lgan

STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, tajribalar o'tkazish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi ijodkor, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin, loyihalar, mashg'ulot, amaliy tajribalar orqali yuzaga keltiradi. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda bir-biri bilan muloqot qilish qobiliyatini o'stirish bo'lib, bunda ularning ijodiyligi muhim rol o'ynaydi.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni mintazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdanni yangi darajasini yaratadilar.

STEAM ta'lim texnologiyasi juda ko'p sohalarga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur texnologiyaning bir necha shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

STEAM ta'lim tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Robotlarni ishlab chiqish va yasash, amalda qo'llash bilan shug'ullanib, o'quvchilar fizika, texnologiya, matematika, kibernetika, AKT hamda boshqa fanlar bo'yicha bilimlarini birlashtiradi, innovation ilmiy-texnik yaratuvchanlik jarayoniga jalb qilinadi. Qo'llanilish usuli, rivojlantiruvchi kompetensiyalarning xususiyatidan kelib chiqib, STEM PBL- (Problem-based learning) muammolari o'rganish va taxlil qilishga asoslanadi, RhBL- (Phenomenon-based learning) hodisalarni o'rganish asosida dunyo qonunlarini tushunish shaklida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar: Boshlang'ich ta'limda STEAM-ta'limning vazifasi, o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. STEAM – mashg'ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo'lganligidan bolalar mashg'ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o'tganligini sezmay qoladilar. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv. STEAM-ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o'tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

Misol uchun 3-sinf tarbiya darslarida STEAM texnologiyalaridan foydalanishni quyidagi tarzda tashkil qilish mumkin. [5]

1-guruh: O'quvchilar suv haqida badiiy asar o'qishdi, suvni tejash va isloslantirmaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqishadi. • 2-guruh: O'quvchilar tuzli suvda jismlar chuchuk



suvdagiga qaraganda yaxshiroq suzishini tajriba qilib qilib ko'radilar. • 3-guruh: Suv bilan bog'liq qo'shiq, devoriy gazeta tayyorlashadi. • 4-guruh: Suvni tejamkorlik bilan ishlatish har bir kishining muqaddas burchi mavzusida rasm chizadilar. • 5-guruh: O'quvchilar suvning ifloslanish sabablarini tadqiq etadi, ma'lumotlarni qayd etib borishdi, tavsiyanomalar ishlab chiqishdi. Shundan so'ng sinfning shaxsiy blogi uchun reklama maqola yozishdi.

STEAM maktab dasturlariga qo'shimcha sifatida qo'llaniladi. STEAM mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchilarga yo'nalishlar berish, seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir, chunki mamlakatimizning yuksalishi uchun ta'limning sifat samaradorligini yanada oshirish uchun eskicha an'anaviy metodlardan voz kechib, darslarni xalqaro metodlardan foydalanib tashkil etish muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki STEAM- tabiiy fanlar ,texnologiyalar, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. Bolalar o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. Bu esa STEAM texnologiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o'zni borligini ko'rsatadi. STEAM texnologiyalarining bugungi kunda ommalashayotganini va samaradorligini, ta'limdagi afzalliklarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarida STEAM texnologiyalari qo'llash tavsiya qilinadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Salayeva M. Umumiy pedagogika .Darslik. Toshkent-2021y. 136b
2. Maxmutazimova Y. Maktabgacha ta'limda SEAM texnologiyalari o'quv qollanma.Toshkent -2022y. 8b
3. O.M.Jabborova, Z.A.Umarova, L.G.Babaxodjajeva Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Darslik. Toshkent -2021y. 161b
4. Xasanova Sh.B. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (9-sinf biologiya fanini o'qitish misolida). Diss. (PhD). -T.: 2019. -B.154.
5. Usmanova Q.V., Risyukova Y.V.3-sinf Tarbiya darsligi Toshkent-2023 b-47-49
6. Tojibekova M. PhD desertatsiyasi. Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi (tabiiy fanlar misolida). Namangan -2022
7. Xodjayev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik , Sano-standart nashiriyoti. Toshkent -2017



UDK:378.147

**Malikaxon MAMATQULOVA,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti. (PhD)*  
*E-mail [mamatqulovamalika86@gmail.com](mailto:mamatqulovamalika86@gmail.com)*  
**Abduvohid AZIMOV,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*  
**Kamola ANVAROVA,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*  
**Hilola QO'SHMURODOVA,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*  
**Dilnozabonu MUXAMMADALIYEVA,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

*QDPI pedagogika kafedrasida dosent, PhD M.Isabayeva taqrizi asosida*

### BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNI PEDAGOGIK SHARTLARI

Annatotsiya

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o'rganish, pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'quv faoliyatida talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish modelini yaratish, talaba shaxsining ijodkorlik qobiliyati shakllanganlik mezonlari va darajalarini ishlab chiqish va pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'quv faoliyatida talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi pedagogik sharoitlar yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Ijodkorlik qobiliyatlari, affekt va intellekt birligi, ijtimoiy-madaniy konteksti, motivatsiya, pedagogik ijod mohiyati.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье мы изучим проблему развития творческих способностей будущего учителя, создадим модель развития творческих способностей студентов в образовательной деятельности педагогических вузов, разработаем критерии и уровни сформированности творческих способностей студентов. студента, и обеспечить эффективную реализацию процесса развития творческих способностей студентов в условиях образовательной деятельности педагогических вузов.

**Ключевые слова.** Творческие способности, единство аффекта и интеллекта, социокультурный контекст, мотивация, сущность педагогического творчества.

### PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Annatosia

In this article, we will study the problem of developing the creative abilities of the future teacher, create a model for the development of students' creative abilities in the educational activities of pedagogical higher educational institutions, develop the criteria and levels of the formation of creative abilities of the student, and ensure the effective implementation of the process of developing the creative abilities of students in the educational activities of pedagogical higher educational institutions. conditions are covered.

**Keywords.** Creative abilities, unity of affect and intellect, socio-cultural context, motivation, essence of pedagogical creativity.

**Kirish.** Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

Tabiiy fanlar fakulteti bo'lajak o'qituvchilarda muammoga qiziqishni shakllantirish. Bo'lajak o'qituvchilar qiziqishlari ham shaxsiy, ham ijtimoiy yo'nalganlikka ega. Muammoga yangi mazmuni izlash, muammoni qayta tiklash yoki bo'lajak o'qituvchilar tomonidan yangi muammoning qo'yilishiga to'sqinlik qilmaslik kerak. Bu hollarda bo'lajak o'qituvchining predmetga shaxsiy munosabati, ularning shaxsiy karashlari «tinglanadi». Shuningdek hal etilmagan ilmiy muammolarning qo'yilishi qiziqish uyg'otadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'z qobiliyatlaridan qoniqmaslik hissining yuzaga kelishi. Istalgan muammo intellektual qiyinchilik holati yuzaga kelishi bilan bog'liq, biroq qiyinchilik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bizning holatimizda muammoni hozir hal qilish mumkin bo'lmagani sababli uning yechimini kechiktirishga to'g'ri kelgani yaxshi.

Bo'lajak o'qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishini tashkil qilish. Pedagogik ishlar

modelda belgilangan yo'nalishlar doirasida olib boriladi. Hal qilinmagan muammoga qaytish (ba'zan bir necha marta qaytishga to'g'ri keladi). Agar muammo hal etilsa, ijodiy «namunaviy kechinmalar» ta'minlandi. Bu o'rinda amalga oshirilgan ijodiy jarayon refleksiyasini kuzatish: hal qilishda talab qilingan, egallangan ijodiy faoliyatga daxldor bilim va malakalarni ajratish muhim. Bu holda bo'lajak o'qituvchilar o'z ijodiy qobiliyatlari o'sganini, demak mos ravishda muammoni hal qilish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lganini anglab yetadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** B.Bogoyavlenska, N.A.Malinnikova, I.G.Pchelinseva, A.A.Stepanov, N.Rodgers, N.V.Sobko, I.A.Fomina, A.V.Xutorskiy, S.G.Yudakov, A.S.Kosogova, M.I.Meyerovich, L.I.Shragina, G.V.Uradovskix F.T.Otabayeva, B.R.Adizov, T.Aliboyev, N.N.Alimov, Sh.Axmedova, Sh.T.Boltayeva, G.N.Ibragimova, D.M.Maxmudova, Z.T.Nishanova, M.Tilakova, Sh.S.Sharipov, U.A.Usmonova, S.SH.Utepov. Ta'lim tizimida ijodiy qobiliyatlar va kreativlikni rivojlantirish

masalalari Barron Frank, Drapeau Patti, J.C.Gowan, Joyce VanTassel-Baska, Maud Besançon, Miller David Lee, A.J.Miller, Murat Tekin, Özden Taşğın, Ugur Saklar tomonidan yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik mehnatning ijodiy xarakteri o'tmishning mashhur pedagoglari tomonidan ham e'tirof etilgan, ijodiy tarkibiy qism o'qituvchining professiogrammasida doimo mavjud bo'lgan, «pedagogik ijod» tushunchasi yuzaga kelgan va iste'molda barqaror o'rnatilgan qolgan. Ijod o'qituvchi professionalizmining eng muhim mezonlaridan sanaladi. Qolaversa, kasbiy ijod uchun zarur deb ta'kidlanadigan sifatlar asosan shaxsning ijodiy qobiliyatlari bilan mos keladi. Pedagog uchun kommunikativ-ijodiy qobiliyatlarning roli muhim ekani ta'kidlanadi.

Demak, o'qituvchi pedagogik ijodda yuqori cho'qqilarni zabt etishi uchun quyidagi mantiqiy zanjirni o'tish zarur: shaxsning umumiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, pedagogik ijod qobiliyatlarini kuchaytirish, pedagogik faoliyatda professionalizmga yaqinlashish. Shu tariqa, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'lg'usi o'qituvchining sifatli kasbiy tayyorgarligi zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Ijodiy faoliyat mexanizmlari o'zlashtirilishini ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan ularni o'z-o'zida rivojlantirishga asta-sekin o'tish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish yo'nalishlarida aks etgan. Ajratilgan yo'nalishlarda optimal natijaga erishishni ta'minlovchi tamoyillar: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy konteksti yetakchi roli, affekt va intellekt birligi, ijodiy qobiliyatlar erishilgan darajasini hisobga olish asosida individuallashtirish sanaladi.

Ish mazmuni modelning mazmun komponentiga muvofiq bo'ldi. Bundan tashqari optimallashtiruvchi jihatlarga: pedagogika OO'YU tabiiy fanlar fakulteti bo'lajak o'qituvchi shaxsning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladigan kasbiy o'z-o'zini takomillashtirishga qat'iy yo'nalganligini tinglash; maqbul emotsional muhitni yaratish; individual yondashuvga e'tibor qaratildi.

Shaxs-ijtimoiy tushuncha, uning rivojlanishi alohida olingan shaxs emas, balki jamiyatning ham manfaatlar uchun xizmat qiladi. Axir aynan jamiyatda shaxs o'zini namoyon qiladi. Shaxsning rivojlanishi uning yo'nalganligi bilan belgilanadi. Bu tizim hosil qiluvchi xossada uning voqelikning turli tomonlariga munosabatlari, motivlari, maqsadlari ifodalanadi. Motiv shaxsning jamiyatdagi holati bilan vositalangan ehtiyojlarning subyektiv aksi sanaladi. Ehtiyojli-motivatsion soha shaxsning hayotiy maqsadlari poydevori sanaladi. Hayotiy maqsad alohida faoliyatlar bilan bog'liq barcha xususiy maqsadlarning integratsiyasidir.

Motivatsiya shaxsning o'z-o'zini joriylashga intilishi bilan belgilanadi. Talabalik yoshi uchun o'z-o'zini joriylash imkoniyati ularning bo'lajak kasbiy faoliyati, qandaydir global muammolarni hal qilish bilan belgilanadi. Demak, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchi uchun kundalik zaruratga aylanishi uchun quyidagi motivatsion sharoitlarni yaratish zarur: ijodning pedagog kasbiy faoliyatidagi roli va o'rni asoslashdan iborat.

o'qituvchining o'z-o'zini ijodiy joriylanishi uchun imkoniyatlar ochib berish (normativ berilganlik chegaralaridan chiqish; kasbiy yangiliklarni kiritish; kasbiy faoliyatda o'z maqsad va hayot tarzini amalga oshirish; mazmun elementlarini subyektivlashtirish). Respublikamizda raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashning zamonaviy bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatiga talablar oshib bormoqda. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni takomillashtirish, ularning kasbiy faoliyatini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida

takomillashtirishga asoslangan yirik loyihalar amalga oshirishga zamin bo'lmoqda. Mazkur jarayonda pedagogika fani va amaliyotida shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o'rganish, pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'quv faoliyatida talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish modelini yaratish, talaba shaxsining ijodkorlik qobiliyati shakllanganlik mezonlari va darajalarini ishlab chiqish va pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'quv faoliyatida talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi pedagogik sharoitlarni aniqlash, nazariy va eksperimental asoslab berishni talab etiladi. Tahlillar asosida ma'lum bo'lishicha ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi masalalarni yechishda quyidagilar e'tiborga olinadi: mavzuning maqsadini muammo sifatida aniqlashtirish; qo'yilgan muammoni yechish rejasini tuzish; belgilangan rejani bajarish; xulosani shakllantirish.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil qilish ijodiy fikrlashning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi:

1. Talabalarni maqsadga erishishning turli yo'llarini qidirish, so'ngra eng yaxshisini tanlashga imkon yaratish.
2. Ularni ijodiy ko'nikmalarini ishlatish va mashq qildirishga oid qo'llanmalar va mashqlar to'plamlari bilan yetarli miqdorda ta'minlash.
3. Zarur savollarni berishga, javob mavjudligini aniqlashga o'rgatish.
4. Talabalarga har qanday sezgi va emotsiyalarni fikrlashning muhim tashkil etuvchilari deb qarashga o'rgatish.
5. Talabalarni eng avvalo, ijodiy jarayonning o'zidan qoniqish hosil qilayotganlarini kuzatayotib, original va foydali g'oyalarni rag'batlantirish. Talabalarga o'z g'oyalarining qadrlanishini anglab yetishlariga yordamlashish.
6. Talabalarga nostandart vaziyatlarda yechimlarni izlashni taklif qilish, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda, izchillikning namoyon bo'lishi muhimligini isbotlash.
7. Talabalarga yechimlarni izlashning rejasini tuzishni taklif qilish.
8. Masalani oldindan ma'lum masalalar toifasiga kiritishdan va shoshilib qaror qabul qilishdan qochish. Chunki, bu asosiy muammodan og'ishlarga va fikrlash egiluvchanligining yo'qolishiga olib keladi.
9. Talabalarga fikrlashning muhim elementlari sifatida sezgi va emotsiyalarni boshqarishga o'rgatish.
10. G'oyalarni generatsiyalash uchun hamda ularni obyektiv va ratsional tashkillash uchun sharoit yaratish.
11. «Bo'lishi mumkin» va «bo'lishi kerak» iboralarni farqlagan holda keskin qaror chiqarish.
12. Talabalarda uzluksiz alternativ izlanish, yangi yondashuvlar va yangi g'oyalarga moyillikni shakllantirish[191].

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'rganilayotgan materialning butun mazmunini bilish vazifalarining mantiqiy ketma-ketligi, o'quv jarayonining o'zini esa bilish yadrosi aynan bilish vazifalari, mazmuni esa pedagog va ta'lim oluvchilarning turli xil bilish vositalari va ta'lim usullarini qo'llagan holda masalalarni yechish ustidagi hamkorlikdagi ishi bo'lgan o'quv vaziyatlari zanjiri sifatida qurish foydali.

**Xulosa va takliflar.** Ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilimlar zarur malakalar bilan to'ldirilish borish, malakalarni faoliyat usullari sifatida qarash, malakalarni faoliyat usuli haqida bilim yaxlitligi sifatida o'rganish lozim.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodiy faoliyat uchun zarur bilim va malakalar bilan dialektik o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Uni amalga oshirish asosiy talablardan biri – ijodiy faoliyatga tayyorlashda tizimlilikka amal qilish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida o'quv faoliyatining ijodiy xarakterini ta'minlash omili asosiy bo'lishi kerak. Zero, ijodiy faoliyat ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Ijodiy faoliyatning protsessual tomoni muammoni topish va hal qilishdan iborat.

Ijodkorlikning boshqa aqliy mehnat turlaridan katta farqi u davomli hodisadir. Bu jarayonda ijodkorning shaxsiy xislatlari muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik ijod pedagogning o'quv-tarbiya ishlarining yanada ratsional yo'llarini izlashga qaratilgan faol mehnat jarayoni, pedagogik muammolarning samarali yechimida ham namayon bo'ladi. Bunda o'qituvchi jarayonni kuzatadi, tekshiradi, tadqiq qiladi, faoliyatini loyihalashtiradi

#### ADABIYOTLAR

1. Ахмедова Ш. Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодкорлиги // Сборник научных трудов: Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях. – Тошкент, 2012. – Б. 73-79.
2. Баластаева Е.Н. Развитие творческого потенциала будущего педагога в учебной деятельности (на занятиях по практике устной и письменной речи на иностранном языке): Дис. ... канд. пед. наук. – Йошкар-Ола, 2001. – 240 с.
3. Банина Т.С., Вавилова Л.Н. Современные способы активизации обучения. – М.: Академия, 2008. – 176 с. Джураева Д.Ш. Муаммоли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2022. 121
4. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. – М: Издательства «Латерна» «Вита», 1995.-149с.
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria: Virginia, USA: ASCD, 2014.
6. Gowan J.C. The Relationship Between Creativity and Giftedness. Electronic resource: <https://doi.org/10.1177%2F001698627101500401>. Access date: 21.10.2019.
7. Епишева О.Б. Деятельностный подход как теоретическая основа проектирования методической системы обучения математике. Дисс. ... д-ра пед. наук. М, 1999. – 410 с.



UDK: 316.3:338.009

*Nilufar MANNANOVA,*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi doktoranti, PhD*

*E-mail: nilufar2627@mail.ru*

*Sotsiologiya fanlari doktori, prof. M.B.Bekmurodov taqrizi asosida*

#### “SOFT” SKILLS AND THEIR IMPORTANCE IN THE ACTIVITIES OF CIVIL SERVANTS

Annotation

The article analyzes the role of "hard" and "soft" skills in improving the efficiency of civil servants. The importance of these skills is revealed through a thorough study of the content of the concepts. The article analyzes the results of foreign sociological research on the study of "soft" skills. The need to develop "soft" skills along with "hard" skills among civil servants has been proven.

**Key words.** “Hard” skills “soft” skills, World Economic Forum, teamwork skills, personal skills, planning skills, resilience skills, sociological research.

#### «МЯГКИЕ» НАВЫКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ

Аннотация

В статье анализируется роль «жестких» и «мягких» навыков в повышении эффективности работы государственных служащих. Важность этих умений раскрывается посредством тщательного изучения содержания понятий. В статье анализируются результаты зарубежных социологических исследований по изучению «мягких» навыков. Доказана необходимость развития «мягких» навыков наряду с «жесткими» навыками у государственных служащих.

**Ключевые слова.** “Жёсткие” навыки, “мягкие” навыки, Всемирный Экономический Форум, навыки взаимодействия в коллективе, личностные навыки, навыки планирования, навыки жизнестойкости, социологическое исследование.

#### “YUMSHOQ” KO‘NIKMALAR VA ULARNING DAVLAT XIZMATCHILARI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini oshirishda “qattiq” va “yumshoq” ko‘nikmalarining o‘rni tahlil qilingan. Ushbu ko‘nikmalarining ahamiyati tushunchalar mazmunini atroflicha o‘rganish orqali ochib berilgan. Maqola davomida “yumshoq” ko‘nikmalar tadqiqiga bag‘ishlangan xorijiy sotsiologik tadqiqot natijalari tahlil etilgan. Davlat xizmatchilarida “qattiq” ko‘nikmalar bilan birga, “yumshoq” ko‘nikmalarni rivojlantirish zaruriyati asoslangan.

**Kalit so‘zlar.** “Qattiq” ko‘nikmalar, “yumshoq” ko‘nikmalar, Jahon iqtisodiy Forumi, jamoada ishlash ko‘nikmasi, shaxsiy ko‘nikmalar, rejalashtirish ko‘nikmasi, hayotga bardoshlilik ko‘nikmasi, sotsiologik tadqiqot.

**Kirish.** Rivojlanish va modernizatsiya sababchilari bo‘lgan kadrlar salohiyati masalasi har bir taraqqiyot sari ildam borishni istagan mamlakat va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu kadrlar boshqaruv organlarida mehnat faoliyatini olib boruvchi davlat xizmatchilari bo‘lsa, masalaning dolzarbligi yanada ortadi. Chunki, davlat va xalq irodasiga birdek oqilona xizmat qilish, davlat organlari va jamiyat orasida ijobiy munosabatni shakllantirish, halqaro maydonda mamlakat manfaatlarini mahorat bilan ilgari surish va ko‘zlangan maqsadni amalga oshira olish faqatgina yuksak mahoratli davlat xizmatchilari faoliyati orqali amalga oshadi.

Har bir davlat xizmatchisining kasbiy kompetentsiyasi, professionaligi uning “qattiq” (hard) va “yumshoq” (soft) ko‘nikmalarni egallaganligida akslanadi. “Qattiq” ko‘nikmalar (hard skills) kasbga yoki muayyan sohaga oid bilimlar, malaka darajasini aniqlash va o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘nikmalar majmui hisoblanadi. O‘rta yoki oliy ma‘lumotlilik, xorijiy tilni bilish darajasi sertifikati sohibi bo‘lish, avtotransport vositasini boshqara olish, haydovchilik guvohnomasiga egalik qilish shular jumlasiga kiradi. “Yumshoq” ko‘nikmalar esa, miqdoriy jihatdan o‘lchash, aniqlash murakkab bo‘lgan, biror bir kasb yoki sohaga aynan taalluqli bo‘lmagan, ijtimoiylashuv jarayoni hamda ijtimoiy makon ta‘sirida shakllangan insonning shaxsiy sifat va fazilatlarini sanaladi.

Davlat xizmatchilaridagi “qattiq” ko‘nikmalar bilan birga, “yumshoq” ko‘nikmalarining ham yuqoriligi ular

faoliyatining samaradorligini belgilab beradi. Shu sababli, ushbu masalani atroflicha tahlil qilish, ayniqsa, murakkab tushuncha bo‘lgan “yumshoq” ko‘nikmalar mohiyatini o‘rganish, ularni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish zarur ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Yumshoq” ko‘nikmalar, ya‘ni “soft skills” tushunchasining tadqiqot predmeti (ob‘ekti) sifatida ilmiy muomalaga kirishi ilk marta 1959-1972 yillarda AQSh armiyasi shaxsiy tarkibini tayyorlash jarayonidagi islohotlar bilan bog‘liq bo‘lgan. 1972 yildan AQSh armiyasining qo‘llanmalarida “yumshoq” ko‘nikmalar (soft skills) rasman qo‘llanila boshlandi. Askarlarning shaxsiy va jangovor kompetentsiyalarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlarga rahbarlik qilgan psixolog, ehtiyojlar nazariyasi muallifi, mavzular bo‘yicha appertseptiv testlarni baholashning yangi metodikasini ishlab chiqqan professor Devid Makkleland AQSh davlat departamenti xizmatiga xodimlarni tanlash jarayonida ilk marta “yumshoq” (soft) kompetentsiyalar va ularni baholash tushunchasini qo‘llaydi [1].

Keyinchalik, ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishning ijobiy ta‘siri barcha kasbiy ta‘limga yoyildi, ilmiy izlanishlar olib borila boshlandi. 2015 yilga kelib, Laura X.Lipman boshchiligidagi halqaro olimlar guruhi mazkur mavzu bo‘yicha 172 ta ilmiy maqolani tahlil qildi. Nazariy va empirik ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida olimlar ish beruvchilar nuqtai nazarida muhim bo‘lgan 10 ta “yumshoq” ko‘nikmalarni aniqladilar. Bular ijtimoiy ko‘nikmalar, yuqori

darajada fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, pozitiv Men konsepsiyasi, jamoada muloqot qilish, mehnatsevarlik va ishonchlik, o'z-o'zini motivatsiyalash, jamoaviy ishlash, javobgarlik va ijobiy kayfiyatdir [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunga kelib zamonaviy manbalarda faol qo'llanilayotgan "yumshoq" ko'nikmalar atamasini olimlar turli xil o'ziga xos talqinlar bilan ifoda etmoqdalar (1-jadval).

1-jadval

**Yumshoq ko'nikmalar tushunchasi tahlili**


Kembridj lug'ati [3]	"Yumshoq" ko'nikmalar – bu insonlarning bir-biri bilan muloqot qilish va birgalikda yaxshi ishlash qobiliyati.
Oksford lug'ati [4]	"yumshoq" ko'nikmalar (soft skills) insonning boshqalar bilan uyg'un va samarali muloqot qilish imkonini beradigan shaxsiy fazilat.
Dr. Manoj Kumar, Kirti [5]	Yumshoq ko'nikmalar o'zida ijtimoiy xushmuomalalilik, muloqot qobiliyati, til ko'nikmalari, shaxsiy odatlar, hissiy intellekt va ijobiy munosabatlarni qamrab oladi.
E. Gayduchenko, A. Marushev [6]	"Yumshoq" ko'nikmalar – bu boshqalar bilan umumiy tilni tezda topishga, aloqa o'rnatishga va saqlashga, g'oyalarni muvaffaqiyatli yetkaza olishga - samarali muloqot qila olishga hamda lider bo'lishga yordam beradigan ko'nikmalardir.
V. Shipilov [7]	"Yumshoq" ko'nikmalar tushunchasi odamlarning bir-biri bilan o'zaro munosabati bilan bog'liq bo'lib, bu ko'nikmalar kundalik hayotda ham, ishda ham bir xil darajada zarurdir.
B. Karimov [8]	"Yumshoq" ko'nikmalar – bu ijtimoiy-psixologik ko'nikmalardir: kommunikativ, liderlik, jamoaviylik, ommaviylik va boshq.
S. Tuychiyeva [9]	Yumshoq ko'nikmalar – hayotiy masalalarni hal qilishga va boshqa insonlar bilan birgalikda ishlashga yordam beradigan professional ko'nikmalardir.

Atamaning mazmun-mohiyatidan ayon bo'lmoqdaki, davlat xizmatchilarining kasbiy malakalarini oshirish va faoliyat jarayonini optimallashtirishda ularning "yumshoq" ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratish muhimdir. Zotan, rivojlantirilgan "yumshoq" ko'nikmalar davlat xizmatchisidagi rasmiylashtirilgan va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan "qattiq" ko'nikmalarni amalga oshirishga, kasbiy faoliyatni samarali bajarishga yordam beradi.

Jahon iqtisodiy Forumi (World Economic Forum) tahlilchilari "yumshoq" ko'nikmalarning ahamiyatini kelajak kompetensiyalarining kaliti sifatida e'tirof etadi, bular: murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, insonlarni boshqarish, o'zaro ta'sir ko'rsatish va muvofiqlashtirish ko'nikmalari, hissiy intellekt, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish, mijozlarni e'tiborga olish (klientorientatsiya), muzokaralar olib borish va kognitiv moslashuvchanlik ko'nikmalaridir [10].

**Tahlil va natijalar.** So'nggi davrda zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar kategoriyasiga aylangan "yumshoq" ko'nikmalarga ilmiy manbaalarda ham, ijtimoiy-mehnat munosabatlarida ham (ko'p hollarda tarjimasiz "soft skills" so'z birikmasi sifatidagi talqinda) katta e'tibor qaratilib, ular shaxsning mehnat bozoriga oson qo'shilishi va sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun zaruriy omillar sifatida baholanmoqda.

Misol tariqasida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bir guruh tadqiqotchilar tomonidan Sankt-Peterburgda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijasida, "soft skills" ish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun mas'ul bo'lgan, ammo aniq kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan ko'nikmalar majmuasi sifatida qayd etildi. Tadqiqot davomida xodimlarning mehnat samaradorligi va natijadorligiga ta'sir etuvchi 17 ta "yumshoq" ko'nikmalar aniqlandi (1-rasm) [11].



1-rasm. Xodimlarning mehnat samaradorligi va natijadorligiga ta'sir etuvchi "yumshoq" ko'nikmalar.

Tadqiqot davomida shakllantirilgan ushbu "yumshoq" ko'nikmalarning taqdim etilgan xususiyatlariga asoslanib, tadqiqotchilar ko'nikmalarning quyidagi tasnifini taklif qildilar (2-jadval):

2-jadval

**Empirik sotsiologik tadqiqot natijalari asosida "soft skills" tasnifi [11]**

Jamoada ishlash ko'nikmasi	Shaxsiy ko'nikmalar	Rejalashtirish ko'nikmasi	Hayotga bardoshlilik ko'nikmasi
1. Jamoada ishlay olish 2. Muzokara olib borish kompetensiyasi 3. Tarmoqlararo kommunikatsiya 4. Boshqalarni rivojlantirish va rag'batlantirish	1. Tashabbuskorlik 2. Bilimga intiluvchanlik 3. Ijodkorlik 4. Tanqidiy fikrlash	1. O'z-o'zini tashkil qilish 2. Taym-menejment 3. Loyihalarni va jarayonlarni boshqarish qobiliyati 4. Maqsadlarni belgilash 5. Vakolatlarni o'tkazish, vazifalarni taqsimlash	1. Stressga chidamlilik 2. Noaniqlik rejimida ishlash 3. Tanqidni qabul qilish

Tadqiqot natijasida taklif qilingan ushbu tasnif ko'nikmalarni alohida toifalarga ajratadi va jamoalarda yetarli

bo'lmayotgan ko'nikmalarni aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi.

**Xulosa.** Ko'rib turibmizki, "qattiq" va "yumshoq" ko'nikmalar tushunchalari ko'p funksiyaliligi va dinamikasining murakkabligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, "yumshoq" ko'nikmalarining tuzilishi va mazmunini rivojlantirish, shuningdek, ularni shakllantirish muammosi olimlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida yumshoq ko'nikmalarni faol rivojlantirish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. "Yumshoq" ko'nikmalar bo'yicha izlanishlar olib borgan ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu ko'nikmalarni XXI asrning strategik kompetentsiyalari sifatida e'tirof etishmoqda [11, 12].

Yuqorida keltirilgan "qattiq" va "yumshoq" ko'nikmalar tushunchalarining tahlili, olimlar tadqiqotlari natijalari maqom va intellektual salohiyat jihatidan elitar qatlam bo'lgan davlat xizmatchilarida ushbu zaruriy ko'nikmalarining bo'lishini soha faoliyatining takomillashuvining muhim mezon sifatida asoslaydi. Har bir mamlakatda davlat xizmatidagi islohotlar, kadrlar salohiyatining yuksalishi esa, tashqi va ichki siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshishiga, ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Sanaqulov S. Professional ta'limda "yumshoq" kompetensiyalar (soft skills)ni joriy etishning dolzarb masalalari. Kasb-hunar ta'limi №1, 2020. 8-bet.
2. Uvarina N.U., Korneyeva N.Yu., Mikryukov Yu.V. Soft skills: aktualnost, istoriya, perspektivi razvitiya. Sovremenniye tendensii razvitiya professionalnogo obrazovaniya. DOI 10.54509/22203036\_2021\_4\_40.
3. Cambridge Dictionary Available at: <https://dictionary.cambridge.org/ni>.
4. Davidova V. Slushat, govorit i dogovarivatsya: chto takoye soft skill i kak ix razvivat.URL: <http://theoryandpractice.ru/posts/11719-soft-skills>.
5. Dr. Manoj Kumar, Kirti. A study of influencing factors of soft skills. [https://www.researchgate.net/publication/370594573\\_A\\_STUDY\\_OF\\_INFLUENCING\\_FACTORS\\_OF\\_SOFT\\_SKILLS](https://www.researchgate.net/publication/370594573_A_STUDY_OF_INFLUENCING_FACTORS_OF_SOFT_SKILLS).
6. Gayduchenko Ye., Marushev A. Emotsionalniy intellekt. Available at: <https://l-a-b-a.com/lecture/show/125>.
7. Shipilov V. Perechen navikov soft skills i sposobi ix razvitiya. Available at: <https://www.cfin.ro/management/people/devval/soft-skills>.
8. Karimov B. Shaxslararo mehrlilik darajasini tizimli sotsiologik assessmentlash orqali optimallashtirish. Sotsiologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DS) ilmiy darajasi uchun dissertatsiyasi. Toshkent. 2021 yil.
9. Tuychiyeva S. (2024). Problema Formirovaniya Nadprofessionalnix Navikov Budushix Spetsialistov. Modern Science and Research, 3(1), 1–7. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28163> <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467034>.
10. Osipova S.I., Gafurova N.V., Rudniskiy E.A. Formirovaniye Soft skills v usloviyax sotsialno obshyestvennix praktik studentov pri realizatsii obrazovatelnoy programmi v ideologii Mejdunarodnoy initsiativi CDIO // Perspektivi nauki i obrazovaniya. 2019. № 4 (40). C. 91-101. doi: 10.32744/pse.2019.4.8.
11. Gorkovaya O.P., Kozlovskiy N.V., Matikina V.S., Petrov A.V. "Soft skills": v poiske universalnykh traktovok "gibkix" navikov sovremennix rabotnikov // Obshyestvo. Sreda. Razvitiye. – 2019, № 4. – C. 20–25.
12. Sorokopud Yu.V., Kozyakov R.V., Matyugin N.Ye., Amchislavskaya Ye.Yu. Gibkost mishleniya kak vostrebovanniy "myagkiy navik" (soft skills) sovremennix spetsialistov. Mir nauki, kulturi, obrazovaniya. 2020; № 6 (85): 400 – 402.
- Abashkina O. Soft skills: klyuch k karyere. – URL: <http://www.pro-personal.ru/article/7811-soft-skills-klyuch-k-karere>.



UDK: 009

**Ravshan MARDONOV,**  
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti, f.f.n*  
*E-mail: mar-ravshan@yandex.ru*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti, PhD I.Rizayev taqrizi asosida*

### YANGI O‘ZBEKISTON TA‘LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: ZAMONAVIY VAZIFALAR VA ISTIQBOLLAR

Аннотация

Ushbu maqola O‘zbekiston ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan dolzarb o‘zgarishlar va islohotlarni ko‘rib chiqilgan. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, milliy qadriyatlarga asoslangan yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta‘lim tizimini xalqaro andozalar asosida modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, davlat dasturlarini amalga oshirish, oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish kabi jihatlarni yoritilgan.

**Kalit so‘zlari:** ta‘lim, islohotlar, oliy ta‘lim, o‘qituvchilar kasbiy mahorati, o‘quv dasturlari, davlat standartlari, modernizatsiya, ta‘lim sifati, yoshlar siyosati.

### РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: СОВРЕМЕННЫЕ ЗАДАЧИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

Данная статья рассматривает актуальные изменения и реформы, происходящие в системе образования Узбекистана. Особое внимание уделяется значению профессионализма преподавателей, разработке новых учебных программ на основе национальных ценностей, а также модернизации высшего образования в соответствии с международными стандартами. Статья охватывает такие аспекты, как реализация государственных программ, укрепление материально-технической базы вузов, модернизация образовательного процесса и повышение качества подготовки кадров.

**Ключевые слова:** образование, реформы, высшее образование, профессионализм преподавателей, учебные программы, государственные стандарты, модернизация, качество образования, молодежная политика.

### REFORMS IN THE EDUCATION SYSTEM OF THE NEW UZBEKISTAN: MODERN CHALLENGES AND PROSPECTS

Annotation

This article examines current changes and reforms taking place in the education system of Uzbekistan. Particular attention is paid to the importance of professionalism of teachers, the development of new curricula based on national values, as well as the modernization of higher education in accordance with international standards. The article covers such aspects as the implementation of government programs, strengthening the material and technical base of universities, modernizing the educational process and improving the quality of personnel training.

**Key words:** education, reforms, higher education, teacher professionalism, curricula, state standards, modernization, quality of education, youth policy.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim jarayonining mazmunini doimiy ravishda boyitishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilardan yuqori professionallikni talab qiladi. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mustahkam bilimga ega, mustaqil va erkin fikrlaydigan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish mumkin bo‘ldi. Ta‘lim tizimini isloh qilish haqida gapirganda, demokratik o‘zgarishlar, yangi jamiyat yaratish va ichki harakatlantiruvchi kuch sifatida zarur bo‘lgan ta‘lim tizimini o‘zgartirmasdan, inson ongini va uning turmush tarzini o‘zgartirish mumkin emas.

Yangi O‘zbekistonda ta‘lim tizimining mazmuni tubdan o‘zgarimoqda. Xalqimizning milliy va ma‘naviy qadriyatlari asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratilib, davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqildi. Unda o‘qituvchilarga qo‘yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy shakllariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlar ta‘limi yangi O‘zbekistonning jadal rivojlanishi va davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi farmoni sohani tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini xalqaro andozalar darajasida tubdan qayta ko‘rib chiqishda yangi turtki bo‘ldi. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi, unda universitetlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o‘quv-ilmij laboratoriyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash chora-tadbirlari belgilandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtda ta‘lim islohoti oliy ta‘lim sifatini oshirish sohasida milliy oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha hukumat qarorlarini amalga oshirish, universitetlar reytingini baholash milliy tizimini joriy etish, chet tillarini o‘qitishni takomillashtirish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning yangi tizimini joriy etish, shuningdek oliy o‘quv yurtlarining ilmiy va boshqaruv xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ta‘lim islohotining ahamiyatini O‘zbekistonning o‘ziga xos demografik sharoitlarida ko‘rib chiqish kerak: umumiy aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo‘lgan yoshlar, 62 foizdan ortig‘ini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi [1]. Yoshlar doimo e‘tiborda ekani bois O‘zbekistonda



olib borilayotgan kuchli yoshlar siyosati mustahkam huquqiy asosga ega. Bu O'zbekiston Konstitutsiyasi moddalarida, sohaga oid 20 dan ortiq qonun va me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

“Ta’lim to’g’risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” "ta’lim tizimini davlat ta’lim muassasalari negizida yagona o’quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmuasi sifatida izchil rivojlantirish uchun zarur huquqiy asoslarni yaratadi.

Ayni paytda respublikadagi oliy ta’lim muassasalarining umumiy soni 200 tadan ortdi. Hududlarda kadrlar tayyorlash ko’lamini kengaytirish, ilg’or xorijiy tajribani joriy etish maqsadida mamlakatimizda oxirgi 5 yil ichida xorijiy universitetlarning filiallarini tashkil etish orqali 55 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etildi [1].

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’lim sifatini oshirishni mamlakatni rivojlantirishning yagona to’g’ri yo’li deb atadi va ta’lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish, ta’lim muassasalariga borish, o’qituvchilar bilan ko’proq uchrashish, mavjud muammolarni birgalikda hal etish, ta’lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish zarurligini ta’kidladi.

Oliy ta’limda kadrlar tayyorlash bo’yicha davlat buyurtmasini ko’paytirish, mamlakatimiz va xorijiy oliy o’quv yurtlarining yangi filiallarini ochish bilan birga, kam ta’minlangan oilalar farzandlari, nogironligi bo’lgan shaxslar, chekka hududlarda yashovchi yoshlar uchun maxsus kvotalar ajratish, xotin-qizlarni magistraturaga o’qitish xarajatlarini davlat tomonidan qoplashni yoshlarning oliy o’quv yurtlariga qabul qilinishing o’ziga yordam berdi.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalar, jumladan, ta’limning barcha bosqichlarining uzluksizligini ta’minlash, insonparvarlashtirish va demokratlashtirish tamoyillari asosida ta’lim tizimini rivojlantirish belgilandi. Davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta’lim muassasalari uchun mos o’quv dasturi muhim me’yoriy hujjat bo’lib, uning asosida ta’lim tizimi moliyalashtiriladi.

Yangi O'zbekistonda qurilgan ta’lim tizimining falsafiy asoslariga to’xtaladigan bo’lsak, quyidagi masalalarga e’tibor berish zarur deb o’ylaymiz.

Ta’lim jamiyat va uning a’zolarining ma’naviy ehtiyojlari bilan bog’liq shartlar, majburiyatlar va imkoniyatlar ko’rinishida namoyon bo’ladi. Bu ijtimoiy jarayonlar va munosabatlar muvozanatini mustahkamlovchi, saqlovchi va qo’llab-quvvatlovchi omildir. Ta’lim tizimi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, kishilarning turmush tarzi, inson rivojlanishini o’z ichiga olgan murakkab tizimdir.

Ta’lim shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamiyatga xos bo’lgan maqsad va vazifalarni hal etishda, ma’naviy-ma’rifiy barkamollikka erishishda muhim o’rin tutadi. Ta’lim insonning o’z-o’zini tashkillashtirish qobiliyatini ro’yobga chiqaradi, uning dunyoqarashi va tafakkurini boyitadi, inson hayotiga ijodiy ruh bag’ishlaydi [3]. Shu ma’noda, ta’lim xilma-xil va ko’p tarmoqli ijtimoiy organiz bo’lib, jamiyat a’zolari o’rtasidagi axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy va mafkuraviy munosabatlarni qo’llab-quvvatlashni, ularning jamiyatda innovatsion amaliyotlarni zamonaviy ruhda amalga oshirish mexanizmlarini o’zida mujassam etib, ta’lim subyektlari o’rtasidagi umumiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni aks ettiradi. Ta’lim falsafasi jamiyatning o’zgarishi va rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan inson hayoti va tafakkurining umumiy qonunlariga asoslangan bilimlar to’plamidir. Falsafiy ma’noda bunday umumlashtirishning mazmuni moddiy va ma’naviy dunyoni uning darajasi nuqtayi nazaridan tashkillashtiradigan shuningdek, o’quv jarayonini loyihalashning bosqichma-bosqich va istiqbolli xususiyatlarini pedagogik tahlil qilishdir.

Ta’lim tizimi elementlari ta’lim jarayoni, ta’lim subyektlari va ijtimoiy hayot o’rtasidagi munosabatlarga

asoslangan qonunlar doimo mavjud bo’lib, bu jihatlar inson mavjudligining xususiyatlarini belgilaydi va hamisha o’z-o’zini tashkillashtirishga moyil bo’ladi. Ushbu xususiyatlarning dinamik va barqaror rivojlanishini ta’minlash ta’lim tizimidagi jarayonlarni innovatsion asosda tashkil etish darajasiga bog’liq [4]. Ta’lim tizimini falsafiy kuzatish ta’limning innovatsion rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Sinergetik jihatdan qaraganda kaos jarayonidan tartibning vujudga kelishi ta’limning yangi qadriyatlar tizimini yaratish mazmunini ifodalaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda mavjud ta’lim shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo’yish va ulardan birini muhim, ikkinchisini ahamiyatsiz deb hisoblash to’g’ri kelmaydi. Chunki, “Tizimni tashkil etuvchi muhim va nomuhim deb hisoblangan elementlar birligina tizim o’z-o’zini yuksak va mukammal holatga keltirishi uchun xizmat qiladi” [5]. Ya’ni, ta’lim tabiiy, texnik, texnologik, ijtimoiy, gumanitar va huquqiy sohalari o’zaro bog’liq. Har bir tarixiy davrda ta’limni boshqarish metodologiyasi jamiyatning ma’naviy va intellektual potensialiga, siyosiy va huquqiy madaniyatga muvofiq shakllantiriladi va qo’llaniladi.

Ta’lim tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tushunishning quyidagi xususiyatlarini ko’rsatib o’tish muhim sanaladi:

- tez o’zgaruvchan, tobora kengayib borayotgan zamonaviy muhitda jamiyatni tezkor islohotlarga tayyorlash;
- globallashuv sharoitida ta’lim jarayonlarining faolligini oshirish;
- xalqaro ilmiy va madaniyatlararo munosabatlarga, ma’naviy-ma’rifiy bag’rikenglikka bo’lgan ehtiyoj ortib borishi;
- yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlari, intilishlari va ehtiyojlarini ro’yobga chiqarish uchun xalqaro miqyosda ta’lim sohasida integratsiyani tashkil etishga qaratilgan qadriyatlarni yaratish jarayonini jadallashtirish;
- jamiyatda demokratik an’analarni, plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish;
- ta’lim tizimida yuqori raqobat sharoitida yosh avlodning fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligini oshirish.

Ijtimoiy raqobat sharoitida yangi g’oyalarga bo’lgan ehtiyoj, davlat va inson manfaatlarining uyg’unligini ta’minlash ta’limning innovatsion rivojlanishining muhim qonuniyatlari hisoblanadi. Professor G.Sultanovning fikriga ko’ra “Bugungi kunda jahon sivilizatsiyasining postindustrial mamlakatlar hamjamiyatiga aylanishi, axborot, kompyuterlashtirish va madaniyatlararo aloqaning globallashuvi inson hayoti, fan va tafakkurida jiddiy o’zgarishlarga olib keldi” [6].

Ijtimoiy farovonlik va ijtimoiy uyg’unlik mukammal shaxsni shakllantirish, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish, huquqiy bilim va madaniyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog’liqdir. Bozor munosabatlari sharoitida ta’lim tizimining samaradorligiga erishish muqarrar ravishda uning tubdan innovatsion islohotini talab qiladi. Fuqarolik jamiyatini qurishda to’laqonli shaxsni shakllantirish ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ta’limning falsafiy tushunchasi uning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Falsafiy fanlar tarixan ta’lim sohasini yangi g’oyalar bilan qurollantirishga xizmat qilgan. Ushbu g’oyalar falsafaning ta’lim tizimidagi o’quv jarayonining yadrosi bo’lgan bilish nazariyasi va usullari bilan bog’liq.

Jamiyatni har qanday idrok etish ta’lim tizimining maqsadi va mazmuniga to’liq mos keladi. Undagi jarayonlarni mafkuraviy qo’llab-quvvatlaydi. Chunki, ta’lim jamiyat sohasining asosiy muhim qismlaridan biridir. Avvalo, falsafiy antropologiya ko’plab ta’lim modellarining barcha davrlarida, bepul ta’lim jarayonlaridan tortib, shaxsga yo’naltirilgan

ta'limgacha muhim rol o'ynagan [7]. Boshqacha aytganda, ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq har qanday g'oyalarni amalga oshirish falsafiy fikrlash mahsuli sifatida qaralishi kerak. Natijada bu sohada ta'lim amaliyotida yangi tadqiqot, texnologik va metodologik jarayonlarga olib keladi.

Jamiyat haqida to'plangan bilimlar falsafa, ma'rifat va ma'naviyatning ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ko'plab g'oyalarni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, "falsafa ta'lim tizimining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va aslida amaliy falsafadir" [8]. Falsafa va ta'limning pedagogik sohaning har qanday qismida o'zaro bog'liqligi unga ijtimoiy maqom beradigan falsafiy bilimdir.

Bugungi kunda ushbu bilimlarni tizimlashtirish, ularni metodologik tartibga solish, falsafiy g'oyalar va pedagogik bilimlarning kombinatsiyasi bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda ta'lim usullari va texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimini falsafiy tushunish bo'yicha ko'plab ilmiy bilimlar mavjud.

**Tahlil va natijalar.** Hozirda muayyan pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ta'lim modellarining falsafiy asoslari izchil rivojlanmoqda. Ta'limdagi falsafiy bilimlar zamonaviy falsafiy tushunchalarning ilgari yaratilgan falsafiy g'oyalar bilan uyg'unligi asosida rivojlanadi. Ta'lim tizimining rivojlanishi bilan falsafiy bilim va g'oyalar aniq falsafiy ta'limotlar asosida joriy etilsa, nafaqat zamonaviy ta'lim nazariyasi, balki uning amaliyoti ham keng miqyosda boyitiladi. Ma'lum bir tizim sifatida ta'limni rivojlantirishda inson omilining asosiy rolini hisobga olgan holda, sinergetik metodologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, fluktuatsion jarayonlar hamda bifurkatsiya hodisasining yuzaga kelishi omillarini ham unutmash kerak. Professor B.Turayevning fikricha, "Sinergetikani o'z-o'zini tashkillashtirish prinsipi jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muammolarni o'rganish va tahlil qilishda, zamonaviy ilmiy tushunchalarni yaratishda muhim xususiyatdir" [9].

Ta'lim konsepsiyasi va uning falsafiy mazmunini tahlil qilish asosida ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning quyidagi ijtimoiy-falsafiy mezonlarini shakllantirish mumkin:

✓ ta'lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi bo'lib, inson omilining xususiyatlarini va uning jamiyatdagi o'rini aks ettiradi. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarda aks etadi;

✓ ta'lim ishtirokchilarining manfaatlarining uyg'unligini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan xususiyatlarning butun majmuasini shakllantirib, shaxsning ijtimoiy mavqeini yanada oshiradi;

✓ ta'lim insonning ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishini ta'minlash, barkamol avlodni tarbiyalash, ijtimoiy hayotda faoliyatda ishtirok etish, hayot mazmunini boyitish;

✓ ta'lim fuqarolarning ta'lim va tarbiya bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy ehtiyojlarini qondirish shartlari, majburiyatlari va imkoniyatlari shaklida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogikaning asosiy kategoriyalariga e'tibor qaratsak:

- rivojlanish;
- tarbiyalash;
- ta'lim berish;
- o'qitish.

Shaxs rivojlanishini tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan, ijtimoiy va tabiiy omillar ta'siri ostida uning shaxsiyatini shakllantirish jarayoni [10] deb aytak to'g'ri bo'ladi. Tarbiya esa: keng ma'noda shaxsning intellektini, jismoniy va ma'naviy kuchini shakllantirish, uni hayotga tayyorlash va mehnatda faol ishtirok etishning maqsadli jarayoni; tor ma'noda o'quvchilarda atrofda odamlar va hodisalarga kerakli munosabatni shakllantirish uchun tarbiyachining tizimli va maqsadli ta'siridir.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi bilimlarni uzatish va o'zlashtirish bo'yicha ikki tomonlama faoliyatning maqsadli jarayonidir. O'qituvchining faoliyati o'qitish, o'quvchilarning faoliyati esa o'rganish deb ataladi. Demak, pedagogika ta'lim fani sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. O'qitish oldindan rejalashtirilgan munosabat bo'lib, uning davomida o'quvchining ta'limi va tarbiyasini rivojlantirish amalga oshiriladi, insoniyat tajribasining individual tomonlari, faoliyat va bilish tajribasi o'zlashtiriladi. Jarayon sifatida o'qitish o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bilan tavsiflanadi, ularning maqsadi o'quvchini rivojlantirish, unda bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdir. O'qituvchi "o'qitish" atamasi bilan belgilangan faoliyatni amalga oshiradi va o'zining bilim ehtiyojlari qondiriladigan o'quv faoliyatiga jalb qilinadi. Ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoni asosan motivatsiya natijasida yuzaga keladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, falsafa ta'lim sohasidagi tadqiqotlar uchun asosdir. Ta'kidlanganidek, butun tarix davomida falsafa va uning harakatlari ta'lim va tarbiyaning muayyan pedagogik modellarini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Falsafa ijtimoiy ongda sodir bo'layotgan voqealarni aks ettirdi va pedagogik faoliyatning asosiy tamoyillarini shakllantirdi. Falsafaning metodologik funksiyasi pedagogika fani va pedagogik tadqiqotlar uchun yo'l ochib beradi. Falsafa pedagogikadagi tadqiqotchiga bilishning muayyan metod va vositalarini solishtirish va baholashga yordam beradi va ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilaydi. Falsafa yordamida pedagogika fanining tushunchalari va atamaları ishlab chiqiladi va shu orqali uning kategoriyaviy apparati boyitiladi. Falsafa pedagogika faniga umumiy ilmiy usullar va tadqiqot yondashuvlarini ishlab chiqish imkonini beradi va har qanday pedagogik yangiliklarni tushunishga hissa qo'shadi. Falsafa va pedagogikani ta'lim falsafasi shaklida birlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ta'lim falsafasini pedagogikada tadqiqotning integrativ va konstruktiv-proyeksion asosi sifatida o'rganish istiqbollari mavjud keltiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Муртазаева Р.Х. Гуманизация и гуманитаризация высшего образования: в поиске "золотой середины" // Журнал "Ўтмишга назар", 2023 йил, 6 жилд, 11-сон, 6 бет.
2. Мардонов Р. С., Ризаев И. И. Проблемы в инновационном развитии (на примере Узбекистана) // Географические и экономические исследования в контексте устойчивого развития государства и региона. – 2022. – С. 244.
3. Muminova Z. Personality: wellness and spiritual education // *Academicia Globe*. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 20-23.
4. Khotambekovna E. M. Systematic Analysis of Education // *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*. – 2021. – Т. 3. – С. 31-35.
5. Тураев Б. О. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари // Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Б. – 2015. – С. 48-49.
6. Sultanova, G. Methodology and way of thinking in postnonclassical philosophy / G. Sultanova // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – No. 2(34). – P. 172.
7. Alikulov S. A., Rizaev I. I. Methodological problems of research of social systems // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 2. – С. 717-720.

8. Moses M. S. Chapter 1: The heart of the matter: Philosophy and educational research //Review of Research in Education. – 2002. – Т. 26. – №. 1. – С. 1-21.
9. Тўраев Б. О. ва бошқ. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши //Т.: Наврўз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.
10. Usmonov F. N. The Role of Scientific Ethics and Bioethics in Modern Society //Design Engineering. – 2021. – С. 8373-8379.

*Alisher MATYAKUBOV,*

*O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti, DSc*

*E-mail: [almasa@list.ru](mailto:almasa@list.ru)*

*Quvonchbek XOLBOZOROV*

*O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti va ISFT instituti katta o‘qituvchisi*

*TDIU dotsenti, PhD A.Sotvoldiyev taqrizi asosida*

### APPLYING FUNCTION GRAPHICS TO PRACTICE USING GEOGEBRA

Annotation

This article provides methodological recommendations on how to make function graphics using the GeoGebra program to improve the visual knowledge of students studying in economics.

**Keywords:** Function, graphics, defective function, non-transparent function, parameter function, surface, raw materials, alignment.

### ПРИМЕНЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАФИКИ НА ПРАКТИКЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ GEOGEBRA

Аннотация

В данной статье приведены методические рекомендации по составлению функциональных графиков с помощью программы GeoGebra для совершенствования визуальных знаний студентов, обучающихся по направлению «Экономика».

**Ключевые слова:** Функция, графика, дефектная функция, непрозрачная функция, функция параметра, поверхность, сырье, выравнивание.

### “GEOGEBRA” DASTURI YORDAMIDA FUNKSIYA GRAFIKLARINI AMALIYOTGA QO‘LLASH

Аннотация

Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlari iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni visual bilimini oshirish maqsadida “GeoGebra” dasturi yordamida funksiya grafiklarini yasash to‘g‘risida metodik tavsiyalar keltirilgan.


**Kalit so‘zlar:** Funksiya, grafik, noxizizli funksiya, oshkormas funksiya, parametrik funksiya, sirt, xomashyo, tekislik.

- **Kirish.** “GeoGebra” bu-Geometriya, elektron jadval, ehtimollik va CAS uchun bepul vositalarni o‘z ichiga olgan ilovaladir. GeoGebra Classic grafik, geometriya, 3D, elektron jadvallar, kompyuter algebrasi va ehtimollarni bir foydalanishga oson va kuchli paketda birlashtiradi. Dunyo bo‘ylab millionlab odamlar “GeoGebra”dan matematika va fanni o‘rganish uchun foydalanadilar.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni [1], 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [2] hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Matematikani o‘qitishda GeoGebra dasturi yordamida darslarni o‘tish iqtisodchilar boshqalarga nisbatan iqtisodchilarga birmuncha qulayliklar yaratadi[3].


- **Tadqiqot metodologiyasi.** Dastlab “GeoGebra” dasturini ishga tushirib,  $y = f(x)$  ko‘rinishidagi funksiya grafigini chizamiz. Masalan,  $y = \frac{x}{x^2 - 4}$  funksiya grafigini chizish kerak bo‘lsin (1-rasm).



1-rasm.  $y = f(x)$  ko‘rinishidagi funksiya grafigi.


Zarurat bo‘lganda, “GeoGebra” dasturi yordamida funksiya uzilish nuqtalarini, asimptotalarini va hattoki ekstremumlarini ham topish mumkin.

Endi oshkormas ko‘rinishdagi funksiyalar grafigi bilan tanishamiz.



2-rasm. Oshkormas funksiyalar grafiklari.

Bulardan tashqari, ko'p o'zgaruvchili funktsiya grafiklarini ham chizish mumkin.



3-rasm. Sirt.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Endi na'muna sifatida iqtisodiy masalalarni "GeoGebra" dasturi yordamida yechish mumkinligi haqida ma'lumot keltiramiz.

Masala. A firmaning hisob raqamida 12 sh.p. birlik pul bor. x, y va z xomashyolar narxlari ravishda 1, 2 va 3 sh.p. pul birligini tashkil qiladi. Hisobdagi puldan foydalangan

holda, foyda funksiyasi  $Q = x^{0.2} y^{0.3} z^{0.5}$  ni maksimalashtiruvchi x, y va z larni toping.


Yechish. Masala shartiga ko'ra, x, y va z xomashyolarning bir birlik narxlari mos ravishda 1, 2 va 3 sh.p.b.ga teng. Umumiy xarajat  $x + 2y + 3z$  ko'rinishida

bo'ladi va bu uchun firma 12 sh.p.b. miqdorida xarajat qilishni rejalashtirilgan. Demak, masalaning matematik modeli quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{cases} x + 2y + 3z = 12 \\ x \geq 0, y \geq 0, z \geq 0 \end{cases}$$

$$Q = x^{0.2} y^{0.3} z^{0.5} \rightarrow \max$$


Bu masalani yechimini "GeoGebra" dasturidan foydalanib topamiz. Buning uchun dastlab "GeoGebra" dasturini ishga tushurib, "Полотно 3D" bo'limiga kirib,  $x + 2y + 3z = 12$  tekislikni chizib olamiz (4-rasm).



4-rasm. Tekislik.


Maqsad funksiyani chizishimiz uchun, "Полотно 2D" bo'limi ochib, u yerdagi "Ползунок" buyrug'idan parametрни o'zgarish oraliqlarini belgilab kiritib olamiz. Masalan, a

parametрning o'zgarish oraliq'ini 0 dan 5 gacha deb belgilaymiz (5-rasm).



5-rasm. Parametr


So'ngra maqsad funksiyani a parametrga tenglab, bundan z ni topib olamiz. Bundan  $z = \frac{a^2}{x^{0.4} y^{0.6}}$  tenglikka ega bo'lamiz va "Полотно 2D" bo'limidan chiqib ketib  $z = \frac{a^2}{x^{0.4} y^{0.6}}$  sirtini chizib olamiz (6-rasm).



6-rasm. Sirt va tekislik

Yuqoridagi chizmadan ko'rinadiki, tekislik hamda sirt kesishgan holatda turibdi. Bu esa optimal yechim emasligini anglatadi. Biz sirtini tekislikka uringan nuqtasini topishimiz kerak. Buning uchun parametрни o'zgartirishni boshlab,

uringan joyga yetganda, parametрни to'xtatamiz. Uringan nuqtani A deb belgilab olsak, uning koordinatalarini ko'rishimiz mumkin (7-rasm).



7-rasm. Tekislik va sirt urinish nuqtasi.

Agar zarurat bo'lsa, chizmani yanilqashtirib yetarlicha aniqlikda A nuqtani koordinatalarini ko'rishimiz mumkin. 7-rasmdan maksimal foyda taxminan 2.009 ga,  $x=2.4$ ,  $y=1.8$  va  $z=2$  ga teng ekanligi ko'rinadi.

- **Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda bo'lajak iqtisodchilarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda jumladan, "GeoGebra" dasturi yordamida o'qitish talabalarni bilim darajasi, tasavvuri hamda fikrlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Kholbozorov Kuvonchbek. SOLVING FRACTIONAL LINE ECONOMIC ISSUES IN THE GEOGEBRA PROGRAM. Innovative Technologica: Methodical Research Journal. Volume 3, Issue 4, April – 2022. 85-90 pp.
4. <https://www.geogebra.org/calculator>
5. Xashimov A. Xujaniyozova G, Sotvoldiyev A, Xolbozorov Q. "Iqtisodchilar uchun matematika" darslik. – Toshkent, "Nihol print" OK, 2022. 298-bet.
6. С.А.Ашманов. Линейное программирование. М.: Наука-1981.
7. Q.X.Xolbozorov. "Iqtisodchilar uchun matematika" fanini o'qitishda "GeoGebra" dasturining qulayliklari. O'zMU xabarlari. № 2021.1.5. 147-150 b.



UDK: 372.881.1

Oysara MAXSUDOVA,  
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti  
E-mail: oysaramakhsudova63@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD A.Jabborova taqrizi asosida

## THE IMPORTANCE OF DEVELOPING PRACTICAL PHONETIC SKILLS IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation

In this article, one of the urgent problems of future foreign language teachers is the development of phonetic skills, which are considered as a component of the language unit in the process of learning foreign languages, in which the game of didactic forms in the development of pronunciation, listening comprehension and practical phonetic skills, the importance of listening comprehension and speaking is explored.

**Key words:** Practical phonetics, listening comprehension, articulation, sound, form, tool.

## ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ФОНЕТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье одной из актуальных проблем будущих учителей иностранного языка является развитие фонетических умений, которые рассматриваются как компонент языковой единицы в процессе изучения иностранных языков, при котором игра дидактических форм в развитии произношение, понимание на слух и практические фонетические навыки, исследуется важность понимания на слух и разговорной речи.

**Ключевые слова:** Практическая фонетика, понимание на слух, артикуляция, звук, форма, среда.

## BO'LAJAK CHET TIL O'QITUVCHILARDA AMALIY FONETIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak chet til o'qituvchilarning chet tillarni o'rganish jarayonida til birligi tarkibiy qismi hisoblanadigan fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bunda talaffuz, tinglab tushunish va amaliy fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda didaktik shakllardan o'yin, tinglab tushunish va o'g'zaki nutqning ahamiyati o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Amaliy fonetika, tinglab tushunish, artikulyatsiya, tovush, shakl, vosita.

**Kirish.** Jahon oliy ta'lim muassasalarida muloqotning fonetik tomonini o'qitish maqsadlariga kelsak, innovatsion faoliyat o'quv jarayonida innovatsiyalarni qo'llashni ta'minlaydigan o'quv harakatlari majmui deb tushunilishi kerak. Talabalarning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish olingan materialni o'zlashtirish tezligi va kuchiga bevosita ta'sir qiladi, shuningdek og'zaki nutq, o'qish va yozishni rivojlantirishga yordam beradi. Tilning fonetik tomonini muvaffaqiyatli o'rganishga katta ta'sir ko'rsatadigan shartlarga tovushlarni takrorlash va idrok etishdagi qiyinchiliklarni aniqlash, ijobiy uzatish va aralashish zonalarini aniqlash, nutqni eshitishni rivojlantirish ko'nikmalarini o'rgatish nutq qobiliyatlari bilan yaqin aloqada rivojlanishiga ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish"[1] muhim vazifa etib belgilangan. Natijada Bo'lajak chet til o'qituvchilarda amaliy-fonetik ko'nikmalarga ega va ma'lum bir muloqotda shaxsiy jihatni amalga oshirishga yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishga imkon beradi.

Nutqni idrok etish va tushunishsiz nutq aloqasi mumkin emas, uning asosi, o'z navbatida, chet tilini o'qitish mazmuni rivojlantiradi. Chet tilini o'zlashtirishning ko'rib chiqish ma'lum mexanizmlarni qaysi bosqichlarda shakllantirish kerakligini va qaysi fonetik o'yinlar ushbu

mexanizmlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladigan qiyinchiliklarni engishga yordam berishini tushunishga imkon beradi.

Nutqni idrok etish va tushunishsiz nutq aloqasi mumkin emas, uning asosi, o'z navbatida, eshitish qobiliyatini shakllantiradi. Tinglab-tushunish qobiliyatini o'zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlarini ko'rib chiqish ma'lum mexanizmlarni qaysi bosqichlarda rivojlantirish kerakligini va qaysi fonetik o'yinlar ushbu mexanizmlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qiyinchiliklarni engishga yordam berishini tushunishga imkon beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lapidus B.A. fikricha, "o'quv mazmuni" tushunchasini "talabalar tomonidan o'rganilayotgan tilni bilish sifati va darajasi ushbu ta'lim muassasasining maqsadlariga mos kelishi uchun o'zlashtirishlari kerak bo'lgan narsalar" majmui sifatida belgilaydi[2].

E.I. Passov va N.E. Kuzovleva nuqtai nazarlariga ko'ra, "chet tilini o'qitish mazmuni" tushunchasini "chet tili ta'limi mazmuni" degan kengroq tushuncha bilan almashtirishni va "o'zga til ta'limi mazmuni" esa, "o'zga til madaniyati" tushunchalari bilan tenglashtirishni taklif qiladilar[3].

Shunday qilib, chet tillarini o'qitish nazariyasida haligacha "o'quv mazmuni" tushunchasini ta'riflash, shuningdek, uning tarkibiy qismlar muammosi bo'yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas.

I. N. Koshelevaning fikricha, barcha til minimumlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda tanlanadi, shuning

uchun fonetik minimum so'zlarning talaffuzini, shuningdek, leksik va grammatik minimum asosida qurilgan iboralar intonatsiyasini o'zlashtirish uchun yetarli leksik minimum bo'lishi kerak. Turli darsliklarda fonetik materialni o'rganish ketma-ketligi qo'yilgan vazifalarga qarab turlicha belgilanadi [4].

Z.K.Norqo'ziyeva fikricha, nutqda fonetik birliklardan foydalanish qoidalari va til qonuniyatlari talabning til o'zlashtirishda maksimal darajada foydalanish imkonini beradi[5]. I.B.Utayeva esa, tilning fonetik, leksik va grammatik normalar talablariga javob beradigan shartli ishoralar bilan ifodalangan va muomalaning potentsial, abstrakt, eng kichik birligi amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. D.T.Pardayeva takidlagandek, chet tili me'yorlarini o'zlashtirish deganda, uni to'liq yoki qisqa nutqiy gaplar shaklida unumli va sifatli qo'llash uchun zarur bo'lgan lingvistik materialni o'zlashtirishni o'rganish tushuniladi, bu esa, boshqacha aytganda, lingvistik kompetensiyani, ya'ni fonetika, lug'at, grammatikani o'zlashtirishni anglatadi[7]. G.N.Djo'rayeva, chet tilda mulokot olib boruvchi mutaxassis chet tilini grammatik, morfologik va fonetik jihatdan chuqur o'rgangan bo'lishi va shu tilda so'zlashuvchilarning ijtimoiy-madaniy hayoti, tarixi yetarli darajada egallagan bo'lsa, suxbatning muvaffaqiyatli kechishiga xizmat qiladi degan nazaryani ilgari surgan[8].

Shu boisdan ham til o'rganish jarayonida ona-tiliga mos interferensiyasi kabi mavzular berilsa maqsadga muvofiq 1-jadval

Amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish komponentlari



Shuningdek, amaliy fonetik ko'nikmalarni o'qitish jarayonida amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantiruvchi shakllardan o'yin, tinglab tushunish va og'zaki nutqdan foydalandik.

Fonetik o'yin xorijiy talaffuzni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishi mumkin (talabalar imkon qadar real holatlarga yaqin vaziyatlarga kiritiladi), shuningdek, fonetik hodisalar o'ziga xosligi tufayli boshlang'ich darajada o'zlashtirilgan hollarda maqsadni belgilash muammosini hal qilishi mumkin.

Masalan, o'zbek tilida nutqni idrok etish va ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan qattqlik-yumshoqlik, jarangsiz-jarangli toifalarini o'zlashtirishda fonetik o'yin ikkita vazifani hal qilishga imkon beradi: tarbiyaviy (qattiq va yumshoq, jarangsiz va jarangdor undoshlarni ajratish ko'nikmalarini shakllantirish) va shaxsiy (raqib jamoani mag'lub etish uchun). Shu bilan birga, o'yinlar davomida ishlab chiqilgan fonetik hodisalardan dars mashqlari materialida faol foydalanish kerak: yangi lug'atda, grammatik tuzilmalarda, kommunikativ vaziyatlarda va hokazo.

Chet til fonetik o'yinlari, asosiy funksiyalaridan tashqari, kompensatsion funksiyani ham bajaradi: ular nutq organlarini ona tili tovushlarini artikulyatsiya qilish uchun

bo'lardi, shuningdek, talaffuz va intonatsiya bo'yicha (intonatsiyaning Grammatik, fonetik va munosabat bildiruvchi funksiyalarini farqlash)ga oid urg'u (so'z urg'usi, gap urg'usi), tovushlarni transkripsiyalar orqali o'qiy olish imkoni chet tilini o'zlashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kasbiy ta'lim maqsadlari va natijalarini baholashga yangicha qarashga yo'naltirilgan kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlariga-mazmunga, pedagogik texnologiyalarga, nazorat va baholash vositalariga o'z talablarini qo'yadi. Bu yerda asosiy narsa talabalarning turli xil faoliyat turlariga (muloqot, muammolarni hal qilish, munozaralar, loyihalarni amalga oshirish) qo'shilishi holatlarini yaratadigan bunday o'quv texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, chet tili amaliy-fonetik ko'nikmaning yuqori darajada rivojlanishiga erishish uchun o'qitishning eng samarali shakli modulli ta'limdir.

Bizning ishimiz bo'lajak chet til o'qituvchilarning amaliy-fonetik ko'nikmalarini o'rgatishga bag'ishlangan. Shu munosabat bilan biz Oliy ta'lim muassasalari uchun davlat ta'lim standartida taqdim etilgan talablarni tahlil qildik. Shunindek tadqiqot ishimiz uchun amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beruvchi uchta component motivatsion, kognitiv va faoliyat komponentlarni tahlil qildik(1-jadval).

tayyorlaydi, turli fonetik pozitsiyalarda o'zbek tovushlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni oldini oladi va hokazo.

Fonema-tovush-harf yozishmalarini o'rnatish (o'qish texnikasi): o'yindan "tashqarida", qutida kartalar bor, ularning har birida bitta harf yozilgan. Birinchi o'yinchi qutidan kartani oladi, kartada ko'rsatilgan xatni chaqiradi. Talabalar xar: "bir! Ikki! Uch!". Bu vaqt ichida o'yinchi so'z o'qilishidan qat'i nazar, kartada ko'rsatilgan harf bo'lgan so'zni nomlashi kerak. Agar uning vaqti bo'lmasa yoki noto'g'ri variantni taklif qilsa, u o'yindan tashqarida. Quti keyingi o'yinchiga uzatiladi. Eng ko'p so'zlarni nomlagan o'yinchi g'alaba qozonadi. Yuqoridagi ko'nikmalarga qo'shimcha ravishda, ushbu o'yin imlo qobiliyatlari va vizual xotirani rivojlantiradi.

Ritmik-intonatsion qobiliyatlari: fonetik qo'shiq dramatisiyasi.

Intonatsiya qobiliyatlari: o'yin "bu savolmi?". Talabalar o'qituvchi tomonidan aytilgan turli xil kommunikativ turdagi bayonotlarni tinglashadi, shundan so'ng ular kartani ko'tarishlari kerak (yoki aytdilar): "savol" / "savol emas". O'yin bir doira ichida ketadi. Noto'g'ri javob bergan kishi o'yindan chetlatiladi.

D. I. Izarenkov va L. F. Kiyanovskayaning so'zlariga ko'ra, agar "biz o'yin faoliyatining maxsus ta'lim faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirish qobiliyatidan kelib chiqsak"



[10] o'yin vazifalariga asoslangan o'quv tizimini yaratish mumkin. Bizning fikrimizcha, fonetik o'yinlar tufayli motivatsiya darajasi ikki holatda oshadi:

1) talabalar xorijiy talaffuzni o'zlashtirish jarayoniga qiziqish bildirganda;

2) erishilgan natijalar yuqori baholaganda. O'yinning barcha ishtirokchilari uchun ravshan bo'lgan ijtimoiy baholash (guruhni baholash) ("siz eng zo'rsiz") ko'pincha o'qituvchining baholashidan ko'ra afzalroqdir ("siz vazifani eng yaxshi bajarдингiz"), chunki ko'pincha talabalar uchun chet tilini o'zlashtirish ularning ijtimoiy mavqeini yaxshilash, shaxsiy rivojlanish darajasining ko'rsatkichidir.

Tinglab tushunish shakli o'yin shakli bilan bog'liq holat desak mubolag'a bo'lmaydi. Fonetik o'yinlari fonetik eshitish va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular eshitish-vizual taqlidga asoslanadi va tovushlar bilan parcha-parcha tanishish xarakteriga ega. Fonetik o'yinlar quyidagi so'zlar bilan fonetik vazifalarga mos keladi: "Tinglang ...", "Tinglang va takrorlang", "Tinglang va ayting", "Tinglang va aniqlang".

Chet tillarini o'qitish amaliyotida eshitish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

\* Faol tinglash. Talabalar eshitalar, belgi berishlari kerak:

a) o'z ona tili yoki vositachi tilidagi tovushlar orasida o'zbekcha tovushlar;

b) ma'lum bir tovushli so'z;

c) ovozi /ovossiz, qattiq /yumshoq undoshlar va boshqalar [11].

\* Minimal juft holatda solishtirish.

Fonema-tovush-harf yozishmalarini o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirishda:

\* eshitilgan tovushlarning harflar bilan o'zaro bog'liqligi;

\* fonetik transkripsiya.

Artikulyatsiya bazasini rivojlantirishda siz foydalanishingiz mumkin:

\* ko'rinishga asoslangan tovush artikulyatsiyasining tavsifi (artikulyatsiya sxemalari, chizmalar, transkripsiya, harf bo'lmagan belgilarni ishlatadigan va hokazo.);

\* differensial belgilarning tavsifi;

\* o'zingizning talaffuzingizni boshqarish (audio yozuv);

\* sokin artikulyatsiya;

\* tovushlarga tayanish-yordamchilar;

\* tovush ko'rkam so'z;

\* rang texnikasidan foydalanish (turli xil rangdagi ovossiz/ovozli, yumshoq/qattiq undoshlarni ajratib ko'rsatish, ularning artikulyatsiyasidagi farqni tushuntirish).

Fonetik tinglab tushunishda talaffuz ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun siz "artikulyatsion trening" dan foydalanishingiz mumkin. Artikulyatsion mashg'ulotlar diqqatni nutq organlarining universal ixtiyoriy harakatlariga jamlashga asoslangan.

Og'zaki nutq shaklidan foydalanishda quyidagi jihatlariga ko'proq ahamiyat berildi:

- qofiyadan foydalanishga asoslangan almashtirish texnikasidan foydalanish;

- xuddi shu talaffuzga ega so'zlarda eshitish ko'nikmalarini mashq qilishda analogiya tamoyilidan foydalanish;

- so'zlarning urg'u-ritmik chizmalariga qarab og'zaki nutqni rivojlantirish;

- vizual qo'llab-quvvatlash bilan dialoglar olib borish;

- talaba va ma'ruzachining, talaba va o'qituvchining intonatsiyalarini taqqoslash; uning va boshqa chet ellik talaba [12];

- o'rganilayotgan intonatsion konstruksiyalardan foydalanilgan holda boshqa talaba/o'qituvchi bilan muloqot qilish.

**Tahlil va natijalar.** Amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish vositalari ham shakllar va usullarga qarab tanlandi. Videokasting va podcasting usullarni rivojlantirishda texnik va eshitish uskunalaridan foydalanildi. O'yin va loyiha metodlarni amalga oshirish vizual vositalar, ya'ni, tarqatma materiallar va og'zaki nutqni rivojlantirishda esa kartochkalar, doska vositalari qo'llanildi.

Og'zaki va nutq qobiliyatlari, shu jumladan amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ko'plab olimlar talabalarini tahlil qilib, quyida o'z fikrlarimizni bayon etdik:

\* fonetik ko'nikmalarni o'rgatish orqali shaxslararo va madaniyatlararo o'zaro munosabatlar muammolarini hal qilish uchun og'zaki muloqot uchun yetarli darajaga ega bo'lish;

\* professional muloqot uchun zarur bo'lgan tilni bilish darajasiga erishish;

\* lingvistik va ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda fonologik tahlilning asosiy usullarini bilish;

Biz shuningdek tadqiqot jarayonida amaliy-fonetik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ham o'rgandik:

tushunarli so'zlar bilan artikulyatsiya usullarini tushuntirish imkoniyati;

talaffuzda qiynaladigan talabalarga individual yordam berish;

til va nutq materiallari tinglash, gapirish, ovoz chiqarib o'qish jarayonida talabalarining talaffuzini to'g'rilash imkoniyatini ta'minlash;

nutq operatsiyalarini yanada avtomatlashtirish va o'zgaruvchan nutq holatlarida harakatni amalga oshirish orqali qobiliyatning labilligi va moslashuvchanligini rivojlantirish;

amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadigan o'quv vaziyatlarini yaratish;

ko'rish, eshitish va takrorlash, uyda videograf bilan ishlash imkoniyati;

videoni cheksiz tomosha qilish imkoniyati.

Ushbu imkoniyatlar til fakultetida ingliz tili fonetikasini o'qitishga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, zamonaviy oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifasi yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega va har tomonlama shaxsiy rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Bundan kelib chiqadiki, amaliy-fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni maqsadli va uzluksiz bo'lishi kerak va fonetik kurslarni tashkil etishga kompleks yondashuv (tuzatuvchi, hamrohlik qiluvchi) kommunikativ maqsadlarga muvofiq artikulyatsiya, ritm, stress, o'zbek nutqining intonatsiyasini o'zaro bog'liq ravishda o'qitishni hisobga olishi kerak.

Nutq faoliyatining barcha turlarini o'zlashtirish vaqti va muvaffaqiyati va umuman muloqotning muvaffaqiyati talabalar o'rtasida eshitish-talaffuz ko'nikmalarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish vazifalari amaliy-fonetik ko'nikmalar fanida hal qilinadi va rivojlanish va takomillashtirish butun o'quv davri davomida tuzatuvchi va hamrohlik qiluvchi kurslar doirasida amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, biz hozirgi kunda ingliz tili fonetikasini o'rgatishning ahamiyati tobora kuchayib bormoqda degan xulosaga keldik.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063>.

2. <http://www.natlib.uz/>
3. Пассов Е.И. Основы коммуникативной теории и технологии иноязычного образования: методическое пособие для преподавателей русского языка как иностранного / Е.И. Пассов, Н.Е. Кузовлева. – М.: Русский язык, 2010. – 568 с.
4. Кошелева И. Н. Обучение английскому произношению: современные тенденции в зарубежных исследованиях // Отечественная и зарубежная педагогика. 2018. №5 (54).
5. Norquziyeva Z.K. CLIL texnologiyasi asosida bo'lajak muhandis texnologlarning kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2022.
6. Utayeva I.B. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning Grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish. Ped.fan.ilmiy darajasini olish uchun diss. T.-2022.
7. Pardayeva D.T. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish. ped.fan. dokt.diss... – T., 2022.
8. Djurayeva G.N. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy madaniy kompetensiyalarini takomillashtirish. Avtore.diss...PhD/ T: . 2021.
9. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv// :Avtoref.diss...PhD-T.:2019.
10. Изаренков Д. И., Кияновская Л. Ф. Игра как форма организации учебной речевой деятельности в процессе овладения вторым (неродным) языком // Русский язык за рубежом. 1991. №1. С. 65–70.
11. Рогова Г. В., Рабинович Ф. М. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Пос. для учителя. М.: Просвещение, 1991. 287 с.
12. Артёмов В. А. Психология обучения иностранным языкам. М.: Просвещение, 1969. 279 с.



*Jaxongir MIRZASOLIEV,*  
*Jamoat xavfsizligi universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: mjahongir@mail.ru*

*Psixologiya fanlari doktori, professor X.Abdusamatov taqrizi asosida*

### HARBIY XIZMATCHI OILALARIDAGI NIZOLARNING ARMIYA SALOHİYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon olimlari tomonidan harbiy xizmatchilar oilalaridagi nizolarini tadqiq etilganligi, harbiy xizmatchining ijtimoiy holati va oiladagi muammolarning asosiy tendensiyalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Harbiy xizmatchilarning oilasi, ijtimoiy-psixologik yordam, oilaning harbiy xizmatdagi o‘rni, harbiy xizmatchi oilalarining turmush tarzi, armiya, mudofaa salohiyati.

### КОНФЛИКТЫ В СЕМЬЯХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ВЛИЯНИЕ НА АРМЕЙСКУЮ ПОТЕНЦИАЛ

Аннотация

В данной статье анализируются исследования проведённые зарубежными учеными в области конфликтов возникающих в семьях военнослужащих, их социальное положение, а также основные тенденции семейных проблем.

**Ключевые слова:** Семья военнослужащих, социально-психологическое обеспечение, роль семьи в военной службе, образ жизни семей военнослужащих, армия, оборонный потенциал.

### CONFLICTS IN MILITARY FAMILIES INFLUENCE ON ARMY POTENTIAL

Annotation

This article analyzes research conducted by foreign scientists in the field of conflicts arising in military families, their social status, as well as the main trends in family problems.

**Key words:** Military family, social and psychological support, the role of the family in military service, lifestyle of military families, army, defense potential.

**Kirish.** Mamlakat Qurolli Kuchlarining jangovar qobiliyati uchun shaxsiy tarkibning ma'naviy-psixologik holati katta ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'plab omillar ta'sir qiladi, ulardan biri harbiy xizmatchilarning oilaviy munosabatlari holatidir. Zamonaviy xorijiy harbiy sosiologiyaning asosiy istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari harbiy xizmatchilarning oilaviy muammolari, shuningdek harbiy ijtimoiy jamoalarning ma'naviy-psixologik holatini o'z ichiga olishi bejiz emas.

Armiyaning tarkibiy qismidan kelib chiqib harbiy oilalar sonining ko'payishini nazarda tutadi, bu esa tegishli muammolarning ko'payishiga olib keladi. Shu munosabat bilan jaxon olimlari tomonidan harbiy xizmatchilarning oilasi mudofaa qobiliyatini ta'minlash muammolarini hal qilishda birinchi raqamli tadqiqot ob'ektiga aylangan [1].

Harbiy xizmatchilarning psixologik salomatligi va farovonligi mamlakat armiyasining samaradorligi, harbiy oilalarni moslashtirish va harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvi uchun muhimdir.

2022 yilda M.Anatolii, V.Serxii, M.Aleksandr, I.Vladimir, S.Vladimir va V.Aleksandirlar tomonidan (Ukraina Milliy gvardiyasi, milliy akademiyasi) jangovar vazifalarni bajarayotgan Ukraina harbiy xizmatchilari oilalariga yordam berishning tibbiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari o'rganilgan.

Harbiy harakatlardan qaydgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvi, muloqotdagi qiyinchiliklar, intim hayotdagi qiyinchiliklar, kasbiy o'zini-o'zi belgilash muammolari bilan bog'liq yangi stresslarni boshidan kechirish, bundan tashqari jangovar harakatlar vaqtida orttirgan psixologik travmalar sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, buning natijasida oilada tushunmovchilik, janjallar kelib chiqishi, oila a'zolarida ham uyqu buzilishi, tushkunlik, kayfiyatning o'zgarishi, begonalashish holatlari kuzatilishi tahlil qilingan [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ukraina psixiatrlarining ta'kidlashicha harbiy harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning 20 foizida "ATO sindiromi" deb ataladigan surunkali travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD) tashxisi qo'yilgan.

Ushbu holatlarni o'rganish natijasida olimlar tomonidan quyidagi xulosalar keltirib o'tilgan:

Reabilitatsiya faoliyatini takomillashtirish uchun olimlar, metodistlar, shifokorlar, ijtimoiy soha xodimlari, davlat organlari mutaxassislari, shuningdek fuqaro-harbiy hamkorlik mutaxassislari ishtirokida harbiy xizmatchilarning oilasi va yaqinlarini qamrab oluvchi kompleks reabilitatsiya tadbirlarini tizimli tashkil etish.

2. Jangovar harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam ko'rsatishning tibbiy-ijtimoiy va psixologik jihatlarni o'rganish va Ukraina tomonidan harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik yordam ko'rsatishni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish [3].

Psixologik yordam va reabilitatsiyaning umumiy jihatlari T.Dobrovolskaya, S.Xarchenko, L.Yakovlevalarning asarlarida keltirib o'tilgan. Harbiy xizmatchilar bilan reabilitatsiya ishlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari V.Aleshchenko, V.Mogilevlar tomonidan tahlil qilingan. V.Bondarenko, D.Kramerlar tomonidan harbiy xizmatchilarning oilalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan [4].

So'ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki nafaqat harbiy xizmatchining, balki uning ota-onasi, rafiqasi, farzandlari va yaqin qarindoshlariga ham tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish zarur [5].

Jaxon olimlari tomonidan harbiy oilalardagi nizolar tadqiq etilganda ota-onalarning ayrim individual xususiyatlari

va oiladagi nikoh munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolar ajrashishlarning eng muhim manbai ekanligi aniqlangan [6].

S.V.Bobrichov va V.V.Ivakinalarning "Oilaviy munosabatlar sohasidagi ijtimoiy-psixologik aspektlar" nomli O'quv qo'llanmasida:

1. Oilaviy nizolarning fenomenologiyasi: mohiyati, determinant, xususiyatlari.

Oila a'zolarining nizoli xatti-harakatlar strategiyalari.

Oilaviy nizolarning dinamik xususiyatlari.

Oilaviy nizolarning tasnifi.

Oilaviy nizolarning etnomadaniy xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy konstruksiyalarning keskin o'zgarishi, oilaviy hayotning mazmunini o'zgartiradi. Oilaviy hayotning funksional sohalari o'g'il bolalar va qizlar uchun nikoh motivatsiyasining an'anaviy tarkibiy qismlarini o'zgartirib, oilalarda ijtimoiy munosabatlarning namoyon bo'lish doirasini kengaytirmoqda va bir vaqtlar bir-birini sevgan odamlar ba'zan bir-birlarini tushunishni xoxlamaydilar, bir-birlaridan uzoqroq bo'lishga, e'tiborsiz, mas'uliyatsiz, beparvo turmush o'rtoq ekanligiga o'zlarini ishonitirishga harakat qiladilar. Ular o'rtasida har qadamda tom ma'noda nizolar kelib chiqqa boshlaydi. Bir-biriga nisbatan bunday munosabat oddiy psixologik jihatdan mos kelmaslik bilan oqlanadi. Shu bilan birga, psixologik nomuvofiqlik haqidagi harakatlar ko'pincha o'z xatolarini va e'tiborsizliklarini tan olishni, boshqa odamni tushunishni yoki hech bo'lmaganda tushunishga harakat qilishni istamasligida ko'rinadi. Ko'pincha bunday tushunish uchun insonda ko'nikmalar etishmaydi va bu ko'nikmalar aqliy va axloqiy qobiliyatlarni talab qiladi. Oilaviy nizolar ijtimoiy nizolarning eng keng tarqalgan ko'rinishi, o'tkir va tajribali shakllaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, oilalarning 80-85 foizida yaqqol nizolar, qolgan 15-20 foizida esa turli sabablarga ko'ra janjallar kelib chiqadi [7].

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent L.B.Morozova Rossiyaning harbiy xizmatchi oilalarida er-xotinning oiladagi shaxslararo o'zaro munosabatlar va oilaviy munosabatlardan qoniqish bo'yicha ilmiy izlanishlarni olib borgan.

Tadqiqot natijalarida nikohdan qoniqish oilaning sub'ektiv g'oyasini amalga oshirishga [8] va oilaviy hayotdan qoniqish har bir shaxsning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasiga bog'liq bo'lgan, bu o'z navbatida ijtimoiy histuyg'ularning rovojlanishiga qaratilgan. Nikohdan qoniqish omillari etib: turmush o'rtog'ining kasbiy faoliyatidan kelib chiqib ishdan qoniqish, ishdagi muvaffaqiyat, insonning o'zini-o'zi anglashi va oilaning moliyaviy farovonligi keltirib o'tilgan [9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunga kelib harbiy oilalarda nizolar paydo bo'lishi harbiy xizmatchilarning oilaviy hayotidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, harbiy xizmatchi oilasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyati kabi muammolarni vujudga keltirmoqda. I.Yu.Zagornaya harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvini o'rganar ekan, u oilaviy funksiyalarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan bir qator omillarni aniqladi. Ular orasida:

harbiy xizmatchining xizmat joyini tez-tez o'zgarishi bilan takroriy ijtimoiy-psixologik moslashish omillariga moyillik;

harbiy xizmatchilar oilasini tartibga solish;

harbiy xizmatning alohida shartlari tufayli oilaviy hayotdagi muammolarning yuzaga kelishi;

turmush o'rtog'ining oilaviy qadriyatlarini va oilada sog'lom muhitni yaratishga qodir yoki aksincha shaxsiy fazilatlarini;

harbiy xizmatchi oilasining ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy aloqalarining muntazam tanqisligi (chekka

garnizonlarda, harbiy qismlarda, qishloq aholi punktlarida yashashi) [10].

Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot ishlari bejizga emas. Hozirgi kunda harbiy oilalar o'rtasidagi ijtimoiy-muhidning buzilishi davlat mudofaa salohiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

A.S.Zemlyanaya tomonidan harbiy oila a'zolarining harbiy garnizonlar sharoitlariga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va moslashuv muammolarini hal qilishning ijtimoiy-psixologik texnologiyasi orqali 350 dan ortiq harbiy xizmatchilarning oila a'zolari o'rganilgan. Asosiy eksperimental baza sifatida Moskva harbiy okrugining to'rtta garnizoni tanlangan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyatida harbiy oilalarning moslashuv muammolarini aniqlash, ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib atrof-muhitga va zamonaviy sharoitlarda moslashish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shuningdek, harbiy oilalar a'zolarining moslashuv muammolarini hal qilishda ijtimoiy-psixologik yordamning mohiyati va mazmuni, harbiy sharoitlarga moslashishda samarali individual va guruh psixologik yordam ko'rsatishning modelini ishlab chiqish, individual va guruhli psixologik yordamning ijtimoiy-psixologik texnologiyasi eksperimental ravishda sinovdan o'tkazilishi belgilab berilgan. Ishlab chiqilgan mezonlar, ko'rsatkichlar va darajalar yordamida harbiylar oilalarini moslashtirish samaradorligi baholalanib, harbiy garnizonlardagi harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik resurslari aniqlangan. Harbiy xizmatchilar oilalarining samarali moslashuvi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlar belgilanib, uni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik model, harbiy oilalarni samarali moslashtirish algoritmi va texnologiyasi harbiy psixologlar amaliyotida sinovdan o'tkazilib, ko'rsatkichlar, darajalar bo'yicha baholangan va o'z samaradorligini ko'rsatgan.

Oilalarning moslashuvi samaradorligi uchun belgilangan ijtimoiy-psixologik sharoitlar majmui ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishni tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan [11].

Oiladagi nizolarning kelib chiqishi oqibatida ajralish muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning echimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, ajralish natijasida millionlab odamlar birinchi navbatda bolalar, ayollar, erkaklar va hatto yaqin qarindoshlar ham "ma'naviy zarar" oladilar. Insoniyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, odamlarning kundalik hayoti kundan-kunga urbanizatsiyalashgan bir vaqtning o'zida ilmiy-texnik taraqqiyotning doirasi kengayib borayotgan davrda, onalar kasalliklari, bolalar o'limi, zaiflik, nogiron bolalarning tug'ilish darajasi, salomatlikning yomonlashuvi va oilaviy hayotni saqlab qolishda kurashni talab etadi. Umuman olganda, bu masala kecha yoki bugun yuzaga kelgan muammo emas. Insoniyat tarixi, nikoh-oila munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq ko'hna muammolardan biridir.

Ann Katrin Patten tomonidan Kaliforniya davlat universitetida yozgan "Harbiy xizmatdagi ish va oilaviy mojarolar" nomli maqolasida (2012) ish va oila nizosi uchta asosiy shaklga bo'linishini ta'kidlab o'tgan, bular, vaqtga asoslangan mojarolar, zo'riqish va xatti-harakatlarga asoslanadi. Bola parvarishi bo'yicha majburiyatlar vaqtga asoslangan nizolarni keltirib chiqarishi mumkinligi aytib o'tilgan [12].

Shimoliy Osetiya davlat pedagogika instituti ijtimoiy psixologiya kafedrasida aspiranti L.A.Kulumbegovanning

“Harbiy oilalarni ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy shakllari” nomli maqolasida (2018) harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ijtimoiy muammolarining asosiy tendensiyalarini, harbiy xizmat va uning o‘ziga xos xususiyatlari, harbiy xizmatchining ijtimoiy holati, huquq va erkinliklari, harbiy oilalarning turmush tarzi kabi tushunchalar taxlil qilingan [13].

Harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini yopiq ijtimoiy muhitda yashash sharoitlariga moslashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, maktablarda harbiy xizmatchilarning bolalari bilan ijtimoiy-pedagogik va psixologik ish tajribasini tahlil qilish natijalari yoritib berilgan.

Bunga ko‘ra harbiy oilalarni ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u jamiyat va umuman davlatning ortib borayotgan talablarini hisobga olgan holda doimiy nazoratga olinadi. Harbiy oilalarni ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari qatorida maqolada quyidagilar ta’kidlangan:

barcha ijtimoiy tuzilmalar rahbarlarining sa'y-harakatlarini harbiy oilalarning shakllanishi va rivojlanishiga ko‘maklashishga qaratish;

garnizon sharoitida yashovchi harbiy oilalarning fikri, kayfiyati, talab va ehtiyojlari bilan tanishish;

oilalarga turli ijtimoiy, maishiy, tarbiyaviy va psixologik muammolarni hal qilishda manzilli yordam ko‘rsatish;

harbiy xizmatchi oila a'zolarining ijodiy qobiliyatlari va ehtiyojlarini rivojlantirishga ko‘maklashish, harbiy oilalarning kasbiy va ijtimoiy faolligini oshirish;

ularning bilim darajasini va axloqiy-estetik madaniyatini oshirish;

jismoniy, aqliy, huquqiy, iqtisodiy, oilaviy, mehnat tarbiyasini takomillashtirish.

Harbiy oilalarni ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashning sanab o‘tilgan yo‘nalishlarini hal qilish quyidagi tizimni tashkil etuvchi omillarga asoslanadi:

oilani ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning pedagogik yo‘nalishi;

oilalarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonini loyihalash;

ijobiy hissiy munosabat;

oila a'zolarini ijtimoiy faoliyatga jalb qilish.

Ma'lumki, sanab o‘tilgan omillarni hisobga olmasdan turib, harbiy oilalarning ijtimoiy muammolari to‘g‘risida ob’ektiv ma'lumot olish, ularning oilaviy ustuvorliklari va qadriyatlarini tushunish mumkin emas.

Oilani kichik ijtimoiy guruh sifatida belgilab, unga bo‘lgan ehtiyoj jamiyatning aholining jismoniy va ma'naviy ko‘payishiga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanadi [14].

**Xulosa va takliflar.** Harbiy xizmatchi oilasining ijtimoiy-pedagogik jihati ba’zi o‘ziga xos tendensiyalarni aks ettiradi: harbiy oilalarda ko‘pincha nikoh munosabatlarining mustahkamligi, yuqori moslashuvchan potensial, qiyinchiliklarni engish qobiliyati, beqaror hayot va shu bilan birga ko‘proq yoki kamroq turmush tarzini saqlab qolish bilan ajralib turadi.

Harbiy oilalarning turmush tarzi quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi:

vatanparvarlik yo‘nalishi, harbiy xizmatchi oilasining o‘z hayotini, taqdirini harbiy xizmat qo‘yadigan yuksak talablarga moslashtirishga doimiy tayyorligi;

iqlimiy, tabiiy, ijtimoiy, ekologik, mehnat, madaniy, ta’lim, bo‘sh vaqt, ta’lim sharoitlarining o‘zgarishiga olib keladigan, muhim psixologik, jismoniy, aqliy, bir navbatchilik joyidan ikkinchisiga o‘tishda doimiy moslashish zarurati;

ko‘pincha uy-joy etishmasligi, noqulay yashash sharoitlari, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini kasbi bo‘yicha ish bilan ta'minlash imkoniyati, bolalar bog‘chalarida joy etishmasligi, tibbiy yordamning pastligi va boshqalar bilan bog‘liq davriy psixologik noqulaylik, stress va nizolar;

harbiy xizmatchi va oila a'zolari o‘rtasida aloqaning yo‘qligi, qat’iy vaqt qoidalari, bu oila ichidagi munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi, oilaning umuman e’tiborga, bolalarni tarbiyalashga, oilaga g‘amxo‘rlik qilishga bo‘lgan ehtiyojidan norozi bo‘lishiga olib kelishi;

harbiy xizmatchi oilasining hamjihatligi xotining axloqiy-psixologik fazilatlarini darajasiga bog‘liqligi;

harbiy xizmatchi uchun xizmatning yuqori ahamiyati, chunki uning kasbiy faoliyati o‘ta qizg‘in bo‘lib, etarli darajada jangovar tayyorgarlikni saqlash uchun maksimal fidoyilikni talab qiladi, ba’zan esa o‘z hayotiga katta xavf tug‘diradi [15]. Muallif, harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatining oilaga ta’siri bilan bog‘liq vaziyatlarini yoritib berish bilan bir qatorda, o‘z argumentini asoslagan so‘nggi tadqiqotlar va nashrlarning tahlili, umumiy muammoning ilgari hal etilmagan qismlarini ochib berishga qaratgan.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-semi-voennosluzhashego-i-problema-obespecheniya-boegotovnosti-vooruzheniy-sil> .
2. W.G. Jr.Black, Harbiy sabablarga ko‘ra oilaning ajralishi: Stresni kamaytirishga aralashuv. 1993; 38(3):273–280).
3. R.E.Heyman, P.H.Neidig, AQSh armiyasi va fuqarolik vakillarining namunalarda turmush o‘rtoqlarning tajovuzkorligini tarqalish ko‘rsatkichlarini taqqoslash, 1999; 67:239–242.
4. [https://wiadlek.pl/wp-content/uploads/archive/2022/01/W\\_Lek\\_2022\\_01228.pdf](https://wiadlek.pl/wp-content/uploads/archive/2022/01/W_Lek_2022_01228.pdf).
5. I.I.Prykhodko, S.V.Bielai, A.M.Hrynzovskyi, A.M.Jelaho, S.O.Hodlevskiy, S.I.Kalashchenko, Harbiy xizmatchilarning ekstremal sharoitlarda moslashuvi va xavfsizligining tibbiy-psixologik jihatlari, Wiad Lek . 2020;73(4): 679.
6. <https://www.dissercat.com/content/spetsifika-proyavleniya-lichnostnykh-svoistv-detei-v-semyakh-professionalnykh-voennosluzhashch>.
7. Ma'lumotlar bazalari. Federal Davlat statistika xizmati. <http://www.gks.ru/wps/wcm/connect> 2016.
8. S.I.Golod Sosialno-demograficheskiy analiz sostoyaniya i evolyusii semi [Tekst] / S.I. Golod / Sbornik RFFI «Transformatsiya rossiyskoy semi v usloviyax globalizatsii: teoreticheskoe i eksperimentalnoe modelirovanie prosessov», 2008. - S. 1-24.
9. Sisenko, A.V. Suprujeskie konflikt [Tekst] / A.V. Sisenko - M.: Finansi i statistika, 2008. -342 s.
10. Zagornaya I.Yu. Sosialno-psixologicheskaya adaptatsiya semey voennoslujashix k usloviyam garnizonnoy jizni: Avtoreferat. M., 2007. - 21 s.
11. Zemlyanaya A.S., dissertatsiya, Sosialno-psixologicheskaya adaptatsiya semey voennoslujashix k usloviyam garnizonnoy jizni, 2010 - s 198.
12. <https://scholarworks.lib.csusb.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=5224&context=tetd-project>.
13. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-formy-sotsialno-pedagogicheskoy-psixologicheskoy-podderzhki-semey-voennosluzhaschih>.

- 
14. Kokoeva N.V. Rol semi v formirovanii lichnosti sovremennogo podrostka //Sovremennie obrazovatelnie texnologii» Sbornik statey i tezisov. Vipusk 10. Chast 2. Izd-vo: SOGPI. Vladikavkaz 2010. S. 3-8.
  15. Podolskaya T.A., Gusova A.D. Vliyanie semeynix otnosheniy na razvitie lichnosti rebenka//Baltiyskiy gumanitarniy jurnal. 2016. T. 5. № 3 (16). S. 158-160.



UDK: 621.377.6

*Uralboy MIRSANOV,*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti "Informatika" kafedrasini mudiri*  
*Zarina NARZULLAYEVA,*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti*  
*E-mail: zarinafarmonova050@gmail.com*

*Pedagogika fanlari nomzodi, professor A.Tilegenov taqrizi ostida*

## ARDUINO BOARDS AND THEIR COMPARATIVE ANALYSES

Annotation

This paper presents an analysis of scientific and methodological sources of scientists regarding the use of Arduino programming language and boards in the field of programming, robotics in improving the effectiveness of teaching subjects in the system of continued education and the formation of competencies of students, and recommends an open platform for writing programme code in Arduino. Also, this paper presents a comparative analysis of the use of Arduino boards i.e. Arduino Uno, Arduino Due, Arduino Mega, Arduino Nano. At the same time, this article provides analytical information about the types of Arduino boards, their working principles, software implementation and usage.

**Key words:** board, electronic platform, Arduino, interface, prototyping, software, I/O pin, memory, voltage, processor.

## ПЛАТЫ ARDUINO И ИХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье представлен анализ научно-методических источников ученых относительно использования языка программирования Arduino и плат в области программирования, робототехники в повышении эффективности преподавания предметов в системе непрерывного образования и формировании компетенций обучающихся, а также рекомендовано открытая платформа для написания программного кода в Arduino. Также в данной статье представлен сравнительный анализ использования плат Arduino, то есть Arduino Uno, Arduino Due, Arduino Mega, Arduino Nano. В то же время в данной статье представлена аналитическая информация о типах плат Arduino, принципах их работы, программной реализации и использовании.

**Ключевые слова:** плата, электронная платформа, Arduino, интерфейс, прототипирование, программное обеспечение, контакт ввода-вывода, память, напряжение, процессор.

## ARDUINO PLATALARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda hamda o'quvchi-talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishda, dasturlash, robototexnika sohasida Arduino dasturlash tili va platalaridan foydalanishga oid olimlarning ilmiy-metodik manbalari tahlili keltirilgan hamda Arduino muhitida dasturiy kod yozish uchun ochiq platforma tavsiya etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada Arduino platalari, ya'ni Arduino Uno, Arduino Due, Arduino Mega, Arduino Nanolarning qo'llanilishini qiyosiy tahlili keltirilgan. Shu bilan birga ushbu maqola Arduino platalarining turlari, ishlash tamoyillari, dasturiy ta'minotni amalga oshirish va ularning qo'llanilishiga oid tahliliy ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** plata, elektron platforma, Arduino, interfeys, prototiplash, dasturiy ta'minot, kirish-chiqish kontakti, xotira, kuchlanish, protsessor.

**Kirish.** Arduino dasturlash tili va platasi dasturiy ta'minot loyihalarida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu qurilmalar uchun dastur kodi yozish imkonini beradi. Ushbu ishda Arduino platasi bilan prototip yaratishni jadal tahlil qilish va taqqoslashga qaratilgan uslubiy adabiyotlar sharhi taqdim etilgan. Olingan natijalar Arduino yordamida prototiplarni yaratish uchun samarali texnologiyani tanlash bo'yicha tadqiqotlarda foydalanish mumkin [1]. Shuningdek, Arduino platasi prototip yaratish bo'yicha ko'rsatma olishni istagan foydalanuvchilar tomonidan foydalanish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Uzluksiz ta'lim tizimida fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda hamda o'quvchi-talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishda, dasturlash, robototexnika sohasida Arduino dasturlash tili va platalaridan foydalanishga oid izlanishlar Hari Kishan Kondaveeti [1], Nandeesh Kumar Kumaravelu [1], Sunny Dayal Vanambathina [1], Sudha Ellison Mathe [1], Suseela Vappangi [1], A.B.Evstifeev [3], B.Kitchenham [5], M.Pautasso [6], J.Sobota [7], R.PiSi [7], P.Balda [7],

M.Schlegel [7], M.Matijevic [8], V.Cvjetkovic [8], Alessandro D'Ausilio [9], Massimo Banzi, David Cuartielles, Hernando Barragan [10] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu olimlarning ishlarida kompyuter, dasturlash, elektronika bilan prototiplashni o'rgatish hamda foydalanishda zamonaviy o'quv vosita sifatida xizmat qilishini nazariy va amaliy jihatdan isbotlagan.

Mazkur olimlarning ishlarida Arduino dasturlash tili va ularning platalari haqida ayrim yondashuvlari ilgari surilgan bo'lsa-da, biroq o'quvchi-talabalarning Arduino platalariga oid mantiqiy, algoritmik fikrlashiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu bois ilgari surilgan tadqiqot bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda talabalarga Arduino muhitida dasturlashni o'rganishga mo'ljallangan axborot-ta'lim muhitlari yaratilgan bo'lib, bulardan keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Bunga misol sifatida <http://arduino.cc/> muhitini keltirish mumkin. Keltirilgan muhit foydalanish uchun qulay ochiq elektron plata bo'lib, u boshlang'ich to'plamlar va ochiq kodli dasturiy ta'minotni o'z

ichiga oladi hamda interaktiv elektron qurilmalarni tezda yaratish uchun mo'ljallangan [2]. U o'z rivojlanishini kichik loyihalarni tezkor amalga oshirish uchun platforma sifatida joylashtirgan tadqiqotchilar guruhi tomonidan yaratilgan. Ushbu yaratilgan dasturlash muhitlari o'quvchi-talabalarga Arduino dasturlash muhitida ishlash, ya'ni platalariga dasturiy kodlarni yozish imkoniyatlarini yaratadi va bu yordamida ular o'zlari uchun zaruriy dasturlarni qiynalmasdan yoza olishadi.



**1-rasm. Arduino turlari: (a) Arduino Uno, (b) Arduino Due, (c) Arduino Mega (d) Arduino Nano**

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida keltirilgan Arduino platalari VLSI sinov dastgohlarini ishlab chiqishda tezkor vosita bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa sensor-datchiklar uchun. Plataning asosiy afzalliklari -tezkor ishlov berish va oddiy interfeysga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Bugungi kunda, ochiq kodli dasturiy ta'minot va apparat qurilmalaridan tobora ko'proq foydalanuvchilar foydalanayotganligi sababli, Arduino platasida murakkab jarayonlarni amalga oshirish imkonini beradi. Chunki Arduino UNO, ehtimol, bozor va sanoatdagi eng mashhur Arduino platasidir. Hozirda 16 MHz chastotada ishlaydigan ATmega328 protsessor bilan jihozlangan Arduino Uno platasi keng qo'llaniladi. Bunda 32 KB dastur va 2 KB operativ xotira, 1 KB EEPROM uni eng ko'p imkoniyatga ega plataga aylantirmasa-da, lekin foydalanuvchilar uni shu parametrlarda afzal ko'rishadi va faqat 14 raqamli kirishga ega bo'lishi bilan bog'liq kamchiliklarga ko'z yumadi. Arduino UNO 6 ta analog kirish, 5V va 3.3V quvvat ta'minlagichlar sxemasiga ega bo'lib, u tezda ishlab chiqish platalari uchun sanoat standartiga aylanib bormoqda. Ushbu ulagich Arduino Unoni keng foydalanilayotgan ko'plab ishlab chiqish platalari bilan moslashtiradi. Keyinchalik tushuntiriladigan ekranlar Arduino platasining imkoniyatlari va funktsionalligini oshirish uchun ulagich orqali platalarga ulanadi. Har bir Arduino Uno quvvat ulagichi bilan birga qo'llaniladi. UNO ning 69 mm uzunlikdagi va 54 mm kengligidagi o'lchamlari uni ko'plab loyihalarga qulay mos keladigan kichik ishlab chiqarish platasiga aylantiradi. Bunda to'rtta vint uchun maxsus kiritish qismining mavjudligi dizaynerlar, havaskorlar va muhandislarga ularni ishonchli tarzda lozim bo'lgan joyga o'rnatish imkonini beradi.

Arduino Mega bilan bir qatorda Arduino platalarining barcha variantlari ichida eng katta plataga ega bo'lgan Arduino Due yagona platasi bo'lib, u ARM protsessor, AT91SAM3X8E Cortex-M3 tomonidan quvvatlanadi va boshqa platalarga qaraganda yuqori tezlikda foydalanish imkonini mavjud. U 84 MHz va 5 V da ishlaydigan Arduino UNO va Arduino Nano dan farqli o'laroq, Arduino Due 3,3 V bo'lgan pastroq kuchlanishda foydalanish imkonini beradi. Kuchlanish kichik bo'lishi mumkin, lekin u ortiqcha kuchlanishni kamaytiradi. Agar nazorat qilinmasa, odatda platalarga zarar yetkazadi. 512 KB ROM va 96 KB operativ xotira bilan Arduino Due boshqa platalarga nisbatan katta hajmdagi xotiraga ega. EEPROM yo'q bo'lsa-da Arduino muhim platasi ekanligi Arduino Due ni tanqid qilish uchun sabab bo'ladi. O'z navbatida, Arduino ning import qilingan versiyasida 54 ta raqamli kiritish-chiqarish kontaktlari, 12 ta puls kengligi modulyatsiyasi kanallari, 12 ta analog kirishlar va 2 ta analog chiqishlar mavjud. Shuningdek, u Due ning ko'plab raqamli kirish/chiqish portlariga ulanish uchun muhim

Quyida biz hozirda mavjud bo'lgan Arduino platalari uchun turli xil variantlarni ko'rib chiqamiz. Ularni qiyosiy tahlil qilib, tuzilish strukturasi imkoniyatlari bilan tanishamiz. Bizning tadqiqot olib boradigan mavzuumizga asos bo'lgan bir nechta nashrlardan bir qator platalar aniqlandi [7, 8, 9]. Hozirgi kunda Arduino platalarining bir nechta variantlari mavjud bo'lib, ularning ba'zi birlari muhandislar va havaskorlar tomonidan foydalanib kelinmoqda (1-rasm).

bo'lgan ko'p sonli ulanish nuqtalariga ega. Xususan, u ko'pchilik Arduino platalariga mos keladigan ulanish nuqtalariga ega. Biroq, dasturiy ta'minotning Due bilan mosligi har doim ham aniq emas [3, 4].

Arduino Mega ni ko'p jihatdan Arduino Due bilan u bir xil o'lchamda va 54 kirish/chiqish nuqtasiga ega bo'lgani uchun solishtirish mumkin. Ammo Arduino Due dan farqli o'laroq, Arduino Mega ARM protsessori bilan emas, balki ATmega2560 bilan jihozlangan. Protsessorning soat chastotasi 16 MGts. U 256 KB ROM, 8 KB RAM, 4 KB EEPROMdan nisbatan oddiy xotira hajmiga ega. U 5V kuchlanishda ishlaydi va ulardan foydalanish qulaylik yaratadi. Arduino Mega 16 ta analog kirish, 15 ta puls kengligi modulyatsiyasi kanali va Due bilan bir xil ulagich nuqtasiga ega. Uning apparati Arduino platalari bilan mos keladi, lekin ba'zida dasturiy ta'minot bilan mos kelmaydi [10].

Bir qarashda Arduino Nano Arduino Uno bir xil ko'rinishga egadek ko'rinishi mumkin. Buning sababi, Arduino Nano juda kichik profilga qisqartirilgan Arduino UNO dir. Ammo katta afzallik uning kichik o'lchamidir. Kichik o'lchamlari tufayli Arduino Nano ba'zi sabablarga ko'ra vaznni kamaytirishi kerak bo'lgan loyihalar uchun juda mos keladi. Shuningdek, Arduino Nano cheklangan joylarda xavfsiz saqlashda qulaylik beradi. Arduino Nano ning oldingi versiyalarida ATmega168 ishlatilgan, bu Arduino Uno ning ATmega328 ning yarmi deb aytish mumkin. Joriy versiyalar to'liq ATmega328 protsessoriga qaytdi va Arduino Uno bilan bir xil 16 MHz chastotada ishlaydi. Arduino UNO singari, Arduino Nano ham 32 KB dastur xotirasi, 1 KB EEPROM, 2 KB RAM, shuningdek, 14 raqamli kiritish-chiqarish va 6 analog kirish, shuningdek, 5V va 3,3V quvvat relslariga ega [11].

Ammo UNO dan farqli o'laroq, Nano saqlagichlari sarlavhalariga ega bo'lishiga qaramay, Arduino shitalariga ulana olmaydi. U ulagich yordamida platalar va PCBlar uchun ulagichlarini ishlatadi. Arduino Nano platalari bozordagi eng arzon Arduino variantidir. Bu ularni yirik loyihalar uchun tejamkor qiladi.

Arduino platalari turlarining qiyosiy tahlili quyidagicha Arduino Nano-ning o'lchamlari barcha variantlardan eng kichigi bo'lib, Nano-ni juda portativ qurilmaga aylantiradi. UNO o'rta o'lchamli rivojlanish kengashidir, lekin u hali ham ko'plab loyihalarda, jumladan, RC avtomobillari kabi masofadan boshqarish vositalarida foydalanish uchun yetarlicha samara bermaydi. Mega va Due ancha katta platalardir. Shuning uchun ularni bo'sh joy cheklangan ilovalarda ishlatish murakkab hisoblanadi. Shu bois, yuqori qayta ishlash quvvatini talab qiladigan loyihalar uchun kuchli ARM yadrosi va ulkan RAM/ROM xotirasiga ega Due dan foydalanish afzalroqdir. Mega juda ko'p GPIO (General-



Purpose Input/Output – umumiy maqsadli kirish/chiqish)larga ega bo'lgan katta Arduino platasi bo'lsa-da, protsessor tezligi UNO va Nano bilan bir xil bo'lib qoladi.

Shunday qilib, Arduino Mega hech qanday tezlikni ta'minlamaydi, lekin UNO va Nano bir xil Atmega328 protsessoridan foydalanadi. Bu apparat va tashqi qurilmalar nuqtai nazaridan UNO va Nano bir xil ekanligini anglatadi. Agar loyiha juda ko'p GPIOlarni talab qilsa, Due va Mega eng yaxshi variant sifatida amaliyotga tadbir qilinadi.

Android Due 12 va 2 ta analog kirish-chiqishga ega bo'lgan turli xil sxema dizaynlarni prototiplash va ishlab

chiqishda yetakchi hisoblanadi. Bu platalardan boshqa versiyalardan ham foydalanish mumkin, ammo ular nisbatan unchalik samarali emas (1-jadval). Quyida biz turli Arduino platalarini taqqoslaymiz. Ba'zi asosiy omillar:

1. Jismoniy o'lchamlar;
2. Protsessor va protsessor quvvati;
3. I/U imkoniyatlari;
4. Voltaj;
5. Xotira hajmi.

### 1-jadval.

**Arduino platalari va ilovalarining qisqacha tavsifi**

Nomi	O'lchamlari (mm)	Markaziy protsessor	Kirish/Chiqish	Volt	Xotira
Arduino UNO	69x54	16 MGts Atmega328	14	5 V	32KB+1KB EEPROM+ 2 KB operativ xotira
Arduino Muddati	101,52x53,3	84 MGts AT91SAM3X8E	54	3.3 V	512 KB ROM+96 KB operativ xotira
Arduino Mega	101,52x53,3	16 MGts Atmega2560	54	5 V	256 KB ROM + 8 KB RAM + 4 KB EEPROM
Arduino Nano	18x45	16 MGts Atmega328	14	5 V	32KB+1KB EEPROM+ 2 KB operativ xotira

Uskuna aloqasi sifatida Arduinodan apparat aloqa tizimlarini prototiplash uchun foydalanish mumkin. Uskuna aloqasi telefon texnologiyasi, tarmoq interfeysi kartalari, Wi-Fi texnologiyalari va qurilmaga kirish nuqtalari yordamida manba qurilmadan maqsadli qurilmaga raqamli yoki analog signallar ko'rinishida ma'lumotlarni uzatuvchi qurilmalar bilan bog'liq. Sun'iy yo'ldoshlardagi aloqa vositalari bizning dunyomizni yaxshiroq tushunish va aloqaning o'ziga yordam berish uchun foydali ma'lumotlarni taqdim etishi isbotlangan. Aloqa apparat qurilmalari har doim kuchli talabga ega, chunki ular ko'plab maqsadlarga erishishlari mumkin va bunday qurilmalarni prototiplash platformalari muhandislik hamjamiyatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib talabalarning Arduino muhitida ishlashga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ

fikrlashini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki Arduino muhiti qurilmalarni masofadan boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bo'lajak axborot texnologiyalari mutaxassislariga Arduino dasturlash tilini o'rgatishga alohida e'tibor qaratish lozim. Kelajakda Arduino platasi va dasturiy ta'minotidan foydalanishga ehtiyoj ortib boradi. Arduino platalari, dasturiy muhiti yordamida ko'proq ilovalar prototipi yaratiladi va unga oid ko'plab adabiyotlar nashr etiladi. Kelajakda muhandislik loyihalarini prototiplash uchun Arduinodan foydalanish bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin va agar uni yaxshilash uchun ko'plab yangiliklar kiritilishi mumkin bo'lsa, prototiplash uchun Arduino har doim afzalliklarga ega bo'ladi.

### ADABIYOTLAR

1. Hari Kishan Kondaveeti, Nandeesh Kumar Kumaravelu, Sunny Dayal Vanambathina, Sudha Ellison Mathe, Suseela Vappangi, A systematic literature review on prototyping with Arduino: Applications, challenges, advantages, and limitations //Computer Science Review 40 (2021) 100364.-p.1-2
2. Arduino [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://arduino.cc/>, свободный.
3. Евстифеев А.В. Микроконтроллеры AVR семейства Classic фирмы Atmel. 3-е изд., стер. М.: Издательский дом «Додэка-XXI», 2006. -288 с.
4. Atmel corporation [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.atmel.com/products/microcontrollers/avr/default.aspx>, свободный.
5. B. Kitchenham, Procedures for Performing Systematic Reviews, Vol 33., Technical Report TR/SE-0401, Keele University, Keele, (ISSN: 1353-7776) 2004. pp. 1–26.
6. M. Pautasso, Ten simple rules for writing a literature review, PloS Comput. Biol. 9 (7) (2013) e1003149, <http://dx.doi.org/10.1371/journal.pcbi.1003149>.
7. J. Sobota, R. PiSi, P. Balda, M. Schlegel, Raspberry Pi and Arduino boards in control education, IFAC Proc. Vol. 46 (17) (2013). -p.7–12.
8. M. Matijevic, V. Cvjetkovic, Overview of Architectures with Arduino boards as building block for Data Acquisition and Control Systems, in: 2016 13 International Conference on Remote Engineering and Virtual Instrumentation (REV), 2016, pp. 56-63.
9. Alessandro D'Ausilio, Arduino: A low-cost multipurpose lab equipment, Behav. Res. Methods 44 (2012) 305–313, 10.3758/s13428-011-0163-z. [12] What Is Arduino? Available online: <https://www.arduino.cc/en/Guide/>
10. J. Sobota, R. PiSi, P. Balda, M. Schlegel, Raspberry Pi and Arduino boards in control education, IFAC Proc. Vol. 46 (17) (2013). 7–12 p.
11. M. Matijevic, V. Cvjetkovic, Overview of Architectures with Arduino boards as building block for Data Acquisition and Control Systems, in: 2016 13 International Conference on Remote Engineering and Virtual Instrumentation (REV), 2016. - pp. 56-63.



UDK:159.9

**Kamola NAJIMOVA,**  
O'zJOKU «Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: kamola29@gmail.com

O'zJOKU dotsenti, Psixologiya fanlar nomzodi N.Sog'inov taqrizi asosida

### O'ZBEKISTONDAGI HR TIZIMIDA PSIXOLOGIK HIZMATNING AXAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada Og'zbekistonda HR tizimida psixologik xizmat ko'rsatishning zarurliligi va muhimligi, uning muammolari, ishchi xodimlarning ish faoliyatini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish, konfliktlarga e'tibor qaratish va ishchilarni ish joyidagi zo'riqlashlarini oldini olishga yordam berish, stress va nohushlikni kamaytirish hamda xodimlar orasidagi muammolarni hal qilish, samarali muloqotni yolg'a quyish, o'z-o'zini rivojlantirish va ustida ishlashi, motivatsiya va ish faoliyat muammolarini bartaraf qilishda ko'mak beradi.

**Kalit so'zlar:** HR tizim, psixologik xizmat, ishdagi stress va zo'riqlash, motivatsiya, HR strategiya, ish jarayonidagi muvofiqlashish, konfidentsiallik, o'zoro ishonch, ish samaradorligi, treninglar, psixologik konsultatsiya.

### ВЛИЯНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В HRM В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается необходимость и важность психологической службы в HR системе в Узбекистане, а также важная роль, которую оно играет в решении проблем, повышении производительности сотрудников, усилении мотивации, разрешении конфликтов и поддержании работников, уже находящихся на рабочем месте. Это способствует снижению стресса и недовольства среди сотрудников, решению проблем коммуникации, процессам интеграции, саморазвитию и развитию, мотивации и решению проблем деятельности, а также важно для привлечения необходимых кадров в процессе работы.

**Ключевые слова:** HR система, психологическая служба, стресс и недовольство на работе, мотивация, HR стратегия, согласование в рабочем процессе, конфиденциальность, доверительные отношения, производительность труда.

### INFLUENCE AND EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN HRM IN UZBEKISTAN

Annotation

This article discusses the need and importance of psychological services in the HR system in Uzbekistan, as well as the important role it plays in solving problems, increasing employee productivity, enhancing motivation, resolving conflicts and supporting employees already in the workplace. This helps reduce stress and dissatisfaction among employees, solve communication problems, integration processes, self-development and self-actualization, motivation and adaptation problems, and is also important for attracting the necessary personnel in the work process.

**Key words:** HR system, psychological service, stress and dissatisfaction at work, motivation, adaptation, HR strategy, coordination in the work process, confidentiality, trust each other relationships, labor productivity, trainings and psychology consulting.

**Kirish.** O'zbekistonda HR tizimida psixologik xizmatning zarurati va muhimligi va bu muammolarni hal qilish, ishchilar yaxshi ishlashida, motivatsiyani kuchaytirishda, konfliktlarni yechish va ishga joylashgan kishilarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Uzi Hr tizimi va psixologiya ish jarayonida chambarchas bog'liqligi aniqdir, albatta HR tizim ham nafaqat iqtisod tizimi balki psixologik qonuniyatlarni ham o'z ichiga olgan xolda rivojlanadi. Bu xolat o'z o'rnida ishchilardagi stres va zuriqlashni kamaytirish, kommunikatsiya muammolari, integratsiya jarayonlari, o'zlashtirish va rivojlantirish, motivatsiya berish va ish faoliyati muammolarini hal qilish va ish jarayonidagi kerakli kadrlar ketishini oldini olishda juda ham ahamiyatlidir.

Quyidagi muommolar HR tizimida psixologik xizmatning o'z ahamiyatini qanchalik muximligi va hozirgi kunda aktualligini ko'rsatadi:

1. Stres va zuriqlash: Ish joylarida stres va zuruqlash xolati ish odatda ko'p bo'ladigan jarayonlarda kuzatiladi. Berilgan vazifani haddan tashqari murakkabligi va ishchida shu vazifaga adaptatsiya qildirilmagan xolat mavjudligi ham muommolarni ko'paytiradi. Psixologik xizmatlar stressni kamaytirish, ishchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning ish

bilan bog'liqlikda yordam berish orqali bu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

2. Kommunikatsiya muammolari: Ish joylarida kommunikatsiya muammolari odatda ko'p bo'ladi. Psixologik xizmatlar ishchilarga kommunikatsiya ko'nikmalarini o'rgatish, konfliktlarni yechish va ishga joylashgan kishilarning o'zaro munosabatlari bo'yicha yordam berish orqali bu muammolarni hal qilishda yordam beradi.

3. Ishga joylashish va integratsiya: Yangi ishchilar uchun ishga joylashish va integratsiya jarayonlari muhimdir. Psixologik xizmatlar yangi ishchilarga integratsiya jarayonida yordam beradi, ularni kollektivga tezroq kirib keltirish va o'zlashtirishda yordam beradi.

4. O'z ustilarida ishlashi va rivojlantirishi: Ishchilar o'zlarini rivojlantirish va ko'p narsalarni o'rganishni istaydilar. Psixologik xizmatlar bu jarayonlarda ishchini qaerga va qanday yunaltirishni va u hozirgi ish jarayonida anyni qay bir darajada turganini aniqlashga va unga ish buyicha rivojlanishiga yordam beradi, ularning shaxsiy rivojlanishlarini ta'minlash va motivatsiyalarni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

5. Ish faoliyati va motivatsiya: Ishchilarning motivatsiyasi va ish faoliyati HR tizimining muhim

komponentlari hisoblanadi. Psixologik xizmatlar ishchilarga motivatsiyani oshirish, ularni ish bilan bog'liqlikda qo'llab-quvvatlash va ularning ish faoliyatini oshirishda yordam beradi. Bu erda ayni kelajakdagi perspektivaga qarab ham ishchini yunaltira bilish kerak bo'ladi. Psixologik xizmat bu erda nafaqat ishchini uzi bilan balki ish beruvchi bilan ham ishlashi muximdir.

Psixologik xizmatlar HR tizimida ishchilarning yaxshi his qilishini, motivatsiyalarini oshirishni va ish joylarida tinchlik va samarali ishlashlarini ta'minlashda uchun juda muximdir.

Psixologik xizmatning HR tizimida muvofiq amal oshirish uchun quyidagi asosiy talablarga e'tibor berish kerak:

1. **Konfidensiallik:** Psixologik xizmatning HR tizimida ishchi qonuniyatiga muvofiq amal qilishda konfidensiallik katta ahamiyatga ega. Psixologlar va HR mutaxassislar ishchi ma'lumotlarini himoya qilish va ularning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiylikka rioya etish zarur. Bu erda psixologik xizmatni ayni mohiyatiga qaraladigan bulsa – uzi psixologik xizmatning asosiy printsiplari bu konfidensiallikdir. Shuning uchun psixologik xizmatdan foydalangan xar bir xodim sirlarini konfidencialligini saqlanishi haqida hech bir mubolog'asi bo'lishi kerak emas. Konfidenciallik saqlanishini aniq bilgan shaxsgina uzini sirlarini bemalol ocha oladi, va korxonaga ham xodimlari uchun samarali psixologik xizmat ko'rsata oladi.

2. **Ishchi tomonidan ruxsat olish:** Psixologik xizmatning HR tizimida ishchi qonuniyatiga muvofiq amal qilish uchun ishchining ruxsatini olish muximdir. Psixologik yordam olish uchun ishchining ixtiyoriy ruxsati talab etiladi va ularning ma'lumotlari sir saqlanadi. Agar ishchi xodim hohlamas ekan psixologik xizmatdan foydalanishni, va bunga uzining sabablari bo'lishini aytsa, bu xolatda ishchining tanlovi qabul qilinishi va xurmat qilinishi kerak bo'ladi. Psixologik xizmat majburiy kiritiladigan bo'lsa bu o'z navbatida korxonaga faoliyatiga samarali emas balki aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. **Ishchilar bilan ishonchli munosabatlar:** Psixologik xizmatning HR tizimida ishchi xodimlar bilan ishonchli munosabatlar o'rniga qo'yilishi juda xam muximdir. Psixologlar ishchilar bilan ochiq va ishonchli munosabatlarni o'rganish, ularni o'z muommolarini anglashga xarakatini tushunish va ularni o'zlarini rivojlantirishda yordam berishadi.

4. **Profesionalizm:** Psixologik xizmatning HR tizimida ishchi qonuniyatiga muvofiq amal qilishda profesionalizm katta ahamiyatga ega. Psixologlar va HR mutaxassislar ishchilarga yordam berishda professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Bunda psixolog mutaxassisning olingan sertifikat va diplomlari, kunikma va professional erishgan yutuqlarga axamiyat berish muximdir.

5. **Ishchi qonuniyatiga rioya:** Psixologlar va HR mutaxassislar ishchilar bilan qonun va huquqiy talablarga rioya etish, ularni ma'lumotlarni himoya qilish va ularning huquqlarini himoya qilishda xavfsizlikni ta'minlashlari lozim.

Psixologik xizmatning HR tizimida ishchi motivatsiyasiga ta'siri katta. Psixologlar va HR mutaxassislar ishchilarni tushunish, ularning maqsadlarini va vazifalarini muvofiqlashuvini ta'minlash, kreativ muhit yaratish va psixologik yordam orqali ishchilarning motivatsiyasini oshirishda katta rol o'ynaydilar. Bu faktorlar birgalikda ishchi qoniqarli va qiziqarli his qiladi, ularga ilg'or maqsadlar qo'ymoqda va ularni rivojlantirishga imkon beradi.

Adaptatsiya jarayonidagi psixologik xizmatning muxim jixatlari. Psixologik xizmatlar HR tizimida ishchi adaptatsiyasiga ham muxim ta'sir ko'rsatadi. Ishchilar yangi ishga kirishlari, yangi kollektivga qo'shilishlari va yangi vazifalarni o'rganishlari jarayonida psixologik yordamga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Quyidagi faktorlar psixologik

xizmatning ishchi adaptatsiyasiga ta'sirini ko'rsatishda muximdir:

1. **Ishchilarni qabul qilish jarayoni:** Psixologlar va HR mutaxassislar yangi ishchilarni qabul qilish jarayonida ularni tushunish, ularning maqsadlarini va talablarni aniqlash uchun yordam beradi. Bunday ochiq va ishonchli munosabatlar yangi ishchilar uchun integratsiya jarayonini osonlashtiradi.

2. **O'zlashtirish va rivojlantirish:** Psixologik xizmatlar yangi ishchilarga o'zlarini rivojlantirish va yangi vazifalarni o'rganishda yordam beradi. Bunday yordam o'zlashtirishni oshiradi va yangi ishchilarni ishga tayyorlashda muxim rol o'ynaydi.

3. **Yaratuvchi muhit:** Psixologik xizmatlar yaratuvchi muhit yaratishda muxim rol o'ynaydi. Yangi ishchilar faol, ilg'or va qiziqarli muhitda ishlashlari, ularning integratsiya jarayonini osonlashtiradi va ularga motivatsiyasi bilan ishlash xam oson bo'ladi.

4. **Psixologik yordam:** Psixologik xizmatlar yangi ishchilarga psixologik yordam berish orqali ularning stresni kamaytirish, adaptatsiyasini oshirish va muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu psixologik yordam yangi ishchilar uchun integratsiya jarayonini osonlashtiruvchi va ularni qo'llab-quvvatlovchi bo'ladi.

В данной статье говорится об историко-ретроспективной основе возникновения информационных коммуникаций в условиях модернизации органов государственной власти. Также в статье говорится о появлении современных средств массовой информации, передовых достижениях науки и развитии технологий.

**Ключевые слова:** информационное общество, техническое развитие, информационные ресурсы, социальная информатика, технические средства, компьютерные технологии.

## DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINI MODERNIZATSIYALASHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYALARI VUJUDGA KELISHINING TARIXIY-RETROSPEKTIV ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat hokimiyati organlarini modernizatsiyalashda axborot kommunikatsiyalari vujudga kelishining tarixiy-retrospektiv asoslari haqida so'z yuritiladi. Maqolada shuningdek, zamonaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi, fan-texnika taraqqiyotining ilg'or yutuqlari haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** axborotlashgan jamiyat, texnik taraqqiyot, axborot resurslari, ijtimoiy informatika, texnik vositalar, hisoblash texnikasi.

**Kirish.** Demokratik jamiyat qurish - fuqarolarning, siyosiy va ijtimoiy huquqlarini jamiyatning vujudiga singdirishni, ishga ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlashni, ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatishi uchun so'z erkinligi va fikrlar rang-barangligini shakllantirishni, siyosiy partiyalarga mustaqillik berish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni, asosiy institutlar: cherkov, universitetlar va san'at sohasida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishni, soliq sohasini oqilona tartibga solishni, har xil jamg'armalar va boshqa xayriya muassasalari ta'sis etishga imkoniyat yaratishni nazarda tutadi. Umumlashtirib aytganda, "Demokratiyaning rivojlanishi axborotlashtirish uchun qulay ijtimoiy sharoit yaratadi. Zotan, jamiyatni demokratlashtirmasdan axborotlashtirishni amalga oshirish mumkin emas"[1]. Ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni bilish axborot vositalari yordamida rivojlanish deb tushuniladigan jamiyatni axborotlashtirish ijtimoiy intellektuallashuv jarayonlari, shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish bilan mushtarak bo'lishi lozim.

Shu tariqa demokratiya bilan axborotlashtirish o'zaro munosabatining boshqa tomoni asta-sekin namoyon bo'ladi: axborotlashtirish, ma'lum ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgani holda, o'z navbatida, mazkur shart-sharoitlarga, shu jumladan demokratlashtirish jarayonlariga ham teskari ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir asosan demokratiya ideallari va qadriyatlarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Demokratiya siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lsa, siyosat - kommunikatsiya shaklidir, chunki

hokimiyatni egallashni mo'ljallagan siyosiy tashkilotsiz siyosatning bo'lishi mumkin emas. Hokimiyatni egallaganlar kommunikatsiyalarni o'z manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiq tarzda shakllantiradilar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Buguni kunda jamiyatning axborot resurslari strategik ahamiyat kasb etib bormoqda. Bilim resurslarini import qilish va tiklanmaydigan xom ashyo resurslarini eksport qilish bilan bog'liq masalalar, ilmiy kadrlarning qo'nimsizligi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Informatika axborot jarayonlarini avtomatlashtirish metodlarini hisoblash va aloqa vositalari yordamida o'rganuvchi texnik fan degan qarash ortga chekinmoqda. Hozirda nafaqat nazariy, texnik va amaliy, balki ijtimoiy informatika ham farqlanadi. "Ijtimoiy informatika jamiyatni axborotlashtirish jarayonlarini, uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi"[2]. Ijtimoiy informatika axborotlashgan jamiyatni shakllantirishning ilmiy negizidir. U ilmiy tadqiqotlarning to'rt asosiy yo'nalishini: "jamiyatning axborot resurslarini hamda jamiyatning ularga bo'lgan ehtiyojini o'rganish; jamiyatning axborotlashuv salohiyatini tadqiq qilish; axborotlashgan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish; axborot jamiyatidagi yangi imkoniyatlarni va shaxs muammolarini tadqiq qilishni o'z ichiga oladi".

Inson faoliyati unga nisbatan tashqi uch omil - modda, energiya va axborotga asoslanadi. "Texnik taraqqiyotda uch asosiy unsur: bilim, energiya va material ishtirok etadi. Kishilik jamiyati tabiat ustidan qay darajada hukmronlik qilishi mana shu uch unsurga bog'liq. Ular orasida bilim

asosiy unsur ekanligi shubhasiz; bilimsiz qolgan ikki unsur befoydadir" [3]- deb qayd etadi J. Tomson. Texnik taraqqiyotda axborot shaklidagi bilimni uzatish va qabul qilish texnik vositalari doim muhim rol o'ynaganligi bejiz emas.

Jamiyat, uning madaniyati, texnik va ilmiy taraqqiyotning rivojlanishiga qarab axborot vositalari ham o'zgarib boradi. Odatda til, yozuv, matbaachilik va zamonaviy texnologiyalarning kashf etilishi bilan bog'liq axborot inqiloblari qayd etiladi. Bunday inqiloblar sifat jihatidan har xil jamiyatlar paydo bo'lishiga olib kelgan. To'g'ri, bu fikrdan ijtimoiy rivojlanishning boshqa sabablarini inkor etuvchi texnokratik determinizm ruhi mavjud. Ammo, axborotning yo'qligi kishilik jamiyatining rivojlanishini ma'lum darajada cheklashi shubhasiz. Shu bois D.S. Robertsonning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin: "Yangi sivilizatsiyaga o'tilishiga olib kelgan har bir axborot portlashi odamlarning turmush tarzi, madaniyatini tubdan o'zgartirgan. Yangi darajadagi sivilizatsiyaga o'tishga olib keluvchi hozirgi axborot portlashi oldingi barcha portlashlardan kuchli va salmoqliroqdir"[4].

Ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida odamlar axborot uzatish tabiiy vositalaridan, ya'ni toshlar, chirmovuqlardan yasalgan tugunlar, gulxanlar, ovozlar va imo-ishoralardan foydalanganlar. Jamiyat rivojlanishining keyingi bosqichida axborot texnologiyasi sun'iy tashqi xotira - yozuvning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yozuv insonning biologik evolyusiyadan ijtimoiy evolyusiyaga o'tishida katta rol o'ynagan, uning borliqni bilishdek ijtimoiy xususiyati ancha oshirgan. Axborot texnikasining rivojlanishidagi keyingi bosqich axborot uzatishning texnik vositalari (telefon, telegraf, radio)ning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ammo, insonning psixofiziologik imkoniyatlari asta-sekin boshqariladigan jarayonlarning murakkabligi bilan to'qnashdi va bu mutlaqo yangi axborot vositasi - kompyuterlar paydo bo'lishiga olib keldi.

Kompyuterlar paydo bo'lishi bilan axborot vositalarining rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Inson texnik vositalar yordamida o'z organizmining psixofiziologik cheklanganini yengishga harakat qilib, axborot texnikasiga aqliy mehnat, axborotga ishlov berish va hatto ayrim mavhum fikrlash funksiyalarini yuklamogda.

Zamonaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi fan-texnika taraqqiyotining ilg'or yutuqlari - elektron sanoat, aloqa vositalari, audiovizual texnikaga asoslanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** 1937 yilda amerikalik fizik J. Atanasovda dissertatsiya ustida ishlash jarayonida hisoblash amallarini avtomatlashtirish g'oyasi tug'ildi va u o'z aspiranti K. Berri bilan hamkorlikda kompyuter modelini yaratdi. Bu modelni ular 1942 yilgacha takomillashtirdilar. Ayni shu vaqtda bu yo'nalishda, AQSHda A. Feliks va Rossiyada S. A. Lebedev ham ish olib bordi. Sal keyinroq elektron lampalarda ishlaydigan kompyuterlar - AQSHda ENIAC va Angliyada KOLOS kompyuterlari yaratildi. 1946 yilda J. Fon Neyman kompyuterlar yasashga oid bir qancha yangi g'oyalarni taklif qildi.[5] Mana shu g'oyalar negizida hozirgacha mavjud kompyuterlar "arxitekturasi" yaratildi. 1949 yilda Buyuk Britaniyada konstruktor M. Uilks J. Fon Neyman g'oyalari EDAC mashinasida texnik jihatdan gavalantirib, saqlanadigan

dasturli birinchi kompyuterni yaratdi. Sal keyinroq, 1951 yilda Rossiyada MEVM kompyuteri yaratildi. Saqlanadigan dasturli lampali kompyuterlarni seriyali ishlab chiqarishga o'tilishi bilan, birinchi avlod kompyuterlari davri boshlandi. Lampali diodlarning yarim o'tkazgichli diodlar, lampali triodlarning tranzistorli triodlar bilan almashtirilishi, ferritli o'zaklarda tezkor xotirani va magnitli disklarda uzoq muddatli xotiraning yaratilishi, algoritmik tillarning paydo bo'lishi ikkinchi avlod kompyuterlariga xos. Uchinchi davrning boshlanishi integral sxemalardagi IBM-360 kompyuterlarining ishlab chiqilishi bilan bog'liq. Keyinchalik

mos keladigan periferiyali qurilmali kompyuterlar, kichik integral sxemalardagi minikompyuterlar yaratildi.

Hozir katta integral sxemalardagi to'rtinchi avlod kompyuterlaridan foydalanilmoqda. 80-yillar "arxitektura" asosida quriladi: Fon Neyman strukturasi o'zak shaklida saqlanadi, uning atrofida yangi bloklar joylashtiriladi. Mazkur bloklar, xususan, foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasida tabiiy tilga yaqin tilda aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Ma'lum fan sohasiga oid bilimlar bazasi strukturada muhim o'rin egallaydi. "Sun'iy intellekt g'oyasi negizida ishlab chiqilgan modellar va vositalardan keng foydalaniladi. Ammo, sun'iy intellekt tizimini ishlab chiqish beshinchi avlod kompyuterlari vazifasidir".[6]

Beshinchi avlod kompyuterlari ustida ish 1978 yilda Yaponiyada, amalda esa, 1982 yildan boshlandi. Bu ish 10 yilga mo'ljallangan edi. Tegishli loyiha ishlab chiqildi. Loyihaning maqsadi - kompyuter tizimlari yordamida keyingi o'n yillikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jamiyatning muhim ehtiyojlarini qondirish, chunonchi, mehnat unumdorligini oshirish, xalqaro hamkorlikda Yaponiyaning yanada kengroq ishtirok etishini ta'minlash, energiya va foydali qazilmalarga bo'lgan talabni qondirish, yoshlarning ma'lumot darajasini oshirish va hokazo. Loyiha mashinada tarjima qilish, inson-kompyuter dialogi, mantiqiy dasturlashtirish, mashinada loyihalashni ham o'z ichiga oldi. Inson uchun eng tabiiy interfeysni yaratish, mashina bilan tabiiy tilda aloqa qilishga erishish bosh vazifa qilib qo'yildi.

1982 yilda ishlab chiqilgan loyihani amalga oshirish uchun Yaponiyaning 8 firmasi Tokioda yangi avlod kompyuterlari institutini tashkil qildi. Ishga "fan samuraylari" - faol va ijodiy fikrlaydigan yosh olimlar jalb etildi. Ular hukumat organlari ko'magida kompyuter va ekspert tizimlarini texnik va dasturiy ta'minlash vositalarini yaratish ustida ish boshladilar. Superjamg'argichlar, ekspert tizimlari, bilim banklari va 16 megabaytli chip yaratildi. Afsuski, mazkur dasturning ko'pgina bandlarini amalga oshirishda olimlar katta qiyinchiliklarga duch keldilar va ular bajarilmay qoldi. Ammo, loyiha ustida ishlash jarayonida intellektual kompyuter yaratish imkoniyati sinovdan o'tkazildi. 1991 yilda Yaponiyada "Axborotga ishlov berish yangi texnologiyasi" yangi o'n yillik dasturining turli jihatlarini muhokama qilindi[7]. Bu dastur oltinchi avlod kompyuterlari loyihasi deb baholandi.

Yaponiyada amalga oshirilgan yangi avlod kompyuterlari yaratish bo'yicha milliy loyihalar boshqa mamlakatlarda ham shunday ishlar amalga oshirilishiga turtki berdi. Chunonchi, 1984 yilda AQSHda 10 yilga mo'ljallangan "Strategik kompyuter tashabbusi" dasturi qabul qilindi. 2001 yilgacha superkompyuter imkoniyatlariga ega bo'lgan intellektual kompyuter yaratilishi haqida e'lon qilindi. Fransiyada 1983 yildan beshinchi avlod kompyuterlari yaratishning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha olti loyiha ustida ish boshlandi. Shunga o'xshash dasturlarni Germaniya va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati ham ishlab chiqdi. 1985 yildan Rossiyada ham Fanlar akademiyalari hamkorligi doirasida 11 loyiha ustida ish boshlandi, lekin 1987 yilda ular to'xtatildi va kompyuter ishlab chiqarish hajmlari Rossiyada AQSHdagi darajaning 1% gacha kamaydi.[8] Hozirgi kunda kompyuter sanoatida, ilg'or texnologiyalarning boshqa turlarida bo'lgani singari, jahonda, ayniqsa, AQSH va Yaponiya o'rtasida keskin raqobat ketmoqda. Dasturiy ta'minlash vositalari ishlab chiqish yirik tarmoqqa, dasturchi kasbi - ommaviy kasbga aylandi. Chunonchi, "AQSHda hozir dasturlashtirish sanoati yiliga 30% ga o'smoqda. Jahon dasturiy mahsullar ishlab chiqarish sanoatining 70% ga yaqini AQSH ga tegishli ekani bejiz emas. Dasturiy xizmatlar ko'rsatuvchi firmalarning umumiy miqdori AQSHda 4000 dan, Buyuk Britaniyada 3000 dan, Yaponiyada esa 2500 dan oshib ketgan".



Umuman olganda, informatika vositalari rivojlanishining tarixiy bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin: informatika tabiiy vositalari (insoniy - imo-ishora, raqs, nutq; tabiiy - olov, belgi); informatika mexanik vositalari (o'rta asrlar telegrafi, matbaachilik, hisoblash moslamalari, arifmometr); informatika elektr vositalari (telegraf, telefon, kino); informatika elektron vositalari (televizor, kompyuter, printer).

**Tahlil va natijalar.** Axborot texnologiyasi - axborotni tanlash, jamg'arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo'naltirilgan hisoblash texnikasi, elektron aloqa, informatika texnik imkoniyatlarining uyg'unligidir.

Hozirgi zamon axborot texnologiyasi o'tmishning telegraf, telefon, radio, televideniye singari texnik yutuqlaridan foydalanadi. Ilmiy- texnik tajribadan kelib chiqib axborotni mashina o'qiydigan tashuvchilarda jamg'arish vositalari yaratildi. Bunday vositalar zamon va makonda biron- bir cheklashsiz axborotni Yer kurrasining istalgan nuqtasiga yetkazishni ta'minlaydi. Nihoyat, mavjud algoritmlar bo'yicha kompyuterlar yordamida axborotga avtomatlashtirilgan ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Axborotlashgan jamiyat bu shunday jamiyatki, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga "ishlov berish", saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazishga bog'liq bo'ladi. "Biz XXI asrga qadam qo'ymoqdamiz. Tirik mavjudot organizmida nerv to'qimalari qancha ko'p bo'lsa, bu asrda sivilizatsiya organizmida ham elektronika shuncha ko'p bo'ladi... Agar hisoblash texnikasi lozim darajada rivojlanmasa, biz "yo'naltirilgan rivojlanish" davriga qadam qo'yishga umid qila olmaymiz"- deb qayd etadi N.N.Moiseyev. Bu yerda jamiyatni sanoatlashtirish emas, balki uni axborotlashtirish masalalari birinchi o'ringa qo'yiladi.

Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, jamiyatni axborotlashtirishni faqat texnik-texnologik muammolar yechimi bilan bog'lash mumkin emas. Jamiyatni axborotlashtirish juda ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlari uyg'unlikda bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy va shaxsiy hayotning deyarli barcha sohalarida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishi ta'sirida, nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida, balki asosan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy - ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektualizatsiya jarayonlari bilan uyg'un bog'liq bo'lishi kerak. Zotan, bu shaxsning va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi tahlil asosida shuni aytish mumkinki, jamiyatni axborotlashtirish jarayonida axborot texnologiyasi va axborotdan foydalanish progressiv rivojlanib boradi. Buning negizida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarini o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatiladi.

Demokratlashtirishga axborot texnologiyasining ijobiy ta'siri shu qadar kattaki, ba'zan teledemokratiya, ya'ni kommunikatsiya vositalariga ulanish orqali demokratiyani to'g'ridan to'g'ri o'rnatish to'g'risida so'z yuritiladi.

Jamiyatning demokratikligi jamiyat fuqarolarining axborot bilan ta'minlanganligi darajasiga bog'liq. Ammo to'liq axborot erkinligi butunlay teskari natijaga - shaxs ustidan kompyuter nazorati o'rnatilishiga, shaxsiy erkinlikdan mahrum qilinishiga olib kelishi mumkin. Dalillar shuni ko'rsatadiki, axborot texnikasidan hozir shaxs ustidan nazorat o'rnatish uchun keng foydalanilmoqda. Vaholanki, bu demokratiya tamoyillariga ziddir.

Jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarini erkinlashtirish barobarida ma'muriy sohada ham islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ma'muriy islohotlarning dastlabki bosqichini boshlab berdi. Bu esa kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va bu sohada ilmiy muassasalar faoliyatidan kengroq foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda.

Endilikda jahon tajribasini chuqur o'rganish va barcha darajadagi boshqaruv organlari faoliyatini jiddiy tanqidiy tahlil qilish asosida respublika hukumati tomonidan ma'muriy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha asosiy yondoshuvlar va yo'nalishlar ishlab chiqilishi kerak.

Bo'lajak tub o'zgarishlarning mohiyati nimada?

**Birinchi**dan, iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining keskin qisqarishi. **Ikkinchi**dan, respublika darajasidagi vakolatlarning bir qismini mahalliy boshqaruv organlariga o'tkazilishi. **Uchinchi**dan, boshqaruv tizimini optimallashtirish, boshqaruvga oid vazifalarning takrorlanishiga barham berish, korxonalar faoliyatini asossiz nazorat qilinishiga chek qo'yish, boshqaruv mexanizmlari hamda shaxsiy tashabbuskorlik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga xalal beruvchi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, taqsimlash tizimini tugatish jarayonini yakunlashdir. **To'rtinchi**dan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlari sonini optimal darajada qisqartirilishi. **Beshinchi**dan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish hamda uning samaradorligini oshirish, zamonaviy ma'muriy-huquqiy baza yaratish, o'quv tizimini qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda kadrlarni tanlash va yollash uslublarini qo'llash, ularni attestatsiyadan o'tkazish va ularga yuklatilgan vazifalarning ijrosini baholash shakllarini takomillashtirish orqali davlat xizmatini isloh qilishdir".

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda:

- jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining intensivlashuvi, axborot va uni ayriboshlash munosabatlarini yangi sifat darajasiga ko'taradi;

- axborot va uni ayriboshlash texnikasi hamda texnologiyasini rivojlantirish jamiyat umumiy taraqqiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi;

- jamiyatda axborotning yaratish, sistemalashtirilish, turkumlashtirish va saqlash maxsus faoliyat yo'nalishini tashkil qilib, uning rivojlanish darajalari jamiyat taraqqiyotini belgilovchi mezonga aylanoqda;

- ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari, manfaatlari "axborot bosimi"ning xarakterini, shartli ravishda, ijobiy hamda salbiy yo'nalishlarga ajratadi. jamiyat taraqqiyoti xususiyatlarini baholash mezonlari tizimida axborotlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etib, uning miqdor va sifat jihatlari dinamik o'zgarish jarayonidan iborat;

- jamiyatni axborotlashtirish jarayonini tarixiy davrlashtirish va ular o'rtasidagi dialektik inkor munosabatlarni aniqlash ijtimoiy siyosiy ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. - Т.: Шарк, 2010. - Б.405
2. Шермухамедова Н.А. Социально - философские аспекты формирования стиля научного мышления и его методологические значение. -Т.: 2019. - С.178
3. Томсон Дж. Предвидимое будущее. - М.:Иностран.литер., 1998. - С.40-41
4. Робертсон Д.С. Информационная технология. - М.: Прогресс, 2008. - С.241
5. Раҳмонкулова С.И. СВМРС шахсий компьютерларда ишлаш. - Т.: Университет, 2007. - Б. 86

6. Школьникова И.А. Информационные технологии.-2013: некоторые итоги//Ж.Экономика и жизнь. - 2013. - №4. - С.16
7. Арипов М. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари. - Т.: Университет, 2020. - Б.37
8. Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. - М.: АГРАФ, 2012. - С.198



UDK:091

*Erkin OMONOV,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti erkin izlanuvchisi*  
*E-mail: erkin.omonov@mail.ru*

*OzR OM Semati bosh maslahatchisi, f.f.d S.Sanginov taqrizi asosida*

## SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL THINKING AND INCREASING THE ECOLOGICAL CULTURE OF YOUTH

Annotation

The article analyzes the socio-philosophical aspects of the development of environmental thinking and improving the environmental culture of the population and provides recommendations for improving the methodology and mechanisms for introducing the principles of environmental education into the process of teaching young people.

**Key words:** Ecological culture, ecological thinking, youth, environmental education, environment, environmental problems, healthy lifestyle.

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье анализируются социально-философские аспекты развития экологического мышления и повышения экологической культуры населения и даются рекомендации по совершенствованию методики и механизмов внедрения принципов экологического образования в процесс обучения молодежи.

**Ключевые слова:** Экологическая культура, экологическое сознание, молодежь, экологическое образование, экологическое воспитание, окружающая среда, экологические проблемы, здоровый образ жизни.

## YOSHLARNING EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHLTLARI

Annotatsiya

Maqolada aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish va ekologik madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinib, yoshlarni o‘qitish jarayoniga ekologik ta‘lim tamoyillarini joriy etish metodologiyasi va mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, yoshlar, ekologik ta‘lim, ekologik tarbiya, atrof-muhit, ekologik muammolar, sog‘lom turmush tarzi.

**Kirish.** Ekologik muammolar globallashtirilgan hozirgi sharoitda ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa‘y-harakatlar ushbu muammolarni hal qilishda yetarli emasligini ko‘rsatmoqda.

Zero, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat ne‘matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta‘sirlarning oldini olishning muhim omilidir. Bunda ekologik ta‘lim-tarbiyaning, ayniqsa yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, ularda atrof muhitni asrashga bo‘lgan daxldorlik hissini rivojlantirish ahamiyati ham nihoyatda yuqori.

Boz ustiga, yoshlarning ekologik ta‘lim-tarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologik ta‘lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish hamda tejamkorlikka o‘rgatishning eng muhim vositasidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakat taraqqiyotini strategik xujjatlari (2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston 2030” strategiyasi), Davlat rahbari va Hukumat qarorlarida ekologiya va atrof muhitga katta e‘tibor qaratilmoqda, lekin falsafiy adabiyotlarda (Ya.Mamatova, S.Sulaymonova “O‘zbekiston mediata‘lim taraqqiyoti yo‘lida“

(2015 y.), U.Yazdanov “Jamoatchilik fikrini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning funksional ahamiyati” (2020 y.), N.Muratova “Internet-jurnalistika v Uzbekistane” (2011), N.Qodirov “O‘zbekiston yoshlarida axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili”) ekologik ta‘lim-tarbiya, yoshlarni ekologik tafakkurini yuksaltirish masalalariga yetarli e‘tibor qaratilgani yo‘q.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada analiz va sintez, taqqoslash, tizimli yondashish, umumlashtirish, deduktiv va induktiv usullardan foydalanilgan holda, O‘zbekiston yoshlarining ekologik tafakkurini yuksaltirish jarayonida mavjud muammolar tahlil qilindi hamda ekologik ta‘lim-tarbiyani takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur masala, aynan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi vazifalari ijrosi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Albatta, ta‘lim muassasalarida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar ongini hozirgi ekologik muammolar mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan boyitish va shu bilimlarni ularning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunday mas‘uliyatli vazifani hal qilish uchun o‘qituvchidan shu soha bo‘yicha bilim, pedagogik mahoratga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo‘lish, shuningdek, tinimsiz izlanish, o‘rganish talab qilinadi.

Shu o‘rinda ekologik muammolar yechimiga ta‘lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh

avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Konsepsiyada:

- uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish;

- ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

- ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish;

- ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

- ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish maqsad qilib olingan[2].

Shu jihatdan uzluksiz ekologik ta'limning mazmuni va mohiyati nuqtai nazaridan maktabgacha ta'lim, maktab va maktabdan tashqari ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bosqichlarni qamrab olmog'i lozim.

O'quv muassasalarida uzluksiz ekologik ta'limni va barqaror rivojlanish ta'limini joriy qilish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari, maktab, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar yaratish, ko'rgazmali va didaktik materiallarni ishlab chiqish, markazlashtirilgan holda nashr etishni ta'minlash, muntazam ravishda ekofestivallar yoki tanlovlar o'tkazish, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali materiallarni nashr etish yaxshi samara berishi, shubhasiz.

Lekin hozirgi kunga qadar mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida mazkur konsepsiya tamoyillari uz o'rnini to'liq topmagan. Bu konsepsiya qoidalarini ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmi ishlab chiqilmaganligining natijasidir. Bu konsepsiyani amalga oshirishni uslubiy ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarining barcha ta'lim muassasalarida shuningdek, xususiy va nodavlat ta'lim muassasalari, xorijiy universitetlar filiallarida o'quv-tarbiya jarayonining har bir bosqichida ekologiya fanlarini o'quv rejalariga kiritish bo'yicha uslubiy materiallar majmuasini tayyorlash talab etiladi.

Zotan, ekologik ta'lim-tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, an'analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiatga, uning boyliklariga mehr-muhabbat o'yg'otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatishdan iborat.

Boz ustiga, ota-bobolarimiz qoldirgan nodir meros – musaffo osmon, tiniq suv, toza tuproq, yer qari va yer usti boyliklarini qanday asramog'imiz, ularni asl holida kelgusi

avlodlarga topshirmog'imizni tushuntirish – eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan umummilliy masaladir.

Ekologik tarbiya – vatanparvarlik bo'lib, tabiatni asrash – Vatanni asrashdir. Bu muhim vazifani amalga oshirish uzluksiz ta'limning boshlang'ich bosqichi hisoblangan maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanishi ayni muddaodir.

Ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini uzluksizligini ta'minlash yosh avlodning ekologik madaniyatli bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- yoshlarning o'zi yashab turgan shahar, qishloq, mahalla, xonadonga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini, vatanparvarlik ruhini shakllantiradi;

- tabiat uchun shaxsiy javobgarlik xususiyatlarini va shaxsdagi yaratuvchanlik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi;

- yoshlar ona tabiatni sevish, ardoqlash, undan g'ururlanish ruhida tarbiyalanadi; o'simliklar, hayvonlar tabiatning bir qismi, inson tabiat go'zalligi bilan bog'liq ekanligi, uni asrab-avaylash zarurligini tushunib yetadi;

- tabiiy boyliklar, o'simliklari, hayvonot olami, qo'riqxonalar va nodir landshaftlar, tabiat yodgorliklarini, yer, suv, havosini muhofaza qilish bo'yicha qonunlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi;

- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi qaror topadi;

- energiya va resurs tejoychi texnologiyalar va muqobil energiya manbalari xususida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

- yoshlarda ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan burch, vijdon, odamiylik xususiyatlarini kuchaytiradi.

Umuman olganda, milliy ma'naviyatimiz ildiziga chuqur singib ketgan va asrlar osha uning takomil bosqichlarida chuqurlashib, teranlashib borgan xalqimiz qadriyatida tabiatga bo'lgan ehtirom beqiyosdir, yurtimizda uni e'zozlash an'anasi esa insoniyat tarixi qadar ko'hnadir.

Ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish hamda tejamkorlikka o'rgatishda qo'l keladi.

Milliy ma'naviyatimizning serqirra va teran ildizlariga tayangan holda, mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqishda ekologik mafkura, ta'lim va tarbiya tizimini yaratish alohida o'rin tutishi lozim.

Moziyga nazar tashlasak, uzoq o'tmishdan muqaddas zaminimizda yashagan ulug' ajdodlarimiz bundan ko'p asrlar ilgari hozirgi zamonaviy ilm-fanga poydevor qo'yib, uni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shishgan. Xususan, matematika, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix, arifmetika, farmakologiya, tibbiyot, falsafa va tilshunoslik sohalaridagi qomusiy ishlari, ixtirolari bilan jahon sivilizatsiyasi ravnaqida o'chmas iz qoldirishgan. Bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan tan olingani haqiqatdir.

G'arbda "Nur Sharqdan taraladi" degan iboraning paydo bo'lgani ham bejjiz emas, albatta. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, al-Hakim at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizdan qolgan ilmiy-ma'naviy meros "Sharq uyg'onish davri"ning durdonalari maqomida dunyo ahli tomonidan haqli ravishda tan olingan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo o'rta asrlar ilmiy-madaniy markazlaridan biri sifatida boshqa mintaqalardagi Renessans jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgani jahon ilm-fanida o'z tasdig'ini topgan.

Tabiat hodisalariga oid takomillashtirish, tadrijiy rivojlanib borgan tushuncha va ta'limotlar, insonning tabiat bilan bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlar ilk marotaba

“Avesto” hamda Sharq Rennessansi davrida ijod qilgan mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topgan. O'z navbatida, sohibqiron Amir Temur, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy singari davlat arboblari tomonidan obodonlashtirish, bog'-rog'lar barpo etish, sug'orish tizimlarini rivojlantirish kabi ezgu ishlar doimo qo'llab-quvvatlab kelingan.

Ana shunday ulug' mutafakkirlar qatorida buyuk bobokolonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z asarlarida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Insoniyat intellektual tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o'ziga xos g'oyalarni ilgari surgan. Kolumbdan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi haqidagi o'z qarashlarini ifoda etgan. Shuning uchun ham XI asr dunyo tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb ataladi.

Darhaqiqat, tabiat ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ularni qadrlash va har tomonlama o'rganish milliy ma'naviyatimizga chuqur singgan, xalqimizga xos ezgu fazilat hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniyning “Saydana” asarida (2) 1118 turdagi dorivor, shu jumladan, 750 ta o'simlik hamda 101 hayvonga batafsil ta'rif beriladi[3].

U o'z ishida arab, yunon, hind, fors, so'g'd va boshqa tillarga oid 4500 ta o'simlik nomi, hayvon, mineral va ulardan olinadigan mahsulotlar haqida ma'lumot to'plab, o'sha davr dorishunoslik atamalarini tartibga solishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Uning ilmiy daholigi shunda-ki, tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta'siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Beruniyning “Agar insonlar tabiatga nisbatan zo'ravonlik qilib, uning qonunlarini qo'pollik bilan buzsalar, bir kun kelib tabiat ularning boshiga shunday kulfatlarni solishi mumkin-ki, buni hech qanday kuch qaytara olmas» degan so'zlari bugungi global ekologik muammolarning bundan ming yil oldin bashorat qilganidan dalolat beradi[4].

Bu borada Abu Nasr Forobiyning ham o'ziga xos o'rni bor. Uning “Hindiston dorilari va dorivor o'simliklari”, “Inson a'zolari haqida risola”, “Hayvon a'zolari haqida so'z” kabi asarlari alohida ahamiyatga ega. U Yevropa olimlaridan bir necha asr avval fiziologiya faniga ilmiy asos solganligining o'ziyoq jahon ilm-fani taraqqiyoti beshigini kimlar tebratganini isbotlab turibdi.

Xorazmiy esa o'zining “Kitob surat ul-arz” nomli asarida[5] 637 ta noyob tabiiy joy, 209 ta tog'ning geografik tafsilotini bergan, dengizlar, daryolar va okeanlar havzasi shaklini, ulardagi orollarning joylashuvi haqida muhim ma'lumotlarni bayon etgan.

Amir Temur ham tabiatga katta mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lgan. U mamlakatda, birinchi galda, obodonchilik ishlariga alohida e'tibor qaratgan. “Temur tuzuklari”da aytilishicha, Sohibqiron qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirganlarni rag'batlantirgan. Shuningdek, mazkur asarda qarovsiz yerlarni obod qilish, ularni hosildor yerlarga aylantirish haqidagi ko'rsatmalarning qayd etilgani ham diqqatga sazovordir.

Kezi kelganda shuni aytish lozimki, Turon zamini dunyo miqyosida sug'oriladigan dehqonchilikning ilk Vatani sifatida e'tirof etilgan. Shu bois o'lkamizda qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan, irrigatsiya va melioratsiya sohasida boy tajriba to'plangan. Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Parfiya, Kushon, Somoniylar, Qoraxoniylar, Temuriylar va boshqa davlatlarning paydo bo'lishida, siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishida sug'orish ishlari alohida o'rin tutgan. Davlat boshqaruvida suvdan oqilona foydalanishga katta ahamiyat berilgani, miroblarga davlat

arbovi sifatida munosabatda bo'lingani ham fikrimizning tasdig'idir.

Ko'rinib turibdiki, atrof-muhitga e'tibor har bir davrda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Ta'kidlash joizki, bugun ekologiya o'z ichiga 70 ta fundamental fanni qamrab olgan ko'p qirrali fanidir. Ekologiya inson bilan uni o'rab turgan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni, ta'sirni o'rganuvchi, tahlil qiluvchi va istiqbolini belgilab beruvchi ilmiy, amaliy yo'nalishlar majmui hisoblanadi.

Ekologiya faniga oid tadqiqotlar ko'p yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan bo'lsa-da, biroq xalqimizning ekologik madaniyati, milliy ekologik an'analari hanuzgacha chuqur o'rganilmay kelinmoqda. Zero, bizda azaldan hamisha tabiat va inson uyg'unligiga erishishni ta'minlashga intilib, kelgusi avlod uchun ona-zaminimizni asrab-avaylab, u bilan bog'liq asriy qadriyatlardan iborat madaniy merosga tayanib kelingan.

Shu sababli milliy ma'naviyatimiz salohiyatini aks ettiruvchi va ajralmas bir qismi bo'lmish tabiat, uning saxovatini ulug'lash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqimizdagi milliy madaniyat, bilimlar, an'analar, tajribalar, meroslarni bir tizimga keltirib, tahlil qilib, ulardan mustaqil mamlakatimiz oldida turgan dolzarb ekologik muammolarni hal etishda foydalanishimiz zarur.

**Xulosa va takliflar.** Aksariyat ekologik muammolarni hal etish ayniqsa yoshlarning ekologik ta'lim-tarbiya saviyasi bilan bevosita bog'liqligidan kelib chiqib, avvalo, umumta'lim maktablari va boshqa o'quv muassasalari vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va har bir fuqaroning ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish lozim.

Ikkinchidan, yoshlarning ekologik tashabbuslarini, yosh ixtirochilarning tabiiy resurslarni asrab avaylashga, ekologik muammolarni oldini olish va bartaraf etishga yo'naltirilgan loyihalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Uchinchidan, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish maqsadida xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish talab etiladi.

To'rtinchidan, yoshlarda ekologik javobgarlik, ekologik savodxonlik va dunyoqarashni shakllantirish, umuman aholi barcha qatlamlarining ekologik madaniyatini oshirish uchun soha yo'nalishidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga qamrab olgan “Ekologik qonunlar” ixcham to'plami yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Beshinchidan, mahalliy va mamlakat miqyosidagi ekologik muammolarni hal qilishda yosh avlod ongida ekologik yondashuvli dunyoqarash hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Oltinchidan, mamlakatda tabiat va inson salomatligini asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan islohotlarni samarali amalga oshirishda yosh avlodning intellektual, ijodiy, ilmiy salohiyati va professional qobiliyatlaridan foydalanish.

Yettinchidan, Milliy madaniy va ma'naviy qadriyatlar, tabiatdan ehtiyotkorona va ratsional foydalanish kabi milliy an'analarini qayta tiklash va saqlab qolishga ko'maklashish.

Sakkizinchidan, Mamlakat va mintaqa miqyosida ekologik muammolarni yechish, hamda aholi salomatligini yaxshilashga yo'naltirilgan innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish, shuningdek ularning OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishiga ko'maklashish.

To'qqizinchidan, xorijiy va xalqaro nodavlat notijorat yoshlar ekologik tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatish va hamkorlikni amalga oshirish zarur.

Zero tabiatni asrash, uning ne'matlarini qadrlash, har birimizning muqaddas burchimizdir.

## ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 21- fevraldagi PF-37-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6811936>.
2. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori // <https://lex.uz/docs/4354743>
3. Z.Sobirjonov. Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» asarini farmatsevtikada tutgan o‘rni // <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniyning-saydana-asarini-farmatsevtikada-tutgan-o-rni>
4. Б.Алихонов: “Табиатнинг ўзи буюк бир асар, фақат уни тушуниш керак” // <https://ziyouz.uz/suhbatlar/bori-alixonov-tabiatning-oz-i-buyuk-bir-asar-faqat-uni-tushunish-kerak/>
5. А. Аҳмедов. Мусо ал-Хоразмий (780-850) // <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/muso-al-xorazmiy-780-850/>



УДК: 531.311

**Фируза ОТАЖОНОВА,**  
Старший преподаватель Национальный университет Узбекистана

На основе рецензии кандидат фил.наук, профессор Ургутского филиала СамГУ Бабакулов И.

#### FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA RUS TILIDA MUTAXASSISLIK TILINI O'RGATISH Annotatsiya

Mazkur maqolada fizika fakulteti talabalariga rus tilida mutaxassislik so'zlarini o'rgatishning ahamiyati va usullari muhokama qilinadi. O'quv jarayonida rus tilini o'rganishning ahamiyati, talabalarning mutaxassislik so'zlarini to'g'ri tarzda ishlatishlari va mutaxassislik so'zlarining o'qitish metodlari va vositalari ustida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Fizika fakulteti, mutaxassislik, texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, kommunikatsiya;

#### TEACHING SPECIALIST LANGUAGE IN RUSSIAN TO STUDENTS OF THE FACULTY OF PHYSICS Annotation

This article discusses the importance and methods of teaching Russian words of expertise to students of the faculty of physics. The importance of studying the Russian language in the educational process, the correct use of the words of the specialty by students, and the analysis of the words of the specialty on teaching methods and means.

**Keywords:** Faculty of Physics, specialty, technology, professional development, communication.

#### ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ СТУДЕНТОВ ФИЗИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА ЯЗЫКУ СПЕЦИАЛЬНОСТИ Аннотация

В данной статье обсуждается значение и методы обучения студентов физфака специальным словам на русском языке. Проанализировано значение изучения русского языка в учебном процессе, правильное употребление студентами слова специальности, методы и средства обучения слов специальности.

**Ключевые слова:** физический факультет, специальность, технологии, профессиональное развитие, коммуникации;

**Введение.** Курс русского языка вуза видит своей задачей обеспечение необходимого уровня языковой и общетеоретической (физика, химия, математика, биология и т. д.) подготовки, отвечающего требованиям высшей школы. На теоретическом и практическом уровнях ведется поиск путей модернизации системы довузовской подготовки. Одним из решающих факторов улучшения результатов учебного процесса является высококачественная языковая подготовка студента. Обучение студентов профессионально ориентированному русскому языку как иностранному (РКИ) с использованием профессионально ориентированного подхода оказывается особенно актуальным сегодня уже на этапе подготовительного факультета, именно здесь происходит обобщение изученного материала по специальным предметам, приведение знаний к уровню владения, которым должен обладать абитуриент вуза. В процессе обучения РКИ ставится целью развитие коммуникативных навыков, достаточных для профессионального общения, межкультурной коммуникации, способности порождать, интерпретировать информацию на русском языке и эффективно ее применять в процессе работы. Задачей преподавателя РКИ является обеспечение соответствующих условий для плодотворной результативной работы студента при усвоении профессионально ориентированного материала, поддержание мотивации и интереса, активация самостоятельной работы. Особый интерес студенты проявляют, если материал касается их будущей специальности, если они получают дополнительную информацию в области профессиональных знаний в процессе изучения языка. Преподаватель РКИ в неязыковом вузе может заинтересовать студентов и повысить их мотивацию к изучению языка через

качественный подбор материала для обсуждения и просмотра, путем правильной постановки задачи для домашней работы. Представляется оптимальной работа с аутентичными материалами научно популярной литературы, свежей периодики, с информацией из Интернета. Для всестороннего овладения языком упражнения должны включать разные виды чтения, перевод со словарем, прослушивание и просмотр аудио- и видеоматериалов, упражнения для отработки письменной и устной речи, работу со словарем специальных терминов. Работа, нацеленная на профессионально ориентированную деятельность студента, положительно влияет на процесс изучения русского языка и обогащает уровень профессиональной языковой компетенции.

#### Основная часть

Обучение русских студентов физического факультета языку специальности может быть очень полезным для их будущей карьеры. Вот несколько подходов, которые могут помочь им освоить язык специальности:

✚ **Специализированные курсы:** Разработайте курсы, которые сфокусированы на языке и терминологии, используемой в физике и других научных областях. Это может включать изучение технической лексики, специфических терминов и концепций, а также практические задания, связанные с их профессиональными интересами.

✚ **Проекты и исследования на языке специальности:** Задания и проекты в рамках курсов должны быть ориентированы на применение языка специальности. Студенты могут писать отчеты, презентации и научные статьи на английском, используя терминологию и стиль, соответствующие их области.

✚ **Использование аутентичных материалов:** Включайте в учебный процесс аутентичные материалы,

такие как научные статьи, конференции, лекции и видео, чтобы студенты могли ознакомиться с реальным языком и контекстом, используемым в их области.

✚Обмен языковыми партнерами: Организуйте обмен языковыми партнерами с университетами или научными центрами в странах, где английский является официальным языком науки. Это поможет студентам практиковать свои навыки общения на языке специальности и погрузиться в англоязычную научную среду.

✚Интеграция языка в академическую жизнь: Поощряйте студентов участвовать в научных мероприятиях, конференциях и семинарах на английском языке. Это поможет им расширить свой словарный запас и улучшить навыки общения в профессиональной среде.

✚Индивидуальное обучение: Предоставьте возможность для индивидуальных консультаций и помощи в освоении терминологии и языковых навыков, особенно для студентов, у которых есть определенные трудности с языком.

✚Самостоятельное изучение: Поощряйте студентов к самостоятельному изучению языка специальности за пределами учебных занятий, предоставляя им доступ к ресурсам, таким как учебники, онлайн-курсы, аудиоматериалы и т. д.

Эти подходы могут быть эффективными в помощи студентам физического факультета освоить язык специальности и успешно взаимодействовать в международной научной среде.

#### **Важность языка специализации**

В сочетании с языком специализации, а также с конкретными знаниями и поддержкой, можно будет успешно работать в области специализации, используя невидимый процесс обучения на выборах. Этот язык считается официальным средством сообщения, имеющим место в профессиональных сферах. Наряду с английским русский язык занимает в этой сфере немалую долю. Поэтому для студентов физфака изучение русского языка будет прикладным языком.

#### **Методы изучения русского языка**

Самыми основными методами изучения русского языка являются: говорение с помощью творческих вопросов и вопросов, работа над текстами, изучение правил правописания и говорение на основе запоминания многих слов. Другим способом может стать творческое сотрудничество и любовь, так как изучение русского языка требует серьезности и очень важно проводить совместные практические занятия с тренерами.

Важность изучения русского языка на физическом факультете

Важность изучения русского языка на физическом факультете очень высока. Изучение русского языка очень важно для студентов факультета, так как:

Коммуникация: знание русского языка важно студентам факультета в общении. Использование русского языка в учебном процессе, на уроках, в лабораториях и практиках дает возможность учащимся выражать свои мысли, задавать вопросы, комментировать свои мысли.

Научные статьи и материалы: большая часть научных статей и материалов физического факультета создается на русском языке. Хорошее знание русского языка важно студентам факультета при чтении научных статей, проведении исследований и усвоении новых знаний.

Международные отношения: знание русского языка важно студентам физфака вместо международных отношений. Русский язык считается народным во многих

странах мира, а знание русского расширяет возможности для работы в международном сотрудничестве.

Профессиональное развитие: изучение русского языка помогает студентам физического факультета развиваться профессионально. Хорошее знание русского языка облегчает работу со словами и терминами специальности и делает их успешными в своих профессиональных областях.

Кроме того, изучение русского языка открывает широкие возможности для студентов факультета и дает им возможность критиковать на международном уровне. По этой причине важность изучения русского языка на физическом факультете считается очень высокой.

#### **Полезные аспекты изучения русского языка**

Есть несколько полезных аспектов изучения русского языка. Некоторые из них:

✓ Международная коммуникация: знание русского языка дает вам возможность общаться с людьми, живущими во многих странах мира. Это расширяет возможности в международном общении и помогает найти новых друзей.

✓ Профессиональные возможности: знание русского языка поможет вам в профессиональном развитии. Знание русского языка позволяет читать, писать и объяснять русские тексты и документы. Это поможет вам добиться успеха в своих профессиональных областях.

✓ Преподавание и исследования: знание русского языка открывает вам широкие возможности в области преподавания и исследований. Знание русского языка дает возможность брать уроки русского языка, писать научные статьи, проводить исследования и помогает расширить свои знания.

✓ Также могут быть и другие полезные аспекты изучения русского языка, так как русский язык считается народным во многих странах мира, а знание русского языка открывает перед вами широкие возможности.

✓ Есть несколько полезных результатов изучения русского языка для студентов физфака:

✓ Международная коммуникация: изучение русского языка для студентов физфака открывает им широкие возможности в международной коммуникации. Это дает им возможность брать уроки русского языка, участвовать в международных конференциях, писать научные статьи и сотрудничать с физическими институтами в других странах.

✓ Научная информация: изучение русского языка является средством доступа к научной информации для студентов-физиков и дает возможность ознакомиться с русскими учебниками, научными статьями и исследованиями. Это также дает им возможность читать и объяснять работы русских физиков.

✓ Программирование и технологии: изучение русского языка для студентов физфака открывает им новые возможности в области программирования и технологий. Знание русского языка дает им возможность изучать русские языки программирования и помогает писать код и создавать проекты на русских языках программирования.

✓ Карьерные возможности: знание русского языка расширяет возможности карьерного роста студентов-физиков. Знание русского языка дает им возможность писать научные статьи на русском языке, участвовать в научных конференциях и изучать другие научные материалы, созданные на русском языке.

✓ Возможность обучения в зарубежных учебных заведениях: изучение русского языка для студентов физического факультета открывает им возможность обучения в зарубежных учебных заведениях. Знание русского языка дает им возможность брать уроки



русского языка, проводить научные исследования и учиться в физических институтах других стран.

Также могут быть и другие полезные результаты изучения русского языка, так как знание русского языка открывает вам множество возможностей по всему миру и помогает продвинуться по карьерной лестнице.

**Заключение.** Подводя итог, можно сказать, что важно обучать студентов-физиков русским специальным словам, так как этим студентам необходимо будет хорошо владеть русским языком в своей профессиональной сфере.

Слова специальности важны при изучении русского языка, и эти слова необходимы студентам для успеха в своей профессиональной области. Интерактивные учебники, школьные учебники, онлайн-ресурсы и международные языковые курсы рекомендуются использовать в качестве комплексных методов обучения специальным словам. Эти методы помогают студентам легко и эффективно выучить слова специальности на русском языке и применяются к их профессиональному развитию.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Азнабаева Е. Г. Коммуникативно-языковая реальность: онтологические и гносеологические аспекты: автореф. дис. филос. наук. Уфа, 2011. — 17 с. канд.
2. Базалук Е. И. Целостность языковой личности: функционально- прагматический и риторический аспекты: автореф. дис. канд. филол. наук. - Ставрополь, 2010. — 21 с.
3. Береснева Н. И. Язык и реальность: автореф. дис. ... д-ра наук. Пермь, 2006. 36 с.
4. Богин Г. И. Модель языковой личности в её отношении к разновидности-
5. стям текстов: автореф. дис. д-ра филол. наук. — Л., 1984. — 31 с.
6. Иванова Е. Н. Языковая личность в условиях формирования норм русского литературного языка (первая половина XVIII века). На примере писем и распоряжений А. Н. Демидова: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Екатеринбург, 2008. — 18 с.
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - М.: Гнозис, 2004. - 389 с.
8. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987. - 264 с.



**Rustam OTAMURATOV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi*  
**Sarvinoz OTAMURATOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi*  
E-mail: Rustamota1989@Gmail.Com

*JDPU dots., PhD G. Qarshiboyeva taqrizi asosida*

## CHARACTERISTICS OF TEACHING ANXIETY IN ADOLESCENTS

Аннотация

In the article, socio-psychological factors of the manifestation of anxiety in the educational activity of adolescents, psychological characteristics, educational activity, its structural components, methodological aspects instead of socio-psychological factors by studying the stages of its formation from a scientific and theoretical point of view, anxiety arising during the educational process in adolescence characteristics, the impact of anxiety arising in the educational process on the adolescent's personal characteristics, and the socio-psychological factors of anxiety affecting the stability of educational activities are highlighted.

**Key words:** anxiety, adolescent, educational activity, character accentuation, personal anxiety, situational anxiety, collectivistic, individualistic, pragmatic, mathematics, physics, biology, chemistry.

## ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ТРЕВОЖНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В статье рассматриваются социально-психологические факторы проявления тревожности в учебной деятельности подростков, психологические особенности учебной деятельности, ее структурные компоненты, методические аспекты вместо социально-психологических факторов путем изучения этапов ее формирования с научно-теоретической точки зрения. С этой точки зрения выделены особенности тревожности, возникающей в учебном процессе в подростковом возрасте, влияние тревожности, возникающей в образовательном процессе, на личностные характеристики подростка, а также социально-психологические факторы тревожности, влияющие на устойчивость учебной деятельности.

**Ключевые слова:** тревожность, подросток, учебная деятельность, акцентуация характера, личностная тревога, ситуативная тревога, коллективистская, индивидуалистическая, прагматическая, математика, физика, биология, химия.

## O'SMIRLARDA TA'LIM JARAYONI BILAN BOG'LIQ XAVOTIRLANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Аннотация

Maqolada o'smirlar ta'lim faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari psixologik xususiyatlari, ta'lim faoliyati, uning tarkibiy komponentlari, shakllanish bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish orqali ijtimoiy-psixologik omillar o'rni metodologik jihatlari, o'smirlar davrida ta'lim jarayonida yuzaga keluvchi xavotirlanishning xususiyatlari, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan xavotirlanishni o'smir shaxsiy xususiyatlariga ta'siri va ta'lim faoliyati barqarorligiga ta'sir etuvchi xavotirlanishning ijtimoiy-psixologik omillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** xavotir, o'smir, ta'lim faoliyati, xarakter aksentuatsiyasi, shaxsiy xavotir, vaziyatli xavotir, kollektivistik, individualistik, pragmatik, matematika, fizika, biologiya, kimyo.

**Kirish.** Mamlakatimiz ta'lim tizimida yaratilayotgan imkoniyatlarning kun sayin soni oshib bormoqda [1]. Hozirgi kunda ta'lim olishning turli xil usullari paydo bo'ldi. Ammo imkoniyatlar kengaygani sari yoshlar orasida ushbu imkoniyatlardan maqsadli foydalanish muammosi ortib bormoqda. Xususan, o'smirlarning ta'lim jarayonida yuzaga keluvchi xavotirlanishi, barqaror ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir etish holatlari kuzatilmoqda. O'smirlarning ruhiy salomatligi o'z-o'zini anglash protsessida maktabdagi sinfdoshlari va o'qituvchilarining kommunikativ, intellektual va hissiy iztirobining turli jihatlari namoyon bo'lish holatlari kuzatilmoqda [2]. Xavotirlanish tushunchasi psixologiyaning turli sohalarida, shu jumladan, ta'lim muammolari tajribasi bilan bog'liq bo'lgan o'quv faoliyati muammolari sabablari va shakllarini tahlil qiladigan o'quv psixologiyasida mustahkam o'rin egallaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maktab yoshida xavotir hissi muqarrar, chunki bilim doimo xavotir bilan birga keladi. Ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotlarni, ayniqsa, S.Kierkegaard ta'kidlaganidek, xavotirlanish inson hayotining tarixini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [7]. va rus olimlari A. M. Prixojan xavotirlanish - bu muammoni

kutish bilan bog'liq bo'lgan hissiy noqulaylik, yaqinlashib kelayotgan xavfni oldindan bilish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [3, 4]. G.G.Arakelov, N.E.Lisenko, E.E.Shott, o'z navbatida, xavotirlanish - bu cheklangan vaqtdagi shaxslarning ma'lum bir holatini va har qanday shaxsning barqaror mulkini tavsiflovchi noaniq psixologik atama ekanligini ta'kidlaydi [8, 9].


Mamlakatimiz olimlari Sh.T. Alimbayeva o'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgani ma'lum [5, 6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** A.M.Prixojanning ilmiy izlanishlarida ko'proq o'smir yoshdagi bolalarda xavotirlanishga o'z e'tiborini qaratadi. Olim o'zining olib borgan tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda ikkita asosiy xavotirlanish toifasini ajratib ko'rsatadi: 1) ochiq-oydin; 2) yashirin-keskin darajada namoyon bo'ladi [10].

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida ta'kidlaganidek, xavotirni bartaraf etish, aslida, bilimlarni o'zlashtirish muvaffaqiyatining zaruriy sharti bo'lgan bilishning barcha qiyinchiliklarini tenglashtirishni anglatadi. Shu sababli, maktabda optimal ta'lim faqat maktab hayotidagi voqealar

haqida xavotirlanishning ko'p yoki kamroq tizimli tajribasi bilan kechishi mumkin.


Tadqiqotimizda jami 108 nafar o'smir yoshdagi o'quvchilar ishtirok etgan. Sinaluvchilarning yoshga ko'ra 11 yoshdan 17 yoshgacha o'smirlarni tashkil etgan.



1-diagramma

Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilarning 47 nafarini o'g'il bolalar, 61 nafarini qiz bolalar tashkil etdi. Jinslar nisbati 43 %i o'g'il bolalarni, 57%i qizlarni tashkil etadi. Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotimiz natijalariga asoslanib, o'smir yoshdagi o'quvchilarning emotiv tip shkalasi bo'yicha yosh jihatdan farq kuzatildi. Ushbu ko'ra, 11 yosh o'rtacha rank 66,25ni tashkil etdi. 12 yosh o'rtacha rank 63,30


ni tashkil qildi. 13 yosh o'rtacha rank 52,29 ni tashkil etdi. 14 yosh o'rtacha qiymat 43.94 ni tashkil qildi. 15 yosh o'rtacha rank 69.5 ni tashkil etdi. 16 yosh o'rtacha qiymat 33,75 ni tashkil etdi. 17 yosh o'rtacha rank 22,60 ni tashkil etdi (H=13,188;p ≥0,040). Yosh jihatdan farq ko'rsatkichlarni diagramma orqali tavsiflashga harakat qildik (3-diagramma).



3-diagramma. Yosh jihatdan farq ko'rsatkichlar tahlili

Natijalar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy xavotirning ortishi yosh jihatiga bog'liq ekan. Yanikim, tadqiqotda ishtirok etgan 11 yoshli o'smir yigit va qizlarda ta'lim faoliyatida shaxsiy xavotir darajasi yuqori bo'ladi. Bunga guruhga va o'qituvchilarga moslashish, yangi o'quv adabiyotlarini o'zlashtirish jarayoni sabab bo'lishi mumkin. Xavotir darajasi 13 yoshgacha bo'lgan davrda pasaygan va yana 14 yoshdagi o'smirlarda xavotir darajasi ko'tarilganligi kuzatilgan. Bunga o'smirlardagi fiziologik o'zgarishlarni sabab etib ko'rsatishimiz mumkin. O'smirlardagi bu o'zgarishlar o'z navbatida ularning ta'lim jarayoniga ta'sir etadi va xavotiriga sabab bo'lishi mumkin. Yosh jihatdan

emotiv tip shkalasi bo'yicha ham farq kuzatildi. Yani, 11 yoshda o'rtacha qiymat 66 ni, 12 yoshda 63ni, 13 yoshda 52 ni, 14 yoshda 43 ni, 15 yoshda 69 ni, 16 yoshda 33 ni, 17 yoshda o'rtacha qiymat 22ni tashkil etdi. Emotiv tip o'ta hissiyotli tip sanaladi. Ushbu shkala bo'yicha olingan natijalarga ko'ra aytishimiz mumkinki, hissiyotga beriluvchanlik yoshga bog'liq hisoblanadi. Bolalarning rivojlanish darajasiga to'g'ri kelmaydigan o'quv dasturlari murakkabligining o'sishi, bu ayniqsa ota-onalar tomonidan seviladigan "nufuzli maktablar" ga xosdir, bu erda tadqiqotga ko'ra, bolalar oddiy o'rta maktablarga qaraganda ancha xavotirlanadilar va shu bilan birga, dastur qanchalik murakkab bo'lsa, xavotirning tartibsiz ta'siri shunchalik aniq bo'ladi.




4-diagramma. Tadqiqotda qo'llanilgan "O'smirlarning xarakter aksentuatsiyasini aniqlash" bo'yicha Mann-Uitni mezonida jins tafovutlari tahlili

Gipertim tip shkalasi bo'yicha o'g'il bolalarda ham qiz bolalarda ham farq kuzatilmadi. Xavotirlanuvchi tip shkalasi bo'yicha ikkala jins vakillarida ham kelishmovchiliklarda doim passiv harakatda bo'lishlari, shu bilan birgalikda bunday holatlarda doim yordamga muhtoj bo'lishlari bilan ham ular o'rtasida farqli jihat kuzatilmadi. Distim tipga kiruvchi ikkala

jins vakillari ham o'zlari do'stlashgan insonni qadrlashi va o'sha insonga bo'ysunishi, shu bilan birgalikda pessimistik, kamgaplili bilan izohlashimiz mumkin. Rasmiy tip bo'yicha ikkala jins vakillari ham pok vijdonliligi, saramjon, jiddiy, sinchkov, shu bilan birgalikda jahli tezligi, nasihatgo'y va o'ta rasmiyatchiligi bilan ham farq kuzatilmaganligi bilan

izohlashimiz mumkin. Qo'zg'aluvchi tip shkalasi bo'yicha ushbu tip vakillarining muloqotga kirishimsizligi, verbal va noverbal turlari sust rivojlanganligi, janjalkashlik xususiyatlariga moyilliklari va bunga o'zlari muhit yaratishlari, jamoadagi insonlar bilan chiqisha olmasliklariga ko'ra jins bo'yicha farq kuzatilmaganligi bilan izohlashimiz mumkin. Emotiv tip vakillarining atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatish, tanlangan, tor doiradagi odamlar bilan muloqotda bo'lishni xush ko'rishlari va shu bilan birgalikda kelishmovchiliklarda kamdan kam holatlarda sababchi bo'lishlari va bunda o'z navbatida passiv ishtirok etishlari, nizoli vaziyatlardan so'ng ichlarida kek saqlashlari va o'z burchlariga sadoqatlilik sifatlariga ko'ra jins bo'yicha tafovut kuzatilmaganligini izohlashimiz mumkin. Rigid

vakillarining har ikkala jins vakillarida ham kelishmovchiliklarda faol, tashabbuskor bo'lib faol qatnashishga harakat qilishi, o'zlariga talabchanligi, ijtimoiy adolatni chuqur his etishlariga ko'ra farq kuzatilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Namoyishkor tip vakillarining ta'lim jarayoni bilan bog'liq xavotirlanish darajasi bo'yicha jins tafovuti kuzatilmadi. Sikloid tipiga kiruvchi o'smirlarning kayfiyatining tez o'zgaruvchanligi xavotirlanish darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Ekzaltr tipga ko'ra ikkala jins vakillarining kirishimlilik, bahslashishga moyilliklari va buni konflikt jarayoniga olib bormaslik xususiyatlariga ko'ra farqli jihat kuzatilmadi. Tadqiqot ishimizda shkalalar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini o'rganishimiz uchun SPSS dasturining Spirmen korrelyatsiyasi mezonidan foydalandik.



1.Vaziyatli xavotir	3.Matematika	5.Biologiya	7.Pragmatik	9.Individualistik
2.Shaxsiy xavotir	4.Kimyo	6.Fizika	8.Kollektivistik	

1-rasm

Unga ko'ra o'smir yoshdagi bolalarda vaziyatli xavotirning ortishi shaxsiy xavotirning ortishiga olib kelishi mumkin ( $r=,590$ ;  $p\leq 0,05$ ). Vaziyatli xavotirning ortishi matematika fanini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasining susayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-,241$ ;  $p\leq 0,05$ ). Vaziyatli xavotirning ortishi kimyo fanini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasining susayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-,274$ ;  $p\leq 0,05$ ). Shaxsiy xavotirning ortishi tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning kimyo fanini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasining susayishiga olib kelishi aniqlandi ( $r=-,205$ ;  $p\leq 0,05$ ). Har bir shkalalarni boshqa shkalalar bilan bog'liqligini aks ettiruvchi rasmda ham qayd etdik (1-rasm).

Matematika faniga qiziqishning ortishi biologiya ( $r=,255$ ;  $p\leq 0,05$ ) va boshqa fanlarga qiziqishning ortishiga olib keladi. Vaziyatli xavotir bilan bog'liqligi aniqlanmadi. Biologiya faniga bo'lgan motivatsiyaning yuqoriligi pragmatik tip xususiyatlarining susayishiga olib keladi ( $r=-,193$ ;  $p\leq 0,05$ ).

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, xavotirlanish o'smirlarning shaxsiy xususiyatlariga va shu bilan birgalikda jins va yosh davrlariga ham bog'liq hisoblanadi. Shaxsiy xususiyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, distim tipga kiruvchilarning bo'ysunuvchanligi va pessimistik xarakterning mavjudligi ularda vaziyatli xavotirni keltirib chiqarishi mumkin ekan. Ya'ni, ularda ushbu xarakter aksentuatsiyasining namoyon bo'lishi vaziyatli xavotir bilan bog'liq holatda amalga oshishi mumkin. Rasmiy tipga xos xususiyatlarining ortishi irodaviy sifatlarnig ortishiga olib kelishi va rasmiy tipga kiruvchilarning xizmat jarayonida o'zlarini byurokratlardek tutishi, saramjonlikka qat'iy rioya bo'lishi va boshqa fanlarga qiziqishning ortishiga olib keladi. Irodaviy sifatlarning ortishiga olib kelishi, namoyishkor tipga xos xususiyatlarining ortishi esa subyektiv lokal nazorat xususiyatlarining ortishiga olib kelishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev., "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak", - T.: 2017., 5 b.
2. A.I.Rasulov. "Psixodiagnostika". T., "Mumtoz so'z", 2010, 52-b.
3. A.M.Прихожан. Диагностика личностного развития детей подросткового возраста. — М.: АНО «ПЭБ», 2007. — 61 с.
4. Алябьева Е. А. Психогимнастика в детском саду. М.: Сфера, 2003, 29-с.
5. Alimbayeva Sh.T. O'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari. Psixologiya jurnali. Buxoro – 2012. № 2. B -156.
6. Otamuratov R., Otamuratova S. O'smirlarda kasbiy o'zligini anglashiga xavotirlanishning ta'siri., O'zMU XABARLARI., MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIIY JURNALI., 2023 1/1 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi, 140-144 b., Toshkent 2023.
7. Otamuratov R.U, Otamuratova S.A, Internetga qaram o'smirlar hissiy intellektining psixologik xususiyatlari., BuxDU "Psixologiya" № 2, 2023 "PSIXOLOGIYA" ILMIIY JURNALI., 61-bet.
8. Otamuratov, R. U. (2023). Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarining aloqasi. *MedUnion*, 2(1), 177-182.

9. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.
10. Ustin P.N., Otamuratov R.U., Egamqulova S.A. INTERNETGA QARAM O'SMIRLAR HISSIY INTELLEKTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // Экономика и социум. 2023. №6-1 (109). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/internetga-qaram-o-smirlar-hissiy-intellektining-sixologik-xususiyatlari>.



*Muxayyo RAJABOVA,*  
*Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: roshshinet@gmail.com*

*N.X. Oripova P.f.d, professor taqrizi asosida*

## PRINCIPLES OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR EDUCATORS OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

The article covers the purpose and main tasks of this service. A modular child support system is offered in a preschool institution. Urgent problems in the development of young children, which require the direct participation of a teacher-psychologist, are considered.

**Key words:** psychological service, early age, adaptation, neuropsychic Development, monitoring.

## ПРИНЦИПЫ ОКАЗАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ ПЕДАГОГАМ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация

В статье освещаются цель и основные задачи данной службы. В дошкольном учреждении предлагается модульная система сопровождения ребенка. Рассматриваются актуальные проблемы развития детей раннего возраста, требующие непосредственного участия педагога-психолога.

**Ключевые слова:** психологическая служба, ранний возраст, адаптация, нервно-психическое развитие, мониторинг.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING TAMOYILLARI

Аннотация

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning maqsadi va asosiy vazifalari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolani modulli qo'llab-quvvatlash tizimi taklif etiladi. O'qituvchi-psixologning bevosita ishtirokini talab qiladigan yosh bolalar rivojlanishidagi dolzarb muammolar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** psixologik xizmat, erta yosh, moslashish, nevropsik rivojlanish, monitoring.

**Kirish.** Bolalik - bolaning rivojlanishi uchun eng muhim davr. Ma'lumki, hayotning birinchi yillarida xarakterning asosiy fazilatlarini shakllanadi, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish uslubi shakllanadi, umuman hayotga munosabat shakllanadi. Va ko'p jihatdan, bolalik davrida bolaning shaxsiyati qanday shakllanganligi uning butun kelajakdagi hayotini belgilaydi. Bolalikda biz bilan sodir bo'lgan barcha voqealar bizning keyingi kattalar hayotimizda chuqur iz qoldiradi.

Bolaning qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganini va yordamga muhtojligini payqash uchun ota-onaning sezgirligi va sevgisi etarli. Eng muhimi, bolaning muammolari qor to'pi kabi o'sishni boshlagunga qadar o'z vaqtida bolalar psixologiga murojaat qilish va bolaga azob va og'riq keltirmasdan, muammoni eng qisqa vaqt ichida bartaraf etish imkoniyati mavjud [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'pgina bolalar muammolari faqat vaqtinchalik va psixologdan qisqa muddatli ishni talab qiladi. Psixolog bolalar va ularning oilalariga xulq-atvor, hissiy, oilaviy muammolarni, tengdoshlar va maktabdagi munosabatlardagi muammolarni hal qilishda va mavjud vaziyatdan konstruktiv yo'l topishda yordam beradi. Psixolog muammoni aniqlashga yordam beradi, echimlarni taklif qiladi, o'zgarishlarni kuzatib boradi va tahlil qiladi, lekin ota-onalar va faqat ota-onalar (!) farzandiga yordam berishi mumkin! Erta yosh - bu juda alohida davr - bolaning barcha a'zolari va tizimlarining yetuklik davri. Bu tez hissiy rivojlanish, vizual va samarali fikrlash, ikkinchi signal tizimi va uning asosiy funksiyalarini shakllantirish va bolaning shaxsiyatining dastlabki shakllanishi davri. Va agar ushbu muhim davrda zarur shart-sharoitlar yaratilmasa, ba'zi

funksiyalarda kechikish va bolaning shaxsiyatining dastlabki shakllanishi mavjud. Bu yosh bosqichi muhim sifat xususiyatlariga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos bo'lgan ish usullari va usullari unga taalluqli emas. Yosh bolalar bilan ishlash maxsus bilim va yosh bolalar bilan ishlash tajribasini o'z ichiga olgan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Bularning barchasi 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun psixologik xizmatni yaratishni juda muhim qiladi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Psixologik xizmatning asosiy maqsadi: bolalarning psixofiziologik xususiyatlariga muvofiq jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash. Buni amalga oshirishning asosiy vazifalari [3]:

- yoshga bog'liq neoplazmalarning to'liq rivojlanishi uchun etarli sharoitlar yaratish;

- yosh bolalar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining ishida izchillikni ta'minlash;

- o'qituvchilar va ota-onalarning psixologik va pedagogik malakasini oshirish;

- o'qituvchilar va ota-onalarga yosh bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish muammolari bo'yicha malakali maslahat va amaliy yordam ko'rsatish, - moslashish davri muammolarini hal qilish;

- yosh bolalarning nevropsik rivojlanishini kuzatish. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun biz modulli bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimidan foydalanamiz. U to'rtta blokni o'z ichiga oladi.

1. Axborot moduli. Ushbu blok ota-onalarni xabardor qilish, shuningdek, bola haqida ma'lumot to'plash bilan bog'liq barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi.

2. Moslashuv moduli. Bolalar uchun psixologik qulaylik va bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

3. Uslubiy yordam moduli. O'z ichiga oladi: pedagoglarning kasbiy darajasini oshirish, ularni an'anaviy va yangi o'qitish usullaridan foydalangan holda psixologik tarbiyalash.

4. Monitoring moduli. Monitoring jarayonida olingan ma'lumotlar o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarining harakatlarini tuzatish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi.

Psixologning yosh bolalar bilan ishlashi, birinchi navbatda, bolalarning yosh xususiyatlariga e'tibor qaratish va o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni tushunishni o'z ichiga oladi.

Psixolog faoliyatining muhim yo'nalishi bolaning aqliy rivojlanishini kuzatishdir. Rivojlanish muammolarini o'z vaqtida aniqlash ularni bartaraf etish va bola bilan keyingi ishlarni qurish uchun juda muhimdir. Keyin tibbiy-psixologik-pedagogik konsiliumda sabablar aniqlanadi va disharmonik rivojlanishi bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqiladi. Psixologik xizmat faoliyatida tematik maslahatlar (konsultatsiya) katta o'rin tutadi va axborotli, profilaktik, tashviqot vazifalarni bajaradi. Bolalar psixologining psixologik maslahat (konsultatsiya) ishlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eng "mashhur"i hisoblanadi. Psixologlarning o'zlari uni muhim deb hisoblab, ularga kasbiy qoniqlik va muassasaning ta'lim jarayonida ishtirok etish imkoniyatini beradi. Faoliyatning bu turi, ularning taxminlariga ko'ra, nafaqat tarbiyalanuvchilarga yordam berish, balki bolalarni o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, turli yosh guruhlaridagi ta'lim jarayonining o'ziga xosligini saqlab qolishga nisbatan o'z pozitsiyalarini shakllantirishga imkon beradi [4].

Tarbiyachilar psixologdan ko'pincha, ta'lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etish, mavzuga asoslangan o'quv muhitidan qanday yaxshiroq foydalanish, ta'lim mazmunini didaktik jihatdan tanlash va taqdim etish haqida maslahat oladilar. Lekin afsuski, tarbiyachilar bolalar tarbiyasini amalga oshirishda kasbiy nuqtai nazardan psixolog bilan maslahatlashmaydilar. Bu tarbiyalanuvchilar faoliyatining yetarli darajada rivojlangan reflektor tomoniga ega emasligidan dalolat beradi, shuningdek, aksariyat psixologlar maslahat berishga kompetensiyasi yetmaydi [5].

Shuning uchun bolalar tarbiyasi bo'yicha psixologik maslahat ishlarini o'tkazish jarayonida psixolog unga yondashilgan savollarni hal qilish, ta'lim oluvchilarning refleksiv sifatlarini, ular o'rgatayotgan holatlarga sezgirligini rivojlantiradi.

Psixologik maslahat ishi faqat psixologning ta'lim funksiyasini amalga oshirish bilan cheklanmaydi, lekin u katta darajada tashviqot funksiyani o'z ichiga oladi, chunki psixologga savol bergan kishi hozirgi paytda biror narsani o'rganishga, biror narsani tushunishga, o'zini o'zgartirishga tayyor bo'ladi.

Psixologning mashg'ulotdagi bolalar intizomi masalasi bo'yicha olib borgan ishlari ssenariysi va pedagoglardan psixologlarga berilgan ayrim savollarga javoblarning axborot tartibi misolida bu qoidalardan misol keltirishga harakat qilamiz.

Odatda, ikki sabablarga ko'ra pedagoglarni intizom to'g'risida o'ylaydilar, birinchidan, uning yo'qligida samarali ta'lim-tarbiyaga ta'sir kamayadi, ikkinchidan, mashg'ulotda bolalar kundalik jadvalining buzilishi pedagogga xalaqit beradi, uning o'quv imkoniyatlarini kamaytiradi, uning faoliyatini buzilishiga olib keladi.

Psixologning bog'chadagi mashg'ulotlarida intizom masalalari bo'yicha olib borgan ishlari ko'p o'lchovli va bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin [6].

Birinchi bosqich diagnostik bosqich bo'lib, u bolalarning o'quv faoliyatini davomidagi intizomsizlik sabablarini o'rganishdan iborat. Buning uchun psixolog guruhlardagi darslarning borishini kuzatadi, intizom buzilishi faktlarini qayd etadi va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil qiladi. Misol uchun, bu quyidagi holatlarni o'z ichiga olishi mumkin: tarbiyachining asabiylashishi, muloqot ohangini haddan tashqari ko'tarilishi, bolalardan norozilik va ularning hatti-harakatlari oqibatida guruhdagi salbiy hisslarning paydo bo'lishi;

Ikkinchi bosqich, psixologning pedagoglar bilan guruhda intizom buzilishiga olib keladigan omillarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha olib boradigan axborot, profilaktik va tashviqot ishlari.

Bu individual va guruh psixologik maslahat ishlari, seminarlar, ularning rivojlanayotgan ta'sirini yaxshilash maqsadida mashg'ulotlarni tashkil etish muammolari bo'yicha munozaralar bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlarda bolalar bilan muloqot qilishni qanday o'rganish kerakligi bo'yicha og'zaki o'zaro tahlil usuli, o'quv jarayonida bolalarning hissiy taranglikni bartaraf qilish maqsadida salbiy hisslarni "chiqarish" ta'lim usullari foydalanish kerak. Bu pedagoglarning porfessionalligini oshirish va ularning shaxsiy o'sishi uchun ta'limning barcha ishtirokchilari bilan psixologning ish turlari va shakllari.

Psixolog pedagoglar orasida bolalarning intizomsizligi va uning sabablarini tahlil qilishda yuqori darajadagi refleksivlik ko'rinishlariga nisbatan oqilona munosabatni shakllantirish ayniqsa muhimdir. (Ko'pincha bolalar guruhda tartibni buzishda, o'qitish mazmuni va didaktikasidagi nuqsonlarni qidirish o'rniga bolalar ayblanadilar). Tarbiyachilar tomonidan bolalar tartibining buzilishi haqida izoh berishning xushmuomala shakllarini o'zlashtirish zarurligini e'tirof etish lozim [7].

Ushbu maqsadga erishish uchun psixolog roli o'yindan foydalanishi mumkin. Masalan, bir guruh tarbiyachilarga syujetli-rolli o'yinlar uchun o'yin voqeligini ishlab chiqishning yangi texnologiyasini o'rgatish uchun "dars" berilishi kerak. Shuningdek, qiyinchilik va "omadsiz" faoliyatni yuzaga keltiruvchi maxsus vaziyatlar (zaruriy vositalar yetishmasligi, ish uchun qulay joylarning yo'qligi, chalg'itadigan narsalar, noaniq ko'rsatmalar, mazmunan "kambag'al" materiallar, individual qobiliyat nisbatan tushuntirishlar va boshq.) modellashtiriladi [8].

Uchinchi bosqich, psixologning mashg'ulotlarda intizom muammolarini hal qilish bo'yicha olib borgan ishlari, bolalarga xulq-atvor va faoliyatida o'zini-o'zi tartibga solishda qiyinchiliklarga duch kelganda yordam berishdir. Ishining shakllari boshqacha bo'lishi mumkin. Bolalarning ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar, pedagogning vazifalarini tinglash, qabul qilish, saqlash va bajarish qobiliyatini rivojlantirish "dars"lari, bolalarning ishonchini, muloqot qobiliyatini va guruhdagi boshqalar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulotlari, muvaffaqiyatsiz faoliyatning chidamsiz kabi psixogimnastik ishlar, faoliyat sur'atini rivojlantirishda mashqlar va bolalar bilan boshqa ko'plab ish turlari xulq-atvor va faoliyatni o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish. Psixolog bolalar bog'chasida guruhli o'quv mashg'ulotlari sharoitida bolalarning zarur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ish tizimi ustida ham fikr yuritadi [9].

**Tahlil va natijalar.** Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashg'ulotda intizomning vazifasi o'zining uchta o'zgaruvchisiga ega ekan, bular:

- Pedagogning guruhda mustahkam o'rnatilgan, mazmunli va didaktik tartibga bo'ysunishi;
- Bolalarning o'quv jarayonida obyektiv ravishda zarur bo'lgan muayyan amal qilish imkoniyatlari,

ko'nikmalari va odatlari, ya'ni guruhdagi bolalarning o'zini-o'zi tartibga solish va o'zini-o'zi nazorat qilish;

– Tarbiyachilar ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quv vazifasini amaliy vazifadan farqlashi qiyin. Bu masala bo'yicha psixologik maslahati birinchi navbatda pedagoglarni yetakchi psixologlarning qarashlari bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi.

Bog'cha psixologi uchun ta'limiy vazifasining yakuniy mahsuli va amaliy vazifa muammosining tubdan ahamiyatga egaligi shundaki, ta'lim amaliyotida, guruhda o'quv vazifasining o'rnini bosishda ko'pincha amaliy vazifa muammoning yechimi hisoblanadi.

Bolalar bog'chalarida mashg'ulotlarini o'tkazishda, butun guruh bolalar bir vaqtning o'zida ayrim tarbiyaviy harakatlarni bajarganda, tarbiyachi aksariyat bolalarning ta'lim-tarbiya vazifalarini hal qilish yo'llarini muqarrar ravishda ko'ra olmaydi. Unga ko'rinadigan yagona narsa, bu obyektlardagi o'zgarishlar (bo'sh qog'ozlardagi izlar, plastilin parchalaridagi modifikatsiyalar va boshq.), ya'ni mavzu vazifalarining yakuniy natijasi bo'lib, pedagoglar bolaning rivojlanishini, uning bilim qobiliyatini va uning kompetensiyadagi o'zgarishlarni bilvosita baholaydilar.

Shunday qilib, bolalar bog'chalarida o'quv mashg'ulotlari jarayonida "ta'limiy vazifa" tushunchasining aniqlashtirilishi va uning yakuniy natijasini aniq anglash kichik yoshdagi bolalar bilan tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

Guruhdagi amaliy va tarbiyaviy vazifalarni farqlash bolalarning o'quv faoliyati natijalarini psixologik tahlil qilishni, shuningdek, mashg'ulotlarda maqsadni belgilash va

uning barcha didaktikasini shu nuqtai nazardan atroflicha tahlil qilishni talab etadi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday ekan, diagnostika psixolog ishining asosiy yo'nalishidan uzoqdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bolaning ruhiyati va shaxsiyatining normal rivojlanishi uchun etarli shart-sharoitlarni ta'minlash muhimroqdir. Ushbu shartlar orasida asosiy narsa bolaning yaqin kattalar bilan to'liq va yoshiga mos keladigan mulqotidir. Maktabgacha ta'lim muassasamizda "Yosh oila maktabi" tashkil etilgan bo'lib, unda bevosita psixolog ishtirokida ota-onalarning o'ziga xos tarbiyasi va o'rgatish ishlari olib borilmoqda [10]. Yuqoridagilarga asoslanib, biz psixologning yosh bolalar bilan ishlashi uchun quyidagi tamoyillarni shakllantirishimiz mumkin:

1. 1-3 yoshli bolalarning o'ziga xos yoshi, qiziqishlari va imkoniyatlariga e'tibor qaratish.

2. Rivojlanish ishlarining korreksiya va diagnostika ishlariga nisbatan ustuvorligi.

3. O'qituvchi bilan mazmunli hamkorlik va o'qituvchi va psixolog funksiyalarining bir-birini to'ldirishi.

4. Ota-onalar bilan mulqot qilish, ularning psixologik-pedagogik malakasini oshirish va ularni pedagogik jarayonga jalb qilish.

Demak, yosh bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun yetarli va malakali psixologik-pedagogik yordam zarurligini ko'ramiz. Bolalar bog'chasiga tashrif buyurishning birinchi kunlaridan boshlab bolaga ehtiyotkorlik va malakali munosabat chaqaloqning istalmagan rivojlanishining oldini oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O.A.Shukurullayev Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni ta'minlash va psixologik xizmat sohasini takomillashtirish yo'llari.
2. L.Mo'minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar ,2013.
3. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.
4. Ansari, A., and Pianta, R. C. (2018). Teacher-child interaction quality as a function of classroom age diversity and teachers' beliefs and qualifications. *Appl. Dev. Sci.* 23, 294-304.
5. G'oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2000 y.
6. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. -T.: TDPU, 2017.
7. Климов Е.А. Психология профессионала. – М., Воронеж, 1996. П.– 275.
8. Бердиева Г.Дж. "Социально-психологические особенности возникновения конфликтных ситуаций у студентов" // Проблемы современного образования, №5, 2020 год.
9. Golovey L. A., Ribalko E. F. "Rivojlanish psixologiyasi bo'yicha amaliyot". Sankt Peterburg, 2001 yil.
10. Juravlev V. I. "Pedagogik konfliktologiya asoslari". M. 1995. 184 b.





UDK:304.5

*Угилхон РАИМЖАНОВА,*  
Доцент, Ташкентский государственный аграрный университет  
E-mail:oraimjanova@mail.ru

*По отзыву профессора НУУз Н.А.Шермухамедова*

## СОВРЕМЕННАЯ ЖЕНЩИНА И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ

Аннотация

На протяжении всей истории человечества мужчины и женщины играли разные роли в семье и обществе. На протяжении веков в разное время и в большинстве обществ женщины отказывались от важных решений общественной жизни. Со временем женщины постепенно завоевывали свое место в обществе благодаря своей работе, ценностям и особенно действиям.

В этой статье освещается современная женщина и ее роль в обществе, внимание, уделяемое женщинам и гендерным вопросам, роль современных женщин-ученых в развитии общества.

**Ключевые слова:** история, общество, женщины, гендерное равенство, успехи, научный потенциал, труд, общественные отношения.

## ZAMONAVIY AYOL VA UNING TARIXIY TUSHUNCHALARI

Annotatsiya

Insoniyat tarixi davomida erkaklar va ayollar oila va jamiyatda turli rollarni egallashgan. Bir necha asrlar davomida turli vaqtlarda va aksariyat jamiyatlarda ayollar ijtimoiy hayotning muhim qarorlaridan voz kechishgan. Vaqtlar o'tib ayollar o'zlarining ishlari, qadriyatleri va ayniqsa harakatlari tufayli asta-sekin jamiyatda o'zlarining o'rinariga ega bo'lishdi.

Ushbu maqolada zamonaviy ayol va uning jamiyatda tutgan o'rni, ayollar va gender masalalariga berilayotgan e'tibor, jamiyat taraqqiyotida zamonaviy olim ayollarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, jamiyat, ayollar, gender tenglik, muvaffaqiyatlar, ilmiy salohiyat, mehnat, ijtimoiy munosabatlar.

## MODERN WOMAN AND HER HISTORICAL CONCEPTS

Annotation

Throughout the history of mankind, men and women have played different roles in the family and society. Over the centuries, at various times and in most societies, women have refused to make important decisions in public life. Over time, women gradually gained their place in society through their work, values, and especially actions.

This article highlights the modern woman and her role in society, the attention paid to women and gender issues, and the role of modern women scientists in the development of society.

**Key words:** history, society, women, gender equality, success, scientific potential, labor, public relations.

**Введение.** Главным «зеркалом» любого общества, несомненно, являются женщины. Женщины составляют пятьдесят три процента населения Земли. Поэтому гендерные проблемы в мире становятся все более актуальными. А в нашей стране около 50% населения составляют женщины. Все их права и свободы всегда находятся под защитой закона.

Какой бы ни была социальная система государства, уровень благосостояния населения в нем, стабильность семей, воспитание будущего поколения, талант, достижения во всех аспектах определяются вкладом женщин в развитие страны и отношением к ним общества для женщин. Статья 46 Конституции Республики Узбекистан также определяет, что «женщины и мужчины имеют равные права»[1].

Уважение и почтительность к женщине, сохранение и прославление ее - одно из важных качеств менталитета нашего народа, которое сформировалось на протяжении многих тысячелетий истории и остается отличительной чертой нашего образа жизни. В то же время они эффективно и активно работают во всех сферах социально-духовной, политической и экономической жизни. Приоритетные задачи человеческого развития и демократизации неизбежно восходят к вопросам, связанным с достижением равенства между мужчинами и

женщинами. В результате возникает необходимость в повышении статуса женщин и расширении их прав.

**Обзор литературы и методология.** Исторический контекст относится к временному и культурному фону, в котором развивались и продолжают развиваться социальные роли и статусы женщин. Он включает в себя исторические события, обычаи, нормы и ценности, которые оказывали влияние на жизнь женщин в разных обществах и эпохах.

Изменение места и роли женщины в обществе сопряжено с фрагментарностью и противоречивостью ее существования, когда множественность сфер ее деятельности дестабилизируют ее некогда устойчивую идентичность. Отсутствие единого социального значения, с которым женщина могла идентифицироваться, порождает поиск новых смыслов, выполняющих условие стабильности и изменчивости одновременно.

В разных периодах истории женщины сталкивались с различными ограничениями и привилегиями, которые определялись социальными, экономическими и политическими условиями времени. Например, в древних обществах женщины часто ограничивались ролью домохозяйки и матери, в то время как в некоторых современных обществах они имеют больше возможностей для образования, работы и участия в политической жизни.

Недавние разработки были направлены как на возвращение к изучению скрытых материалов, которые занимали мыслителей самого раннего нового времени, так и на расширение того, что считается философским текстом или подходом. Например, в истории политической философии изучение стойкости аристотелевской традиции, в которой этика и политика неразделимы и где основное внимание уделяется добродетели и благу, а не правам и обязанностям, приводит к включению женщин-философов раннего нового времени в историю политической мысли[2]

Одна из многих странностей профессии историка заключается в том, что область интеллектуальной истории женщин так и не утвердилась среди ученых девятнадцатого века. У нас нет книг о женском либерализме девятнадцатого века, взглядах женщин на природу государства или представлениях женщин о международных отношениях. Было опубликовано несколько замечательных статей о взглядах женщин на империализм, радикализм, социализм и политическую экономию, но они никогда не выделялись в отдельную область, а недавняя работа о женщинах и просвещении в XVIII веке не имеет аналогов в XIX веке[3].

Такая модель научной работы отчасти может быть объяснена тем фактом, что в программе исследований по гендерной истории до недавнего времени доминировала забота о том, в какой степени жизнь женщин определялась парадигмой отдельных сфер». Результатом неизбежно стало сосредоточение внимания на том, что женщины делали, а не на том, что они думали, если только кто-то не был заинтересован в изучении того, как женщины бросали вызов идеологии «разделения сфер» или манипулировали ею, чтобы создать возможности для участия в общественной жизни. Результаты можно увидеть в обширной литературе о женщинах и политике девятнадцатого века, которая была больше посвящена описанию того, как женщины могли участвовать в политической жизни, чем изучению их политических убеждений.

Таким образом, у нас есть подробные исследования деятельности политических активисток вигов, но нет сведений о том, были ли эти женщины мотивированы ностальгией по принципам фокситов или находились под влиянием модного либерального англиканства; точно так же мы точно знаем, сколько женщин вступили в Лигу Примроуз и что они делали в качестве членов этой организации, но у нас нет подробного отчета об их взглядах на насущные политические вопросы 1880-х и 1890-х годов. В результате получается своеобразный неоамериканский взгляд на политику, в котором основное внимание уделяется политической практике, а история идей отвергается в пользу социальных объяснений политических действий[3].

Исторический контекст также включает в себя борьбу женщин за равенство и права. В разных периодах истории женщины организовывались, чтобы бороться за свои права, включая право на голосование, равную оплату труда и доступ к образованию. Эти борьбы и достижения женщин оказали значительное влияние на изменение социальных ролей и статусов женщин в обществе.

**Анализ и результаты.** Человечество с момента формирования социальной формы движения и до наших дней осуществляет поиск гармонии и равновесия между индивидуальным и коллективным, прогрессом и традициями. Двигателем общественного развития является духовность, накапливаемая цивилизацией и фиксируемая культурой. Именно духовность (традиционно ассоциируемая с женским началом)

формирует сущность цивилизации, а ее утрата означает деградацию, упадок и гибель цивилизации.

Прогресс, как двигатель цивилизации, воплощается в разуме и творчестве мужского начала, тогда как женское начало является носителем культурных традиций, воплощает в себе мудрость. В современном обществе в соотношении разума и мудрости преобладает разум. Мудрость как проявление духовности женского начала еще полностью не востребована.

Самоидентификация женщины рассматривается не только во временной длительности (детство, юность, зрелость, пожилой возраст), отмечающей ее процессуальность, но и как система. Любая система включает в себя набор элементов и способы их объединения. Критерием выделения системных элементов является взаимодействие между полом-функцией и гендером, т.е. определяются те области женского существования, в которых полфункция и гендер пересекаются с позиции равнозначности обоих[4].

Количество женщин, занимающих высокие должности в нашей стране, растет с каждым годом, и в этой связи 2 сентября 2019 года стало важным шагом Президента в этом направлении в рамках Стратегии действий. Иными словами, Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей женщин и мужчин» подписан, и вопрос гендерного равенства рассматривается на уровне государственной политики. Согласно закону, государственное управление в этой сфере осуществляется Кабинетом Министров Республики Узбекистан, Комиссией Республики Узбекистан по вопросам гендерного равенства, а также государственными органами в пределах их компетенции[5].

Социально-философский анализ бытия современной женщины осуществляется через отказ от натуралистического понятийного и терминологического аппарата. Разработанный в недрах феминистской теории гендерный подход полностью отвечает антиэссенциалистской направленности социально-философского знания. Поскольку гендер понимается как социальная и культурная конструкция половой определенности человека, варьирующейся от общества к обществу, то понятие «пол» с его натуралистской нагруженностью и коннотацией «сущностного предназначения» либо игнорируется, либо намеренно отбрасывается, замещаясь «гендером»[4].

**Дискуссия.** Другие акценты способствовали пренебрежительному отношению к идеям женщин и их собственным оценкам обществ, в которых они жили, - например, предположение о том, что изучение мыслей женщин прошлого само по себе является элитарным актом, который опирается на Мишеля Фуко, Пьера Бурдьё или Джудит Батлер как современные теоретики. Кроме того, сосредоточение внимания на женщинах из западных регионов мира не обязательно привело бы к отказу от их собственного понимания природы их жизни и культуры, но это, как правило, приводило к этому, потому что исследование было так сильно привязано либо к западным, либо к элитарным постколониальным и подчиненным теоретикам. И суть этой теории была сформулирована теоретиками-мужчинами, мало интересующимися проблемами женщин, чьи идеи пришлось переформулировать, чтобы включить в них гендерные аспекты.

Мы многое выиграли от научных исследований, основанных на новых теоретических открытиях, но я бы сказал, что мы также упустили важный аспект женского прошлого. Мы склонны чрезмерно использовать мемуары и письма в качестве документов, способствующих нашему

собственному пониманию, и опускать широкий социальный и политический анализ женщин прошлого, касающийся их регионов и культур. Это было бы незначительное число практически при любых обстоятельствах, но оно было связано с женскими идеями или мышлением только в трех случаях: эссе о польских женщинах-интеллектуалках конца девятнадцатого века, взгляды Перл Бак на холодную войну и усилия мусульманских женщин во Всеиндийской женской ассоциации ввести женское агентство в начале двадцатого века[6].

Для полной активации творческого потенциала педагога-женщины необходимо наличие творческого коллектива единомышленников и положительный отзыв на результаты ее деятельности окружающими, некая «обратная связь», ощущение постоянной поддержки. Поэтому можно выделить еще одну сторону или форму самореализации женщин-педагогов, связанную с ориентацией на личностные «вклады в других».

1) Разминка должна стать составной, неотъемлемой частью каждой тренировки и проводится по определенному, заранее составленному плану.

2) Значение разминки следует рассматривать в первую очередь с точки зрения влияния ее на деятельность центральной нервной системы, в свою очередь, обеспечивающей изменения в деятельности всего организма.

3) Упражнения в разминке должны соответствовать предстоящей спортивной деятельности по условиям и выполняться с определенной технической целенаправленностью, что обусловит характер будущей физической нагрузки, выраженной наиболее полноценной подготовкой организма занимающегося к выполнению специфических упражнений.

4) Продолжительность и интенсивность разминки, и интервал между разминкой и основной деятельностью определяются рядом обстоятельств: характером предстоящего упражнения, внешними условиями (температурой и влажностью воздуха и др.), индивидуальными особенностями и эмоциональным состоянием занимающегося.

**Выводы и предложения.** Таким образом, можно сделать вывод о том, что разминка, несомненно, являясь обязательной частью любого занятия физической культурой или спортом, так как ее основная задача сводится к подготовке организма занимающегося к предстоящим интенсивным нагрузкам основной части тренировочного занятия. Представляя собой «предстартовый комплекс упражнений» – разминка предотвращает травматизм и позволяет психологически настроиться на намеченную спортивную деятельность, позволив раскрыть занимающимся свой потенциально возможный уровень.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Кириллова Я.В. Проблема самоактуализации в процессе профессионального воспитания студентов вуза физической культуры / Я.В. Кириллова // Вестник челябинской государственной академии культуры и искусств. – 2013. – № 4 (36). – С. 157-160.
2. Столяров, В. И. Понятийный кризис в науках о физической культуре и спорте: показатели, причины и пути преодоления / В.И. Столяров // Теория и практика физической культуры. – 2007. – № 12.
3. Липатова И.Ф. Влияние занятий физической культурой и спортом на работоспособность студентов вуза / И.Ф. Липатова // Актуальные проблемы физической культуры, спорта и здоровья: пути их реализации: материалы науч. - практ. конф. - Чебоксары: Изд-во Чуваш. Ун-та, 2017. – С. 110-116.
4. Неверкович С.Д. – М.: Академия, Педагогика физической культуры и спорта: учебник. – 2010. – 329 с.



**Abror TEMIROV,**  
*Xalqaro Nordik universiteti magistranti*  
*E-mail: abrortemirov0307@gmail.com*

*Nizomiy nomidagi TDPU p.f.d L.Zaripov taqrizi asosida*

### KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TA'LIMNI TASHXIS ETISHNING SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etishning pedagogik asoslarining nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, kredit-modul tizimining ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim tizimi, kredit, modul, o'quv yuklama, pedagogik shart-sharoitlar, ECTS.

### ТРЕБОВАНИЯ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ ОБРАЗОВАНИЯ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В данной статье описывается кредитно-модульная система в системе высшего образования. Объясняются теоретические основы педагогических основ введения. Также подробно о значении кредитно-модульной системы в образовательном процессе предоставляется информация.

**Ключевые слова:** Система высшего образования, кредит, модуль, учебная нагрузка, педагогические условия, ECTS.

### REQUIREMENTS FOR IDENTIFYING EDUCATION UNDER THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation

In this article, the credit-module system in the higher education system. The theoretical foundations of the pedagogical foundations of the introduction are explained. Also, in detail about the importance of the credit-module system in the educational process information is provided.

**Key words:** Higher education system, credit, module, educational load, pedagogical conditions, ECTS.

Hozirgi yashab kelayotgan davrimizning ustuvor vazifalaridan bu – ta'limda sifatni yaxshilash va takomillashtirish hisoblanadi. Ta'limdagi islohotlar kelajakda katta samara berishini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Bugun mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta'lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon tajribasi asosida rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va kelajakda mutaxassislarining mas'uliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Aynan shu maqsadlarni ko'zda tutgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida [1]"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinin 2020-yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida [2]"gi qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy qilina boshladi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [3]"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Bu qabul qilingan farmondan so'ng O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ishlari amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik

va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish choratadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida 2022-yil yanvar oyidan boshlab 35 ta oliy ta'lim muassasasida ushbu tizim joriy etildi. Bizlarga ma'lumki, hayotimizda ko'p narsalarning o'lchov birligi mavjud. Masalan, vaqt o'lchov birligi – sekund, og'irlik – kilo, uzunlik o'lchovi – metr, elektr kuchlanish o'lchovi – amper, suyuqlik – litr. Shunda savol tug'ilishi tabiiy, ta'limning ham yoki oliy ta'limning o'lchov birligi bormi? Aytishingiz mumkin, ha oliy ta'limning o'lchov birliklari bu bakalavr, magistratura va doktorantura deb. Lekin bular ta'limning o'lchov birliklari emas, uning bosqichlari hisoblanadi. Afsuski, hozirda mamlakatimizda oliy ta'limning talabalar progressini, ularning mutaxassis sifatida shakllanishini muntazam ravishda baholab boruvchi hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligi mavjud emas.

Kredit-modul tizimi avvalambor, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammalroq, zamonaviy biroq hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligini olib kiradi. Unga ko'ra OTM o'quv dasturlari muayyan o'qish natijalarini ko'zlovchi turli fan va modularga bo'linadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda namoyon bo'ladi. Masalan, har bir fan o'rta hisobda 5, 6 yoki 7.5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talabalar esa har semestr va o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi va tegishli miqdordagi kreditni to'plagandan keyin unga bakalavr yoki magistratura darajasi berilishi belgilanadi. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida kredit modul tizimini joriy etish bo'yicha o'zbek olimlaridan V. O'rinov, M.S. Sobitxo'jayeva, M.U. Hasanova, M. G. Jumanova, D. Abdurahmonova, A. Avazboyev, Y. Jo'rayev, M. Daniyarov, D. Nosirov, Noraliyeva va K. Mamajonovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar. MDH olimlaridan T.Ye.

Anatolevna, A.G. Yefremov, V.P. Chistoxvalov, L.S. Grebnev, Yu.S. Davidov, Ye.N. Gevorkyan kabi tadqiqotchilar kredit modul tizimini o'quv jarayonida qo'llash muammolarini ilmiy jihatdan yoritib berganlar. Xorij olimlaridan K. Riko, A. Trov, B. Sellin, Julia kabi tadqiqotchilar kredit modul tizimining joriy qilinishi va uning yutuq, kamchiliklarini o'z tadqiqot ishlarida ilmiy asoslab berganlar.

O'qitishning kredit-modul tizimi o'zi nima?

"Kredit (credit)— talabning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklarni o'lchov birligidir. Kredit — talabning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim [4]. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi.

Modul—bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi [5]. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 akademik soatlik o'qish yuklarni o'lchovga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni qo'lga kiritishi uchun ma'lum miqdordagi o'qish yuklarni bajarishi zarur.

O'qish yuklarni bu talaba muayyan o'qish natijalariga erishishga qaratilgan barcha tizimli o'qish mashqlari va harakatlarini bajarish uchun kerak bo'ladigan vaqtdir. Bu degani yuqorida 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o'qish yuklarni bu talaba fanni o'rganish uchun sarflashi ko'zda tutilayotgan jami o'qish harakatlar jamlanmasidir. Unga nafaqat dars vaqti, balki talabning fanni o'rganish uchun kutubxonada va uyda sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, qo'yingki talaba ushbu fanni o'zlashtirish uchun barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi. 1 kredit o'qish yuklarni 25-30 soat oralig'ida aynan necha soat bo'lishini odatda har bir OTM o'zining ichki qoidalari belgilaydi va bu qoidalarni OTM veb sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi. Agar fan 6 kreditli fan bo'lsa, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 150-180 soatlik o'qish yuklarni bajarishi kerak bo'ladi ( $25 \times 6 = 150$ ;  $30 \times 6 = 180$ ). Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklarni belgilagan bo'lsa, undan 12 soati ( $30 \times 40\% = 12$ ) auditoriya soatlari, 18 soati ( $30 \times 60\% = 18$ ) esa talabning 13 mustaqil o'qish soatlari to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklarni aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ( $(30 \times 6) \times 40\% = 72$ ) auditoriya darslarini, 108 soat ( $(30 \times 6) \times 60\% = 108$ ) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklarni bajarishi kerak bo'ladi. ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 kreditni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrda iborat ekanligini hisobga olsak, talaba o'qishi davomida har semestr 30 kredit to'plab borishi zarur. Bakalavr dasturi odatda 4 yil ekanligini hisobga olsak, talaba ushbu darajani qo'lga kiritish uchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallash uchun esa 120 kredit to'plashi kerak bo'ladi. Shunday ekan kredit-modul tizimini joriy etgan

OTMlarda talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab, o'qishlari hali boshlanmasdan har bir fanni o'qish va o'rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligi haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Bu ham ta'limda shaffoflikning bir ko'rinishidir. ECTS kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan universitetlar amaliyotini tahlil qilganimizda, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo'lgan fan va modularda auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40%ga 60% ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu nisbat boshqacha aytganda 1: 1.5 to'g'ri keladi. Ya'ni, talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qish, tayyorlanishi kerak bo'ladi. Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklarni va talaba buning natijasida muayyan o'qish natijalariga erishganligini bildiradi. Bu yuklarni bajarilganiga o'sha fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritishi mumkin. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korruptsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda Evropa kredit tizimi ko'hna qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amaliyotga joriy etilgan. Kredit-modul tizimida "Ma'muriy boshqaruv", "O'quv jarayoni", "Ilmiy faoliyat", "Moliyaviy boshqaruv" va statistika" axborot tizimlarini o'z ichiga olgan HEMIS axborot tizimi ham keng ma'lumot berilmoqda. Ushbu tizim oliy ta'lim faoliyatini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi.

HEMIS axborot tizimi — bu o'qituvchilarning kaliti, shaffoflikni ta'minlaydigan yagona platforma sifatida ma'lumotlar kiritiladigan baza hisoblanadi. Seminarlarda HEMIS dasturida ishlash, kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, pedagoglar faoliyati va o'zlashtirishni baholash, tizimda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, raqamlashtirish kabi muhim tamoyillariga ham urg'u berildi. Albatta, oliy ta'lim o'qituvchilarining HEMIS dasturida ishlash va kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etishdagi bilim va tajribalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarining mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalarini har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyatni ham, talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolindi. Ta'limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'tishi mumkin. Aynan ushbu tizim o'zbekistonlik talabalarining ilg'or xorijiy universitetlarda

o'qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to'siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratib beradi. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, har qanday xalqaro tajribani ko'r-ko'rona, o'z qadriyatlarimizni hisobga olmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilmas ekan, kelajakda ma'lum bir salbiy holatlarning yuzaga kelishini ham unutmash kerak. Ya'ni ushbu tizim bizning dunyoqarashimiz, shart-sharoit, barkamol insonni voyaga etkazishga qaratilgan qadriyatlarimizga to'la-to'kis mos keladi, degani ham emas. Shu sababli, o'quv jarayonining faol elementlari hisoblanmish professor-o'qituvchi va talabning ham bu boradagi qarashlarini o'zgartirishimiz, mazkur tizim talablarini ularga singdirishimiz, o'ziga xos madaniyatni shakllantirishimiz darkor. Zero, mehnat bozori talabiga mos kadrlarni tayyorlamas ekanmiz, raqobatda o'z o'rnimizni, mavqeyimizni yo'qotishimiz muqarrar ekanligini his qilishimiz lozim. Ammo oldimizda bundan yaxshiroq yo'l ham, tanlov ham yo'q. Nega deganda, barcha rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari ushbu yo'ldan yurib, yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Kredit-modul tizimi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltirish orqali oliy ta'lim muassasalari maxsuloti bo'lmish bo'lg'usi kadrlarni zamon talablariga munosib mutaxassis etib tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday tizim rivojlanishi uchun yangiliklarni joriy qilishga ehtiyoj sezadi. Shunday ekan OTMLarida kredit-modul tizimini joriy qilish va uni rivojlanishi OTMLarida yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lishi, ishga joylashishida, professor o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga, OTMLarida o'quv-moddiy bazani rivojlantirishga, akademik mustaqilligini ta'minlashga, OTMLarida talaba, professor-o'qituvchilarni o'zaro almashishda (chet el OTMLari bo'yicha ham) qulayliklar tug'diradi, O'zbekiston Respublikasini Bolonya jarayonlarida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritishida va boshqalarni amalga oshirishda katta yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda 5847-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", farmoni 1-ilovasi, 2-bandi.
4. Axmedova S. R. Masofaviy ta'lim va uning xorijiy tillarni o'qitishdagi o'rni //Science and Education. - 2021.
5. Туйчиева, И. И. (2019). Вопросы обеспечения активизации мыслительной деятельности детей в процессе дошкольного образования. In PSYCHO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF A PERSONALITY AND SOCIAL INTERACTION (pp. 22-25).





UDC: 37(45)(575.1)

*Oybek TOSHMATOV,*  
Head of Foreign Languages Department of Tashkent state university of law  
E-mail: o.toshmatov@tsul.uz

Reviewer: Z.Abdusamadov PhD in Philology

### EMPOWERING LEGAL MINDS: HARNESSING MOBILE APPLICATIONS FOR SELF-STUDYING AND TEACHING LEGAL ENGLISH AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

Annotation

This article investigates the efficacy of integrating mobile applications, particularly the "VLegal" app, into the curriculum of Tashkent State University of Law for self-studying and teaching Legal English. By leveraging the convenience and accessibility of mobile technology, this study explores how students can be motivated to engage in self-directed learning and enhance their proficiency in legal language. Through a comprehensive review of scholarly literature and empirical data analysis, this paper demonstrates the transformative potential of mobile applications in legal education.

**Key words:** legal education, mobile applications, vlegal app, self-studying, motivation, immersive learning, gamification, interactive tools, experiential learning

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ ЮРИДИЧЕСКОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

Аннотация

В данной статье исследуется эффективность интеграции мобильных приложений, в частности приложения «VLegal», в учебную программу Ташкентского государственного юридического университета для самостоятельного изучения и преподавания юридического английского языка. Используя удобство и доступность мобильных технологий, в этом исследовании рассматривается, как можно мотивировать студентов к самостоятельному обучению и повышению уровня владения юридическим языком. Благодаря всестороннему обзору научной литературы и анализу эмпирических данных эта статья демонстрирует преобразовательный потенциал мобильных приложений в юридическом образовании.

**Ключевые слова:** юридическое образование, мобильные приложения, приложение Vlegal, самообучение, мотивация, иммерсивное обучение, геймификация, интерактивные инструменты, экспериментальное обучение

### YURIDIK INGLIZ TILINI MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH. TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI TAJRIBASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Toshkent davlat yuridik universitetining yuridik ingliz tilini mustaqil o'rganish va o'qitish bo'yicha o'quv rejasiga mobil ilovalarni, xususan, "VLegal" ilovasini integratsiyalash samaradorligi tahliliga bag'ishlangan. Mobil texnologiyalarning qulayligidan foydalangan holda, ushbu maqolada talabalarning yuridik ingliz tilini mustaqil o'rganishga qanday rag'batlantirish va yuridik tilni bilish darajasini oshirish mumkinligi tahlil qilinadi. Yuridik adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish va empirik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ushbu maqola yuridik ta'lim sohasida mobil ilovalarning o'zgartirish imkoniyatlarini tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** yuridik ta'lim, mobil ilovalar, Vlegal ilovasi, mustaqil ta'lim, motivatsiya, immersiv o'rganish, o'yinlar orqali o'rganish, interaktiv vositalar, eksperimental o'rganish

**Introduction.** Legal English proficiency is paramount for law students, as it equips them with the linguistic tools necessary to navigate the intricate nuances of legal discourse effectively[1]. However, traditional approaches to teaching Legal English often fall short in engaging modern learners due to their lack of dynamism and interactivity[2]. In recent years, the proliferation of mobile technology has presented educators with an unprecedented opportunity to revolutionize the learning experience by integrating mobile applications into classroom instruction.

The implementation of mobile applications such as the "VLegal" app at Tashkent State University of Law represents a significant advancement in legal education. By leveraging the accessibility and convenience of mobile technology, educators can facilitate self-study and promote active engagement among students[3]. The "VLegal" app, in particular, offers a multifaceted approach to learning, encompassing interactive exercises, multimedia resources, and real-world case studies.

**Literature review.** In the dynamic landscape of legal education, the integration of technology has become increasingly imperative, as scholars such as Smith have emphasized. Smith underscores the significance of incorporating technological tools to not only enhance student engagement but also to improve learning outcomes within legal education. This assertion is corroborated by recent research conducted by Jones and Wang, who highlight the emergence of mobile applications as valuable assets in promoting self-directed learning. Their study accentuates the accessibility and flexibility afforded by mobile technology, enabling students to seamlessly access educational resources irrespective of time and location.

Furthermore, the effectiveness of mobile learning in enhancing language proficiency has been substantiated by the research of Johnson[1]. Their study underscores the transformative impact of mobile applications in improving language skills across diverse student populations. By providing learners with opportunities for continuous

engagement and practice, mobile learning emerges as a promising avenue for enhancing linguistic competence, particularly in specialized domains such as Legal English.

These findings collectively underscore the potential benefits of leveraging mobile applications in legal education. By integrating technology into the curriculum, educators can create dynamic and interactive learning environments that cater to the diverse needs and preferences of students. The accessibility and flexibility afforded by mobile learning platforms not only empower students to take ownership of their learning journey but also facilitate the development of essential skills such as language proficiency. As legal education continues to evolve in response to technological advancements, the integration of mobile applications stands poised to revolutionize the way legal concepts are taught and learned.

**Methodology.** This research adopts a mixed-methods approach to comprehensively evaluate the impact of integrating the "VLegal" app into the curriculum of Tashkent State University of Law for self-studying Legal English. The methodology comprises qualitative interviews with both students and instructors. This approach allows for a nuanced understanding of the app's effectiveness in enhancing language proficiency and student engagement.

Semi-structured interviews are conducted with a purposive sample of students and instructors at Tashkent State University of Law. The selection criteria ensure representation across different levels of proficiency and diverse backgrounds. These interviews explore participants' experiences, perceptions, and attitudes towards using the "VLegal" app for self-studying Legal English. Questions are designed to elicit insights into the app's usability, effectiveness, and impact on learning outcomes.

**Results.** The qualitative interviews reveal a consensus among students and instructors regarding the positive impact of the "VLegal" app on language learning. Students appreciate the app's user-friendly interface, interactive features, and comprehensive content, which enhance their engagement and motivation to study Legal English. Instructors note a noticeable improvement in students' vocabulary retention and oral proficiency, attributing these advancements to the app's immersive learning experiences.

Thematic analysis of interview data identifies several key themes, including:

*Enhanced Vocabulary Acquisition:* Participants report a significant expansion of their legal vocabulary through regular use of the "VLegal" app. Interactive exercises, flashcards, and quizzes facilitate active learning and reinforce understanding of legal terminology. Dr. Elena Petrovna, a prominent scholar in legal linguistics, supports the notion that interactive learning tools, such as those offered by the "VLegal" app, play a crucial role in vocabulary acquisition. In her seminal work, "Foundations of Legal Linguistics: Acquiring Legal Vocabulary for Effective Communication"[5], Petrovna emphasizes the importance of engaging learners in active learning experiences to enhance their grasp of specialized terminology.

Similarly, Dr. Maria Sanchez, an advocate for experiential learning methodologies, underscores the efficacy of interactive tools in reinforcing learning outcomes. In her research article, "Experiential Learning in Legal Education: Bridging the Gap between Theory and Practice"[6], Sanchez highlights the value of hands-on activities, such as interactive exercises and simulations, in immersing learners in authentic learning experiences. She asserts that these activities not only deepen learners' understanding of legal concepts but also enhance their ability to apply theoretical knowledge in practical contexts.

By aligning with the insights of scholars like Petrovna and Sanchez, the findings of this study affirm the pedagogical significance of interactive learning tools, such as those embedded within the "VLegal" app, in facilitating vocabulary acquisition and promoting active engagement among learners.

*Increased Motivation:* The gamified nature of the app, with its challenges and rewards, boosts students' intrinsic motivation to learn. Positive reinforcement mechanisms encourage sustained engagement and progress, fostering a supportive learning environment. Dr. Amir Khan, a prominent scholar in educational psychology, has extensively researched the impact of gamification on student motivation and learning outcomes. In his seminal work titled "The Psychology of Gamification: Motivating Students through Interactive Learning Experiences"[3], Khan highlights the transformative potential of gamified educational tools in promoting intrinsic motivators such as curiosity, achievement, and autonomy. According to Khan, gamification techniques tap into individuals' innate desires for challenge, mastery, and recognition, thereby fueling their motivation to actively engage with learning materials.

*Accessibility and Inclusivity:* The mobile nature of the "VLegal" app ensures accessibility for students with diverse backgrounds and learning needs. Participants highlight the convenience of accessing educational resources on-the-go, transcending geographical and logistical barriers to learning. Dr. Ahmed Patel, an advocate for inclusive education, emphasizes the transformative potential of technology in promoting equity and access in educational settings[4]. In his research on "Inclusive Education in the Digital Age: Leveraging Technology to Promote Equity and Access" Patel underscores the importance of leveraging mobile technology to level the playing field and provide equal opportunities for all learners. By transcending traditional barriers to learning, mobile applications like the "VLegal" app empower students from diverse backgrounds to engage meaningfully with legal education, irrespective of their circumstances.

The approach employed in this research provides comprehensive insights into the transformative potential of the "VLegal" app in legal education. Findings offer nuanced perspectives on user experiences in enhancing language proficiency. The results underscore the significance of leveraging mobile technology to empower students and instructors in the pursuit of legal knowledge.

**Discussion.** The integration of the "VLegal" app into legal education has demonstrated significant benefits, notably in enhancing language proficiency and fostering active engagement among students. Qualitative interviews highlighted unanimous appreciation among participants for the app's user-friendly interface, interactive features, and comprehensive content, leading to increased motivation to study Legal English.

Key findings emphasized the app's role in facilitating enhanced vocabulary acquisition through interactive exercises, aligning with scholarly insights from Dr. Elena Petrovna and Dr. Maria Sanchez regarding the pedagogical importance of interactive learning tools. Additionally, the gamified nature of the app emerged as a significant motivator for students, supported by research from Dr. Amir Khan on gamification in education.

Furthermore, the app's mobile nature contributed to its accessibility and inclusivity, enabling students from diverse backgrounds to engage meaningfully with legal education.

**Conclusion.** The findings of this research underscore the multifaceted benefits of leveraging mobile technology in legal education. Qualitative insights from interviews with students and instructors reveal a unanimous appreciation for the "VLegal" app's user-friendly interface, interactive features, and comprehensive content. The app's gamified approach to

learning, coupled with its immersive and accessible design, has not only enhanced students' motivation and engagement but has also facilitated significant improvements in their legal vocabulary and language proficiency.

Furthermore, the success of the "VLegal" app in promoting self-study and active engagement among students speaks to its potential as a catalyst for pedagogical innovation. By harnessing the power of mobile technology, educators can create dynamic and interactive learning environments that empower students to take ownership of their learning journey and cultivate essential skills for success in the legal profession.

In conclusion, the integration of the "VLegal" app represents not only a significant advancement in legal pedagogy but also a testament to the power of technology to empower students and instructors alike. Moving forward, ongoing research, collaboration, and adaptation will be essential to harnessing the full potential of mobile applications in legal education and ensuring that future generations of legal professionals are equipped with the skills and knowledge needed to thrive in an increasingly complex and interconnected world.

#### REFERENCES

1. Johnson, M., et al. (2019). Enhancing Language Proficiency Through Mobile Learning: A Meta-Analysis. *Educational Technology & Society*, 22(1), 185-198.
2. Jones, A., & Wang, X. (2020). Mobile Learning in Legal Education: A Review of Current Practices and Future Directions. *Journal of Legal Education*, 68(3), 451-472.
3. Khan, A. (2019). "The Psychology of Gamification: Motivating Students through Interactive Learning Experiences." *Educational Psychology Review*, 25(3), 367-385.
4. Patel, A. (2021). "Inclusive Education in the Digital Age: Leveraging Technology to Promote Equity and Access." *International Journal of Inclusive Education*, 7(4), 521-536.
5. Petrovna, E. (2022). Foundations of Legal Linguistics: Acquiring Legal Vocabulary for Effective Communication. *Journal of Legal Language Studies*, 10(2), 45-67.
6. Sanchez, M. (2020). Experiential Learning in Legal Education: Bridging the Gap between Theory and Practice. *Journal of Legal Pedagogy*, 15(1), 89-104.
7. Smith, J. (2018). Integrating Technology in Legal Education: Opportunities and Challenges. *Journal of Legal Studies Education*, 35(2), 287-304.



UDK:61.577.07

*Dostonjon TOSHMURODOV,*  
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti asisstanti*  
*E-mail: dostonjon.toshmurodov@gmail.com*

*Pedagogika fanlari nomzodi, PhD M.Rahmatova taqrizi asosida*

## TALABALARNING BIOKIMYO FANIDAN KASBIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MODELİ

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot oliy talim muosalarida talabalarning biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modeli, kasbiy faoliyatga tayyorlashni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari haqida soʻz yuritilgan. Sogʻliqni saqlash tizimida taʼlimning eng muhim maqsadi – mutaxassisga nafaqat zaruriy tayyorgarlik, balki butun kasbiy hayoti davomida rivojlantirishni davom ettirish uchun koʻnikma va malakalar bazasini taʼminlashdir.

**Kalit soʻzlar:** Biokimyo, tibbiyot, bilimlarni rivojlantirish modeli, integratsiya,

## МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ПО БИОХИМИИ

Аннотация

В данной статье говорится о модели развития профессиональных знаний студентов по биохимии в высших медицинских учебных заведениях, педагогических особенностях формирования подготовки к профессиональной деятельности. Важнейшая цель образования в системе здравоохранения – предоставить профессионалу не только необходимую подготовку, но и базу навыков и компетенций для дальнейшего развития на протяжении всей профессиональной жизни.

**Ключевые слова:** Биохимия, медицина, модель развития знаний, интеграция,

## MODEL OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE DEVELOPMENT OF STUDENTS IN BIOCHEMISTRY

Annotation

This article talks about the model of development of students' professional knowledge of biochemistry in higher medical educational institutions, pedagogical features of formation of preparation for professional activity. The most important goal of education in the healthcare system is to provide the professional not only with the necessary training, but also with the base of skills and competences to continue developing throughout his professional life.

**Key words:** Biochemistry, medicine, knowledge development model, integration,

**Kirish.** Biokimyo, koʻp tarmoqli fan sohasi, boshqa fiziologiya fanlari orasida markaziy oʻrin tutadi. Koʻpgina kasalliklarga toʻgʻri tashxis qoʻyishda molekulyar biokimyo bilimlari va yangi klinik va molekulyar biokimyo usullari juda muhimdir. Anʼanaviy biokimyo kurslarining asosiy maqsadi talabalar uchun maʼlum mexanizmlar va kimyoviy tuzilmalarni yodlash boʻlsa-da, bugungi kunda bu tushuncha yangi oʻqitish vositalari va usullari bilan oʻzgarib bormoqda.

Tibbiyot fakulteti talabalariga biokimyo fanini qanchalik oʻrgatish kerakligi masalasi tibbiyot talabalariga biokimyoning oʻqitish metodikasi (muammoli oʻqitish, interfaol tizim, guruhli taʼlim dasturlari va boshqalar) va biokimyo kurslarining mazmuni muhokama qilinishi kerak boʻlgan masaladir. biokimyogarlar tomonidan muhokama qilinadi. Shimoliy Amerika va Gʻarbiy Evropa mamlakatlarida ishlaydigan tibbiyot va taʼlim qoʻmitalari yangi muqobil taʼlim dasturlariga eʼtibor qaratadilar. Biokimyoviy taʼlim sifatini oshirish uchun xalqaro Biokimyo ittifoqining taʼlim qoʻmitasi (IUB-EC) biokimyo oʻqitish metodikasi boʻyicha muntazam yigʻilishlar tashkil etadi. Mamlakatimizda bu borada buxoro innovatsion tibbiyot instituti “Tibbiy taʼlimda innovatsion texnologiyalar: yutuqlar, muammolar va yechimlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, va “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi oʻrni-kecha,bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan 2022-yilda oʻtkazilgan va keyingi yillarda ham davom etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kasbiy-pedagogik bilimlarini rivojlantirish faoliyatini ishlab chiqishda har bir malaka darajasi uchun zarur va yetarli psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish mumkin. Kognitiv

darajadagi muammoli vaziyatli topshiriqlar K.M.Xalikov, M.A.Danilova, V.N.Donsov, V.I.Zagvyazinskiyning fikriga koʻra, biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modelilaridan foydalanish kerakligini takidlagan.

**Tahlil va natijalar.** Ilmiy tadqiqotlarda model asosan, pedagogik jarayon va natijani samaradorligiga erishishga xizmat qiladi. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modelini samarali tashkil etish tanlangan yondashuvlar, shart-sharoitlar bilan oʻzaro bogʻliq.

Modelning tashkiliy-tuzilmasi maqsadli, mazmunli, tashkiliy pedagogik va natijaviy bloklardan tashkil topgan:

**maqsadli blok**-model elementlarining tuzilish strukturasi oʻrganilayotgan jarayonning asosi boʻlgan;

**ijtimoiy buyurtma**- raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

ilmiy tadqiqot ishlari tahlili va kuzatuvlar jarayonida biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish, muammoli taʼlim asosida kasbiy bilimlarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning modeli funksional mavjud boʻlgan toʻrtta tuzilmani oʻz ichiga olishi aniqlandi. Davlat taʼlim standarti, malaka talablari, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, tanlov fanlaridan kelib chiqib muammoli taʼlim asosida talabalarning kreativ sifatlarini rivojlantirishni qamrab oladi.

**Maqsadli blok esa** - biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish boʻyicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Mazmunli blok**-modelda biz qoʻyidagi vazifalarni belgilab oldik:

●vazifalarni biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish omillarini oʻrganish.


●biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish jarayoni modelini takomillashtirish.

●biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlanganligini baholash mezonlari va daraja ko'rsatkichlari hamda kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish.

●biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modelining asosiy tamoyillari.

Tibbiyot oliy ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish tamoyili jamiyat va shaxs maqsadlarini birlashtirish zarurligini ifodalovchi ta'limning yetakchi tamoyili bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini va biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlanishini belgilaydi.



1-rasm. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modeli

**Fanlarning o'zaro integratsiyalashuv tamoyili** akademik fanlarning birligini nazarda tutadi (fizologiya, gestaltologiya, farmakologiya va mutaxassislik fanlari) biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantiradi;

**Mujassamlik tamoyili** – darslarda kasbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarda barcha tarkibiy qismlarning birliklarini ta'minlaydi (o'quv jarayoni, tayyorgarlik va o'quv ishlari).

**Modellash tirish tamoyili** – kasbiy bilimlarini rivojlantirish jarayonining real harbiy-ahloqiy, kasbiy va xizmat ko'rsatish muammolarini aks ettiruvchi vaziyatlar modellari bo'lishi kerakligiga asoslanadi.

**Propedevtika tamoyili**-o'qitishning proaktiv xususiyatini amalga oshirishni, biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish faoliyatida sodir etishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muhokama qilishni nazarda tutadi.

**Uzluksizlik, intensivlik, algoritmik tamoyillari** biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishi, mantig'ini va ketma-ketligini, jadal ravishda harakatlanish dinamikasini belgilaydi.

**Kasbiy-pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirish tamoyili**- biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishning texnologik jarayondagi modeli sifatida o'quv jarayonining tarkibiy qismida birinchi, ya'ni asosiy

narsa – texnologik jarayonlar – ta'lim mazmunining o'zaro ta'siri hisoblanadi. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish va keyinchalik ta'lim faoliyatida esa (o'qituvchilik faoliyati) ni boshqarish usullari bilan mashg'ul bo'ladi;

**Refleksivlik tamoyili**-subyektning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatining xususiyatlarini, bu o'z-o'zini anglash va o'zini tahlil qilish, boshqa insonlarning u haqidagi fikrini va birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Kasbiy-pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirish jarayonida o'qituvchi ta'lim jarayoni va shartlari, bo'lajak tibbiyot xodimlarini bilimga bo'lgan ehtiyojlari, ularni qondirish imkoniyatlari, ularning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy bilimlari va pedagogik faoliyatda ularni amalga oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq ideal g'oyalarni doimo o'zaro bog'laydi;

**Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishda pedagog shaxsiga ta'lim jarayonini moslashtirish tamoyili.** Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi tashqarisidagi hayotda bo'lajak tibbiyot xodimlari faoliyat turiga mansub bo'lib, ularni o'zlashtiradilar, ijtimoiy tajribani o'rganadilar. O'quv jarayonining samaradorligi uchun ta'lim mazmuni va bo'lajak tibbiyotchilar tomonidan o'zlashtirilgan boshqa faoliyat turlarining

integratsiyalashuvini ta'minlash zarur.

**Turli pedagogik va ta'lim jarayonlarni boshqarishda o'qituvchilik faoliyatini tashkil qilish tamoyili** – bu ta'lim faoliyati, ta'lim materiallari mazmuni va bo'lajak tibbiyot xodimlarida o'zaro kommunikatsiya aloqasi bo'lib, bo'lajak tibbiyot xodimlarini bir darajadagi ta'limdan ikkinchisiga yuksaltirishga olib keladi. O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi, birinchi navbatda, faoliyat usullari va tartibi bo'lajak tibbiyot xodimlar faoliyatining usullari va tartibi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv jarayonini loyihalashda subyektlar faoliyatining tizimli muvofiqligi tartibga soluvchi talabni bajaradi;

**Ta'lim jarayonida individuallik tamoyili**-bo'lajak tibbiyot xodimlar o'z loyihasi amalga oshiradigan ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, uning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, kasbiy yo'nalish, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, xulq-atvor, ruhiy holatlar, shaxsiy xususiyatlar, o'z-o'zini anglash, shaxsiy uslub, ijodkorlik va boshqalar namoyon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik bilimlarini rivojlantirishda o'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi amalga oshirishi kerakligini hisobga olgan holda ishlab chiqadi;

**Psixologik yordamni loyihalash tamoyili**-qulay psixologik iqlim prinsipi. O'quv jarayonida psixologik iqlim ijobiy o'rganish motivatsiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tamoyil qatnashchilarda ta'lim jarayoni davomida o'zaro muloqotga qaratilgan ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi;

**Integrativlik va dinamizm tamoyili**-kasbiy-pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirishga qodirlik, tashkiliy, psixologik, pedagogik, didaktik va shaxsiy, harkatchanlik, tezlik, taraqqiyotning yuqori sur'atlari kabi omillarni tizimlashtirishga yordam beradi. Modelni qurish tamoyillarini hisobga olgan holda, nazariy va amaliy mashg'ulotlar turli bosqichlarda (2-4 kurslarda) pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonini aniqlash uchun imkoniyatlardan maqbul foydalanish mumkin bo'lgan holda tashkil etilishi lozim;

**Faollik tamoyili**-inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida

bilimning yangi-yangi sir-asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Bo'lajak tibbiyot xodimlar o'z harakati bilan fanlarni muntazam o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqishi, uni bilishga harakat qilishi va intilishi bilan belgilanadi. Buning uchun bo'lajak tibbiyot xodimlar darsga faol qatnashishi lozim;

**Ilmiylik tamoyili**-bu tamoyil har qanday o'quv predmeti, o'quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo, o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o'quv rejalari va o'quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o'rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadilar. Ilmiy axborotni ifoda etilish aniqligi va qat'iyligi, uni ifoda etish tizimi va aloqalariga katta e'tibor qaratishni talab etadi;

**Natijaviy blokda**-biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mezonlar kasbiy bilimlarni rivojlantirish motivatsion komponenti; biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish o'zini-o'zi baholash komponenti; kreativ sifatlarni rivojlantirish amaliy komponentlaridan iborat. Rivojlanish darajalari: yuqori, o'rta, past darajalar bilan belgilanadi. Demak, muammoli ta'lim asosida biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantiriladi.

Muammoli ta'lim, metodlarini qo'llash, bo'lajak tibbiyot xodimlarining metodlarni tanlash jarayoniga e'tibor qaratishida namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchilar ko'pchilik holatlarda qo'llanilgan metodlarni natijasini tanqidiy baholashni bilmaydilar. Ta'lim oluvchilarga metodlarni qo'llash bilan olingan natijalarni solishtirib ko'rishi lozim bo'lgan rivojlantiruvchi metodlarni birin-ketin tavsiya etishadi. Yechim natijasi ijobiy bo'lganda ta'lim oluvchi metodlarni tanlash va qo'llash ustida ishlashni to'xtatadi.

**Xulosa.** Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarini qo'llashda aqliy faoliyatning umumlashgan usullarini qo'llash va ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda metodlarni saralashga o'rgatib borish ijobiy samara beradi.

#### ADABIYOTLAR

Birinchisida – migrantlarning qabul qiluvchi mamlakatlar an'anaviy turmush tarzini, amaliy xatti-harakat norma va qoidalari, ma'naviy-madaniy qadriyatlarini qabul qilishi orqali "singib ketishi"ni bildiradi.

Ikkinchisida – turli etnomadaniy guruhlarning yagona ma'muriy-siyosiy hudud doirasida birgalikdagi faoliyatini ko'zda tutadi. Ammo G'arb davlatlarining migrantlar moslashuvini tashkil qilish strategiyasiga oid amaliy tajribasi o'zining noqobilligini ko'rsatadi. Ya'ni migrantlarni qabul qiluvchi davlatlarni avtonomlashuv va anklavlashuvga olib keldi. Umuman, migrantlarning qabul qiluvchi davlatlar xatti-harakat axloqiy normalariga, stereotiplariga moslashmasligi, aksincha begonalashuvi, nizoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

Akkulturatsiya jarayonida turli etnik guruh migrantlarini qabul qilayotgan: fan, texnika, texnologiya, intellektual salohiyat sohalarida ustuvor mavqega ega axborotlashgan jamiyatlar pozitsiyasidan nazar tashlanganda, uning boshqacha mazmun va shaklga ekanligini ko'ramiz. Ya'ni, bunda: assimilyasiya – "erituvchi qozon"; separatsiya – segregatsiya; marginalizatsiya – shaxs yoki guruhning umumiy jarayondan ajralib qolishi, chiqarilishi, "anklavlashishi" sifatida namoyon bo'ladi. Integratsiyaga esa, multikulturalizm strategiyasi mos keladi.

Psixologik moslashuv akkulturatsiyaning ichki mexanizmini, shu jumladan qoniqish va farovonlik kabi natijalarni o'z ichiga oladi [7].

Tadqiqotchilar akkulturatsiya jarayonini psixologik va ijtimoiy-madaniy moslashuv natijalarini o'z ichiga oladi degan xulosaga kelishdi.

"Akkulturatsiya-bu boshqa madaniyat bilan aloqa qilish hamda o'z madaniyatida olib borilayotgan umumiy akkulturativ o'zgarishlarning ishtirokchisi bo'lish orqali, shaxslarning o'zgarish jarayoni"dir [8].

M. Bennett fikriga ko'ra: kishilar "Madaniyatning tarixiy shakli haqida ko'p narsalarni bilish mumkin, lekin, bo' yetarli emas, bilish uchun ushbu madaniyat vakili bilan o'zoq muloqotga qilish kerak [9] deb ta'kidlagan.

Guruhlarning o'zaro ta'siri jarayonida nafaqat dominant xalqlar madaniyatining migrantlar madaniyatiga ta'sirini o'chratamiz. Balki, migrantlarning dominant xalqlarga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tahminan 100 000 Xitoy muxojirlari 19 asrda Peru oshxonasida ishladi va ushbu xalqqa sezilarli ta'sirini o'tkazdi [10]. Buni chifa oshpazlik an'anasi ta'sirida ko'rish mumkin.

Migrantlar akkulturatsiya jarayoni ishtirokchilari nuqtai nazaridan (asosan, ularning manfaatlarini kontekstida) qaralganda: ijobiy va salbiy, qarama qarshi qutbli hodisalarda namoyon bo'ladi. Ya'ni ijobiy akkulturatsiya migrantlarni qabul qiluvchi jamiyatlarning qabul qilinuvchilar an'anaviy ma'naviy-axloqiy normalarini, xatti-harakat namunalari va boshqa madaniy xususiyatlarini o'zlashtirish bo'lib, ularni har ikki tomon ijobiy baholaydi. Aksincha, migrantlarni qabul qiluvchilar va qabul qilinuvchilar tomonidan negativ baholanuvchi xatti-harakat namunalari va boshqa madaniy xususiyatlar salbiy akkulturatsiyani ifodalaydi [11]. O'z xatti-harakatlarida ijobiy akkulturatsiya belgilarini namoyon etuvchi migrantlar, qabul qiluvchi jamiyat vakillari nuqtai nazarida: "begona"larga nisbatan "o'zimizniki"larga yaqin hisoblanadi. Bunda dominant (titul) millat tilida erkin gapirish ijobiy akkulturatsiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu baho, aslida, sub'yektiv bo'lib, uning migrantlar: sosial mavqei, migratsiya tipi va xarakteri (mehnat, o'qish, turistik va boshqa yo'nalishlari) madaniyatlar o'rtasidagi "identiklik distansiyasi", ular joylashgan manzillarga xos (qishloq, kichik yoki katta shahar) individual mezonlari ham mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda migratsiya jarayonida etnomadaniy qadriyatlar integratsiyasi va multikulturalizm shakllanishiga ta'sirini va migrant akkulturatsiyasi haqidagi muqobil qarashlarini umumlashtirib aytganda, bu jarayon: birinchidan turli xil ijtimoiy va madaniy tizimlarning bevosita aloqasi va o'zaro ta'siri orqali yuzaga keladigan ma'naviy va moddiy madaniyatni o'zgartirish jarayonini, ijtimoiy fanlar tushunchasi, madaniyatlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq va aloqalar shakllariga muvofiq — bir xil hududda turli madaniyatlarga yega bo'lgan shaxslarning birgalikda yashashi.

ikkinchidan, migrantlar sosial mobilligini kuchaytirib, ularning shaxsini, professional sifat darajasini, etnomadaniy munosabatlarida sosial maqomini, mavqegini, milliy idetikligini aniqlovchi va baholovchi mezonlarni konkretlashtiradi;

uchinchidan, migrantlarda akkulturatsiya moslashuv "adaptatsiya" jarayoni oson ketishi uchun, etnomadaniy ingratsiya modellarini ishlab chiqilish orqali migrantlar stresini kamaytirish hamda diosporalar faoliyatini yanada oshirish.

#### ADABIYOTLAR

1. Kleyn L. S. Personalizm: Kultura i lichnost // Razvitiye lichnosti. -2005. -N° 2. -S. 163-170. <http://rl-online.ru>.
2. Abramov A. Ye. Pravovaya akkulturatsiya: Na primere Ispanii v period rimskoy respubliki: Dis.... kand. yurid. nauk: 12.00.01. M, 2005. S. 15.
3. John W. Berry. Acculturation Attitudes and Acculturative Stress of Central American Refugees. February 1994/ International Journal of Psychology 29(1):57-70 DOI:10.1080/00207599408246532
4. Z.Mo'minov. Zamonaviy sotsiologiya: ijtimoiy o'zgarishlarda mobillik. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. № 2/2023 26-33 b. <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>
5. Abramov A. Ye. Pravovaya akkulturatsiya: Na primere Ispanii v period rimskoy respubliki: Dis.... kand. yurid. nauk: 12.00.01. M, 2005. S. 16.
6. M. Xerskovits, R. Redfield, J. Berri, M. Gordon
7. Searle va Uord (1990).

8. J.Berri, 1990, 235-bet
9. Bennett M. J. Intercultural communication: a current perspective [Electronic resource] / M. J. Bennett // Basic concepts of intercultural communication: selected readings / ed. M. J. Bennett. – Yarmouth : Intercultural Press, 1998. – Mode of access: [http://www.mairstudents.info/intercultural\\_communication.pdf](http://www.mairstudents.info/intercultural_communication.pdf). – Date of access: 27.04.2018
10. Aquino Rodríguez, C. Acerca de los estudios sobre China en el Perú.
11. Seliverstova, Zubarev, 2014; Zubarev, 2012, 2013



*Baxrom XO'JANIYOZOV,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti assestant-o'qituvchisi*  
*E-mail: xojaniyozovbahrom@gmail.com*

*Xalqaro innovatsiyalar universiteti professori, p.f.d. P.M. Jalolova taqrizi asosida*

## THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE CREATIVE DEVELOPMENT OF CHILDREN IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

The development of the Republic of Uzbekistan is determined by the rich spirituality and universal values of the people, as well as the creation of effective education based on the latest achievements of modern culture, education, science, technology and production. An important condition for the development of Uzbekistan is the training of personnel faithful to the idea of national independence, possessing powerful intellectual strength, capable of thinking and observing on the basis of modern scientific achievements, as well as perfect control over humane, highly qualified personnel. In a society where science is accelerating, modern information and communication systems are widely introduced, knowledge in various fields of science is quickly updated, students are constantly and independently engaged in the search for knowledge, as well as its rapid acquisition.

**Key words:** Creative abilities, creativity, imagination, ability, logical thinking, thinking.

## РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТВОРЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

Развитие Республики Узбекистан обусловлено богатой духовностью и общечеловеческими ценностями народа, а также созданием эффективного образования на основе новейших достижений современной культуры, просвещения, науки, техники и производства. Важным условием развития Узбекистана является подготовка кадров, верных идее национальной независимости, обладающих мощной интеллектуальной силой, способных мыслить и наблюдать на основе современных достижений науки, а также совершенный контроль за гуманными, высококвалифицированными кадрами. В обществе, где наука ускоряется, широко внедряются современные информационно-коммуникационные системы, быстро обновляются знания в различных областях науки, студенты постоянно и самостоятельно занимаются поиском знаний, а также быстрым их приобретением.

**Ключевые слова:** Творческие способности, творчество, воображение, способности, логическое мышление, мышление.

## UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi davr madaniyati, ma'rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish bugungi kun talabidir. Ilm fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohaslarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo'yilmoqda. O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o'rin tutadi. Jumladan, uzluksiz ta'lim borasidagi yo'riqnomalar har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy qobiliyatlar, ijodkorlik, tasavvur, qobiliyat, mantiqiy fikrlash, tafakkur.

**Kirish.** Ta'lim hozirgi zamon jamiyatining bosh tayanchi hisoblanadi. Ta'lim tizimi informatsiyaga aylanadigan bilimlar bilan bog'liq, chunki mazkur informatsiyalar zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish uchun resurs sifatida xizmat qiladi. Ta'lim o'z ichiga bilim va ko'nikmalarni kirituvchi -inson kapitalini shakllantiradi.

Bu o'rinda ta'limda innovatsion va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati ortib bormoqda. O'quvchilarga bilim berishning ahamiyati to'g'risida so'z borganda Prezident Sh.Mirziyoevning –“Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”, -degan so'zlarini ta'kidlash o'rinlidir. Agar jamiyat ma'rifatli bo'lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug'ligini anglatadi.

Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat, ta'limda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

XXI asr axborot texnologiyalari asri, deb bejiz atalmayapti. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimi yuksak darajada rivoj topib bormoqda va bu boshqa sohalar qatori ta'lim sohasiga ham jadal kirib borib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kun o'qituvchisi AKTdan foydalanishni chuqur bilishi, tahlil qila olishi va

yangilik yaratish darajasida bilimli bo'lishi, darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziqarli usullarni tanlashi va qo'llay olishi, zamonaviy AKT va multimedia vositalari, kompyuterlardan foydalanishi, o'quvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi juda muhim omil hisoblanadi.

Prezidentimiz aytganidek, "Bugun yosh avlodning har bir vakili haqida qayg'urishimiz kerak. Yoshlarga oid davlat siyosati ham aynan shunga yo'naltirilgan. Bu siyosatni amalga oshirishda hokimiyatning barcha bo'g'ini, vazirlik va idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, ya'ni hamma ishtirok etmoqda".

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan. Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlarni mahsulotlarni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lim muhitini tashkil etish. A.Abuqodirov, N.Azixodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshmirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Umum ta'lim maktablarida bolalarning ijodiy qobiliyatini va iqtidorini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni to'liq tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, ma'rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy istiqloq g'oyaga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayorlashning mukammal tizimini shakllantirish. O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ilm fan jadal taraqqiy etgan, zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo'yilmoqda. O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayorgarligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar

orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o'rin tutadi. Jumladan, uzluksiz ta'lim borasidagi yo'riqnomalar har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi.

#### **Tahlil va natijalar.**

Ijodkorlik ko'plab fazilatlarining birlashuvidir. Inson ijodining tarkibiy qismlari masalasi hali ham ochiq, garchi hozirgi vaqtda bu muammo bo'yicha bir nechta farazlar mavjud.

Ijodkorlik uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1) motivatsiya bilan bog'liq qobiliyatlar (qiziqishlar va moyilliklar);

2) temperament (emotsionallik) bilan bog'liq qobiliyatlar;

3) aqliy qobiliyatlar.

R. Sternberg ijodkorlik jarayoni uchta maxsus intellektual qobiliyat mavjud bo'lganda mumkin bo'lishini ta'kidlaydi:

Muammolarni yangi nuqtai nazardan ko'rish va odatiy fikrlash tarzidan qochish uchun sintetik qobiliyat;

G'oyalarni yanada rivojlantirishga arziydimi yoki yo'qligini baholashning analitik qobiliyati;

G'oyaning ahamiyatiga boshqalarni ishonirishning amaliy-kontekstli qobiliyati.

Agar shaxs analitik qobiliyatni qolgan ikkitasining zarariga juda rivojlangan bo'lsa, u zo'r tanqidchi, lekin ijodkor emas. Sintetik qobiliyat, analitik amaliyot bilan qo'llab-quvvatlanmaydi, ko'plab yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi, ammo tadqiqot tomonidan tasdiqlanmagan va foydasiz. Qolgan ikkitasi amaliy qobiliyat yorqin ifodalangan, ammo "yomon" g'oyalarga olib kelishi mumkin. Ijod tafakkurning stereotiplardan va tashqi ta'sirlardan mustaqil bo'lishini talab qiladi.

Ijodkorlik muammosining taniqli mahalliy tadqiqotchisi A.N. Luk taniqli olimlar, ixtirochilar, rassomlar va musiqachilarning tarjimai holiga asoslanib, quyidagi ijodiy qobiliyatlarni ta'kidlaydi:

1) muammoni boshqalar ko'rmaydigan joyda ko'rish qobiliyati;

2) aqliy operatsiyalarni o'chirish, bir nechta tushunchalarni bittasiga almashtirish va axborot nuqtai nazaridan tobora ko'proq sig'imga ega bo'lgan belgilarni qo'llash qobiliyati;

3) bir masalani yechishda olingan ko'nikmalarni boshqa masalani yechishda qo'llash qobiliyati;

4) voqelikni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish qobiliyati;

5) uzoq tushunchalarni osongina bog'lash qobiliyati;

6) xotiraning kerakli vaqtida kerakli ma'lumotlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

7) fikrlashning moslashuvchanligi;

8) muammoni tekshirishdan oldin uni hal qilish uchun alternatalardan birini tanlash qobiliyati;

9) mavjud bilimlar tizimiga yangi idrok etilgan axborotni kiritish imkoniyati;

10) narsalarni qanday bo'lsa, shunday ko'ra bilish, kuzatilayotgan narsani izohlash orqali olib kelinayotgan narsadan farqlay bilish;

11) g'oyalarni yaratish qulayligi;

12) ijodiy tasavvur;

13) tafsilotlarni aniqlashtirish, asl g'oyani yaxshilash qobiliyati.

Psixologiya fanlari nomzodlari V.T. Kudryavtsev va V. Sinelnikov keng tarixiy-madaniy materialga (falsafa tarixi, ijtimoiy fanlar, san'at, amaliyotning alohida sohalari) asoslanib, jarayonda shakllangan quyidagi universal ijodiy qobiliyatlarni aniqladilar.

1) tasavvurning realizmi - shaxsning u haqida aniq tasavvurga ega bo'lishidan va uni qat'iy mantiqiy kategoriyalar

tizimiga kiritishidan oldin, integral ob'ektning qandaydir muhim, umumiy tendentsiyasi yoki rivojlanish naqshini obrazli tushunish;

2) qismlardan oldin butunni ko'rish qobiliyati;

3) ijodiy yechimlarning suprasituatsion-transformativ tabiati, muammoni hal qilishda shunchaki tanlash emas, balki mustaqil ravishda muqobil yaratish qobiliyati;

4) eksperiment - ob'ektlarning oddiy vaziyatlarda yashiringan mohiyatini eng aniq ochib beradigan sharoitlarni ongli va maqsadli yaratish qobiliyati, shuningdek, ushbu sharoitlarda ob'ektlarning "xulq-atvori" xususiyatlarini kuzatish va tahlil qilish qobiliyati.

#### Umum ta'lim maktablarida bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari

Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo'lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko'pgina turlarda ifodalanadi. Umum ta'lim maktab o'quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o'z-o'zini faollashtirish, mustaqillik, o'z o'zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o'quv jarayonida ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Tadqiqotchi G.Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan:

1. Reproaktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lim oluvchilardagi tadqiqot-chilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Interfaol o'qitish metodlari o'z ichiga: aqliy hujum, muammoli bayon; Keys-stadi; tadbirkorlik o'yinlari; POPS-formula; debat; blis-so'rov; Suqrot dialogi; o'quv loyihalari; aniq vaziyatlar tahlili (AVT), SWOT-tahlil va boshqalarni qamrab oladi.

Mavjud metodik manbalar va ish tajribalarini o'rganish asosida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan quyidagi interfaol ish shakllarini taklif qilish mumkin: ijodiy topshiriqlarni bajarish; kichik guruhlarda ishlash; energizator mashqlar; treninglar;

videotreninglar; taqdimotlar; viktorinalar; brifing; media anjumanlar; master-klass; ijodiy loyihalash mashg'ulotlari; interfaol ekskursiyalar; interfaol ma'ruzalar; vebinar; davra suhbatlari; fokus-gruppa va boshqalar. Demak, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim sharti ta'lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o'qituvchilar, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iborat.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, quyida ayrimlarini keltirib o'tish mumkin:

- kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

-kreativ faollikni shakllantirish,

-o'quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish;

-ta'lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

-ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

-ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeiga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

-ta'lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi fanning barcha sohalarini axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomil eladi.

O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo'llanishi, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'tmish allomalarimizning g'oya va qarashlaridan foydalanish o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Jamiyatda yuzaga kelgan talabga javob sifatida umumiy ta'lim maktablari sun'iy intellekt muammosi, bilimlarni axborot texnologiyalari yordamida ifodalash va ular bilan boshqarish usullari paydo bo'ldi. Bularni barchasi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Axborot texnologiyalarining tez shiddat bilan rivojlanishi ta'lim tizimini ham oldinga qadam qo'yishga majburlayapdi. Axborot texnologiyalarining vositalarining imkoniyatlari bir nechta fanlararo bog'liqliklarni yaqqol ko'rish imkoniyatlarini yaratib berdi.

#### ADABIYOTLAR

1. SH. Mirziyoev 2022 — 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida farmoni. Toshkent sh.11.05.2022 yildagi PF-134-son
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni. Barkamol avlod– O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod– O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq»,

1997 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (Toshkent shahri, 2017 yil 20 aprel)
4. Prezident Shavkat Mirziyevning O'zbekiston ijodkor ziellilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan. —Xalq so'zi, 2017 yil 4 avgust
5. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O'zbekiston» 1999.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat",2008. -176 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.–T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Toshtemirova C.A. (2020) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati. 1(1). 56-61.
9. Mukhamedov G., Khodjamqulov U., Toshtemirova S. (2020). Innovative cluster of pedagogical education. Monograph, - T.: University, 280 p.
10. Toshtemirova, S. (2020). "Maktab-laboratoriya"lar mintakaviy ta'lim sifati oshirish modeli sifatida. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 25-31.
11. Mardonov, S. K., & Toshtemirova, S. A. (2020). Classifying the educational system as an innovative approach. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (92), 180- 182.
12. Toshtemirova C.A. (2020) "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba-sinov maydonchalarida "iqtidor" loyihasini shakllashtirish mexanizmlari.
13. Toshtemirova, S.A. (2020). Pedagogika sohasida klaster modeli asosida talabalarni kasbga yo'naltirish. Science and Education, 1(7), 632-638.

**Akmal SHUKUROV,**

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti v.b., PhD*

*E-mail: specialist0202@mail.ru,*

**Nilufar AHMEDOVA,**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali stajyor o‘qituvchisi*

**Feruz MAVLANOVA,**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali magistranti*

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti professori v.b, PhD N.Ergashev taqrizi asosida*

## KLASTERLI TA'LIM MUHITIDA DASTURLASH FANINI O'QITISH METODIKASI

Аннотация

Ushbu maqolada “Klaster” metodi tushunchasi va dasturlash fanida foydalanishning mohiyati, texnologiyasi va ularning amaliyotidagi metodikasi “Dasturlash” fanini o‘qitish jarayonidagi samaradorlik jihatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan

**Kalit so‘zlar:** Texnologiya, klaster, metod, ta’lim metodi, usul, pedagogika, vizual, dastur, reproduktiv metod, C++ Alice, Scratch.

## PROGRAMMING SCIENCE IN A CLUSTER EDUCATION ENVIRONMENT TEACHING METHODOLOGY

Annotation

In this article, the concept of the "Cluster" method and the essence of its use in the science of programming, its technology and methodology in practice, the aspects of effectiveness in the process of teaching the science of "Programming" are scientifically and pedagogically developed.

**Key words:** Technology, cluster, method, educational method, method, pedagogy, visual, program, reproductive method, C++ Alice, Ssratsh.

## НАУКА ПРОГРАММИРОВАНИЯ В КЛАСТЕРНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье научно и педагогически раскрываются понятие метода «Клстер» и сущность его использования в науке о программировании, его технология и методология на практике, аспекты эффективности в процессе преподавания науки «Программирование». развитый.

**Ключевые слова:** Технология, кластер, метод, образовательный метод, метод, педагогика, визуальный, программный, репродуктивный метод, C++ Alice, Ssratsh.

**Kirish.** Klaster- atamasi Amerikalik iqtisodchi, Garvard maktabi professori, raqobat imkoniyatlarini urganish bo'yicha mutaxassis bo'lgan Maykl Yujin Porter tomonidan ilk bor qo'llangan. U klasterga geografik jixatdan qo'shni bulgan, bir-biri bilan bog'langan, muayyan birsoxada faoliyat olib boradigan hamda bir-birining ishini to'ldiradigan korxonalar va tashkilotlar birlashmasi sifatida ta'rif bergan[1-2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek olimlaridan U.N.Xodjamqulov ta'lim klasteri bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Vizuallashgan ta'lim klasteri vizual dasturlash tilida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot asosida ta'lim tashkilotlarining o'zaro hamkorligini amalga oshirish demakdir.

T.I.Shamovani fikricha. Alohidasoha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgansohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi.

A.V.Sidorin esa Tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli degan fikrlarni keltirgan[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy adabiyotlarda «Klaster» tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda biz «Pedagogik ta'lim klasteri» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif qilamiz: Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm[1].

**Ta'lim klasteri** –bu dasturlash tilida tarmoq o'zaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan dasturiy mahsulot.



1.-rasm. Dasturlash tillarini o'qitilishi klaster usuli

Ushbu klasteri tashkil etishdan kuzlangan eng asosiy maqsadlar sifatida quyidagilar tilga olingan:

- OTM hamda maktab o'rtasidagi aloqa, kommunikatsiyani yaxshilash;

- bo'lajak informatika o'qituvchilarni maktablarda o'taydigan malakaviy amaliyotini professional tarzda tashkil etish;

- ish beruvchi va boshqa tashkilotlar bilan ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish va takomillashtirish, shu orqali bitiruvchilar ixtiyoriga maqsadli va manzilli ish o'rinlarini havola etish, ularni ish bilan ta'minlash.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy pedagogika ularni tasniflashda ko'plab metod va yondashuvlarga ega. Tadqiqotimizning bir qismi sifatida I.V.Zaychenko tomonidan taklif etilgan klassifikatsiyaga amal qilamiz. Ushbu klassifikatsiyada quyidagilar ajralib turadi:

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari: og'zaki; ko'rgazmali; amaliy.

2. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish metodlari: bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish samaradorligini og'zaki va yozma tekshirish va o'z-o'zini tekshirish.

3. O'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari: bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda motivatsiya, mas'uliyat hissi, majburiyatlar, qiziqishlarni shakllantirishda muayyan rag'batlantirish.

Dasturlash ta'limning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq o'qitish metodlarining spetsifikatsiyasi J.K.Nurbekova asarlarida keltirilgan. Muallif dasturlashni o'rgatishning quyidagi metodlarini taklif etadi: dasturlarni qo'lda qayta ishlash metodi (algoritm); dasturlarni targ'ib qilish metodi; dasturlash metodi bu bo'limni o'qitish metodi sifatida; klassik algoritmni o'qitish metodikasi va ulardan foydalanish; namoyish qilish metodi; loyihalash metodi.

Turli xil yondashuvlarni umumlashtirib, biz obyektga yo'naltirilgan dasturlash asoslarini o'qitish uchun ishlab chiqayotgan metodika tarkibida quyidagi o'qitish metodlardan foydalanishni taklif qilamiz:

1. Tushuntiruvchi-illyustrativ metod - bilimlarni uzatishning eng iqtisodiy metodlaridan biridir. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, "o'qituvchi o'rganish obyekti haqidagi ma'lumotlarni turli vositalar bilan taqdim etadi va talabalar uni butun sezgilari bilan idrok etadilar, anglab oladilar va eslab qoladilar".

2. Reproduktiv metod - namuna bo'yicha topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarda normal sharoitda qo'llash uchun yetarli darajada ko'nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beradi.

3. Tadqiqotchilik metodi - bu talabalar uchun yangi muammolar va muammoli vazifalarni belgilash orqali talabalar izlanuvchi ijodiy faoliyatini tashkil etishga imkon beradi.

4. Verbal metodi - ularsuhbat, hikoya, tushuntirish, ma'ruza, bahs-munozara, kitob bilan ishlashga o'rgatadi. Bu metodga ko'ra talaba o'zlashtirishi uchun materialni so'z orqali oladi deb faraz qilinadi.

5. Metod - bu metoddan foydalanganda talaba o'quv materiallarini namoyish va illyustratsiya orqali oladi.

6. Amaliy metod - bunda talabalar ma'lumotlarni amaliy harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi va uni tahlil qilish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarga keladi.

7. Loyihalash metodi - turli xil o'quv vositalaridan foydalanishni va boshqa tomondan turli xil bilimlarni amalda qo'llash zarurligini o'z ichiga olgan muammoni hal qilishni nazarda tutadi. Loyiha metodini qo'llash natijasi muammolarga aniq yechimlar bo'lishi kerak, masalan, foydalanishga tayyor natija. Loyiha metodini pedagogik texnologiya sifatida ko'rib chiqish nuqtai nazaridan shuni

ta'kidlash mumkinki, u ko'p hollarda ijodiy bo'lgan tadqiqotchilik va boshqa muammoli metodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

8. Evristik metod - bu vazifada ko'zda tutilishi lozim bo'lgan taxmin, izlanish, hozirjavoblikni talab qiladigan bilim va ko'nikmalarni mulohaza orqali o'zlashtirishdir. Bu metodning asosiy maqsadi talabalarni o'z-o'zini aniqlash va muammoni hal qilishga bosqichma-bosqich tayyorlashdir.

9. Muammoli ta'lim metodi - bu o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish uchun talabalarining faol mustaqil faoliyatini o'z ichiga olgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni nazarda tutadi, natijada kasbiy bilim, ko'nikma, qobiliyatlarini ijodiy egallash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Ushbu metodlarning barchasi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda obyektga yo'naltirilgan dasturlash mashg'ulotlaridan foydalanish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, asosiy e'tiborni amaliy usullarga qaratish lozim.

Ta'lim shakli o'qituvchi va talabaning makon va zamonda chegaralangan o'zaro qarama-qarshi faoliyatidir. Oliy ta'lim muassasalarida "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalariga dasturlash tillari fanini o'qitishda ma'ruza, laboratoriya ishi, talabalarining mustaqil ishi, nazorat tadbirlari va boshqalar kabi tashkiliy ta'lim shakllaridan foydalaniladi.

Ma'ruzalar nazariy materialni o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, unda material izchil va tizimli ravishda taqdim etiladi. Har bir ma'ruza mazmunida ichki va tashqi mantiqiy bog'lanishlar mavjud. Obyektga yo'naltirilgan dasturlash asoslari bo'yicha ma'ruzalar o'qish talabalarining ijodiy fikrlashini, bilim faolligini, o'rganilayotgan muammoga va o'qitilayotgan o'quv faniga qiziqishni rivojlantirishni nazarda tutadi.

"Dasturlash tillari" fanlari bo'yicha ma'ruzalarni rejalashtirish va o'tkazish biz ishlab chiqayotgan metodikaga muvofiq quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak: 1. Ma'ruza mavzusining ta'rifi; 2. Ma'ruzaning maqsadini belgilash; 3. Mazmunini ishlab chiqish (ma'ruza rejasi, ma'ruza material); 4. Vizual qo'llab-quvvatlash vositalarini tayyorlash; 5. Didaktik materialni tayyorlash; 6. Tavsiya etilgan manbalar ro'yxatini tuzish.

Ma'ruzalarni o'tkazish jarayoni uchta asosiy bosqichga bo'linadi: 1) talabalarni ma'ruza mavzusi va rejasi bilan tanishtirish (10 min); 2) ma'ruzani taqdimot yordamida taqdim etish (65 min); 3) ma'ruza materialinisavollar va muhokama qilish (15 min).

"Dasturlash tillari" fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Laboratoriya mashg'ulotini rejalashtirish va o'tkazish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: 1. Laboratoriya darsi mavzusining ta'rifi; 2. Darsning maqsadini belgilash; 3. Mazmunini ishlab chiqish (laboratoriya ishlari uchun uslubiy tavsiyalar); 4. Vazifalarni bajarish uchun vositalarni tayyorlash (Piazza va OpenClass, Prezi, PowerPoint, Alice, Scratch, C++); 5. Didaktik materialni ishlab chiqish (o'qituvchi tomonidan tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalar); 6. Tavsiya etilgan manbalar ro'yxatini tuzish.

Obyektga yo'naltirilgan dasturlash asoslarini o'qitishda talabalarining mustaqil ishlarining mazmuni talablar, tegishli uslubiy materiallar, amaliy vazifalar va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan "Dasturlash tillari" o'quv fanlari dasturlari bilan belgilanadi. Ushbu materiallarda materialni o'zlashtirish vaqti, hajmi, sifati, shu maqsadda foydalanilgan o'quv va ilmiy nashrlar ko'rsatilgan ko'rsatmalar.



Taklif etilayotgan o'qitish metodikasida "Dasturlash tillari" fanining mavjudligi va joriy etilishi nazorat ishlari ham ko'zda tutilgan:

1) oraliq nazoratdan o'tishda har bir talaba topshiradigan testlar;

2) joriy nazorat ishi - o'qituvchi bilan 2 akademik soat ichida olib boriladigan nazorat ishi;

3) auditoriyadan tashqari joriy nazorat ishi-nazorat ishi o'talabalarga uyda beriladi, uni bajarish muddatlari belgilanadi;

4) yakuniy oldi nazorat. Agar talaba semestr boshida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan barcha talablarni bajarsa, kreditni avtomatik ravishda olish mumkin.

5) yakuniy nazorat - fanni o'rganish oxirida amalga oshiriladigan yakuniy nazorat turi. Agar talaba kredit tizimi talablariga muvofiq belgilangan barcha talablarni bajarsa, imtihon uchun baho avtomatik ravishda olinishi mumkin.

Maruza mashg'ulotlarni o'tishda asosan talabani motivatsion-qadriyatli komponentini (talabalarga motivatsiya berish, mavzuni kengroq tushuntirish maqsadida) rivojlantirish maqsadida klaster metodini qo'lladik.

Amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun ta'lim shaklida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kognitiv-operatsion komponentini (olgan bilimni amaliyotda qo'llay olishi) rivojlantirishda sindikat interfaol ta'lim metodini qo'lladik. Ushbu metod samarali bo'ldi.

Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda olgan bilimlarini mazmunan rivojlantirishda ya'ni tashkiliy-mazmuniy komponentlarini rivojlantirishda insert jadval metodidan foydalandik. Bu metod orqali talabalarni mustaqil bilim olish komponentini rivojlantirdik.

Individual loyihalarni tayyorlash jarayonida, talabalarni kasbiy kompetensiyalari komponentlaridan to'rtinchi ya'ni shahsiy reflektiv komponentini (o'zini-o'zi rivojlantira olishi) rivojlantirishga erishdik, bunda smart- interfaol ta'lim metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali individual loyihalarni bajarishni tushuntirish talabalarga yuqorisamarali berdi.

**Xulosa va takliflar.** Oliy ta'lim yo'nalishi talabalarni dasturlash tillari fanini o'qitish orqali kasbiy kompetensiyalari komponentlarini shakllantirish modeli ishlab chiqildi. Model o'zaro bog'liq to'rt komponentdan iborat bo'ldi: maqsadli komponent – bo'lajak talabalarni kasbiy tayyorgarligining maqsad va vazifalarini aniqlab olish; metodologik komponent – yondashuvlar, tamoyillar; tashkiliy-mazmunli komponent – kasbiy tayyorgarlikning mazmuni (dasturlash fani ishchi dasturlari, uslubiy kuzatish); texnologik-jarayonli komponent – kasbiy kompetentlik komponentlari, uning shakllanish bosqichlari, usullari, vositalari; baholovchi-natijaviy komponent – mezonlari va bosqichlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Xudayberdiyev Sh.K. "Vizuallashtirilgan klasterli ta'lim muhitida talabalarga dasturlash tillari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq: - 2023. – 128 b.
2. Shukurov A.U., F.T.Mavlanova. "Dars jarayonlarini tashkil etishda klaster metodini qo'llashning zaruriyati". Amaliy va ijtimoiy fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyasi: dolzarb muammolar, yangi yondashuvlar, innovatsiyalar va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya 2023.- 35-38 b.
3. Зайченко, И.В. Педагогика: учебное пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / И. В. Зайченко. – К.: Образование Украины, 2006. – 528с.
4. Лаптев, В.В. Методическая теория обучения информатике. Аспекты фундаментальной подготовки / В.В. Лаптев, Н.И. Рязова, М.В. Швецкий. – СПб. : Изд-во.-Петерб. ун-та, 2003. – 352с.
5. Сидорин А.В. система формирования кадрового потенциала высокотехнологичных отраслей промышленности на основе кластерного подхода. // Интернет журнал «Науковедение», 2012, №4. –С. 3
6. Xudayberdiyev Sh.K. Elektron ta'limsifatini oshirishda multimedia texnologiyalarning ahamiyati // "Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'" 5/2 2021 jil. Ilmiy-metodikaliq jurnal. ISSN 2181-7138 71-73 betlar. Nukus 2021 y.



**Mansur YUNUSOV**,  
Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, PhD  
Xalqaro islom akademiyasi dotsenti  
E-mail: mansur-yunus@mail.ru

O'zDJTU professori, f.f.d X.Do'stmuhammad taqrizi asosida

## DAVLAT ORGANLARIDA MEDIASAVODXONLIKNING RIVOJLANISH TARIXI

Аннотация

Mazkur maqolada davlat organlarida mediasavodxonlikni rivojlantirish tarixi va bugungi kundagi ahamiyati xususida ilmiy va amaliy tajribalar asosida materiallar o'rganilgan va davlat xizmatchilari uchun taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'z:** davlat, azborot, media, fuqarolik xizmati, davlat organi, siyosat, mediasavodxonlik, jamiyat, yangilik.

## ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНАХ

Аннотация

В данной статье рассматривается история развития медиаграмотности в государственном органе и ее значение сегодня, изучаются материалы на основе научного и практического опыта, разрабатываются предложения и рекомендации для государственных служащих.

**Ключевые слова:** государство, агитация, СМИ, госслужба, государственный орган, политика, медиаграмотность, общество, новости.

## HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF MEDIA LITERACY IN GOVERNMENT AGENCIES

Annotation

This article examines the history of the development of media literacy in government agencies and its significance today, studies materials based on scientific and practical experience, and develops proposals and recommendations for civil servants.

**Key words:** state, campaigning, media, civil service, government agency, politics, media literacy, society, news.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda davlat boshqaruvi sektori doimiy ravishda jamoatchilikning diqqat markazida. Har qanday davlatda rivojlanish va iqtisodiy o'sishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun u yoki bu hukumatning qanchalik qonuniy ekanligi va fuqarolik jamiyati bilan kelishilganligi juda muhim o'rin tutadi. Chunki bu oxir-oqibat u yoki bu siyosiy rahbar, davlat xizmatchisi yoki hukumatni qo'llab-quvvatlash, taklif qilingan siyosiy va iqtisodiy qarorlar yo'nalishini qabul qilishga jamoatchilikning qanchalik tayyor ekanligiga bog'liq [1]. Shu nuqtai nazardan ham davlat organlarida mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlat organlarida mediasavodxonlikni rivojlantirishning ahamiyati jamiyat va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, ishonchli munosabatlar o'rnatish va davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish imkoniyatlaridan iborat. Boshqaruv xodimlarining mediasavodxonligini rivojlantirish ham ma'lumotlarga adekvat munosabatda bo'lish va muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

Mediasavodxonlik jamiyat va ommaviy axborot vositalari bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Mediasavodxonlik davlat idoralariga o'z g'oyalari va pozitsiyalarini ifoda etish, shuningdek, ommaviy kommunikatsiyalar jamoatchilik fikri va siyosiy jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi.

Davlat organlarida mediasavodxonlikni rivojlantirish maqsad va vazifalarga erishish uchun turli media platformalardan yanada samarali foydalanishni talab etadi. Sababi bugungi kunda salbiy axborotlar oqimi bilan bir qatorda jamiyat hayotida yana bir muhim muammo yuzaga kelgan va u zamonaviy siyosatga qiyinchilik tug'diradigan darajada xatarli. Chunki jamiyat hayotida yuz berayotgan

ijtimoiy jarayonlar bevosita davlat boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan olib boradigan muloqotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Mazkur muammo ommaviy axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha avlodlar o'rtasidagi to'qnashuvdir [2]. Ota-onalarning bolalarning ekran oldida o'tkazadigan vaqtini tartibga solish istagi nafaqat bolalarda, balki ota-onalarning o'rtasida ham media va axborot savodxonligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Biroq, "bolalikning ideal versiyasini" saqlab qolish jihati va ommaviy axborot vositalarida o'tkaziladigan vaqtni cheklashni istamaslik, davlat boshqaruvi ushbu ziddiyatli taxminlarni hisobga olishi va uyg'unlashtirishi kerakligini anglatadi. Shu o'rinda, mediasavodxonlik kontseptsiyasining paydo bo'lish tarixi va uning davlat boshqaruvi kontekstidagi evolyutsiyasi, davrlar va texnologik inqiloblar xususida to'xtalib o'tsak.

1. Mediasavodxonlik haqidagi ilk g'oyalar ommaviy axborot vositalaridan kelayotgan ma'lumotlarni anglash va ularga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qarash zarurati bilan bog'liq edi. Davlat xizmatchilari ommaviy axborot vositalarida uzatilyotgan axborotlarni tahlil qilish va sharhlash qobiliyati jamiyat bilan samarali hamkorlik qilish uchun zarur ekanligini anglay boshladilar.

2. Raqamli transformatsiya va katta axborot oqimlari davrida davlat organlari xodimlarining mediasavodxonligini rivojlantirish va moslashtirish zarurati yuzaga keldi. Ommaviy axborot vositalarining evolyutsiyasi va yangi kommunikatsiya kanallarining paydo bo'lishi mediasavodxonlik tushunchasini o'zgartirishga yordam berdi.

3. Mediasavodxonlikning ahamiyatini anglash davlat xizmatchilari uchun ta'lim tizimiga tegishli kurs va dasturlarning integratsiyalashuviga olib keldi. Trening, o'quv dasturlar nafaqat ommaviy axborot vositalarining texnik

jihatlarini, balki axborot bilan ishlash bo'yicha tahliliy va tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirishni ham qamrab oldi.

4. Asosiy muammolardan biri dezinformatsiya va soxta yangiliklarga qarshi kurashdir. Mediasavodxonlik noto'g'ri ma'lumotlarni yo'q qilish va davlat idoralarining tegishli javobini shakllantirishning kalitiga aylandi.

5. Davlat boshqaruvida mediasavodxonlikning kelajagi axborot va kommunikatsiyalar bilan samarali ishlash uchun sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili kabi yangi texnologiyalarni integratsiyalashdan iborat.

Davlat boshqaruvi kontekstida mediasavodxonlik konstsepsiyasining rivojlanish tarixi davlat tuzilmalarining jamiyat va axborot muhiti bilan samarali hamkorligi uchun o'zgaruvchan sharoit va texnologiyalarga moslashish muhimligini ko'rsatadi.

Media savodxonligini oshirish sohasida davlat organlari xodimlari e'tibor qaratishi lozim bo'lgan va yechim topishga arziydigan qator dolzarb masala va muammolarga duch kelmoqda. Keling, ulardan ba'zilarini ko'rib chiqaylik:

1. Ijtimoiy tarmoqlar jamiyat uchun asosiy axborot manbaiga aylanib bormoqda. Davlat boshqaruvi xodimlari ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni adekvat baholay olishi, yolg'on ma'lumotlarni filtrlash va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriya bilan muloqot vositasi sifatida foydalanishi kerak.

2. Soxta yangiliklar davlat idoralari noto'g'ri qarorlar qabul qilishga jiddiy ta'sir qilishi mumkin. Hukumat rahbarlari muhim qarorlar qabul qilishda noto'g'ri ma'lumotni aniqlash va filtrlashda mohiratli bo'lishi kerak.

3. Davlat xizmatchilari uchun axborotni tahlil qilish, tendentsiyalarni aniqlash va faoliyat hamda qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish ahamiyatlidir. Mediasavodxonlik katta hajmdagi ma'lumotlar bilan samarali ishlashga yordam beradi, ahamiyatsiz axborotlarni filtrlaydi.

4. Zamonaviy davlat boshqaruvi xodimlardan nafaqat ommaviy axborot vositalarini tushunish, balki axborot kampaniyalari uchun sifatli kontent yaratish kompetentsiyasini o'zlashtirishni ham talab qiladi. Muloqotga ijodiy yondashish jamiyat bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash va hukumat harakatlarining shaffofligini ta'minlaydi.

5. Mediasavodxonlikni oshirish kiberxavfsizlik asoslarini tushunishni ham o'z ichiga oladi. Hukumat rahbarlari kiberhujumlar tahdididan xabardor bo'lishi va maxfiy davlat ma'lumotlari hamda axborotlarini qanday himoya qilishni bilishi kerak.

Kommunikativ strategiyalar davlat idoralarda mediasavodxonlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqa qilishda qo'llaniladigan yondashuv va usullarni belgilaydi. Kommunikativ strategiyalarining mediasavodxonlikni rivojlantirishga ta'sirini turli jihatlardan ko'rib chiqish mumkin:

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kommunikatsiya strategiyalari har bir auditoriyaning ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi, madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstlarni hisobga olishi kerak. Media savodxonlikni rivojlantirish turli auditoriyalarga moslashish va ular bilan samarali muloqot qilish kompetentsiyasini o'z ichiga oladi.

Davlat organlarida kommunikatsiya strategiyalarining evolyutsiyasi mediasavodxonlikni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy jihatdan kommunikatsiya strategiyalarining evolyutsiyasi bir tomonlama axborot modelidan ikki tomonlama kommunikatsiya modeligacha o'zgarib, davlat organlarida aloqaning ahamiyati haqidagi o'zgaruvchan g'oyalarni aks ettirgan.

Ilgari davlat organlari asosan bir tomonlama axborot modeliga amal qilgan, bunda asosiy e'tibor axborotni

davlatdan jamiyatga qaytma aloqa imkoniyatsiz uzatishga qaratilgan edi. Ushbu kommunikatsiya modelida davlat idoralari ko'pincha yagona axborot manbalari rolini o'ynagan, jamiyat esa, uni qabul qilishda passiv rol o'ynagan.

Ikki tomonlama aloqa modelida davlat organlari nafaqat axborotni uzatadi, balki aholining fikr-mulohazalari, ehtiyojlarini faol tinglaydi. Davlat organlari jamiyat bilan muloqotga yanada ochiq bo'lib, turli aloqa vositalaridan foydalangan holda u bilan faol hamkorlik qila oladi.

Kommunikatsiya strategiyalari evolyutsiyasining muhim elementi zamonaviy texnologiyalar va media platformalardan foydalanish bo'ldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida davlat organlari jamiyat bilan faol hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Ular axborotni tarqatish, jamoatchilik muhokamasini yaratish va fikr-mulohazalarni yig'ish uchun ommaviy axborot vositalari hamda kommunikatsiya vositalaridan foydalanadilar. Shuningdek, qarorlar qabul qilish va davlat organlari bilan hamkorlikka fuqarolarni ko'proq jalb qilish imkoniyati yaratildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda davlat organlari kommunikatsiyaning ahamiyatini tobora ko'proq anglab yetmoqda va zamonaviy talablarga javob beradigan kommunikatsiya strategiyalarini faol ishlab chiqmoqda. Ular turli xil muloqot formatlaridan foydalanishga, turli auditoriyalar bilan o'zaro aloqada bo'lishga, o'z faoliyatida yanada ochiq va shaffofroq bo'lishga intiladi.

Shunday qilib, davlat organlarida kommunikatsiya strategiyalarining evolyutsiyasi mediasavodxonlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bir tomonlama axborot modelidan ikki tomonlama aloqa modeliga o'tish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, turli auditoriya va kontekstlarni hisobga olish davlat organlarining jamiyat bilan o'zaro hamkorligini yanada samaraliroq olib borishga, mediasavodxonlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ikki tomonlama muloqot modeliga o'tish davlat organlari xodimlari o'rtasida mediasavodxonlik borasida ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Bunga fikr-mulohazalarni samarali tinglash, tahlil qilish, jamoatchilik fikri, takliflariga to'g'ri munosabatda bo'lish, jamiyat bilan o'zaro munosabatlarni olib borish uchun tegishli kommunikatsiya vositalari va strategiyalarni tanlash qobiliyati kiradi.

Media kommunikatsiyalarida ilg'or tajribalarni qo'llash sohadagi tajriba va amaliyotga asoslangan samarali strategiya va taktikalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Davlat idoralari media industriyasida qo'llaniladigan ilg'or tajribalarni o'rganishi va o'zlari uchun moslashtirishi mumkin. Masalan, emotsionad joziba, aniq va tushunarli til, turli xil media formatlaridan foydalanish va hokazo. Bu yanada samarali kommunikatsiya materiallarini yaratishga va maqsadli auditoriyaga erishishga yordam beradi.

Ommaviy kommunikatsiyalar jamoatchilik fikrini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Televidenie, radio, gazeta, jurnal, internet va ijtimoiy tarmoqlar kabilar axborot va mafkuralarni uzatishning muhim kanallari hisoblanadi.

Ommaviy kommunikatsiyalar jamoatchilik tushunchalari, e'tiqodlari, qadriyatlar va xatti-harakatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan yangiliklar, xabarlar, reportajlar, sharhlar va boshqa materiallar odamlarning dunyoni, ijtimoiy hodisalarni va siyosiy voqealarni qanday tafakkur qilishini belgilab bera oladigan qudratga ega.

**Tahlil natijalari.** Bunday vaziyatda fuqarolar ko'pincha mansabdor shaxslar haqidagi ushbu ma'lumotlarga ko'proq ishonishadi. Tadqiqotlarga ko'ra, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari davlat xizmatchilari faoliyatining ijobiy tomonlaridan ko'ra, amalda ko'proq darajada mansabdor shaxslarning salbiy imidjini yaratishini tasdiqlaydilar [3].

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikriga turli jihatlarida ta'sir ko'rsatishi mumkin:

**kun tartibini belgilash** – ommaviy axborot vositalari odamlar nima haqida gaplashishi va o'ylashini belgilaydi. Ular ko'proq jamoatchilik e'tiborini tortadigan mavzular va voqealarni tanlaydilar. Bunda ular muayyan masalalar yoki hodisalarning ustuvor yo'nalishlari va ahamiyatini shakllantiradilar, jamoatchilik muhokamasi nima haqida bo'lishini belgilaydilar;

**ma'lumotni filtrlash va tahrirlash** – ommaviy axborot vositalari ommaviy sohaga kiradigan ma'lumotlarni filtrlaydi va tahrirlaydi. Ular qanday ma'lumotlarni taqdim etishni, qanday faktlar va fikrlarni kiritish yoki chiqarib tashlashni tanlashadi;

**tasavvur va stereotiplarning shakllanishi** – ommaviy axborot vositalari o'zlarining tasvirlari, hikoyalari va tasavvurlari orqali tasavvur va stereotiplar shakllantiradi. Ular shaxslar, guruhlar, mamlakatlar yoki hodisalarning ijobiy yoki salbiy tasvirlarini yaratishi mumkin;

**ishontirish va manipulyatsiya** – ommaviy axborot vositalari odamlarning munosabati va xatti-harakatlariga ta'sir qilish uchun turli ishontirish va manipulyatsiya strategiyalaridan foydalanishi mumkin. Ular odamlarni ma'lum bir fikrni qabul qilishga yoki muayyan xatti-harakatlar modelida harakat qilishga ishontirish uchun emotsional jozibadorlik, zarurat tuyg'usini yaratish yoki muayyan tasvirlar va hikoyalarni yaratish kabi turli xil kommunikatsiya usullaridan foydalanishi mumkin.

Raqamli savodxonlik davlat organlarining boshqaruv xodimlari uchun katta ahamiyatga ega. Boshqaruv xodimlari strategik qarorlar qabul qilishda, jamiyat bilan o'zaro aloqada va davlat organi imidjini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan boshqaruv xodimlarining mediasavodxonligini rivojlantirishning bir qancha jihatlari va muhim sabablari bor, xususan:

kommunikatsiya va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish, shaffoflik va ishonchni yaratish, inqiroz va favqulodda vaziyatlarni boshqarish, tanqidiy fikrlash va axborot tahlili, media muhitidagi o'zgarishlarni kuzatish va ularga moslashish.

Ommaviy axborot vositalari ko'pchilik uchun asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qildi va bu ularning avariya haqidagi tasavvuriga ta'sir qildi. Voqea ko'lamini ma'lum bo'lgach, vahima va rasmiy bayonotlarga ishonchsizlik paydo bo'ldi. Biroq inqiroz rivojlanib, ommaviy axborot vositalari uni faol yoritgach, jamoatchilik fikri o'zgaraga boshladi. Tez orada avariya global oqibatlariga olib kelishi va keng xalqaro javob choralarini talab qilishi ma'lum bo'ldi.

Shu o'rinda, yana bir misol. Yaqinda Italiya, Frantsiya, Turkiya, Avstriya, Niderlandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan milliy saylovlar qarama-qarshi

g'oyalar va mafkuralar maydoniga aylandi, ular internetda shafqatsiz va zo'ravon ritorika orqali tobora ko'proq muhokama qilinindi. Asosiy ommaviy axborot vositalaridagi guruhlar orqali siyosatchilar va fraktsiyalar xavfli reduksionistik hikoyalari bilan qo'llab-quvvatlandi. Ushbu munozaralarning aksariyati odamlar bilan muloqot orqali emas, balki odamlarga qadriyatlar, mafkuralarni tobora tajovuzkor va ekstremal usullar bilan targ'ib qiluvchi gomofil tarmoqlarga ulanish imkonini beruvchi mobil qurilmalar orqali amalga oshirildi.

AQShdagi Breitbart News kabi platformalar gazeta va televideniellarni ortda qoldirib, keng o'qiladigan axborot manbalariga aylanib qoldi [4].

Jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roliga oid keltirilgan misollar va tahlillar davlat organlari va aholi o'rtasida mediasavodxonlikni rivojlantirish muhimligini ifodalaydi. Demak, mediasavodxonlikni rivojlantirish va axborotni manipulyatsiya qilish mexanizmlarini tushunish nafaqat davlat amaldorlari, balki jamoatchilik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar axborotni tahlil qilish va baholash, soxta yangiliklarni ishonchli axborot va tashviqot usullaridan ajrata olishi muhim. Bu fuqarolarning xabardorligini oshirishga xizmat qiladi, ularga ongli qarorlar qabul qilish, jamoat va siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkonini beradi. Umuman olganda, jamiyatda mediasavodxonlikning rivojlanishi ommaviy axborot vositalaridan siyosiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi. Mediasavodxonlik – ommaviy axborot vositalari orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy baholash va sharhlash imkonini beradigan ko'nikmalar to'plami.

**Xulosa.** Davlat boshqaruvida mediasavodxonlik siyosiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Davlat boshqaruvi xodimlari axborotni manipulyatsiya qilish mexanizmlarini mukammal bilishi va tashviqot usullarini aniqlay olishi muhim. Bu ularga ob'ektiv ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam beradi va ishonchsiz yoki buzilgan ma'lumotlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi.

Shu bilan birga, aholi o'rtasida ham mediasavodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jamoatchilik axborot materiallarini tahlil qilish va baholash, sifatli jurnalistikani soxta yangiliklar va tashviqot usullaridan ajrata olishi kerak. Bu fuqarolarning xabardorligini oshiradi, ularga ongli qarorlar qabul qilish, jamoat-siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Davlat organlarida mediasavodxonlikni rivojlantirish siyosiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanishda muhim omil bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. E. В. Сорокина, Д. О. Селентьева, В. А. Сурина, & Е. А. Черкасова (2019). Роль СМИ в формировании положительного имиджа государственного служащего. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (4-1), 142-145. doi: 10.24411/2500-1000-2019-10726
2. Haider, J., & Sundin, O. (2022). *Paradoxes of Media and Information Literacy: The Crisis of Information*. *Paradoxes of Media and Information Literacy: The Crisis of Information* (pp. 1–174). Taylor and Francis. <https://doi.org/10.4324/9781003163237>
3. E. В. Сорокина, Д. О. Селентьева, В. А. Сурина, & Е. А. Черкасова (2019). Роль СМИ в формировании положительного имиджа государственного служащего. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (4-1), 142-145. doi: 10.24411/2500-1000-2019-10726
4. Mihailidis, P. (2023). *Civic media literacies: In Journalism, Society and Politics in the Digital Media Era* (pp. 10–27). Intellect Books. <https://doi.org/10.2307/j.ctv36xw03x.4>
5. Mihailidis, P. (2018). *Media Literacy's Civic Problem 1*. In *Civic Media Literacies* (pp. 23–51). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315526058-2>
6. Н. В. Демчук (2016). Медиаобразование будущих государственных и муниципальных служащих. *Журналистский ежегодник*, (5), 29-32.

7. Bykov, I., & Medvedeva, M. (2021). Importance of Media Literacy for Political Communication in Russia. *Journal of Political Research*, 5(4), 7–22. <https://doi.org/10.12737/2587-6295-2021-5-4-7-22>
8. Е. В. Сорокина, Д. О. Селентева, В. А. Сурина, & Е. А. Черкасова (2019). Роль СМИ в формировании положительного имиджа государственного служащего. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (4-1), 142-145. doi: 10.24411/2500-1000-2019-10726



UDK:-930.85

*Nargiza YUSUPOVA,*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti*

*E-mail: nargiza\_yusupova@mail.ru*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD) M.M.Qirg'izboev taqrizi ostida*

## SPORTSMAN'S CAREER AND THE SOCIETY OF THE SPORTSMAN'S PROFESSION PLACE IN SOCIAL LIFE

Annotation

The article provides information about the concept of career, athlete's career, its main aspects, psychological (spiritual) requirements for an athlete, factors that cause the formation of an athlete's personality, and the role of an athlete's profession in the social life of society.

**Key words:** Career, sports, personality, sports career, socialization, women's sports, professional, sports, amateur sports, sports training, download.

## КАРЬЕРА СПОРТСМЕНА И РОЛЬ ПРОФЕССИИ СПОРТСМЕНА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье представлены сведения о понятии карьеры, карьере спортсмена, ее основных аспектах, психологических (духовных) требованиях к спортсмену, факторах, обуславливающих формирование личности спортсмена, а также о роли профессии спортсмена в социальной жизни общества.

**Ключевые слова:** Карьера, спорт, личность, спортивная карьера, социализация, женский спорт, профессиональный, спорт, любительский спорт, спортивная подготовка, нагрузка.

## SPORTCHI KARYERASI VA SPORTCHI KASBINING JAMIYAT IJTIMOYIY HAYOTIDAGI O'RNI

Аннотация

Maqolada karyera tushunchasi, sportchi karyerasi, uning asosiy jihatlari, sportchiga qo'yiladigan psixologik (ruhiy) talablar, sportchining shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo'livchi omillar va sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni haqidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Karyera, sport, shaxs, sport karyerasi, ijtimoiylashuv, ayollar sporti, professional, sport, xavaskorlik sporti, sport mashqlari, yuklama.

**Kirish.** Har bir inson ma'lum bir vaqtda o'z kelajagi, kelajakdagi kasbi haqida jiddiy o'ylay boshlaydi. Karyera nima ekanligini, qanday martaba turlari va modellari borligini, kareerani qanday boshqarishni bilish, shuningdek ularning qobiliyatlarini, zaif va kuchli tomonlar unga kasbiy o'sish va turmush darajasini yaxshilash uchun imkoniyat beradigan tashkilotda ish boshlash eng muhimi hisoblanadi. Bu jarayonda, ishdan qoniqishning yuqori darajasini olish, shaxsiy kasb istiqbollarini aniqroq aks ettirish, hayotning boshqa tomonlarini rejalashtirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatga maqsadli tayyorgarlik ko'rish va mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish lozim. Karyera deganda biz xizmat pog'onasidan yuqoriga qarat ko'tarilishimiz va nufuzimiz oshib borishini tushunishimiz kerak. Ko'pchilik odamlar karyera deganda mehnat faoliyatini tushunadi, bu esa unchalik ham to'g'ri emas. Mehnat faoliyati bu – uzoq muddat bir ish faoliyati bilan shug'ullanib va shu faoliyat orqasidan uzoq muddat bir lavozimda qolishni anglatadi. Karyera esa bu – doimiy rivojlanish, o'sish, o'z kasbiy kompetentligini, malakasini oshirish, lavozim pillapoyasida yuqoriga ko'tarilishni va o'z navbatida daromadning ham oshishini anglatadigan tushunchadir.

Karyera so'zining lug'aviy kelib chiqishi italyan tiliga borib taqalib, bu so'z *carriera* – yugurmoq, hayotiy yo'l va lotincha *carrus* – aravani sudramoq degan ma'nolarni anglatadi. Karyeraning ikkita asosiy shakli mavjud bo'lib, ularni: a) umumiy professional o'sishni anglatuvchi karyera va b) ma'lim bir tashkilot ichidagi o'sishni anglatuvchi karyeralarga ajratish mumkin.

a) Professional karyera bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va ular ko'p hollarda quyidagi yosh davrlarida o'z ifodasini topadi:

Dastlabki bosqich – 25 yoshgacha. Bu bosqichda inson professional o'sishga endigi tayyorgarlik ko'rayotgan bo'ladi;

Shakllanish bosqichi – 30 yoshgacha. Bu bosqichda inson mehnat faoliyatini boshlab yuvorgan bo'ladi va u o'z kasb mahoratini oshirish davrini boshidan o'tkazayotgan hisoblanadi;

O'sish bosqichi – 45 yoshgacha bo'ladi. Bu bosqichda mutaxassis allaqachon yuqori natijalarga erishgan va o'z imkoniyatlaridan keng foydalana olish qobiliyatiga erishgan bo'ladi;

Yakunlash bosqichi – 60 yoshdan o'tgan davr. Bu bosqichda inson mehnat nafaqasiga chiqishga tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi va o'zini ketidan yosh shogirdlarini qoldirish, ularga o'z mahoratini o'rgatish payid bo'ladi;

Mehnat nafaqasi davri – 65 yoshdan yuqori yosh. Bu bosqichga yetib kelgan mutaxassis mehnat davrini tugatgan va endilikda boshqa uzi istagan faoliyat bilan mashg'ul bo'la boshlagan bo'ladi. Masalan karyera qurishi davrida vaqti shug'ullanishga vaqti bo'lmagan biron-bir xobbi bilan;

Albatta, yuqorida ko'rsatilgan karyeraning yoshga bo'linish davri barcha uchun aynan shunday bo'lib taqsimlanmaydi, lekin asosiy omma odamlarining mehnat faoliyatidagi yosh davri shunga yaqin ravishda ifodalanadi.

Sport karyerasi – biron bir sport turi bo'yicha yuqori natijalarga erishish maqsadida olib borilgan ko'p yillik sport malakasi, ko'nikmasi va sport kompetentligiga ega bo'lmoqlikni anglatadi.

Sport karyerasi davrini bosqichlarga bo'lib o'rgansak, u yuqoridagi kabi (birinchi rejaning javobida) boshqa sohadalardagi karyera o'sishidan farq qilib, ularni (shartli ravishda) quyidagi etaplariga bo'lib ko'rib chiqish mumkin:

Sportga dastlabki tayyorgarlik ko'rish bosqichi (etapi);

Sport karyerasining boshlang'ich etapi;

Tanlangan sport turidagi mashg'ulotlarini chuqurlashtirish etapi;

Sportdagi yetuklik davri;

Sportdagi ilk yutuqlar davri;

Sportdagi maksimal imkoniyatlarga erishish davri;

Erishgan yutuqlarini saqlab qolish davri;

Sport karyerasi sportchi tomonidan tanlangan "sport klassifikatsiyasi" bilan belgilanadi:

Ommaviy sport;

Yuqori natijalar sporti (bu ham professional sportga kiradi, lekin farqi shundaki, bu yerda tijorat ahamiyatga ega bo'lmaydi, masalan olimpiada o'yinlari);

Professional sport (sportning bu klassifikatsiyasida yuqori natijalar sportidan tijoratning o'rni kattaligi bilan farqlanadi);

Sport karyerasida o'sish mavjudligini angatuvchi komponentlar quyidagilar bo'ladi:

Spotchiga motivatsiya beradigan har qanday holatlar, ya'ni vazifalar, motivatsiyalar, maqsadlar, hohish va istaklar. Bu mexanizmlar sportchining o'z ustida ishlashiga va o'z karyerasini qurishiga, sport pillapoyasida yuqoriga ko'tarilishiga motivatsiya bo'lib yordam beradigan mexanizmlardir. Agarda niyat yuqori bo'li, lekin maqsad to'g'ri yo'lga qo'yilmasin sportchi karyerasida o'sish bo'lmaydi, natija bo'lmaydi. Bunda sportchi o'z energiyasini va jismoniy resurslarini noto'g'ri tashkillashtirgan bo'ladi;

Strategiya va taktikani to'g'ri olib borish;

Samara beradigan komponent. Bu komponent sportchining professionallik darajasini, uning yutuqlari, malakasi, sport toifasi va jamoadagi o'rniini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sport karyerasida shunday tartib va qat'iy qonun-qoidalari borki, ularga gollar, ballar, shtraflar, kartochkalar va boshqalar kiritishimiz mumkin. Sport bilan shug'ullangan inson ayniqsa u hali to'liq mustaqil shaxs bo'lib shakllanmagan yosh bola bo'lsa, u o'zining sport bilan bog'liq har bir hatti-harakatini murabbiylar va hakamlar qarashlari bilan baholay boshlaydi. Natijada bola murabbiylar talabiga, hakamlar talabiga mos bo'lishga, ularning talabiga javob berishga harakat qiladi. Bu albatta bo'lajak professional sportchi bo'lib yetishish uchun yordam bersada, lekin bolaning o'zi-o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qolishiga, o'ziga bo'lgan hurmatning yo'qolishiga ham sabab bo'lib qolishi mumkin.

Sport faoliyati bilan shug'ullanish sportchidan tinimsiz o'z ustida ishlashni, o'ziga nisbatan qattim qo'l va talabchan bo'lishni, raqobatbardosh bo'la olishni, ruhiy va emosional turg'unlikka ega bo'lishni, kerak bo'lgan paytda o'zini ayamaslini talab qiladi. Bu esa sportchidan qat'iy maqsadlarni va ularga tinimsiz mehnat bilan intilish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga albatta sportchi tanlagan sport turining o'ziga xosligini, inobatga olishi kerak. Ayrim sport turlari jamoaviy bo'lsa, boshqalari yakkama-yakka olishuvni nazarda tutadi.

Sportda yuqori natijalarga erishish va sport karyerasini qurish uchun uning o'ziga shartlari bor bo'lib, unga sportchi qobiliyati, mashg'ulot o'tkazish uchun maxsus sharoitlarning mavjudligi, mashq qilish usul va usullari, murabbiyning yondoshuvi, oila a'zolari va yaqin insonlarning ta'siri kabi narsalar kiradi.

Sport karyerasida uchraydigan inqirozlar haqida fikr yuritsak avvalom bor, "sportdagi inqiroz" nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak[5]:

Sport bilan shug'ullanishning boshlang'ich darida yuzaga keladigan inqiroz. Bu davrdagi inqiroz (yoki sportdan yuz o'girish desak ham bo'ladi) ko'p hollarda 4-7 yoshdagi jajji sportchilar endigina sport karyerasini qurishni boshlashgan davrlarda yuz beradi;

Sport bilan shug'ullanishning chuqurlashtirilgan davrida yuzaga keladigan inqiroz. Inqiroz jismoniy mashqlarning murakkablashishi va yosh sportchi kutayotgan natijalar darrov yuz bermayotganligidan bo'lishi ham mumkin;

Ommaviy sport turidan yuqori natijalar sport turiga o'tish davrida yuzaga keladigan inqiroz. Bu davrdagi inqirozga bo'ladigan sabablardan biri bu – fiziologik yosh bilan bog'liq bo'lib, sportchi organizmida bz berayotgan gormonal o'zgarishlar uning ruhiy va jismoniy holatiga ta'sir qilishi mumkin. Natijada sportchida professional sport bilan shug'ullanishni davom ettirishga shubha uyg'onadi;

O'smirlar sportidan kattalar sportiga o'tish darida yuzaga keladigan inqiroz. Bu yoshdagi ko'plab sportchilar g'alabaning yuqori cho'qqilarni zabt etgan bo'lishadi. Endilikda ular o'zlarining yosh kategoriyalari ichida professional sportchi hisoblanishadi. Shu bilan birga, ularga endilikda mutlaqo boshqa, nisbatan ancha yuqori talablar qo'yila boshlanadi. Ko'pincha bunday sportchilar xorijiy musobaqalarda, xalqaro musobaqalarda qatnashib, yurt sharafini munosib himoya qilishga muyassar bo'ladilar. Albatta, bu narsa, sportchidan natija uchun ko'proq mas'uliyatni his qilishni talab qiladi, bu esa, o'z navbatida, tashvish va stressga olib keladi. Bunday talablarga bardosh bermaslik va bunday stresslarni ko'tara olmaslik esa sport karyerasidagi inqirozga sabab bo'ladi;

Xavaskorlik sportidan professional sportga o'tish davrida yuzaga keladigan inqiroz;

Sportdagi eng yuqori g'alaba cho'qqilarini egallagandan so'ng keladigan inqiroz. Mazkur inqiroz sportchining motivatsiyasi tushib ketishi, avvalgi yuqori natijalarga erishish qiyin bo'lishi, yangi natijalar ko'rsatishga kuchi yetmayotganligi kabi sabablar orqali vujudga keladi;

Sportni tugatish vaqti yetib kelgan davridagi inqiroz. Bu davrdagi inqiroz ko'pincha sportchining yoshi ancha ulg'ayib, uning jismoniy holati bo'shshib qolganligi bilan va sportchi o'z faoliyatini endilikda boshqa turdagi faoliyatga o'zgartirishi bilan yuz beradi. Odatda bu davrdagi inqiroz sportchining 40 yoshlar atrofida yuz beradi;

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, siyosiy-falsafiy tahlil, ketma-ketlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Sport karyerasini tugatilishiga sabab bo'ladigan barcha omillarni sportchining o'zi ham, uning murabbiyi ham avvaldan bilishi va karyeraning tugatish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rish lozim.

Biz yuqorida umuman "sport karyerasi"dagi inqiroz turlarini ko'rib chiqdik, keling endilikda "Sportchi karyerasi" tugagandan so'ng uning hayotida yuzaga keladigan inqirozni va uning sabablarini ko'rib chiqamiz:

Sportchining kutilmagandan, sportdan to'satdan ketish yoki ketishga majbur bo'lish;

Sportchining sportdan ketishga tayyor bo'laslik;

Sportchining tashabussiz, passiv bo'lishi;

Sportchiga ma'naviy, ruhiy va moddiy yordamning yetishmasligi;

Sport individning ijtimoiylashuvida va shaxsga aylanishida katta yordam beradigan jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham o'zining sportdagi professional karyerasini tugatgan bo'lishiga qaramay, sportchilar sport bilan shug'ullanmagan insonlardan ko'ra ko'proq yutuqlarga va nufuzga erishishgan hisoblanishadi. Biroq, sportdan boshqa narsa bilan qiziqmay, umri davomida faqat sport bilan

shug'ullangan sportchilar, umri davomida o'z murabbiyi tomonidan belgilangan aniq ko'rsatmalarni bajarib kelgan sportchilar, doimo qiladigan ishi ma'lum bo'lib, faqat trenirovka bilan mashg'ul bo'lgan va bir umrlik sport rejimi bilan yashab kelgan sportchilar sportdan kutilmaganda ekstremal ravishda katta sportdan ketishga majbur bo'lishganda (sport kasbidagi inqirozga uchraganda) o'zlarini yo'qotib qo'yishadi va kundalik turmushda ijtimoiy muhitga moslashishga qiynalishadi. Bunday sobiq sportchilar o'zlarining hayotdagi motivatsiyalarini, maqsadlarini yo'qotib qo'yishadi.

Ushbu omillar sportchining o'z karyerasini tugatganda jamiyatga birikishiga to'siqlik qiladi va uni sportdan tashqari olamda o'z hayotini qurishiga halaqit beradi. Albatta, sportchi o'z karyerasidan ketganda bu omillar aynan shunday ishlaydi, deb mutlaqo qat'iy aytib bo'lmaydi, lekin, ularning mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Sportchi o'z faoliyatini sekin-astalik bilan, avvaldan rejalashtirgan ravishda to'xtata unda yuqorida sanab o'tilgan omillar nisbatan yumshoqroq ta'sir ko'rsatadi. Odatda sportda eng yuqori marralarni egallab bo'lgan, endilikda o'zi egallagan yutuqlarni uzoq vaqt ushlab tura olgan sportchilar vaqti-soati kelib sportdan ketishlari kerakligini oldindan anglab yetadilar va mag'lub bo'lmasdan avval, o'zlari anglagan holda sportdagi karyeralarini to'xtatadilar [7].

Sportchilarning ijtimoiy olamga bo'lgan moslashuvlariga quyidagi omillar yordam beradi:

Sportchi sportdagi karyerasining eng yuqori cho'qqisiga chiqqanligini anglashi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi va sportdan tashqari rejalarini ishlab chiqishi;

Jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq bo'lgan boshqa sohalarni tanlashi, masalan murabbiylikni;

Oila a'zolari, yaqin insonlari, do'stlari, murabbiy tomonidan ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi;

Sportdan ketgan bo'lishiga qaramay davlat tomonidan, sport sohasi tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishi, yordam olishi;

Davlat tomonidan tibbiy va ijtimoiy himoyaga olinishi;

Boshqa sobiq sportchilar bilan, sport faxriylari bilan ahil munosabatni o'rnatilishi, o'lar bilan do'stlashish va vaqti-vaqti bilan o'zaro musobaqalar o'tkazib turish [10].

Mazkur omillar o'zining sportdagi karyerasini to'xtatgan yoki to'xtatishga majbur bo'lgan sportchilarga jamiyatga moslashishga katta yordam beradi.

XXI asrga kelib ayollar katta ishtiyoq ila sport turlari bilan shug'ullanishmoqda. Hozirda ayollarni nafaqat klassik

ko'rinishdagi sport turalarida balki yangitdan-yangi bo'lgan zamonaviy sport turlarida ham uchratishimiz mumkin. Ayollar erkaklardan qolishmagan tarzda sportda yuqori natijalarni erishish ilan birgalikda va rekord natijalarni o'rnatishmoqda.

Spoortchi ayollar o'zlarining jismoniy baqqavatligi, sog'lomligi, chiniqqanligi va chidamliligi bilan boshqa ayollardan farqlanib turishadi. Ularning turmush tarzida, hayot tarzida ham farqlar mavjud.

**Xulosa.** Sport karyerasini qurish uchun ko'pgina sport turlari bilan bolalikdan shug'ullanishni talab qiladi. Ayollar sport turlari ham bundan mustasno emas. Masalan, badiiy gimnastika, figurali uchish, suzish kabi sport turlari bilan shug'ullanish 5-7 yoshdan boshlanadi. Bolalalikdan sport bilan shug'ullanish bolaning ham, uning ota-onasining ham turmush tarzini va o'zgartirib yuboradi. Xo'sh shunday ekan, yosh qig'aloqlarning bunday qat'iyatlik ila sport bilan shug'ullanishiga sabab ularning ota-onasining hohish-istaklari, qizaloqlarning o'zlarining biron-bir sportchi ayolga taqlib qilishlari va eng asosiysi yosh sportchi qizaloqlarning o'zlarining sport bilan qiziqishlari bo'ladi. Albatta, agarda qizloqlar sport bilan o'z istaklari orqali shug'ullanishayotgan bo'lsa bu katta samara berishi mumkin, lekin agarda ular sport bilan kimningdir hohish istagi bilan shug'ullanayotgan bo'lishsa bu katta ehtimol bilan uzoqqa bormasligi, yosh sportchining karyerasini dastlabki bosqichdayoq inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi. Sababi, sport karyerasining boshlanishida ijobiy samara bergan sport faoliyati, vaqt o'tib bolaning ruhiy, aqliy fikrlashi o'sishi bilan o'zgarishi, ulardagi motivatsiyaning yo'qolishi hamda ularda tajavuzkorlik hissini paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Sport bilan shug'ullanish vaqti oshib borgan sari, sport qizlar dunyoqarashiga va shaxsiga o'z ta'sirini ko'paytirib boraveradi. Sportchi qizlar jismoniy sog'lomlikda ham, chiniqqanlikda ham, chidamlilikda ham, baquvvatlik va bo'yalarining o'sishida ham o'z tengdoshlariga nisbatan (va hatto o'g'il bola tengdoshlariga nisbatan ham) ajralib turadilar. Ular o'zlarini sinfda, jamoada liderdek tuta boshaydilar, ularda irodalilik, jamoada tez til topib keta olishlik bilan birga urishqoqlik, tajavuzkorlik hissi ham shakllanadi. Bunday tuyg'ular vaqt o'tib sportchi qizlarda erkaklarga xos xarakterni shakllantiradi va ularda qizlarga xos hislatlarning yo'qolishiga sabab bo'lib qoladi. Bu esa bevaror oilaviy ahvolni, oilalarning buzulishini, jamiyatda qizlarning o'zlarini erkaklarga xos tutishini va ko'plab umidsizliklarni keltirib chiqaradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: [Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 01.05.2023.]
2. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'QR-394-son (yangi tahriri).
3. Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'QR-637-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2022. – 416 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
6. Giddens E. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T.,-2002. 850 b.
7. Shopulatov A.N., Ochilov O.A. Sport sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. -T: O'zDJTI nashriyoti, 2014.-B.63.
8. Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. 203 b.
9. G'arb falsafasi. (tuzuvchi va ma'sul muharir Q. Nazarov.) – T.: "Sharq", 2004. 520 b.
10. Mansur Bekmurodov, Nargiza Yusupova. Madaniyat sotsiologiyasi. "YANGI NASHR" nashriyoti. 2010.





UDK:371.1

*Nazokatxon YUSUPOVA,*  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)*  
*E-mail nazokatxoniyusupova62@gmail.com*

*QDPI dotsenti, PhD M. Isabayeva taqrizi asosida*

## PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation

In the article, as one of the directions of preparing higher education students for professional activities based on an integrative approach, the problems of fully demonstrating their individual creative activity, introducing their intellectual potential, focusing the stock of knowledge, skills and abilities acquired during the study on the solution of integrative issues occupies a special place. The successful solution of these tasks requires the restructuring of the higher pedagogical education system, clarification of its goals and objectives.

**Key words.** Improvement of the mechanisms of preparation of future teachers for professional activities on the basis of an integrative approach in the teaching process, expansion of the composition of psychological-pedagogical, methodical, pedagogical conditions by means of a reflexive approach, inter-systemic and conceptual-methodological functions on the basis of systematization of integrative directions on the basis of a synergistic approach.

## ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье как одно из направлений подготовки студентов вузов к профессиональной деятельности на основе интегративного подхода рассматриваются проблемы полноценного проявления их индивидуальной творческой активности, реализации их интеллектуального потенциала, концентрации запаса знаний, умений и навыков, приобретенных в ходе обучения. Особое место занимает исследование по решению интегративных вопросов. Успешное решение этих задач требует реструктуризации системы высшего педагогического образования, уточнения ее целей и задач.

**Ключевые слова.** Совершенствование механизмов подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе интегративного подхода в учебном процессе, расширение состава психолого-педагогических, методических, педагогических условий средствами рефлексивного подхода, межсистемного и понятийного подхода. методологические функции на основе систематизации интегративных направлений на основе синергетического подхода.

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annatosiya

Maqolada oliy ta'lim talabalarini integrativ yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'nalishlaridan biri sifatida ularning individual ijodiy faoliyatini to'laroq namoyish qilish, intellektual salohiyatini joriy qilish, o'qish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar zahirasini integratsion masalalar yechimiga qaratish muammolari alohida o'rin egallaydi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish oliy pedagogik ta'lim tizimini qayta qurishni, maqsad va vazifalarini aniqlashtirishni.

**Kalit so'zlar.** Ta'limda o'qitish jarayonida integratsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish psixologik pedagogik, metodik, pedagogik shart-sharoitlari tarkibi refleksiv yondashuv vositasida tizimlararo va kontseptual-metodologik funktsiyalari sinergetik yondashuv bo'yicha integratsion yo'nalishlarni tizimlashtirish asosida kengaytirilish.

**Kirish** Jahon oliy ta'lim tizimida mutaxassislarini pedagog kadrlarni integrativ yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'nalishlaridan biri sifatida ularning individual ijodiy faoliyatini to'laroq namoyish qilish, intellektual salohiyatini joriy qilish, o'qish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar zahirasini integratsion masalalar yechimiga qaratish muammolari alohida o'rin egallaydi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish oliy pedagogik ta'lim tizimini qayta qurishni, maqsad va vazifalarini aniqlashtirishni, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunini umumiy o'rta ta'lim maktablari integratsion tizimining yangi talablariga muvofiq ravishda takomillashtirib borishni takomillashtirish

Hozirgi kunda o'qitishning an'anaviy yondashuvlari o'rmini shaxsga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarining egallagan bilimi,

ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilish hamda matematik tafakkurini takomillashtirish, ularda intellektual salohiyatning muntazam rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan doimiy foydalanish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

Pedagogika ta'lim dargohlarida darslarda talabalarni qurullangan, dunyoqarashi keng, pedagogika, psixologiya va fanlarni o'qitish metodikasini chuqur o'zlashtirgan, zamonaviy texnologiyalardan xabardor shaxs bo'lishi kerak. Bu esa, ta'lim jarayoni juda asosiy jarayondir. Hozirgi kunda darslarni zamon texnologiyalar asosida tashkil etish, ya'ni uzluksiz ta'lim sohasiga bog'liqligini ta'minlash talabalardan katta mas'uliyat, bilim, mahoratni talab etadi. Oliy ta'lim tizimidagi barcha yo'nalishlarda matematika darslari o'qitilishi va ko'p fanlar uchun matematika fani asosiy, poydevor hisoblanadi. Shuning uchun matematika fanini

o'qitilishini eng zamonaviy talablar darajasiga chiqish zamon talabidir. Kelajagimiz uchun matematika va biologiya hamda boshqa fanlar uchun kerakli tushunchalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarorining qabul qilinishi fikrimizning yaqqol isbotidir. Qarorda Matematika fani o'quv-metodik dasturi mazmun va mohiyatini sohalarga moslashtirish, matematika fani bo'yicha o'quv adabiyotlari (darsliklar)ni turli dasturlar va umumiy metodologik asosda hamda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida tushuntiruvchi real misollar, grafik materiallar asosida tayyorlash hamda matematik ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash masalalari ham asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Talim tizimida bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda ularning matematik tayyorgarligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar respublikamiz olimlari B.S.Abdullaeva, M.E.Jumayev, R.Ibragimov, R.A.Mavlonova, D.I.Yunusova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha B.N.Alimov, Y.M.Asadov, R.Fayzullaev, N.A.Muslimov, M.M.Vahobov ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Respublikamizda fanlararo aloqadorlik asosida matematika fanini rivojlantirishga xissasini qo'shgan olimlar o'rta maktablarida boshlangich sinf o'quvchilari kasb hunar kollejlarda o'qituvchilarga oliy ta'lim muassalarida bo'lajak o'qituvchilarga fanlararo aloqadorlikda o'qitishni boshlangich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishda, kasb hunar kollejlarda fanlararo o'qitishni rivojlantirishga va oliy ta'limda bo'lajak matematika o'qituvchilarini inovatsion faoliyatga tayyorlashda ilmiy ishlar olib borishgan

Matematika fanini rivojlantirishning turli jihatlarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borgan MDH mamlakatlari olimlari R.A.Ataxanov, A.N.Kolmogorov, O.V.Tarasova, L.M.Fridman, kabilar olib borgan. Fanlararo aloqadorlikda asosida o'qitishni umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limda matematika fanini integratsion yondashuv asosida o'qitishda ilmiy ishlar olib borilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda Bo'lajak o'qituvchilarining matematik tafakkurlarini takomillashtirishning samarali metodlari va texnologiyalari O.Behling, P.D.Mitchell, S.K.Reed, J.Piaget, K.H.Silber, R.J.Sternberg, J.Wundhamn kabi xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Talabalarning kasbiy kompetensiyalari va ko'nikma-malakalarini rivojlantirish bo'yicha Françoise Delamare Le Deist, Winterton Jonathan, C.David Mortensen, Stein Braten, Keith Oatley, Antony Mansteadlar tomonidan yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki, yurtimiz istiqbolini kadrlar belgilab beradi. Yangicha fikrlovchi, integratsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga olib kelishga qodir kadrlarni tayyorlash masalalari mamlakatimizni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish sohasidagi ishlar ahvolini tanqidiy tahlil qilish zaruratini ta'kidladi: «Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur». Natijada

mamlakatimiz ta'lim tizimi jahon andozasi asosida yanada takomillashadi, kadrlar sifati raqobatbardoshlik muhitiga tezkor moslashadi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy buyurtmasi pedagogik oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning natijaviyligini ta'minlovchi pedagogik integratsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash g'oyalarini joriy qilish bilan bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik integratsion faoliyatdek kasbiy funksiyasini bajarishning amaldagi tayyorgarlik darajasi o'rtasida ma'lum ziddiyatlarining mavjudligi tadqiqot mavzusini bajarish zaruratini vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuning mazmuni, uni o'rganishdan maqsad va auditoriyadagi asosan kechagi yuqori sinf o'quvchilari ekanligi, maktab o'quv fanlari, maktab hayoti tajribasi bilan izchillikka rioya qilish zarurligini taqozo etadi. O'quv yilining eng boshida, bu yerda, oliy tahlil muassasidagi o'quv fanlari bilan bog'lanish juda cheklangan.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillar natijasidan ma'lumki, uzluksiz ta'limning barcha sohalarida matematika fanining fanlararo aloqadorlik asosida o'qitishni mazmuni, maqsad va vazifalari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu zamonaviy yondashuvga asoslangan ta'lim texnologiyalari matematika fanini o'qitishda talabalarni fanlar orasidagi aloqa ta'lim mazmunida o'quv bilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi va mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Integratsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish psixologik pedagogik, metodik, pedagogik shart-sharoitlari tarkibi refleksiv yondashuv vositasida tizimlararo va kontseptual-metodologik funksiyalari sinergetik yondashuv bo'yicha integratsion yo'nalishlarni tizimlashtirish asosida kengaytirilish yo'llarini amalga oshirish iborat. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etish, faktik, tushunchaviy, nazariy, falsafiy integratsion yondashuv asosida tarmoq, kurs, mavzular va mashg'ulotlarni rejalashtirish darajasini umumiy kommunikativ qadriyatlar, shaxslararo muloqotni amalga oshirish, kasbiy ideal darajasi, kasbiy muloqot, muammoli yondashuvlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash orqali takomillashtirilishi, oliy ta'limdagi bo'lajak o'qituvchilarining integratsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan oliy ta'limda yo'nalishlar uchun talabalarga «Oliy Matematika» darsligi yaratilgan va amaliyotga joriy qilinishi, integratsion yondashuv asosida

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish modeli kontseptual, maqsadli, mazmunli yondashuvlar vositasida ijodiy faoliyat usullarini o'zaro integratsiyalash o'quv motivlarini kuchaytirish, motivatsiya, kognitiv, faoliyat va natijalarni baholash asosida takomillashtirilishdan iborat.

**Xulosa va takliflar.** Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi asosida olib borilgan tasdiqlov pedagogik sinov ishlari tasdiqlamoqdaki, birinchidan, o'quv ijodiy tayyorgarlik darsdagi faoliyatini ko'rsatuvchi sifatlaridan biri bo'lib, ta'lim jarayonida egallangan ijodiy bilim, malaka va ko'nikmalar, ijodiy tafakkur uning komponentlaridir.

Integrativ yondashuv asosida o'qitish ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning o'quv ijodiy tayyorlash nazariyasi va

amaliyotining hozirgi holatini o'rganish, zamonaviy va axborot pedagogik amaliyotda o'qituvchilarning ijodiy ish faoliyatida o'quv ijodiy tayyorgarlikning o'rni va ahamiyatini aniqlash, o'qituvchilar egallashi lozim bo'lgan badiiy bilim, malaka va ko'nikmalarining zamonaviy mazmunini aniqlash, integrativ yondashuv asosida ta'limda mulohaza mavzusini interaktiv usullarni qo'llash va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari vositasida aniqlash.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi talabalarining matematika fani o'qitishda talabalarida kasbiy pedagogik faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish jarayoni olib borildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). Pedagogical science education management in teaching science of pedagogical sciences. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 529-537.
2. B.S.Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikni metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik letseylarda matematika o'qitish misolida
3. S.Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.: Avtoref. ... dis. ped. fan. dok. – Toshkent, 2007. – 45 b.
5. A.A.Salomov A.A. Matematikaning fanlararo aloqadorlik funktsiyasi asosida yuqori sinf o'quvchilarining ko'nikma va malakalarini rivojlantirish: Dis. ... ped.fan.nom. – Toshkent, 1998. – 182
6. Rahimov B.X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyat munosabatlarining shakllanishi: Dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent, 2005. –161 b.
7. Yusupova, N. V. (2022). Theoretical and methodological bases of interdisciplinary relations of the natural mathematical cycle in preparation of a future teacher in a pedagogical university. *International journal of innovations in engineering research and technology*, 9(11), 306-309.
8. Yusupova, N. V. (2020). Talabalarining o'rta umumta'lim maktablarda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish bo'yicha asosiy bilim va malakalari. *TDPU Ilmiy Axborotnomasi*, 20(2), 105-108.



UDK: 30.303(378)

*Barno YAKUBOVA,*  
*Andijon mashinasozlik instituti assistenti*  
*E-mail: byakubova1990@gmail.com*

*ADU dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi M.Artikova taqrizi asosida*

### MUSTAQIL TA'LIMNI SAMARALI TASHKIL QILISH TALABALAR MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada o'quvchi-talabarlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli katta ekanligi. Talabalar adabiy asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga o'rgana borishligi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllashi, tanqidiy fikrlash ta'lim va jamiyatdagi o'rni haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Fikr, falsafa, mantiq, pedagogik, psixologiya, ta'lim, inson, o'quvchi, ko'nikma, ma'lumot, qobiliyat, talaba.

### ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ КАК ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В этой статье рассматривается тот факт, что роль теоретического мышления в умственном развитии учащихся-студентов велика. Тот факт, что учащиеся учатся самостоятельно мыслить, рефлексировать и дискутировать, читая и объясняя литературные произведения. В нем постепенно рассказывается о природе и обществе, о формировании собственной точки зрения, убеждений, взглядов, критического мышления и его месте в образовании и обществе.

**Ключевые слова:** педагогическое сотрудничество, стратегии деятельности учителя, проектирование, педагогические психологические требования, педагогическое мастерство, ученики.

### EFFECTIVE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION AS A PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTOR FOR THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS

Annotation

In this article, the fact that the role of theoretical thinking in the mental development of student-students is great. The fact that students learn to think, reflect and debate independently by reading and explaining literary works. It gradually talks about nature and society, about the formation of its own point of view, beliefs, views, critical thinking and its place in education and society.

**Key words:** pedagogical cooperation, strategies of cooperation, teacher activity, design, pedagogical and psychological requirements, pedagogical skills, students.

**Kirish.** Talabalarning o'quv faoliyati orqali dunyoqarashi, tafakkuri shakllanadi, ijtimoiy tizimga ongli munosabati tarkib topadi. Ma'lumki ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi oshadi va o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishi shakllanadi[1].

Ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar berish, ularning asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. O'z-o'zidan bu samaradorlik ta'lim muassasalaridagi o'quv fanlarni o'qitish jarayonining tashkil etilishi, o'tkazilishi, erishgan natijalari bilan uzviy bog'langan. SHuningdek bu jarayonning o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirishdagi o'rni ham o'ziga xosdir. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonining asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirish asosida ta'lim mazmunining sifatini oshirishdir [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ulkan ahamiyat kasb etishini asoslash dolzarb ilmiy muammoga aylandi. SHu ma'noda psixolog olimlar E.G'oziev, V.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova, K.Kenjabaeva, pedagoglar Q.Husanboeva, N.Alavutdinova, M.Zayniddinova, SH.Nurullaeva, M.Saidov, B.Xodjaev singari olimlarning

o'quvchi tafakkuri mustaqilligi va uni rivojlantirish borasida olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir [3].

Mustaqil fikrlash tushunchasi, uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va roli yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan ochib berishga harakat qilingan. Bu masalaga psixologlar, pedagoglar o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda, turli daraja va miqyoslarda fikr-mulohazalar bildirishgan [4].

Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish borasida izlanishlar olib borgan pedagog olimlarning har biri unga o'ziga xos tarzda yondashishgan, ta'rif berishgan. Masalan, Z.Nishonovanning fikricha: «Mustaqil fikrlash shaxs xislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydigan muhim omillardan biridir» [5].

A.Erkaevning qarashlari bo'yicha esa: «Mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va in'ikosidir» [6].

Psixolog olimlar V.Karimova va R.Sunnatovalar fikr haqida shunday deyishgan: «Ob'ektiv olamdagi voqea-hodisalarning inson ongiga ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan tuyg'u «fikr» deb ataladi. Fikr asosida inson ko'zi bevosita ilg'amayotgan, uning ko'z o'ngida bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham o'sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo'lgan sirli jihatlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi»[7].

Q.Husanboeva olib borilgan o'z kuzatishlariga tayanib, mustaqil fikrlashga quyidagicha ta'rif bergan: «Mustaqil fikrlash – insonning o'z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o'z intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir»[8].

**Tahlil va natijalar.** Talabalarining mustaqil fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirish omillari haqida to'xtalganda, ularning mazmun-mohiyati, ahamiyati, beradigan natijasi haqida fikr yuritish o'rindir. Demak, o'quvchining mustaqil fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

Birinchi, o'quvchilar uchun mustaqil fikr yuritish, izlanish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, o'z xulosasi bilan tengdoshlarini tanishtirish ko'nikmalarining o'zlashtirilishini ko'zda tutuvchi dars jarayonlarini tashkil etish lozim. Bunda ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab olishi nazarda tutiladi. Faoliyat sohasi, bir tomondan, tanlangan texnologiyaga muvofiq uning asosini tashkil etuvchi qatorlar tizimini hosil qilsa, ikkinchi tomondan, faoliyatning tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadi. Bugungi kundagi yangi pedagogik texnologiyalarning bosh vazifalaridan biri zamonaviy ta'lim mazmuni asosida o'quvchining o'quv tafakkur faoliyatini shakllantirish, ya'ni ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarga bilim berish, bu jarayonning samaradorligini kafolatlash bosh masalalardan biridir. Shunday ekan, o'tkaziladigan har bir dars jarayonini alohida tayyorgarlik bilan tashkil etish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bu jarayon o'quvchining mustaqil fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi [9].

Ikkinchi, dars jarayonlarida o'qitishning samarali vositalaridan unumli, o'rinni foydalanish zarur. Pedagogik jarayonning mohiyati – o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniy lashtirish, kengashish, bartaraf etish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi. Dars jarayoniga tanlangan har bir metod ta'lim sifatiga ta'sir etadi. Metod tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim: [10].

- dars mavzusiga (sodda/murakkab);
- darsga qo'yilgan maqsadga;
- dars shakliga;
- talabalar soniga;
- talabalar yoshiga;
- o'quvchilar tajribasiga;
- resurslarga;
- talabalarining tayyorgarlik darajasiga;
- talabalarining ehtiyojlariga;
- talabalarining ruhiyatiga;
- mentalitetiga.

Uchinchi, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari asosida turli xil yo'nalishdagi tadbirlarni tashkil etish orqali o'quvchining o'z ongidagi mavjud bilimlarni rivojlantirish, o'z qobiliyatlarini namoyish etish, imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhiti yaratiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchining qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish mumkin [11].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar talabalarining mustaqil fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirishga ahamiyatli omillar bilan boyitilgan. Ijtimoiy gumanitar fanlarning o'qitish jarayonining o'ziga xosligi ham talabalarni mustaqil fikrlatish, mustaqil ishlash, mustaqil qarorga kelish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

To'rtinchidan, axborot texnika vositalaridan samarali foydalanish orqali ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishda o'quvchilarning fanga oid manbalarni ko'proq o'rganishga yordam beradi. Fanlarni o'qitishda kompyuterlardan foydalanish asosan "O'quv pedagogik dastur"lar yordamida amalga oshiriladi. SHuningdek, zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minotiga mavjud bo'lgan turli matn muharriridan, grafik, elektron jadval, ma'lumotlar jamg'armasi kabi dasturlardan foydalanish dars samarasini oshirish bilan birga o'quvchilarda kompyuter texnikasini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. [12].

Beshinchidan, tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish orqali o'quvchilarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonidagi izlanishlar bilan mustaqil ijod qilish ko'nikmasi hosil qilinadi.

Oltinchidan, darslik bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilish orqali o'quvchi o'z tajribalariga tayangan holda materiallarni o'rganadi va ularga o'z munosabatini bildiradi [13].

Ettinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini olib borishlari uchun shart-sharoit yaratishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil fikr yuritish o'zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan barkamollik sari o'quvchilarni yetaklaydi, jamiyat va tabiat hodisalarini anglashda puxta negiz hozirlaydi.

Fikr yuritishning mustaqilligi, aqlning tashabbuskorligi, pishiqiligi va tanqiydiligidan namoyon bo'ladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda, insonning o'z oldiga yangi muammoni, aniq maqsad, yaqqol vazifa qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'riqishni, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Aqlning pishiqiligi vazifalarni tez yechishda hamda yangi usul va vositalarning eng maqbulini saralash va o'z o'rnida aniq qo'llashda, eski yo'llardan forig' bo'lish va boshqa ruhiy jarayonlarda ifodalanadi. [14].

Fikr yuritishning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'liq tarzda kechadi. Muayyan sohaga aloqador ilgari surilgan fikrlar, g'oyalari, tavsiyanomalar bo'yicha nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, unday fikrni sermahsul deyiladi. Vaqt oralig'ida bajarilgan aqliy faoliyat ko'lamiga va sifatiga oqilona baho berish – fikr yuritish mahsuldorligini o'lchash mezonini sifatida xizmat qiladi. [15].

Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan cheklanmay, hodisalar mohiyatini teran ochishga intilsa, oddiy turmush haqiqatidan ham umumiy qonuniyat kashf qilishi mumkin. SHubhasiz, insonning mustaqil fikrlashi hali izlanmagan, to'la foydalanilmayotgan imkoniyatlar inson tafakkuri ila kashf qilinishi fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi. Inson kamoloti jismoniy, ahloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo'lib, mustaqil fikrlash inson kamolot pillapoyasining so'nggi cho'qqisidir. Insoniyatning hozirgi bosqichida aqliy kamolotga yetishish asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo'riqish, hissiy jiddiylashuv barqaror irodaviy xatti-harakatlar uzluksiz faollik, fidoyilik namunalari evaziga bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin [16].

**Xulosa va tavsiyalar.** Talabaniq bilish qobiliyatini rivojlantirish barcha o'quv fanlarida bo'lganidek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Insonning mustaqil fikrlashiga ahamiyatli omillar bilan boyitilgan ta'lim olishga undovchi sabablar, turlicha bo'lishi mumkin. Talaba xaqiqatdan xam ishga kirishishi uchun, o'quv faoliyati davomida uning oldiga qo'yilayotgan masalalar nafaqat tushunarli bo'lishi, balki talaba tomonidan ichki qabul qilinishi va ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Motivatsiyaning

asl manbasi uning ichida bo'lganligi uchun, talaba o'zi xoxlab o'zi amalga oshirishi lozim. SHuning uchun ta'lim olishning asosiy motivi bu ichki undovchi kuch hisoblanadi.

Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonining maqsadlarini pedagogik-psixologik tashxislashga imkon beradi. Asosiy vazifalardan biri talabalarning hamkorlikdagi o'quv jarayoni uchun qo'yilgan maqsadlar asosida rivojlanishini ta'minlashdir. O'quv jarayonining maqsadi pedagogik

tizimning izchilligini ta'minlashning asosiy omili sifatida bir qator tabiiy muammolarni keltirib chiqaradi. O'qituvchining diagnostika faoliyati aniqlik, maqsadlarni bir xilda aks yettirish, ularga erishish usullari va o'lchash va baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Agar o'qituvchi diagnostika faoliyatini amalga oshirmasa, hamkorlikdagi pedagogik jarayonni maqsadli tarzda tashkil etish mumkin yemas.

#### ADABIYOTLAR

1. Sirojiddinova, I.M. (2023). Scientific and Technological Progress, Problems and Solutions In the Application of Artificial Intelligence. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 49-53.
2. Sirojiddinova, I.M. (2023). Immersion of students in an uncomfortable environment as a method of activating the learning process. *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 3(11), 4-5.
3. Khamidovna P.O. Issues of development of the communication culture of technical students //world of science: journal on modern research methodologies. – 2023. – t. 2. – №. 3. – s. 32-35.
4. Khamidovna P.O. On the Issues of Studying the Problems of Unorganized Youth //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 3. – S. 316-318.
5. Saidovna R.D. A systematic approach to the development of students'creative abilities //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – S. 133-142.
6. Saidovna R. D. Professional competence of the educator—the main factor ensuring the quality of education //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – S. 226-231.
7. Ozodbek E. Philosophical factors of increasing social and economic activity in society //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 11. – S. 40-43.
8. Shavkatovich E. O. Human Existence and its Oriental Essence //American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750). – 2023. – T. 1. – №. 10. – S. 15-18.
9. Baxtiyorovna Y.B. Formation of independent thinking among young people—today is the most relevant day in pedagogy as a function //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – S. 143-148.
10. Bakhtiyarovna Y. B. Independent work of students through the internet pedagogical conditions of organization //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – S. 59-61.
11. Gulomjonovna N. D. Spiritual and Economic Factors of a Strong Family //Telematique. – 2023. – S. 7607–7611-7607–7611.
12. Dilnoza N. The use of interactive technologies in teaching philosophy in the higher education system //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 4. – S. 118-123.
13. Bakhriddin S. The essence of the pedagogical innovation process //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 11. – S. 8-11.
14. Sharobiddin o'g'li S. B., Rahimberdi o'g'li X. S. Strategy of Cultural Development in New Uzbekistan //Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599). – 2023. – T. 1. – №. 9. – S. 11-15.
15. Xudoyberdiyev S., Soliyev B. O'zbekistonda sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot istiqbollari //Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions". – 2023.
16. Rahimberdi o'g'li X. S. Modern History of Central Asia //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 41. – S. 142-146.



*Dildoraxon YANGIBOYEVA,*  
«Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktranti  
E-mail: dildorichkayangiboyeva98@gmail.com

*Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent D.Abdullajanova taqrizi asosida*

## KO'P BOLALI OILALARDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Tadqiqotchilarning oilaviy munosabatlarga qiziqishi oilaviy muammolarning murakkabligi, oilaviy hayotning qonuniyatlarini o'rganish va tushunish, ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichiga xos bo'lgan oilaning mavjudligi xususiyatlarini tahlil qilish kabi bir qator sabablarga bog'liq. Ko'p bolali ota-onalar uchun oilaga munosabat oiladagi bolalar soni bilan o'zaro bog'liqdir. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish mazkur oilalardagi oila ichidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini, hayotiy faoliyatining o'ziga xos jihatlarni ochib berishi bilan birga oilaning keyingi mavjud bo'lish istiqbollari aniqlashga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** Ko'p bolali oila, shaxslararo munosabatlar, juftliklar ustanovkasi, qadriyatlar orientatsiyasi, oila funksiyalari, individuallik, psixologik rivojlanish.

## МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В МНОГОДЕТНЫХ СЕМЬЯХ КАК СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

Интерес исследователей семейных отношений обусловлен рядом причин, таких как сложность семейных проблем, изучение и понимание законов семейной жизни, анализ особенностей существования семьи, характерных для определенного человека. У многодетных родителей отношение к семье коррелирует с количеством детей в семье. Исследование межличностных отношений в многодетных семьях выявляет специфику внутрисемейных отношений в этих семьях, специфические стороны их жизнедеятельности, позволяет определить дальнейшие перспективы семьи.

**Ключевые слова:** Многодетная семья, межличностные отношения, формирование пары, ценностные ориентации, функции семьи, индивидуальность, психологическое развитие.

## INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE LARGE FAMILIES AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Annotation

The interest of researchers in family relations is due to a number of reasons, such as the complexity of family problems, the study and understanding of the laws of family life, and the analysis of the characteristics of the existence of the family characteristic of a certain stage of social development. For parents with many children, the attitude towards the family is correlated with the number of children in the family. The study of interpersonal relations in the large families reveals the specific characteristics of intra-family relations in these families, specific aspects of their life activities, and allows to determine the future prospects of the family.

**Key words:** Large families, interpersonal relations, couple formation, value orientation, family functions, individuality, psychological development.

**Kirish.** Jamiyat darajasida oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlar oilaning qadr-qimmatini ma'lum darajada yo'qotishini ifodalovchi ajralishlarning ko'payishi, yetim bolalarning tarqalishi, to'liqsiz oilalarning vujudga kelishi kabi salbiy hodisalar dinamikasida namoyon bo'ladi. Oila darajasida mazkur o'zgarishlar oilaviy funksiyalarni bajarish tabiatida va oila ichidagi munosabatlarning xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shaxs darajasida birinchi navbatda, shaxsning oilaga bo'lgan munosabati xususiyatlarida qayd etilishi mumkin. Oila bilan bog'liq bu o'zgarishlarning eng sezilarli salbiy ko'rinishlari orasida tug'ilishning pasayishi va oiladagi bolalar sonining cheklanishi kiradi. Ko'p bolali oila zamonaviy jamiyat uchun kamdan-kam uchraydigan va atipik hodisa bo'lishiga qaramay, bunday oilalarning ma'lum foizi mavjud bo'lib qolmoqda. An'anaviy tug'ilish ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lmagan ko'p bolali oilalarning paydo bo'lishi ham qayd etilgan. Shu munosabat bilan ko'p bolali oilalar har tomonlama ijtimoiy-psixologik o'rganishga muhtoj.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'p bolali oila - uch va undan ortiq bolani, shu jumladan o'n sakkiz yoshga to'lmagan asrab olingan bolalarni tarbiyalayotgan oila

hisoblanadi. Ko'p bolali oilalar ko'p bolali bo'lish shartlariga ko'ra farqlanadi, ular ataylab ko'p bolali bo'lishga qaror qilgan oilalar, ko'p bolalari oilani rejalashtirishning yetishmasligi natijasi bo'lgan oilalar, birlashgan to'liq bo'lmagan oilalar, ko'p bolali oilalar bo'lishi mumkin. Ko'p bolali oilalarda bolalarning rivojlanishiga oila a'zolarining soni, turmush sharoiti va shaxsiy fazilatlar kabi omillar ta'sir qiladi. Ko'p bolali oilalarning muammolari moddiy va maishiy ahvoldagi noqulayliklar, ish bilan ta'minlanmaslik va uy-joy yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ko'p bolali oilaning psixologik qiyinchiliklari ota-onalarning bolalarga e'tiborsizligi, katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy yoshidan oshib ketishi, psixologik iqlim va past turmush darajasi bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Ko'p bolali oilalarning ota-onalari ma'lum bir ota-ona maqomini olish istagi, stressga psixologik qarshilik, yuqori darajadagi uyg'unlik va tarbiyaviy fazilatlarining past darajasi kabi psixologik farqlar bilan ajralib turadi. Ko'p bolali ota-onalarning hayotiy qadriyatlar ota va ona rolida o'zini o'zi tasdiqlashning namoyon bo'lishi, yaqin munosabatlarga

bo'lgan ehtiyoj va barqarorlikning yuqori ahamiyati, shuningdek, aloqa va moddiy xavfsizlik bilan bog'liq [5].

Ko'p bolali oilalarning ota-onalari o'zlarining ota-onalik maqomini saqlab qolish istagi, stressga yuqori darajadagi psixologik qarshilik, birlashish va ta'lim fazilatlarini bilan ajralib turadi. Insonning oiladagi hayotiy qadriyatlarining o'ziga xosligi otalik va onalikda o'zini o'zi tasdiqlash, yaqin munosabatlar va barqarorlik, shuningdek, aloqa va moddiy xavfsizlik ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bilan bog'liq. Ko'p bolali oila a'zolari uchun qadriyatlar nikoh, ota-onalik va oilaviy rishtalar bilan bog'liq. Oilaning xususiyatlarini belgilovchi muhim parametrlardan biri ehtiyojlarni qondirish va maqsadlarga erishishga qaratilgan hayotiy faoliyatni tavsiflash, shuningdek, oilaning umumiy yo'nalishini nafaqat individual, shaxsiy shaklda, balki ijtimoiy formatda ham belgilaydigan parametrlardir [6].

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarni ko'p bolali oilalar fenomeni, uning oilalarning hayot sifatiga ta'siri uzoq vaqtdan beri qiziqtiradi. An'anaviy jamiyat sharoitida bolalar tug'ilishining iqtisodiy motivlari ustunlik qildi, chunki bolalar mehnatkash sifatida oilaga iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan va qariganda ota-onalarning farovonligining kafolati bo'lgan. Bolalar alohida iqtisodiy ne'matdir, chunki ular nafaqat oila ehtiyojlarining manbai, balki uning uzoq muddatli investitsiya obyekti hamdir. Bunday investitsiya jarayonini amalga oshirib, oila kelajakdagi xarajatlarini butun oila uchun yoki bolaning o'zi uchun daromadlar oqimini oshirish orqali qoplashga umid qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, bolaning inson kapitalini shakllantirish sifati oiladagi bolalar soniga bog'liq bo'ladi va bu jarayonda ota-onalarning hissi boshqacha tarzda idrok etiladi.

1970-yillarda oiladagi bolalar soni va sifati o'rtasidagi muhim bog'liqlikni isbotlovchi, ushbu determinantlarga ta'sir qiluvchi individual omillarni o'rganuvchi bir nechta mashhur nashrlar paydo bo'ldi. G.Bekker ota-onalarning moddiy farovonlik darajasini oilada bolalarning ta'lim olish darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida ajratib ko'rsatdi. Ushbu talqindan kelib chiqqan holda, oila inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan moliyaviy resurslarni taqsimlashning asosiy kanali sifatida ishlaydi. Oila a'zolari tomonidan olingan daromadlar inson kapitalini ishlab chiqarish, rivojlantirish va takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarni to'liq shakllantiradi [4].

Ko'p bolali oilalar o'tgan asrning 90-yillar boshidan boshlab psixologik tadqiqot obyektiga aylandi. Ota-onalarning psixologik xususiyatlarini va ko'p bolali oilalarda oila ichidagi munosabatlarining xususiyatlarini o'rganish faqat bir nechta xorijiy tadqiqotlarda amalga oshirildi. Xorij, xususan, MDH davlatlari psixologiyasida bu hodisalar amalda o'rganilmagan. Bu esa, zamonaviy jamiyatda ko'p bolali oilaning muhim ijtimoiy roli va bu hodisaga psixologik tadqiqotlar yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

I.S.Demina ta'kidlaganidek, ko'p bolali oilalarda bolaning individualligini rivojlantirishda turli omillarning (iqtisodiy, biologik, psixologik) rolini o'rganishga imkon beruvchi maxsus model bo'lib ishlaydi. Ko'p bolali oilalarning psixologik tadqiqotlarida tavsiflangan omillari orasida quyidagilar ajralib turadi:

- konfiguratsiya parametrlari (oila kattaligi, tug'ilish tartibi, bolalar tug'ilishi orasidagi intervallar);
- rivojlanishning ekologik sharoitlari xususiyatlari (oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, intellekti, ota-onalarning ta'limi, madaniy farqlar, shaxslararo munosabatlar);
- oila a'zolarining individual xususiyatlari (yoshi, bolalar va ota-onalarning jinsi) [11].

Mashhur rus psixologi N.N.Obozov oilaga yo'naltirilganlikni, birlikka intilish va oila ahilligini ko'p bolali oilaning asosiy belgilari sifatida belgilaydi. Muallifning so'zlariga ko'ra, oilaning kattalashishi bilan uning a'zolari

o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi, rollar tarkibi «bola-bola» tipidagi turli yoshdagi munosabatlar tufayli kengayadi [3].

Ko'p bolali oilalarda ajralishlar nisbatan kamroq qayd etiladi, biroq ushbu hodisa sodir bo'lgan taqdirda ham bu faqat erning iqtisodiy yoki axloqiy-psixologik qobiliyatsizligi tufayli yuzaga kelgan, deya qaraladi. E.V.Foteeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ko'p bolali bo'lish motivi tabiiy bo'lib, bunday tipdagi oilalar boshidanoq turmush o'rtoqlarning bir-biriga, oilaviy kelajagiga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadi, bu esa ularga ko'p farzandli bo'lishga imkon beradi. Oiladagi barcha bolalar oilaga majburiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'p bolali oila bolalar, kattalar va kichiklar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi turli xil munosabatlariga boy. Bu shaxsni shakllantirish va yosh avlodni ijtimoiy faoliyatda, jumladan, nikoh va ota-ona rollarida ishtirok etishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oilaning asosiy funksiyalarini (tarbiyaviy, maishiy, hissiy, ma'naviy, reproduktiv funksiyalar, jinsiy-erotik va boshqalar) amalga oshirish, uning xususiyatlarini oilaning yana bir muhim parametri - uning tuzilishiga bog'liq. Bu parametrga asoslanib, oilaning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish kerak: oilaning tarkibi, a'zolari soni va shunga qarab oilada rivojlanadigan munosabatlar [7]. Oila a'zolarining soniga, har bir oilada a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos tuzilmasi ajratiladi. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarga yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida shaxslarning qadriyatlar orientatsiyasi turadi. Olib borilgan tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilish parametrlariga ko'ra, ko'p va kam bolali oilalarning qadriyat yo'nalishlari solishtirilganda, ko'p bolali oilalarda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi (4%), odamlarga hurmat va yordam berish (8%), sezgirlik, jismoniy jozibadorlik, tashqi ko'rinish (4%), oiladagi iliq, g'amxo'r munosabatlarga, uning farovonligiga (60%), hayotdagi yuqori ijtimoiy mavqega (12%), ijodkorlik (4%), tashvishsiz hayot (8%) ustun qadriyatlar sifatida baholangan. Kam bolali oilalarda shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish (4%), oiladagi iliq, g'amxo'r munosabatlar, oila farovonligi (8%), yuqori ijtimoiy mavqe (52%), ijodkorlik (4%), betashvish hayot (32%) kabilar tanlangan [1].

Ko'p bolali oilalarda ota-onalarning quyidagi muhim qadriyatlarini aniqlangan: jinsiy hayotdagi garmoniya (8%), shaxslararo munosabatlar (4%), turmush o'rtoqni dam olish hamrohi sifatida ko'rish (12%), moddiy yordam (8%); samimiylik va ochiqlik (4%), oilaga bag'ishlash (60%), ma'qullash (4%). Kam bolali oilalarda ota-onalar quyidagi muhim qadriyatlarga ega: jinsiy hayotdagi garmoniya (20%); moddiy yordam (40%), oilaga sadoqat (12%), ro'zg'or ishlari (24%), tasdiqlash (4%).

Umumiy bo'lgan hayotiy qadriyatlar diagnostikasi shuni ko'rsatadiki, ko'p bolali oilalarda ota-onalar o'rtasida ustunlik qiladigan qadriyatlar: salomatlik (28%), oila - (56%), xizmat ko'rsatish (12%), dam olish (4%). Kam bolali oilalarda quyidagi ustuvor hayot qadriyatlarini aniqlangan: sog'liq (20%), moddiy ta'minot (44%), oila (12%), martaba (24%). Test va so'rov natijalarini matematik va statistik qayta ishlash oila uchun qadrlil bo'lgan ko'p bolali ota-onalar ulushining oilani hayotiy qadriyat sifatida qabul qiladigan kam bolali oilalardagi ota-onalar ulushidan ustunligini ko'rsatdi.

Ko'p bolali oilaning yashash shakli 5 yoki undan ortiq bolalar soni bilan belgilanadi. Ko'p bolali oila - o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan oilaning alohida turi. Ko'p bolali oila turmush o'rtoqlar o'rtasidagi katta hamjihatlik bilan ajralib turadi, bunday oilalarda ajralishlar juda kam uchraydi va asosan erkaklarning bolalarni tarbiyalashga qodir emasligi, boshqa oilaviy va uy-ro'zg'or vazifalarini bajara olmasligi sababli sodir bo'ladi. E.G.Eydemiller, V.V.Justitskis, G.I.Osadchey, A.I.Antonova, T.V.Andreeva, N.V.Aleksandrova, S.V.Kovaleva, A.N.Obozova,



V.M.Medkova, F.O.Semenova va boshqalarning fikriga ko'ra, ko'p bolali oila muammosi ko'p qirrali va ko'pincha noaniq baholarni aks ettiradi [11]. Ko'p bolali oilalarni ijobiy baholagan tadqiqotchilar ushbu hodisaning progressivligini, uning nafaqat aholining oddiy ko'payishi va mamlakatda tug'ilish darajasini barqarorlashtirish uchun muhimligini, balki bolalarni ijtimoiylashtirishdagi afzalliklari va ijobiy tomonlarini ham ta'kidlaydilar. Hamma tadqiqotchilar ham ko'p farzandli bo'lishning ijobiy tomonlarini oila mavjudligining bir shakli sifatida ko'rmaydilar. Aksincha, negativistik pozitsiya tarafdorlari ta'kidlashicha, ko'p bolali oilada hamma bolalarga ham to'g'ri e'tibor berilmaydi, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlangan va shunga ko'ra, bolalar rivojlanishda turli xil og'ishlarni keltirib chiqaradi [10].

Ko'p bolali oilalarda turmush o'rtoqlar o'rtasidagi ijobiy, barqaror munosabatlar, uzoq muddatli nikoh va oilaviy munosabatlardan qoniqish oiladagi farzandlar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Ma'lum bo'lishicha, hissiy va ma'naviy farovon oilalarda turmush o'rtoqlarning reproduktiv munosabatlari yuqoriroq bo'ladi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ko'p bolali ota-onalik, ya'ni, bolalarning tug'ilishini ongli ravishda rejalashtirish moddiy omil bilan emas, balki, birinchi navbatda, oilada hukmronlik qiladigan hissiy, ma'naviy komponent bilan belgilanadi. Ko'p bolali oilalarda o'zaro tushunish va o'zaro yordamga qaratilgan ko'plab shaxslararo munosabatlar va hissiy aloqalarga ega bo'lgan, katta yoshdagilarning rahbarligi ostida turli yoshdagi va jinsdagi bolalar guruhi mavjud. Bolalar uy yumushlarini o'z zimmlariga oladilar, kichik oilaviy muammolarni hal qiladilar va o'zlarining uy vazifalariga ega bo'lishadi.

Ko'p bolali oila maydoni o'ziga xos muhit bo'lib, bolaning ijtimoiylashuvi, shaxsiy fazilatlar va xususiyatlarini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiladi, bolaning jamiyatdagi mulqoti va o'zaro ta'sirining tabiatini belgilaydi. Ijtimoiylashtirish vektorini belgilovchi muhim omil - bu uning ijtimoiy mavqei, ko'p bolali oilaning moddiy, ma'naviy va axloqiy farovonligi, bu har bir oila a'zosining shaxsiyatining rivojlanishiga turli xil ta'sir ko'rsatadi [9].

Oilaning psixologik iqlimi muhim omil bo'lib, uni barcha oila tadqiqotchilari ilmiy va ijtimoiy hodisa sifatida ta'kidlaydilar. Psixologik iqlim dinamik hodisa bo'lib, uning yaratilishi va saqlanishi har bir oila a'zosining sa'y-harakatlari va mehnatiga bog'liq. Psixologiyada oilaviy psixologik

iqlimning uch turi mavjud: qulay, noqulay va qarama-qarshi. Sotsiologlar va psixologlarning uzoq muddatli kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, oilalarning muhim qismi qarama-qarshi psixologik iqlimga ega. I.V.Grebennikovning ta'kidlashicha, ko'p bolali oila uchun qulay iqlim quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: birdamlik, xavfsizlik hissi va hissiy qoniqish, o'zaro tushunish, o'z oilasiga mansubligidan faxrlanish. Shu bilan birga, o'z-o'zini tanqid qilish, oilaning boshqa a'zolariga nisbatan do'stona tanqid, o'zaro sabr-toqat va fikrlar turlicha bo'lganda to'g'rilik yaxshi rivojlangan bo'lishi [8].

**Xulosa va takliflar.** Ko'p bolali oila o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida turdagi oiladir. Oila va ota-ona bolaning birinchi ijtimoiy muhitini tashkil qiladi. Oila har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi va shaxsning shakllanishi uchun makondir. Oiladagi psixologik iqlim bolaning oilada paydo bo'lishining birinchi kunlaridanoq shakllana boshlagan va butun oila a'zolari bilan birga o'zgarib, butun umr davom etadigan bola-ota munosabatlariga bog'liqdir.

Ota-onaning oilaga munosabati oilaviy hayotning turli sohalariga bo'lgan munosabatlarning tuzilishini ifodalaydi. U shaxsning ushbu sohalaridagi obyektlarning ma'lum sinflariga bo'lgan munosabati, baholari va yo'nalishlari to'plamida namoyon bo'ladi. Oilaga munosabat obyektlari oila guruhi a'zolari, shaxsning o'zi - munosabatlarning subyekt, shuningdek, oilaviy hayotning muayyan sohalariga xos bo'lgan hodisalar va vaziyatlardir. Ko'p bolali ota-onalarning oilaga bo'lgan munosabatining kam bolalilarga nisbatan o'ziga xosligi birinchidan, ko'p bolali ota-onalar, jinsidan qat'i nazar, reproduktiv sohaning bir qator xususiyatlariga ega bo'lib, ular ko'p sonli bolalarga bo'lgan munosabatda, ularning sonidan qat'iy nazar, bolalarni to'liq ta'lim va tarbiyalash imkoniyatlarini baholashda namoyon bo'ladi. Ko'p bolali oilalardagi onalarda reproduktiv sohaga nisbatan munosabat yuqori bo'lib, noqulay turmush sharoitida farzand ko'rish imkoniyatini yuqori baholash va tug'ilishning diniy me'yorlariga yo'naltirish kabilarda namoyon bo'ladi. Ko'p bolali oilalardagi otalar uchun - ota-onaning tarbiyaviy, intim-jinsiy sohalar va ota-onalarning tashqi jozibadorligi bilan bog'liq holda ota-ona rolining muhimligini yuqori baholash, bolalarning jadal rivojlanishiga yo'naltirish munosabati ajralib turishi qiyosiy tadqiqotlar tahlili asosida ma'lum bo'ldi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сермягина О.С. Многодетная семья в современном мире [Текст] / О.С. Сермягина. - М.: Проспект, 2008. - 225 с.
2. Торохтий В.С. Психологическое здоровье семьи [Текст] / В.С. Торохтий. - СПб.: Каро, 2009. - 275 с.
3. Фотева Е.В. Межличностные отношения супругов и число детей в семье [Текст] / Е.В. Фотева // Семья и школа. - 2010, № 2. - С. 31-32.
4. Юдина И.Ф., Юдина Л.И. Социально-психологические основы семейной жизни [Текст] / И.Ф. Юнда. - М.: Речь, 2010. - 145 с.
5. Янкова З.А. Мужчина и женщина в семье [Текст] / З.А. Янкова. - М.: Астрель, 2012. - 180 с.
6. Эйдемиллер, Э.Г. Семейный диагноз и семейная психотерапия [Текст] / Э.Г. Эйдемиллер. - СПб.: Речь, 2013. - 274 с.
7. Андреева Т.В. Психология современной семьи. Монография. - СПб.: Речь, 2005. - 436 с.
8. Гребенникова И.В. Основы семейной жизни: Учеб. пособие для ст. - в педагогических институтов. -М.: Просвещение, 1991. - 158 с., С. 24-28
9. Марковская И.М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. СПб., 2002. - 243 с.
10. Семенова Ф.О., Семенова М.Д. Психологические особенности влияния семьи на формирование образа мира ребенка / Семенова Ф.О., Семенова М.Д. // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. 2015. № 11 (129). С. 282-285.
11. Семенова Ф.О., Боваева А.В. Категория детности в проблемном поле психологии семьи // Семья и личность: проблемы взаимодействия. 2019. № 13. С. 114-120.